5. Baholash usulining buxgalteriya hisobida qo'llanilish tartibini tushuntiring?
6. Kalkulyatsiya usuliga ta'rif bering?

7. Scho‘tlar tizimi va ikki yoqlama yozuv deganda nimani tushunasiz?
8. Balans va uning mohiyatini tushuntiring?
9. Hisobot deb nimaga aytiladi?
10. Buxgalteriya hisobi predmeti va metodi o‘rtasida qanday o‘zaro bog‘liqlik mavjud?

## TEST TOPSHIRIQLARI

**1. Buxgalteriya hisobining metodi deb nimaga aytiladi?**
A) Buxgalteriya hisobi predmetini o‘rganish uchun qo‘llaniladigan usul (element)larning ilmiy asoslangan tizimiga aytiladi
B) Xo‘jalik mablag‘lari va ularning tashkil topish manbalarining holati va harakatini o‘rganishga aytiladi
C) Xo‘jalik mablag‘lari va ular manbalarining tarkibi hamda tuzilishida sodir bo‘lib, tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan ayrim o‘zgarishlarga aytiladi
D) Korxona mablag‘lari, ularning tashkil topish manbalari va xo‘jalik jarayonlarini guruhlash, joriy tartibda aks ettirish va nazorat qilish usulidir

**2. Buxgalteriya hisobi metodining konkret elementi nechta?**
A) 7 ta
B) 4 ta
C) 6 ta
D) 8 ta

**3. Buxgalteriya hisobi metodining elementlarini ko‘rsating.**
A) Hujjatlashtirish va inventarizatsiya, scho‘tlar va ikki yoqlama yozuv, baholash va kalkulyatsiya, balans va hisobot
B) Balans, ikkiyoqlama yozuv, hisobot
C) Balans, scho‘tlar, inventarizatsiya, hujjatlashtirish
D) Balans, scho‘tlar va ikkiyoqlama yozuv, baholash va kalkulyatsiya, hisobot

**4. Hujjatlashtirish deganda nimani tushunasiz?**
A) Bu sodir bo‘lgan muomalani dastlabki ro‘yxatga olish usulidir
B) Bu korxona mablag‘lari, ularning tashkil topish manbalari va xo‘jalik jarayonlarini guruhlash, joriy tartibda aks ettirish va nazorat qilish usulidir
C) Bu xo‘jalik muomalasini buxgalteriya scho‘tlarida aks ettirish usulidir
D) Bu hujjatlarda ko‘rsatilgan xo‘jalik muomalalarini pulda ifodalash usulidir

**5. Baholash deb nimaga aytiladi?**
A) Bu sodir bo‘lgan muomalani dastlabki ro‘yxatga olish usulidir
B) Bu hujjatlarda ko‘rsatilgan xo‘jalik muomalalarini pulda ifodalash usulidir
C) Bu xo‘jalik muomalasini buxgalteriya scho‘tlarida aks ettirish usulidir
D) Bu korxona mablag‘lari, ularning tashkil topish manbalari va xo‘jalik jarayonlarini guruhlash, joriy tartibda aks ettirish va nazorat qilish usulidir

**6. Buxgalteriya hisobi scho‘tlari deganda nimani tushunasiz?**
A) Bu korxona mablag‘lari, ularning tashkil topish manbalari va xo‘jalik jarayonlarini guruhlash, joriy tartibda aks ettirish va nazorat qilish usulidir
B) Bu sodir bo‘lgan muomalani dastlabki ro‘yxatga olish usulidir
C) Bu xo‘jalik muomalasini buxgalteriya scho‘tlarida aks ettirish usulidir
D) Bu hujjatlarda ko‘rsatilgan xo‘jalik muomalalarini pulda ifodalash usulidir

**7. Kalkulyatsiyaga berilgan to‘g‘ri ta’rifni ko‘rsating?**
A) Bu korxona mablag‘lari, ularning tashkil topish manbalari va xo‘jalik jarayonlarini guruhlash, joriy tartibda aks ettirish va nazorat qilish usulidir
B) Ma’lum davr uchun xo‘jalik faoliyatini aks ettiruvchi umumlashtirilgan va o‘zaro aloqadorlikni ta’minlaydigan ko‘rsatkichlarni aks ettiruvchi shakllar yig‘indisiga aytiladi
C) Tayyorlangan materiallar, ishlab chiqarilgan mahsulotlar, bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatning tannarxini aniqlashga aytiladi
D) Bu xo‘jalik muomalasini buxgalteriya scho‘tlarida aks ettirish usulidir

**8. Hisobot deb nimaga aytiladi?**

A) Bu xo'jalik muomalasini buxgalteriya scho'tlarida aks ettirish usulidir

B) Bu korxona mablag'lari, ularning tashkil topish manbalari va xo'jalik jarayonlarini guruhlash, joriy tartibda aks ettirish va nazorat qilish usulidir

C) Ma'lum davr uchun xo'jalik faoliyatini aks ettiruvchi umumlashtirilgan va o'zaro aloqadorlikni ta'minlaydigan ko'rsatkichlarni aks ettiruvchi shakllar yig'indisiga aytiladi

D) Tayyorlangan materiallar, ishlab chiqarilgan mahsulotlar, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatning tannarxini aniqlashga aytiladi

## AMALIY MASHQLAR

**1. Buxgalteriya hisobi metodining ta'rifi va uni tashkil etuvchi asosiy usullari (elementlari)**

**Buxgalteriya hisobining metodi deb**

| Buxgalteriya hisobi metodining usullari | Izoh |
|---|---|
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |

**Talab qilinadi.** Yuqorida berilgan shaklga buxgalteriya hisobi metodini ta'riflang va uni tashkil etuvchi asosiy usullari (elementlari)ni yozing va izohlab bering.

**2. Buxgalteriya hisobi predmeti va metodining o‘zaro bog‘liqligi**




**Talab qilinadi:** Yuqorida berilgan shaklga buxgalteriya hisobi predmeti va metodini yozing va ularning o‘zaro bog‘liqligini tushuntirib bering.

**3. Xo‘jalik mablag‘lari va ularning manbalarini guruhlash**

3.1. Quyida berilgan xo‘jalik mablag‘lari va ularning manbalarini guruhlang:

| | |
|---|---|
| Transport vositalari | Ishchi va mahsuldor hayvonlar |
| Mashina va asbob-uskunalar | Ko‘p yillik o‘simliklar |
| Savdo markalari | Sanoat namunalari |
| Qimmatli qog‘ozlar | O‘rnatiladigan asbob-uskunalar |
| Tugallanmagan qurilish | Kapital qo‘yilmalar |
| Xodimlarning uzoq muddatli qarzlari | Ehtiyot qismlar |
| Idish va idishbop materiallar | Inventar va xo‘jalik jihozlari |
| O‘stiruvdagi hayvonlar | Asosiy ishlab chiqarish |
| Tugallanmagan ishlab chiqarish | Umumishlab chiqarish xarajatlari |
| Ombordagi tayyor mahsulot | Ombordagi tovarlar |
| Oldindan to‘langan xizmat haqi | Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan scho‘tlar |
| Mehnat haqi bo‘yicha berilgan bo‘naklar | Maqsadli davlat jamg‘armalariga bo‘nak to‘lovlari |
| Kreditga sotilgan tovarlar bo‘yicha xodimlarning qarzi | Moddiy zararni qoplash bo‘yicha xodimlarning qarzi |
| Olinadigan foizlar | Olinadigan dividendlar |
| Milliy valyutadagi pul mablag‘lari | Hisob-kitob scho‘ti |
| Bankdagi maxsus scho‘tdagi pul mablag‘lari | Yo‘ldagi pul mablag‘lari |
| Budjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz | Sug‘urta bo‘yicha to‘lovlar |
| To‘lanadigan dividendlar | Mehnat haqi bo‘yicha xodimlar bilan hisoblashuvlar |

| | |
|---|---|
| Ustav kapitali | Qo'shilgan kapital |
| Taqsimlanmagan foyda | Rezerv kapitali |
| Maqsadli tushumlar | Grantlar |
| Debitor qarzlar | Olingan bo'naklar |
| Valyuta scho'ti | Hisoblangan foizlar |
| Qisqa muddatli qarzlar | Mol yetkazib beruvchilardan qarzdorlik |
| Xodimlarga mehnat haqi ko'rinishida berilgan bo'naklar | Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar |

**Talab qilinadi.** Guruhlash natijalarini quyidagi jadvalda aks ettiring va sharhlang.

| Mablag'larning tarkibi | | Mablag'lar manbalari | |
|---|---|---|---|
| Uzoq muddatli | Joriy | O'z mablag'lari | Majburiyatlar |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |

3.2. Berilgan xo'jalik mablag'lari va ularning manbalarini guruhlang:

| | |
|---|---|
| Taqsimlanmagan foyda | Tekinga olingan mol-mulk |
| Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan scho'tlar | Umumxo'jalik xarajatlari uchun berilgan bo'naklar |
| Qimmatli qog'ozlar | Pul ekvivalentlari |
| Patent | Berilgan qisqa muddatli qarzlar |
| Ko'rgazmadagi tayyor mahsulotlar | Yo'ldagi tovarlar |
| Emission daromad | Pay va ulushlar |
| Mebel va ofis jihozlari | Oldindan to'langan operativ ijara haqi |
| Chet el valyutasidagi pul mablag'lari | Da'volar bo'yicha olinadigan scho'tlar |
| Deponentlangan ish haqi | Bino |
| Qurilish materiallari | Yordamchi ishlab chiqarish |
| Uzoq muddatli bank kreditlari | Qisqa muddatli qarzlar |
| Yoqilg'i | Boquvdagi hayvonlar |
| Berilgan qarzlar bo'yicha xodimlarning qarzi | Sug'urtalar bo'yicha bo'nak to'lovlari |
| Gazlama | Ishchi hayvonlar |
| Hisoblangan foizlar | To'lanadigan operativ ijara |
| Kantselyariya mollari | Tugallanmagan qurilish |
| Xizmat safarlariga berilgan bo'naklar | Maxsus keyim-kechaklar |
| Kassadagi naqd pul mablag'lari | Tayyor mahsulot |
| Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo'naklar | Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar |

**Talab qilinadi:** Guruhlash natijalarini quyidagi jadvalda aks ettiring va sharhlang.

| Mablag'larning tarkibi | | Mablag'lar manbalari | |
|---|---|---|---|
| Uzoq muddatli | Joriy | O'z mablag'lari | Majburiyatlar |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |

3.3. Quyidagi berilgan xo‘jalik mablag‘lari va ularning manbalarini guruhlang:

| | |
|---|---|
| Nomoddiy aktivlar | Rezerv kapitali |
| Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan scho‘tlar | Asosiy vositalar |
| Qimmatli qog‘ozlar | Pul ekvivalentlari |
| Tovar belgilari | Berilgan qisqa muddatli qarzlar |
| Tayyor mahsulot | Tovarlar |
| Qo‘shilgan kapital | Ustav kapitali |
| Mahsuldor hayvonlar | Operativ ijara haqi |
| Pul mablag‘lari | Inshoat |
| Mehnat haqi bo‘yicha xodimlar bilan hisoblashuvlar | Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan scho‘tlar |
| Materiallar | Asosiy ishlab chiqarish |
| Qisqa muddatli bank kreditlari | Qisqa muddatli qarzlar |
| Idishlar | O‘stiruvdagi hayvonlar |
| Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga berilgan bo‘naklar | Maqsadli davlat jamg‘armalariga bo‘nak to‘lovlari |
| Xom ashyo | Ishchi hayvonlar |
| Olinadigan foizlar | Taqsimlanmagan foyda |
| Ehtiyot qismlar | Tugallanmagan qurilish |
| Xizmat safarlariga berilgan bo‘naklar | Yuk avtomobillari |
| Kassadagi naqd pul mablag‘lari | Xodimlarning boshqa qarzlari |
| Maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar | Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar |
| Tekinga olingan mulk | Emissiya daromadi |
| Ustav kapitalini shakllantirishdagi kurs farqi | Yo‘ldagi pul mablag‘ (o‘tkazma)lari |
| Akkreditivlar | Mamlakat ichidagi valuta schotlari |
| Da’volar bo‘yicha olinadigan schotlar | Moliyaviy ijara bo‘yicha olinadigan to‘lovlar - joriy qism |
| Moddiy zararni qoplash bo‘yicha xodimlarning qarzi | Sug‘urtalar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari |
| Chet el valutasidagi pul mablag‘lari | Ajratilgan bo‘linmalarga to‘lanadigan schotlar |
| Umumxo‘jalik xarajatlari uchun berilgan bo‘naklar | Oldindan to‘langan xizmat haqi |
| Boshqa kelgusi davr xarajatlari | Yo‘ldagi tovarlar |
| Idish va idishbob materiallar | Umumishlabchiqarish xarajatlari |
| Tugallanmagan qurilish | Yoqilg‘ilar |
| Chakana savdodagi tovarlar | tovar belgilari |
| Da’volar bo‘yicha to‘lanadigan schotlar | Sug‘urta bo‘yicha to‘lovlar |
| Savdo markalari | sanoat namunalari |
| Mebel va ofis jihozlari | Mashina va asbob-uskunalar |

**Talab qilinadi:** Guruhlash natijalarini quyidagi jadvalda aks ettiring va sharhlang.

| Mablag‘larning tarkibi | | Mablag‘lar manbalari | |
|---|---|---|---|
| Uzoq muddatli | Joriy | O‘z mablag‘lari | Majburiyatlar |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |

# 4-MAVZU. BUXGALTERIYA BALANSI
# (6 soat)

## 4.1. Buxgalteriya balansini ta'riflash va tuzish
## (2 soat)

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Buxgalteriya balansi nima va uning mohiyati qanday?
2. Buxgalteriya balansi tuzilishini ta'riflang?
3. Balans aktiviga qanday bo'limlar kiradi?
4. Balans passivi qanday bo'limlardan iborat?
5. Balans aktivi va passivi nimani bidiradi?
6. Balans formulasi va uning mazmunini tushuntirib bering?
7. Balans moddasi deb nimaga aytiladi?
8. Balansning qanday turlari mavjud va ularni qisqacha tavsiflang?
9. Balans nima maqsadda va qanday tuziladi?
10. Balans qism va bo'limlarining mazmunini ochib bering?

### TEST TOPSHIRIQLARI

**1. Balans deb nimaga aytiladi?**

A) Xo'jalik mablag'lari va ular manbalarining holatini ma'lum bir muddatga pul ifodasida umumlashtirish va guruhlash usuli
B) Xo'jalik mablag'larining tashkil topish manbalarini holatini ma'lum bir muddatga aks ettirishga
C) Xo'jalik mablag'larining holatini ma'lum bir muddatga pul ifodasida aks ettirishga
D) Uzoq muddatli va joriy aktivlarning holatini ma'lum bir muddatga aks ettirish

**2. Asosiy vositalarning ekirishi balansning qaysi tomonida aks ettiriladi?**

A) Passiv tomonida
B) Aktiv tomonida
C) Aktiv tomonining joriy aktivlar qismida
D) Passiv tomonining majburiyatlar qismida

**3. Balans aktivida qanday bo'limlar bor?**

A) Uzoq muddatli aktivlar va majburiyatlar
B) Uzoq muddatli aktivlar va joriy aktivlari
C) O'z mablag'lari manbalari va majburiyatlar
D) Joriy aktivlar va majburiyatlar

**4. Balans passividagi bo'limlarni aniqlang?**

A) Uzoq muddatli aktivlar va joriy aktivlari
B) Joriy aktivlar va majburiyatlar
C) Uzoq muddatli aktivlar va majburiyatlar
D) O'z mablag'lari manbalari, majburiyatlar

**5. Balansning tomonlarini aniqlang?**

A) Passiv, kontr-passiv
B) Aktiv, kontr-aktiv
C) Aktiv, passiv
D) Debet, kredit

**6. Pul mablag'lari balansning qaysi tomonida va bo'limida hisobga olinadi?**

A) Aktiv, uzoq muddatli
B) Passiv, uzoq muddatli
C) Aktiv, joriy aktivlar
D) Passiv, o'z mablag'lari manbalari

**7. Ustav kapitali balansning qaysi tomoni va bo'limida aks ettiriladi?**

A) Passiv, o'z mablag'larining manbalari

B) Aktiv, majburiyatlar
C) Passiv, majburiyatlar
D) Aktiv, uzoq muddatli aktivlar

**8. Ishlab chiqarish zahiralari balansning qaysi tomoni va bo'limida aks ettiriladi?**
A) Passiv, o'z mablag'larining manbalari
B) Aktiv, uzoq muddatli aktivlar
C) Aktiv, joriy aktivlar
D) Aktiv, majburiyatlar

**9. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar balansning qaysi tomoni va bo'limida aks ettiriladi?**
A) Passiv, majburiyatlar
B) Aktiv, joriy aktivlar
C) Aktiv, uzoq muddatli aktivlar
D) Passiv, o'z mablag'lari manbalari

**10. Bank kreditlari hamda qarzlar balansning qaysi tomoni va bo'limida aks ettiriladi?**
A) Passiv, majburiyatlar
B) Passiv, joriy aktivlar
C) Aktiv, joriy aktivlar
D) Passiv, o'z mablag'larining manbalari

## AMALIY MASHQLAR

**1. Buxgalteriya balansi ta'rifi va tuzilishi**

| | |
|---|---|
| **Buxgalteriya balansi** | |
| **Buxgalteriya balansining tuzulishi** | |

**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga buxgalteriya balansi ta'rifini yozing va tuzilishini izohlab bering.

**2. Buxgalteriya balansi tuzulmasi**




**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga buxgalteriya balansi tuzulmasini yozing va tavsiflab bering.

**3. Buxgalteriya balansi aktiv va passiv bo'limlarining o'zaro aloqadorligi**

**BUXGALTERIYA BALANSI**

| Aktiv | Hisobot davri boshiga | Hisobot davri oxiriga | Passiv | Hisobot davri boshiga | Hisobot davri oxiriga |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | 3 | 4 | 5 | 7 | 8 |
| **1. Uzoq muddatli aktivlar** | | | **I. O'z mablag'lari manbalari** | | |
| I bo'lim bo'yicha jami | | | I bo'lim bo'yicha jami | | |
| **II. Joriy aktivlar** | | | **II. Majburiyatlar** | | |
| II bo'lim bo'yicha jami | | | II bo'lim bo'yicha jami | | |
| **BALANS** | | | **BALANS** | | |

**Talab qilinadi.** Yuqoridagi berilgan balans shakli bo'yicha buxgalteriya balansi aktiv va passividagi bo'limlarning o'zaro aloqadorligini tushuntiring.

## 4. Axborotlarni balans shaklida umumlashtirish

4.1. Quyidagi «Sharq» xususiy korxonasining ma'lumotlarini balans shaklida umumlashtiring:

«Sharq» xususiy korxonasining ma'lumotlari
(01.01.20... holatiga)

| № | Scho'tlarning nomi | Saldo, ming so'm | Balansda | |
|---|---|---|---|---|
| | | | aktiv | passiv |
| 1 | Asosiy vositalar | 38000 | | |
| 2 | Asosiy vositalarning eskirishi | 9600 | | |
| 3 | Ishlab chiqarish zaxiralari | 2600 | | |
| 4 | Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik | 1500 | | |
| 5 | Xaridorlardan olinadigan scho'tlar | 3800 | | |
| 6 | Mehnatga haqi bo'yicha qarzdorlik | 1200 | | |
| 7 | Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga berilgan bo'naklar | 1800 | | |
| 8 | Taqsimlanmagan foyda | 16000 | | |
| 9 | Hisob-kitob scho'ti | 7400 | | |
| 10 | Mol etkazib beruvchilarga qarzdorlik | 2900 | | |
| 11 | Olingan bo'naklar | 2400 | | |
| 12 | Tayyor mahsulot | 500 | | |
| 13 | Davlatning maqsadli fondlariga to'lovlar | 700 | | |
| 14 | Xodimlarga berilgan bo'naklar | 500 | | |
| 15 | Boshqa debitorlik qarzlari | 350 | | |
| 16 | Maqsadli davlat jamgarmalari va sug'urtalar bo'yicha bo'nak to'lovlari | 380 | | |
| 17 | Ustav kapitali | 8700 | | |
| 18 | Qisqa muddatli bank kreditlari | 12000 | | |
| 19 | Boshqa kreditorlik qarzlari | 330 | | |
| | **Balans** | X | | |

**Talab qilinadi:**

1. Yuqorida keltirilgan scho'tlarni aktiv va passiv scho'tlarga ajrating.
2. Aktiv scho'tlarni uzoq muddatli va joriy aktivlarga, passiv scho'tlarni o'z mablag'lari manbalari va majburiyatlarga ajrating.
3. Quyida keltirilgan shaklda hisobot davri boshiga boshlang'ich balans tuzing.

«Sharq» xususiy korxonasi buxgalteriya balansi
(01.01.20... y. holatiga)

| Aktiv | Hisobot davri boshiga | Passiv | Hisobot davri boshiga |
|---|---|---|---|
| 1. Uzoq muddatli aktivlar | | I. O'z mablag'lari manbalari | |
| I bo'lim bo'yicha jami | | I bo'lim bo'yicha jami | |
| II. Joriy aktivlar | | II. Majburiyatlar. | |
| II bo'lim bo'yicha jami | | II bo'lim bo'yicha jami | |
| **BALANS** | | **BALANS** | |

4.2. Quyidagi «MALIKA» xususiy korxonasining ma'lumotlarini balans shaklida umumlashtiring:

«MALIKA» xususiy korxonasining ma'lumotlari
(01.01.20...y. holatiga)

| № | Scho'tlarning nomi | Saldo, ming so'm | Balansda | |
|---|---|---|---|---|
| | | | aktiv | passiv |
| 1 | Asosiy vositalar | 49000 | | |
| 2 | Asosiy vositalarning eskirishi | 16000 | | |
| 3 | Hisoblangan foizlar | 900 | | |
| 4 | Idish va idishbop materillar | 702 | | |
| 5 | Xaridorlardan olingan bo'naklar | 4900 | | |
| 6 | Xaridorlardan olinadigan scho'tlar | 1400 | | |
| 7 | Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik | 600 | | |
| 8 | Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga berilgan bo'naklar | 1800 | | |
| 9 | Maqsadli davlat jamgarmalari bo'yicha bo'nak to'lovlari | 350 | | |
| 10 | Ustav kapitali | 33872 | | |
| 11 | Mol etkazib beruvchilarga qarzdorlik | 2600 | | |
| 12 | Tayyor mahsulot | 5800 | | |
| 13 | Xodimlarga berilgan bo'naklar | 600 | | |
| 14 | Davlatning maqsadli fondlariga to'lovlar | 800 | | |
| 15 | Mehnatga haqi bo'yicha qarzdorlik | 1300 | | |
| 16 | Olinadigan foizlar | 900 | | |
| 17 | Taqsimlanmagan foyda | 14700 | | |
| 18 | Qo'shilgan kapital | 5300 | | |
| 19 | Hisob-kitob scho'ti | 19700 | | |
| 20 | Hisobdor shaxslarga bo'lgan qarzdorlik | 280 | | |
| 21 | Materiallar | 1000 | | |
| **Balans** | | X | | |

**Talab qilinadi:**

1. Yuqorida keltirilgan scho'tlarni aktiv va passiv scho'tlarga ajrating.
2. Aktiv scho'tlarni uzoq muddatli va joriy aktivlarga, passiv scho'tlarni o'z mablag'lari manbalari va majburiyatlarga ajrating.
3. Hisobot davri boshiga boshlang'ich balans tuzing.

4.3. Quyidagi «JASMIN-SERVIS» mas'uliyati cheklangan jamiyat (MChJ)ning ma'lumotlarini balans shaklida umumlashtiring:

«JASMIN-SERVIS» MChJning ma'lumotlari
(01.01.20...y. holatiga)

| № | Scho'tlarning nomi | Saldo, ming so'm | Balansda | |
|---|---|---|---|---|
| | | | aktiv | passiv |
| 1 | Asosiy vositalar | 88154 | | |
| 2 | Asosiy vositalarning eskirishi | 39669 | | |
| 3 | Materiallar | 20665 | | |
| 4 | Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik | 11552 | | |
| 5 | Xaridorlardan olinadigan scho'tlar | 13857 | | |
| 6 | Mehnatga haqi bo'yicha qarzdorlik | 4283 | | |
| 7 | Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga berilgan bo'naklar | 7158 | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 8 | Taqsimlanmagan foyda | 38746 | | |
| 9 | Hisob-kitob scho'ti | 24729 | | |
| 10 | Mol yetkazib beruvchilarga qarzdorlik | 2935 | | |
| 11 | Olingan bo'naklar | 4428 | | |
| 12 | Tayyor mahsulot | 5525 | | |
| 13 | Davlatning maqsadli fondlariga to'lovlar | 3767 | | |
| 14 | Xodimlarga berilgan bo'naklar | 758 | | |
| 15 | Boshqa debitorlik qarzlari | 2356 | | |
| 16 | Maqsadli davlat jamgarmalari va sug'urtalar bo'yicha bo'nak to'lovlari | 1385 | | |
| 17 | Ustav kapitali | 18720 | | |
| 18 | Uzoq muddatli bank kreditlari | 40182 | | |
| 19 | Boshqa kreditorlik qarzlari | 305 | | |
| **Balans** | | | | |

**Talab qilinadi:**

1. Yuqorida keltirilgan scho'tlarni aktiv va passiv scho'tlarga ajrating.
2. Aktiv scho'tlarni uzoq muddatli va joriy aktivlarga, passiv scho'tlarni o'z mablag'lari manbalari va majburiyatlarga ajrating.
3. Hisobot davri boshiga boshlang'ich balans tuzing.
4. Quyidagi «SAMO» mas'uliyati cheklangan jamiyat (MChJ)ning ma'lumotlarini balans shaklida umumlashtiring:

«SAMO» MChJning ma'lumotlari
(01.01.20...y. holatiga)

| № | Scho'tlarning nomi | Saldo, ming so'm | Balansda | |
|---|---|---|---|---|
| | | | aktiv | passiv |
| 1 | Asosiy vositalar | 101991 | | |
| 2 | Asosiy vositalarning eskirishi | 80899 | | |
| 3 | Hisoblangan foizlar | 905 | | |
| 4 | Xaridorlardan olingan bo'naklar | 4945 | | |
| 5 | Xaridorlardan olinadigan scho'tlar | 11401 | | |
| 6 | Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik | 4614 | | |
| 7 | Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga berilgan bo'naklar | 6891 | | |
| 8 | Maqsadli davlat jamgarmalari bo'yicha bo'nak to'lovlari | 1835 | | |
| 9 | Ustav kapitali | 18720 | | |
| 10 | Mol etkazib beruvchilarga qarzdorlik | 4657 | | |
| 11 | Tayyor mahsulot | 8923 | | |
| 12 | Xodimlarga berilgan bo'naklar | 620 | | |
| 13 | Davlatning maqsadli fondlariga to'lovlar | 3890 | | |
| 14 | Mehnatga haqi bo'yicha qarzdorlik | 13395 | | |
| 15 | Olinadigan foizlar | 3900 | | |
| 16 | Taqsimlanmagan foyda | 27677 | | |
| 17 | Hisob-kitob scho'ti | 53924 | | |
| 18 | Uzoq muddatli bank kreditlari | 40144 | | |
| 19 | Materiallar | 10361 | | |
| | **Balans** | | | |

**Talab qilinadi:**

1. Yuqorida keltirilgan scho'tlarni aktiv va passiv scho'tlarga ajrating.

2. Aktiv scho'tlarni uzoq muddatli va joriy aktivlarga, passiv scho'tlarni o'z mablag'lari manbalari va majburiyatlarga ajrating.
3. Hisobot davri boshiga boshlang'ich balans tuzing.

4.5. Quyidagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ma'lumotlarini balans shaklida umumlashtiring va hisobot davri boshiga balans tuzing:

1. "ARZANDA" xususiy korxonasida hisobot davri boshiga quyidagi xo'jalik mablag'lari va mablag'lar manbalari mavjud: Asosiy vositalar – 60 400 000 so'm, Olingan bo'naklar – 5 000 000 so'm, Ustav kapitali – 34 775 000 so'm, Taqsimlanmagan foyda – 4 800 000 so'm, Materiallar – 8 200 000 so'm, Budjetga soliqlar bo'yicha qarzlar – 880 000 so'm, Davlatning maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz – 800 000 so'm, Xaridor va buyurtmachilarning qarzi – 8 000 000 so'm, Asosiy vositalarga hisoblangan eskirish – 34 200 000 so'm, Qisqa muddatli bank krediti – 50 000 000 so'm, Mehnat haqi bo'yicha qarz – 7 000 000 so'm, Hisob-kitob scho'ti – 67 355 000 so'm, Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilardan qarzdorlik – 6 500 000 so'm.

2. "FAYZ" xususiy korxonasida hisobot davri boshiga quyidagi xo'jalik mablag'lari va mablag'lar manbalari mavjud: Asosiy vositalar – 80 200 000 so'm, Ustav kapitali – 64 700 000 so'm, Taqsimlanmagan foyda – 8 200 000 so'm, Xaridor va buyurtmachilarning qarzi – 10 000 000 so'm, Asosiy vositalarga hisoblangan eskirish – 24 200 000 so'm, Olingan bo'naklar – 1 000 000 so'm, Materiallar – 7 200 000 so'm, Budjetga soliqlar bo'yicha qarzlar – 580 000 so'm, Davlatning maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz – 200 000 so'm, Qisqa muddatli bank krediti – 50 000 000 so'm, Mehnat haqi bo'yicha qarz – 10 000 000 so'm, Hisob-kitob scho'ti – 67 000 000 so'm, Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilardan qarzdorlik – 5 520 000 so'm.

3. "ISTIQLOL NE'MATI" mas'uliyati cheklangan jamiyatda hisobot davri boshiga quyidagi xo'jalik mablag'lari va mablag'lar manbalari mavjud: Asosiy vositalar – 88 154 000 so'm, Ustav kapitali – 35 850 000 so'm, Xaridorlardan olinadigan scho'tlar -13 857 000 so'm, Taqsimlanmagan foyda – 8 746 000 so'm, Materiallar – 20 665 000 so'm, Budjetga soliqlar bo'yicha qarzlar – 11 552 000 so'm, Boshqa debitorlik qarzlari – 2 356 000 so'm, Davlatning maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz – 3 767 000 so'm, Xo'jalik jihozlari va inventarlari – 1 000 000 so'm, Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilardan qarzdorlik – 1 500 000 so'm, Asosiy vositalarga hisoblangan eskirish – 39 669 000 so'm, Uzoq muddatli bank krediti – 100 000 000 so'm, Kassadagi pul mablag'lari – 1 000 so'm, Mehnat haqi bo'yicha qarz – 4 283 000 so'm, Hisob-kitob scho'ti – 79 334 000 so'm.

4. "TANHO+" mas'uliyati cheklangan jamiyatda hisobot davri boshiga quyidagi xo'jalik mablag'lari va mablag'lar manbalari mavjud: Asosiy vositalar – 88 154 000 so'm, Ustav kapitali – 45 850 000 so'm, Xaridorlardan olinadigan scho'tlar -3 857 000 so'm, Taqsimlanmagan foyda – 18 746 000 so'm, Materiallar – 9 665 000 so'm, Budjetga soliqlar bo'yicha qarzlar – 8 552 000 so'm, Boshqa kreditorlik qarzlari – 2 356 000 so'm, Davlatning maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz – 3 767 000 so'm, Idishlar – 1 000 000 so'm, Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilardan qarzdorlik – 3 500 000 so'm, Asosiy vositalarga hisoblangan eskirish – 29 669 000 so'm, Qisqa muddatli bank krediti – 60 000 000 so'm, Kassadagi pul mablag'lari – 1 000 so'm, Mehnat haqi bo'yicha qarz – 4 800 000 so'm, Hisob-kitob scho'ti – 74 563 000 so'm.

5. "MASH'AL" mas'uliyati cheklangan jamiyatda hisobot davri boshiga quyidagi xo'jalik mablag'lari va mablag'lar manbalari mavjud: Asosiy vositalar – 98 540 000 so'm, Ustav kapitali – 50 800 000 so'm, Xaridorlardan olinadigan scho'tlar – 30 515 000 so'm, Taqsimlanmagan foyda – 2 700 000 so'm, Materiallar – 20 665 000 so'm, Budjetga soliqlar bo'yicha qarzlar – 1 550 000 so'm, Boshqa debitorlik qarzlari – 1 560 000 so'm, Davlatning maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz – 1 750 000 so'm, Xo'jalik jihozlari va inventarlari – 500 000 so'm, Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilardan qarzdorlik – 10 500 000 so'm, Asosiy vositalarga hisoblangan

eskirish – 50 600 000 so‘m, Uzoq muddatli bank krediti – 200 000 000 so‘m, Kassadagi pul mablag‘lari – 100 000 so‘m, Mehnat haqi bo‘yicha qarz – 4 200 000 so‘m, Hisob-kitob scho‘ti – 170 400 000 so‘m.

**Talab qilinadi:**
1. Yuqorida keltirilgan ko‘rsatkichlarni xo‘jalik mablag‘lari va mablag‘lar manbalariga ajrating.
2. Xo‘jalik mablag‘larini uzoq muddatli va joriy mablag‘larga, mablag‘lar manbalarini esa o‘z mablag‘lari manbalari va majburiyatlarga ajrating.
3. Hisobot davri boshiga boshlang‘ich balans tuzing.

## 4.2. Xo‘jalik operatsiyalarining buxgalteriya balansiga ta’siri va balans axborot manbai ekanligi (4 soat)

### Xo‘jalik operatsiyalarining buxgalteriya balansiga ta’siri (2 soat)

### NAZORAT SAVOLLARI
1. Xo‘jalik operatsiyalarining ta’sirida balansda qanday o‘zgarishlar ro‘y beradi?
2. Balansda ro‘y beradigan o‘zgarishlarning mazmunini tavsiflang?
3. Birinchi tip o‘zgarish qanday xo‘jalik operatsiyalari natijasida ro‘y beradi?
4. Ikkinchi tip o‘zgarish qanday xo‘jalik operatsiyalari natijasida yuzaga keladi?
5. Uchinchi tip o‘zgarish qanday xo‘jalik operatsiyalari natijasida ro‘y beradi?
6. To‘rtinchi tip o‘zgarish natijasida balansda qanday o‘zagarish kuzatiladi?
7. Xo‘jalik operatsiyalarining balans tuzulishi va valyutasiga ta’sirini tushuntiring?

### TEST TOPSHIRIQLARI
**1. Dastlabki balansni tuzishning maqsadi:**
A) Korxonani ro‘yxatga olish sanasiga aktivlar va manbalarni tasdiqlash
B) Tugatilgan korxonaning mulklarini tasdiqlash
C) Hisobot davri boshiga korxona mulklarini tasdiqlash
D) Korxona faoliyatini rejalashtirish

**2. Xo‘jalik operatsiyalari ta’sirida balansda ro‘y beradigan o‘zgarishlar necha tipga bo‘linadi?**
A) 10 ta
B) 8 ta
C) 4 ta
D) 3 ta

**3. «Berilgan avans xodimning ish haqisidan ushlandi» mazmunidagi operatsiya qaysi tipdagi balans o‘zgarishiga tegishli?**
A) To‘rtinchi
B) Birinchi
C) Ikkinchi
D) Uchinchi

**4. «Korxona xodimiga kassadan ish haqi to‘landi» xo‘jalik muomalasi balansda ro‘y beradigan o‘zgarishlarning qaysi tipiga mansub?**
A) Birinchi
B) Ikkinchi
C) Uchinchi
D) To‘rtinchi

**5. Balansda ro‘y beradigan o‘zgarishlarning qaysi tipi ushbu matematik model bilan ifodalanadi: $\Sigma A+a-a=\Sigma P$**

A) Birinchi
B) Ikkinchi
C) Uchinchi
D) To'rtinchi

**6. Ikkinchi tip balans o'zgarishlari qaysi matematik model bilan ifodalanadi?**

A) ΣA+a=ΣP+p
B) ΣA + a – a = ΣP
C) ΣA=ΣP+p-p
D) ΣA-a=ΣP-p

**7. Uchinchi tip balans o'zgarishlari qaysi matematik model bilan ifodalanadi?**

A) ΣA-a=ΣP-p
B) ΣA + a – a = ΣP
C) ΣA= ΣP+p-p
D) ΣA+a=ΣP+p

**8. To'rtinchi tip balans o'zgarishlari qaysi matematik model bilan ifodalanadi?**

A) ΣA + a – a = ΣP
B) ΣA-a=ΣP-p
C) ΣA=ΣP+p-p
D) ΣA+a=ΣP+p

## AMALIY MASHQLAR

**1. Xo'jalik operatsiyalarining buxgalteriya balansiga ta'siri**

| Xo'jalik mablag'lari | | Xo'jalik mablag'larining manbalari | |
|---|---|---|---|
| Aktiv | | Passiv | |
| Ko'payishi | Kamayishi | Ko'payishi | Kamayishi |
| | | | |

**Talab qilinadi.** Yuqorida berilgan shaklga xo'jalik operatsiyalarining buxgalteriya balansiga ta'sirini tavsiflang.

**2. Xo'jalik operatsiyalarining balans tuzilishi va valyutasiga ta'siri**




**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga xo'jalik operatsiyalarining balans tuzilishi va valyutasiga ta'sirini yozing va izohlang.

### 3. Xo'jalik operatsiyalari ta'sirida buxgalteriya balansining o'zgarishi

3.1. Quyidagi sodir bo'lgan xo'jalik operatsiyalari natijasida balansda ro'y beradigan o'zgarishlarni aks ettiring va hisobot davri oxiriga yakuniy balans tuzing.

«Yulduz» mas'uliyati cheklangan jamiyat (MCHJ)ning 20... yil 1 yanvar holatiga xo'jalik mablag'lari (aktivlari) va mablag'lar manbalari (passivlari) keltirilgan:

| № | Scho'tlarning nomi | Summa, ming so'm | Xo'jalik mablag'lari (aktiv) | Mablag'lar manbalari (passiv) |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Asosiy vositalar | 99000 | | |
| 2 | Asosiy vositalarning eskirishi | 25000 | | |
| 3 | Mol etkazib beruvchilarga qarzdorlik | 9500 | | |
| 4 | Materiallar | 6800 | | |
| 5 | Kassa | 700 | | |
| 6 | Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik | 1200 | | |
| 7 | Hisob-kitob scho'ti | 16000 | | |
| 8 | Ustav kapitali | 23800 | | |
| 9 | Qisqa muddatli bank kreditlari | 37000 | | |
| 10 | Mehnatga haqi bo'yicha qarzdorlik | 5000 | | |
| 11 | Xaridorlardan olinadigan scho'tlar | 4800 | | |
| 12 | Taqsimlanmagan foyda | 25800 | | |
| | Jami | X | | |

**Talab qilinadi:**

1. Yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlarni xo'jalik mablag'lari va mablag'lar manbalariga ajrating.
2. Xo'jalik mablag'larini uzoq muddatli va joriy mablag'larga, mablag'lar manbalarini esa o'z mablag'lar manbalari va majburiyatlarga ajrating.
3. Quyida keltirilgan shaklda hisobot davri boshiga boshlang'ich balans tuzing.
4. Balans ma'lumotlaridan foydalanib korxonaga qisqacha ta'rif bering.

«Yulduz» MCHJning buxgalteriya balansi
(01.01.20... y. holatiga)

| Aktiv | Hisobot davri boshiga | Hisobot davri oxiriga | Passiv | Hisobot davri boshiga | Hisobot davri oxiriga |
|---|---|---|---|---|---|
| I. Uzoq muddatli aktivlar | | | I. O'z mablag'lari manbalari | | |
| | | | | | |
| I bo'lim bo'yicha jami | | | I bo'lim bo'yicha jami | | |
| II. Joriy aktivlar | | | II. Majburiyatlar | | |
| | | | | | |
| II bo'lim bo'yicha jami | | | II bo'lim bo'yicha jami | | |
| BALANS | | | BALANS | | |

Yanvar oyi davomida «Yulduz» MCHJda quyidagi xo'jalik muomalalari ro'y bergan (shartli ravishda):

| № | Xo'jalik operatsiyalari | Summa, ming so'm | O'zgarish turi |
|---|---|---|---|
| 1 | Mol etkazib beruvchilardan material olindi | 10000 | |
| 2 | Hisoblangan ish haqidan daromad solig'i ushlandi | 500 | |
| 3 | Hisob-kitob scho'tidan ish haqi uchun kassaga naqd pul olindi | 4500 | |
| 4 | Kassadan ish haqi tarqatildi | 4500 | |
| 5 | Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz hisob-kitob scho'tidan o'tkazildi | 1200 | |
| 6 | Xaridorlardan oladigan qarz hisob-kitob scho'tiga kelib tushdi | 4000 | |
| 7 | Taqsimlanmagan foydaning bir qismi ustav kapitaliga o'tkazildi | 5800 | |
| 8 | Qisqa muddatli bank kreditlarining bir qismi qaytarildi | 7000 | |

**Talab qilinadi:**

1. Xo'jalik operatsiyalari natijasida balansda ro'y beradigan o'zgarishlarni aks ettiring va har bir operatsiyaning qaysi tipga tegishliligini aniqlang.
2. Hisobot davri oxiriga balans tuzing, quyidagi shaklda boshlang'ich va yakuniy balanslarni taqqoslang.
3. Bajarilgan hisob-kitoblarni izohlab bering.

**Boshlang'ich balans va uning xo'jalik operatsiyalari natijasida o'zgarishini taqqoslash jadvali**

| **Moddalar** | **O'zga-rishgacha bo'lgan summa** | **O'zgarish, +, -** | **O'zga-rishdan keyingi summa** | **Moddalar** | **O'zga-rishgacha bo'lgan summa** | **O'zgarish, +, -** | **O'zga-rishdan keyingi summa** |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |

3.2. "ZEE & ZED" mas'uliyati cheklangan jamiyat (MCHJ)da quyidagi sodir bo'lgan xo'jalik operatsiyalari natijasida balansda ro'y beradigan o'zgarishlarni aks ettiring va hisobot davri oxiriga yakuniy balans tuzing.

Quyida "ZEE & ZED" MCHJning 20... yil 1 yanvar holatiga xo'jalik mablag'lari (aktivlari) va mablag'lar manbalari (passivlari) keltirilgan:

| **№** | **Scho'tlarning nomi** | **Summa, ming so'm** | **Xo'jalik mablag'lari (aktiv)** | **Mablag'lar manbalari (passiv)** |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Asosiy vositalar | 35000 | | |
| 2 | Asosiy vositalarning eskirishi | 5000 | | |
| 3 | Mol etkazib beruvchilarga qarzdorlik | 15000 | | |
| 4 | Materiallar | 16800 | | |
| 5 | Asosiy ishlab chiqarish | 7000 | | |
| 6 | Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik | 1800 | | |
| 7 | Hisob-kitob scho'ti | 26000 | | |
| 8 | Ustav kapitali | 45800 | | |
| 9 | Tugallanmagan qurilish | 17000 | | |
| 10 | Mehnatga haqi bo'yicha qarzdorlik | 7000 | | |
| 11 | Taqsimlanmagan foyda | 25400 | | |
| 12 | Davlatning maqsadli fondlariga to'lovlar | 1800 | | |
| | Jami | X | | |

**Talab qilinadi:**

1. Yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlarni xo'jalik mablag'lari va mablag'lar manbalariga ajrating.
2. Xo'jalik mablag'larini uzoq muddatli va joriy mablag'larga, mablag'lar manbalarini esa o'z mablag'lari manbalari va majburiyatlarga ajrating.
3. Hisobot davri boshiga boshlang'ich balans tuzing.
4. Balans ma'lumotlaridan foydalanib korxonaga qisqacha ta'rif bering.

Yanvar oyi davomida "ZEE & ZED" MCHJda quyidagi xo'jalik muomalalari ro'y bergan (shartli ravishda):

| № | Xo'jalik operatsiyalari | Summa, ming so'm | O'zgarish turi |
|---|---|---|---|
| 1 | Hisob-kitob scho'tidan mol etkazib beruvchilardan bo'lgan qarzdorlik to'landi | 5000 | |
| 2 | Ombordan materiallar asosiy ishlab chiqarishga berildi | 4800 | |
| 3 | "ABS" XKdan tekinga uskuna olindi | 7400 | |
| 4 | Tugallanmagan qurilishga materiallar berildi | 6000 | |
| 5 | Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz hisob-kitob scho'tidan to'landi | 1800 | |
| 6 | Xaridor va buyurtmachilardan bo'nak olindi | 2100 | |

**Talab qilinadi:**

1. Yuqorida xo'jalik operatsiyalari natijasida balansda ro'y beradigan o'zgarishlarni aks ettiring va har bir operatsiyaning qaysi tipga tegishliligini aniqlang.
2. Hisobot davri oxiriga balans tuzing, boshlang'ich va yakuniy balanslarni taqqoslang.
3. Bajarilgan hisob-kitoblarni izohlab bering.

3.3. «SHUNQOR» xususiy korxonasida sodir bo'lgan quyidagi xo'jalik operatsiyalari natijasida balansda ro'y beradigan o'zgarishlarni aks ettiring va hisobot davri oxiriga yakuniy balans tuzing.

Quyida «SHUNQOR» xususiy korxonasi (XK) ning 20... yil 1 yanvar holatiga xo'jalik mablag'lari (aktivlari) va mablag'lar manbalari (passivlari) keltirilgan:

| № | Scho'tlarning nomi | Saldo, ming so'm | Balansda | |
|---|---|---|---|---|
| | | | aktiv | passiv |
| 1 | Asosiy vositalar | 101991 | | |
| 2 | Asosiy vositalarning eskirishi | 46259 | | |
| 3 | Hisoblangan foizlar | 905 | | |
| 4 | Idish va idishbop materillar | 7300 | | |
| 5 | Xaridorlardan olingan bo'naklar | 4945 | | |
| 6 | Xaridorlardan olinadigan scho'tlar | 18292 | | |
| 7 | Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik | 4614 | | |
| 8 | Ustav kapitali | 18720 | | |
| 9 | Kassa | 1000 | | |
| 10 | Mol yetkazib beruvchilarga qarzdorlik | 4657 | | |
| 11 | Tayyor mahsulot | 10758 | | |
| 12 | Xodimlarga berilgan bo'naklar | 620 | | |
| 13 | Davlatning maqsadli fondlariga to'lovlar | 3890 | | |
| 14 | Mehnatga haqi bo'yicha qarzdorlik | 3395 | | |
| 15 | Olinadigan foizlar | 3938 | | |
| 16 | Taqsimlanmagan foyda | 64750 | | |
| 17 | Qo'shilgan kapital | 15320 | | |
| 18 | Hisob-kitob scho'ti | 53377 | | |
| 19 | Qisqa muddatli bank kreditlari | 40182 | | |
| 20 | Materiallar | 10361 | | |
| **Balans** | | | | |

**Talab qilinadi:**

1. Yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlarni xo'jalik mablag'lari va mablag'lar manbalariga ajrating.
2. Xo'jalik mablag'larini uzoq muddatli va joriy mablag'larga, mablag'lar manbalarini esa o'z mablag'lari manbalari va majburiyatlarga ajrating.
3. Hisobot davri boshiga boshlang'ich balans tuzing.

«SHUNQOR» xususiy korxonasida sodir bo'lgan quyidagi xo'jalik operatsiyalari ta'sirida ro'y bergan o'zgarishlarni balansda aks ettiring:

| № | Xo'jalik operatsiyalari | Summa, ming so'm | O'zgarish turi |
|---|---|---|---|
| 1 | Mol yetkazib beruvchilardan olingan materiallar kirim qilindi | 4980 | |
| 2 | Xaridorlardan hisob-kitob scho'tiga sotilgan tayyor mahsulotlar uchun pul kelib tushdi | 6300 | |
| 3 | Qisqa muddatli bank kreditining bir qismi hisob-kitob scho'tidan to'landi | 12900 | |
| 4 | Ish haqi uchun hisob-kitob scho'tidan kassaga pul olindi | 3000 | |
| 5 | Kassadan ish haqi berildi | 3000 | |
| 6 | Davlatning maqsadli fondlari bo'yicha to'lovlar hisob-kitob scho'tidan o'tkazildi | 1900 | |
| 7 | Mol yetkazib beruvchilarga hisob-kitob scho'tidan to'landi | 1900 | |
| 8 | Olinadigan foizlar hisob-kitob scho'tiga kelib tushdi | 3800 | |

**Talab qilinadi:**

1. Xo'jalik operatsiyalari natijasida balansda ro'y beradigan o'zgarishlarni aks ettiring va har bir muomalaning qaysi tipga tegishliligini aniqlang.
2. Hisobot davri oxiriga «SHUNQOR» XKning balansini tuzing, boshlang'ich va yakuniy balanslarni taqqoslang.
3. Bajarilgan hisob-kitoblarni izohlab bering.

3.4. «JASMIN-SERVIS» mas'uliyati cheklangan jamiyat (MChJ)da sodir bo'lgan quyidagi xo'jalik operatsiyalari natijasida balansda ro'y beradigan o'zgarishlarni aks ettiring va hisobot davri oxiriga yakuniy balans tuzing.

Quyida «JASMIN-SERVIS» MChJning 20... yil 1 yanvar holatiga xo'jalik mablag'lari (aktivlari) va mablag'lar manbalari (passivlari) keltirilgan:

| № | Scho'tlarning nomi | Saldo, ming so'm | Balansda | |
|---|---|---|---|---|
| | | | aktiv | passiv |
| 1 | Asosiy vositalar | 88154 | | |
| 2 | Asosiy vositalarning eskirishi | 39669 | | |
| 3 | Materiallar | 20665 | | |
| 4 | Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik | 11552 | | |
| 5 | Xaridorlardan olinadigan scho'tlar | 13857 | | |
| 6 | Mehnatga haqi bo'yicha qarzdorlik | 4283 | | |
| 7 | Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga berilgan bo'naklar | 7158 | | |
| 8 | Taqsimlanmagan foyda | 38746 | | |
| 9 | Hisob-kitob scho'ti | 24729 | | |
| 10 | Mol yetkazib beruvchilarga qarzdorlik | 2935 | | |
| 11 | Olingan bo'naklar | 4428 | | |
| 12 | Tayyor mahsulot | 5525 | | |
| 13 | Davlatning maqsadli fondlariga to'lovlar | 3767 | | |
| 14 | Xodimlarga berilgan bo'naklar | 758 | | |
| 15 | Boshqa debitorlik qarzlari | 2356 | | |
| 16 | Maqsadli davlat jamgarmalari va sug'urtalar bo'yicha bo'nak to'lovlari | 1385 | | |
| 17 | Ustav kapitali | 18720 | | |
| 18 | Uzoq muddatli bank kreditlari | 40182 | | |
| 19 | Boshqa kreditorlik qarzlari | 305 | | |
| **Balans** | | | | |

**Talab qilinadi:**

1. Yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlarni xo'jalik mablag'lari va mablag'lar manbalariga ajrating.
2. Xo'jalik mablag'larini uzoq muddatli va joriy mablag'larga, mablag'lar manbalarini esa o'z mablag'lari manbalari va majburiyatlarga ajrating.
3. Hisobot davri boshiga boshlang'ich balans tuzing.
4. Balans ma'lumotlaridan foydalanib korxonaga qisqacha ta'rif bering.

«JASMIN-SERVIS» MChJda sodir bo'lgan quyidagi xo'jalik operatsiyalari ta'sirida ro'y bergan o'zgarishlarni balansda aks ettiring:

| № | Xo‘jalik operatsiyalari | Summa, ming so‘m | O‘zgarish turi |
|---|---|---|---|
| 1 | Mol yetkazib beruvchilardan olingan ehtiyot qismlar kirim qilindi | 2200 | |
| 2 | Asosiy ishlab chiqarishda ishlayotgan ishchilarga ish haqi hisoblandi | 3000 | |
| 3 | Hisoblangan ish haqidan daromad solig‘i hisoblandi | 270 | |
| 4 | Xaridorlardan hisob-kitob scho‘tiga sotilgan tayyor mahsulotlar uchun pul kelib tushdi | 6500 | |
| 5 | Xaridorlardan tayyor mahsulotlar uchun bo‘nak olindi | 500 | |
| 6 | Hisob kitob scho‘tidan xizmat safari uchun avans olindi | 300 | |
| 7 | Kassadan hisobdor shaxsga xizmat safari uchun avans berildi | 300 | |
| 8 | Ish haqi uchun hisob-kitob scho‘tidan kassaga pul olindi | 2500 | |
| 9 | Kassadan ish haqi berildi | 2500 | |
| 10 | Davlatning maqsadli fondlari bo‘yicha to‘lovlar hisob-kitob scho‘tidan o‘tkazildi | 1000 | |
| 11 | Mol yetkazib beruvchilarga hisob-kitob scho‘tidan to‘landi | 1500 | |
| 12 | Budjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz hisob kitob scho‘tidan to‘landi | 3900 | |
| 13 | Mol yetkazib beruvchilardan idishlar olindi | 300 | |
| 14 | Boshqa debitorlik qarzlari hisob-kitob scho‘tiga kelib tushdi | 2000 | |
| 15 | Mol yetkazib beruvchilarga hisob-kitob scho‘tidan to‘landi | 2000 | |

**Talab qilinadi:**

1. Xo‘jalik operatsiyalari natijasida balansda ro‘y beradigan o‘zgarishlarni aks ettiring va har bir muomalaning qaysi tipga tegishliligini aniqlang.
2. Hisobot davri oxiriga «JASMIN-SERVIS» MChJning balansini tuzing, boshlang‘ich va yakuniy balanslarni taqqoslang.
3. Bajarilgan hisob-kitoblarni izohlab bering.

## Buxgalteriya balansi korxona moliyaviy ahvolini baholash uchun axborot manbai (2 soat)

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Buxgalteriya balansi korxonaning moliyaviy ahvolini baholashda asosiy axborot manbai ekanligini izohlab bering?
2. Korxona buxgalteriya balansi ko‘rsatkichlari to‘g‘riligini tekshirishning qanday usullarini bilasiz?
3. Korxonaning moliyaviy ahvolini baholashda balans qanday tahlil qilinadi?
4. Buxgalteriya balansining tarkibi va tuzilishini tavsiflang?
5. Buxgalteriya balansi aktiv moddalari tarkibiga nimalar kiradi?
6. Buxgalteriya balansi passiv moddalari tarkibiga nimalar kiradi?
7. Korxonaning to‘lov qobiliyati deganda nimani tushunasiz va uni baholashda qanday ko‘rsatkichlardan foydalaniladi?
8. Korxona moliyaviy barqarorligini baholashda qaysi moliyaviy koeffitsientlardan foydalaniladi?
9. Korxona balansi likvidligi deganda nimani tushunasiz?
10. Buxgalteriya balansi likvidligini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni ko‘rsating?

## TEST TOPSHIRIQLARI

**1. Korxona aktivlari tarkibiga nimalar kiradi?**
A) Joriy aktivlar va majburiyatlar
B) Uzoq muddatli aktivlar va xususiy kapital
C) Uzoq muddatli aktivlar va joriy aktivlar
D) Asosiy vositalar va joriy majburiyatlar

**2. Korxonaning majburiyatlari tarkibiga nimalar kiradi?**
A) Qisqa, o'rta va uzoq muddatga olingan qarz mablag'lar, tovar moddiy zaxiralar
B) Qisqa va uzoq muddatli kreditlar, debitorlik qarzlari
C) Qisqa, o'rta va uzoq muddatli kreditlar va pul mablag'lari
D) Uzoq muddatli majburiyatlar va joriy majburiyatlar

**3. Korxonaning to'lov qobiliyatini baholashda qanday ko'rsatkichlardan foydalaniladi?**
A) Moliyaviy barqarorlik koeffitsienti, moliyaviy mustahkamlik koeffitsienti, joriy to'lov qobiliyati koeffitsienti
B) Mutloq to'lov qobiliyati koeffitsienti, oraliq to'lov qobiliyati koeffitsienti, joriy to'lov qobiliyati koeffitsienti
C) O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsienti, moliyaviy mustahkamlik koeffitsienti, oraliq to'lov qobiliyati koeffitsienti
D) O'z va qarz mablag'larining o'zaro nisbati koeffitsienti, Mutloq to'lov qobiliyati koeffitsienti, Moliyaviy barqarorlik koeffitsienti

**4. Mutloq to'lov qobiliyati koeffitsienti qanday aniqlanadi?**
A) Qisqa muddatli to'lov majburiyatlarini jami pul mablag'lariga bo'lish lozim
B) Jami pul mablag'lariga qisqa muddatli investitsiyalarni qo'shib, qisqa muddatli to'lov majburiyatlariga bo'lish kerak
C) Jami pul mablag'lariga qisqa muddatli investitsiyalarni va debitorlik majburiyatlarini qo'shib, qisqa muddatli to'lov majburiyatlariga bo'lish kerak
D) Qisqa muddatli to'lov majburiyatlarini pul mablag'lari va debitorlik majburiyatlari jamiga bo'lish lozim

**5. Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti qanday aniqlanadi?**
A) Balans jami ko'rsatkichini jami majburiyatlarga bo'lish orqali
B) Balans jami ko'rsatkichini o'z mablag'lari manbalari ko'rsatkichiga bo'lish orqali
C) Majburiyatlarni balans jami ko'rsatkichiga bo'lish orqali
D) O'z mablag'lari manbalari ko'rsatkichiga balans jami ko'rsatkichini bo'lish orqali

**6. Moliyaviy qaramlik koeffitsienti qanday aniqlanadi?**
A) Balans jami summasini majburiyatlar jami summasiga bo'lish orqali
B) O'z mablag'lari manbasi summasini balans jami summasiga bo'lish orqali
C) Balans jami summasini o'z mablag'lari manbasi jami summasiga bo'lish orqali
D) Balans jami summasini uzoq muddatli aktivlar summasiga bo'lish orqali

**7. Buxgalteriya balansi likvidlik holati bo'yicha tarkiblanishini ko'rsating?**
A) Mutloq likvid balans, likvid balans, nolikvid balans, nochorlik holatidagi balans
B) Mutloq likvid balans, likvid balans, nolikvid balans, moliyaviy qaram balans
C) Mutloq likvid balans, moliyaviy mustaqil balans, likvid balans, nolikvid balans
D) Mutloq likvid balans, moliyaviy barqaror balans, nolikvid balans, nochorlik holatidagi balans

**8. Buxgalteriya balansi ma'lumotlari to'g'riligini tekshirishning qanday usullari bor?**
A) Hujjatlashtirish, inventarizatsiya, scho'tlar tizimi, ikki yoqlama yozuv, baholash, kalkulyatsiya, balans va hisobot kabi usullar
B) Arifmetik usullar va taqqoslash usuli
C) Inventarizatsiya, baholash, kalkulyatsiya va taqqoslash usuli
D) Balansli bog'lanish, taqqoslash, integral va qayta hisoblash usullari

**9. O'z mablag'lari deganda nimani tushunasiz?**
A) Maxsulot sotishdan olingan daromadlar
B) Qarzga olingan (uzoq muddatga) mablag'lar

C) Korxonaning o‘ziga tegishli mablag‘lari
D) Majburiyatlar qoplanishidagi ortiqcha mablag‘lar
**10. Buxgalteriya balanslari tuzilish shakliga ko‘ra:**
A) Bir tomonlama, ikki tomonlama
B) Ustav, noustav
C) Bir martalik, yig‘ma
D) Brutto-balans, netto-balans

## AMALIY MASHQLAR

### 1. Buxgalteriya balansi ko‘rsatkichlarini tekshirish usullari




**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga buxgalteriya balansida aks ettirilgan ko‘rsatkichlar to‘g‘riligini tekshirish usullarini yozing va ularni qo‘llash tartibini tushuntiring.

### 2. Buxgalteriya balansining tarkibi va tuzilishini tavsiflash

**BUXGALTERIYA BALANSI**

| Aktiv | Hisobot davri boshiga | Hisobot davri oxiriga | Passiv | Hisobot davri boshiga | Hisobot davri oxiriga |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | |
| | | | | | |
| | | | | | |
| | | | | | |
| | | | | | |
| | | | | | |
| | | | | | |
| **BALANS** | | | **BALANS** | | |

**Talab qilinadi.** Yuqoridagi berilgan balans shakliga uning har bir qismiga tegishli bo‘limlarini va moddalarini yozing va tavsiflab bering.

### 3. To‘lov qobiliyatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi

| Ko‘rsatkichlar | Aniqlash tartibi | Izoh |
|---|---|---|
| | | |
| | | |
| | | |

**Talab qilinadi.** Yuqoridagi berilgan shaklga to‘lov qobiliyatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar va ularni aniqlash tartibini yozing va izohlab bering.

**4. Buxgalteriya balansi ma'lumotlari asosida aniqlanadigan moliyaviy koeffitsiyentlar va ularni aniqlash tartibi**

| Ko'rsatkichlar | Aniqlash tartibi | Izoh |
|---|---|---|
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |

**Talab qilinadi.** Yuqoridagi berilgan shaklga buxgalteriya balansi ma'lumotlari asosida aniqlanadigan moliyaviy koeffitsiyentlar va ularni aniqlash tartibini yozing hamda izohlab bering.

**5. Buxgalteriya balansi ma'lumotlari asosida korxonaning moliyaviy ahvolini baholash**

Korxonaning moliyaviy ahvolini baholashda quyidagi buxgalteriya balansi ma'lumotlaridan axborot manbai sifatida foydalaning:

**BUXGALTERIYA BALANSI (1-sonli shakl)**

| **Ko'rsatkichlar nomi** | Satr kodi | Hisobot davri boshiga | Hisobot davri oxiriga |
|---|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 | 4 |
| **Aktiv** | | | |
| **I. Uzoq muddatli aktivlar** | | | |
| **Asosiy vositalar:** | | | |
| Boshlangich qiymati (0100, 0300) | 010 | 88154 | 101991 |
| Eskirish summasi (0200) | 011 | 39669 | 46259 |
| Qoldiq (balans) qiymati (satr. 010 - 011) | **012** | 48485 | 55732 |
| **Nomoddiy aktivlar:** | | | |
| Boshlangich qiymati (0400) | 020 | | |
| Amortizatsiya summasi (0500) | 021 | | |
| Qoldiq (balans) qiymati (satr. 020 - 021) | **022** | | |
| **Uzoq muddatli investitsiyalar,** jami (satr.040+050+060+070+080), shu jumladan: | **030** | | |
| Qimmatli qog'ozlar (0610) | 040 | | |
| Sho'ba xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar (0620) | 050 | | |
| Qaram xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar (0630) | 060 | | |
| Chet el kapitali mavjud bo'lgan korxonalarga investitsiyalar (0640) | 070 | | |
| Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar (0690) | 080 | | |
| O'rnatiladigan asbob-uskunalar (0700) | **090** | | |
| Kapital qo'yilmalar (0800) | **100** | | |
| Uzoq muddatli debitorlik qarzlari (0910, 0920, 0930, 0940) | **110** | | |
| shundan: muddati o'tgan | 111 | | |
| Uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar (0950, 0960, 0990) | **120** | | |
| **I bo'lim bo'yicha jami** (satr. 012+022+030+090+100+110+120) | **130** | **48485** | **55732** |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **II. Joriy aktivlar** | | | |
| **Tovar-moddiy zaxiralari,** jami (satr.150+160+170+180), shu jumladan: | **140** | 26190 | 26584 |
| Ishlab chiqarish zaxiralari (1000, 1100, 1500, 1600) | 150 | 20665 | 17661 |
| Tugallanmagan ishlab chiqarish (2000, 2100, 2300, 2700) | 160 | | |
| Tayyor mahsulot (2800) | 170 | 5525 | 8923 |
| Tovarlar (2900 dan 2980 ning ayirmasi) | 180 | | |
| Kelgusi davr xarajatlari (3100) | **190** | | |
| Kechiktirilgan xarajatlar (3200) | **200** | | |
| **Debitorlar,** jami (satr.220+230+240+250+260+270+280+290+300+310) | **210** | 25514 | 24685 |
| shundan: muddati o'tgan | 211 | | |
| Xaridor va buyurtmachilarning qarzi (4000 dan 4900 ning ayirmasi) | 220 | 13857 | 11401 |
| Ajratilgan bo'linmalarning qarzi (4110) | 230 | | |
| Sho''ba va qaram xo'jalik jamiyatlarning qarzi (4120) | 240 | | |
| Xodimlarga berilgan bo'naklar (4200) | 250 | 758 | 620 |
| Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'naklar (4300) | 260 | 7158 | 6891 |
| Budjetga soliq va yigimlar bo'yicha bo'nak to'lovlari (4400) | 270 | | |
| Maqsadli davlat jamgarmalari va sugurtalar bo'yicha bo'nak to'lovlari (4500) | 280 | 1385 | 1835 |
| Ta'sischilarning ustav kapitaliga ulushlar bo'yicha qarzi (4600) | 290 | | |
| Xodimlarning boshqa operatsiyalar bo'yicha qarzi (4700) | 300 | | |
| Boshqa debitorlik qarzlari (4800) | 310 | 2356 | 3938 |
| **Pul mablag'lari,** jami (satr.330+340+350+360), shu jumladan: | **320** | 24729 | 54377 |
| Kassadagi pul mablag'lari (5000) | 330 | | |
| Hisoblashish scho'tidagi pul mablag'lari (5100) | 340 | 24729 | 54377 |
| Chet el valyutasidagi pul mablag'lari (5200) | 350 | | |
| Qisqa muddatli investitsiyalar (5800) | **370** | | |
| Boshqa joriy aktivlar (5900) | **380** | | |
| **II bo'lim bo'yicha jami** (satr.140+190+200+210+320+370+380) | **390** | **76433** | **105646** |
| **Balans aktivi bo'yicha jami** (satr.130+390) | **400** | **124918** | **161378** |
| **Passiv** | | | |
| **I. O'z mablag'lari manbalari** | | | |
| Ustav kapitali (8300) | **410** | 18720 | 18720 |
| Qo'shilgan kapital (8400) | **420** | | |
| Rezerv kapitali (8500) | **430** | | |
| Sotib olingan xususiy aksiyalar (8600) | **440** | | |
| Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) (8700) | **450** | 38746 | 80070 |
| Maqsadli tushumlar (8800) | **460** | | |
| Kelgusi davr xarajatlari va to'lovlari uchun zaxiralar (8900) | **470** | | |
| **I bo'lim bo'yicha jami** (satr.410+420+430-440+450+460+470) | **480** | **57466** | **98790** |

| II. Majburiyatlar | | | |
|---|---|---|---|
| **Uzoq muddatli majburiyatlar,** jami (satr.500+510+520+530+540+550+560+570+580+590) | **490** | 40182 | 40182 |
| shu jumladan: uzoq muddatli kreditorlik qarzlari (satr.500+520+540+560+590) | 491 | | |
| shundan: muddati o'tgan uzoq muddatli kreditorlik qarzlari | 492 | | |
| Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga uzoq muddatli qarz (7000) | 500 | | |
| Ajratilgan bo'linmalarga uzoq muddatli qarz (7110) | 510 | | |
| Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarga uzoq muddatli qarz (7120) | 520 | | |
| Uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar (7210, 7220, 7230) | 530 | | |
| Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo'naklar (7300) | 560 | | |
| Uzoq muddatli bank kreditlari (7810) | 570 | 40182 | 40182 |
| Uzoq muddatli qarzlar (7820, 7830, 7840) | 580 | | |
| Boshqa uzoq muddatli kreditorlik qarzlar (7900) | 590 | | |
| **Joriy majburiyatlar,** jami (satr.610+630+640+650+660+670+680+690+700+710+ +720+730+740+750+760) | **600** | 27270 | 22406 |
| shu jumladan: joriy kreditorlik qarzlari (satr. 610+630+650+670+680+690+ +700+710+720+760) | 601 | 27270 | 22406 |
| shundan: muddati o'tgan joriy kreditorlik qarzlari | 602 | | |
| Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga qarz (6000) | 610 | 2935 | 4657 |
| Ajratilgan bo'linmalarga qarz (6110) | 620 | | |
| Boshqa kechiktirilgan majburiyatlar (6250, 6290) | 660 | | |
| Olingan bo'naklar (6300) | 670 | 4428 | 4945 |
| Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz (6400) | 680 | 11552 | 4614 |
| Sugurtalar bo'yicha qarz (6510) | 690 | | |
| Maqsadli davlat jamgarmalariga to'lovlar bo'yicha qarz (6520) | 700 | 3767 | 3890 |
| Ta'sischilarga bo'lgan qarzlar (6600) | 710 | | |
| Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarz (6700) | 720 | 4283 | 3395 |
| Qisqa muddatli bank kreditlari (6810) | 730 | | |
| Qisqa muddatli qarzlar (6820, 6830, 6840) | 740 | | |
| Uzoq muddatli majburiyatlarning joriy kismi (6950) | 750 | | |
| Boshqa kreditorlik qarzlar (6950 dan tashqari 6900) | 760 | 305 | 905 |
| **II bo'lim bo'yicha jami** (satr.490+600) | **770** | **67452** | **62588** |
| **Balans passivi bo'yicha jami** (satr.480+770) | **780** | **124918** | **161378** |

**Talab qilinadi:**

1. Buxgalteriya balansi ko'rsatkichlari to'g'ri shakllantirilganligini tekshiring.
2. Buxgalteriya balansi ma'lumotlari asosida korxonaning umumiy moliyaviy ahvoliga baho bering.
3. Korxonaning moliyaviy barqarorligiga baho bering.
4. Korxonaning to'lov qobiliyati darajasini aniqlang.
5. Balans likvidligi darajasiga baho bering.
6. Yuqoridagi ko'rsatkichlarni o'rganish asosida korxonaning moliyaviy ahvoli to'g'risida xulosalar shakllantiring va uni yaxshilash bo'yicha takliflar bering.

## 5-MAVZU. BUXGALTERIYA HISOBINING SCHO'TLARI VA IKKI YOQLAMA YOZUV
(8 soat)

### 5.1. Buxgalteriya hisobining scho'tlari
(2 soat)

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Buxgalteriya hisobi scho'tlarini ta'riflang?
2. Buxgalteriya hisobi scho'tlarining tuzilishi qanday?
3. Buxgalteriya balansiga nisbatan scho'tlar qanday turlarga bo'linadi?
4. Aktiv scho'tlar deganda nimani tushunasiz?
5. Passiv scho'tlar deganda nimani tushunasiz?
6. Aktiv scho'tdagi yozuvlarni passiv scho'tlardagidan farqi qanday?
7. Sintetik scho'tlarni ta'riflang va misol keltiring?
8. Analitik scho'tlarni ta'riflang va misol keltiring?
9. Sintetik va analitik scho'tlar o'rtasida qanday o'zaro bog'liqlik mavjud?
10. Korxonani boshqarishda sintetik va analitik scho'tlarning ahamiyati qanday?

### TEST TOPSHIRIQLARI

**1. Lotincha "Debet" termini qanday ma'noni bildiradi?**
A) U ishonadi
B) U qarzdor
C) U ishonmaydi
D) U rozi

**2. Lotincha "Kredit" termini qanday ma'noni anglatadi?**
A) U ishonadi
B) U ishonmaydi
C) U rozi emas
D) U qarzdor

**3. Aktiv schyo'tlar deb nimaga aytiladi?**
A) Materiallarni hisobga oladigan schyo'tlar
B) Xo'jalik mablag'larining manbalarini hisobga oladigan scho'tlar
C) Ishchi hayvonlarni hisobga oladigan schyo'tlar
D) Xo'jalik mablag'lari va jarayonlarini hisobga oladigan scho'tlar

**4. Passiv schyo'tlar deb nimaga aytiladi?**
A) Asosiy vositalarni hisobga oladigan schyo'tlar
B) Xususiy kapitalni hisobga oladigan schyo'tlar
C) Xo'jalik mablag'larining manbalarini hisobga oladigan schyo'tlar
D) Xo'jalik mablag'larini hisobga oladigan schyo'tlar

**5. Buxgalteriya hisobida analitik schyo'tning mazmuni**
A) Hisob obyektlarini guruhlash usuli
B) Hisob obyektlarini batafsil tavsiflaydi
C) Tranzit scho'tning turlaridan biri
D) Sintetik scho'tlarda joriy axborotlarni umumlashtirish usuli

**6. Sintetik scho'tlar deb nimaga aytiladi?**
A) Xo'jalik mablag'lari va manbalarini fakat qiymati bo'yicha hisobga oluvchi scho'tlarga aytiladi
B) Materiallarni hisobga oladigan scho'tlarga aytiladi
C) Xususiy kapitalni hisobga oladigan scho'tlarga aytiladi
D) Xo'jalik jarayonlarini hisobga oladigan scho'tlarga aytiladi

**7. Analitik scho'tlar deb nimaga aytiladi?**
A) Aktiv scho'tlarga aytiladi

B) Bosh scho'tlarga aytiladi
C) Xo'jalik mablag'lari va ularning tashkil topish manbalarini fakat pul ifodasida hisobga oluvchi scho'tlarga aytiladi
D) Xo'jalik mablag'lari va ularning tashkil topish manbalarini mikdori va qiymati bo'yicha batafsil hisobga oluvchi scho'tlarga aytiladi

**8. Balans scho'tlari – bu ....**

A) Hisobot davrida foydalaniladigan, lekin yopiladigan Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda aks ettiriladigan hisobot davri oxiriga qoldiqqa ega bo'lmaydigan daromadlar va xarajatlarni hisobga oluvchi scho'tlar
B) Korxonalar iqtisodiy resurslarining holati va harakati haqidagi buxgalteriya axborotini qayd etish va saqlash uslubi
C) Hisobot davri oxiriga saldoga ega bo'lib, buxgalteriya balansida aks ettiriladigan aktivlar, majburiyatlar va kapital scho'tlari
D) Korxonaga qarashli bo'lmagan, lekin vaqtinchalik tasarrufida bo'lgan, aktivlarning mavjudligi va harakati, shartli huquqlar va majburiyatlar haqidagi axborotni umumlashtirishga mo'ljallangan scho'tlar

## AMALIY MASHQLAR

**1. Scho'tlarning mazmuni va tuzilishi**

| SCHO'TLARNING MAZMUNI VA TUZILISHI |
| --- |
| **Buxgalteriya hisobining scho'tlari:** |
| **Buxgalteriya hisobi scho'tlarining tuzilishi:** |

**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga buxgalteriya hisobining scho'tlariga ta'rif bering va ularning tuzilishini izohlab bering.

**2. Aktiv va passiv scho'tlar**

| | |
| --- | --- |
| **Aktiv scho'tlar** | |
| **Passiv scho'tlar** | |

## Aktiv va passiv scho'tlarning tuzilishi

| Aktiv scho'<br>Debet | <br>Kredit |
|---|---|
| | |

| Passiv scho't<br>Debet | <br>Kredit |
|---|---|
| | |

**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga aktiv va passiv scho'tlarning ta'rifini yozing va ularning tuzilishini izohlab bering.

**3. Sintetik va analitik scho'tlar, ularning o'zaro bog'liqligi**

| | |
|---|---|
| **Sintetik scho'tlar** | |
| **Analitik scho'tlar** | |

**Sintetik va analitik scho'tlarning o'zaro bog'liqligi**

| Sintetik scho't | Analitik scho'tlar |
|---|---|
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |

**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga sintetik va analitik scho'tlarning ta'riflarini yozing va ularning o'zaro bog'liqligi amaliy misollar yordamida ko'rsatib bering.

**4. Scho'tlarning iqtisodiy mohiyatiga ko'ra turkumlanishi**

4.1. Quyidagi «Fayz» mas'uliyati cheklangan jamiyat (MChJ) ma'lumotlarini scho'tlarning iqtisodiy mohiyatiga ko'ra turkumlang:

«Fayz» mas'uliyati cheklangan jamiyatning ma'lumotlari
(01.01.20... holatiga)

| № | Scho't shifri | Scho'tlarning nomi | Saldo, ming so'm | Balansda | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | aktiv | passiv |
| 1 | | Asosiy vositalar | 88154 | | |
| 2 | | Asosiy vositalarning eskirishi | 39669 | | |
| 3 | | Materiallar | 20665 | | |
| 4 | | Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik | 11552 | | |
| 5 | | Xaridorlardan olinadigan scho'tlar | 13857 | | |
| 6 | | Mehnatga haqi bo'yicha qarzdorlik | 4283 | | |
| 7 | | Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga berilgan bo'naklar | 7158 | | |
| 8 | | Taqsimlanmagan foyda | 38746 | | |
| 9 | | Hisob-kitob scho'ti | 24729 | | |
| 10 | | Mol yetkazib beruvchilarga qarzdorlik | 2935 | | |
| 11 | | Olingan bo'naklar | 4428 | | |
| 12 | | Tayyor mahsulot | 5525 | | |
| 13 | | Davlatning maqsadli fondlariga to'lovlar | 3767 | | |
| 14 | | Xodimlarga berilgan bo'naklar | 758 | | |
| 15 | | Boshqa debitorlik qarzlari | 2356 | | |
| 16 | | Maqsadli davlat jamgarmalari va sug'urtalar bo'yicha bo'nak to'lovlari | 1385 | | |
| 17 | | Ustav kapitali | 59207 | | |
| **Balans** | | | | | |

**Talab qilinadi:**

1. Scho'tlar nomidan kelib chiqqan holda scho'tlar shifrini aniqlang.
2. Scho'tlarning iqtisodiy mohiyatidan kelib chiqgan holda ularning summalarini balans aktiv va passiv qismlariga ajratgan holda yozing.
3. Balans aktivi va passividagi summalarni tengligini aniqlang.
4. Bajarilgan hisob-kitoblarni tushuntirib bering.

4.2. Quyidagi «ARZANDA» mas'uliyati cheklangan jamiyat (MChJ) ma'lumotlarini scho'tlarning iqtisodiy mohiyatiga ko'ra turkumlang:

«ARZANDA» xususiy korxonasining ma'lumotlari
(01.01.20... holatiga)

| № | Scho't shifri | Scho'tlarning nomi | Saldo, ming so'm | Balansda | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | aktiv | passiv |
| 1 | | Asosiy vositalar | 101991 | | |
| 2 | | Asosiy vositalarning eskirishi | 80899 | | |
| 3 | | Hisoblangan foizlar | 905 | | |
| 4 | | Xaridorlardan olingan bo'naklar | 4945 | | |
| 5 | | Xaridorlardan olinadigan scho'tlar | 11401 | | |
| 6 | | Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik | 4614 | | |
| 7 | | Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga berilgan bo'naklar | 6891 | | |
| 8 | | Maqsadli davlat jamgarmalari bo'yicha bo'nak to'lovlari | 1835 | | |
| 9 | | Ustav kapitali | 18720 | | |
| 10 | | Mol yetkazib beruvchilarga qarzdorlik | 4657 | | |
| 11 | | Tayyor mahsulot | 8923 | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 12 | | Xodimlarga berilgan bo'naklar | 620 | | |
| 13 | | Davlatning maqsadli fondlariga to'lovlar | 3890 | | |
| 14 | | Mehnatga haqi bo'yicha qarzdorlik | 13395 | | |
| 15 | | Olinadigan foizlar | 3900 | | |
| 16 | | Taqsimlanmagan foyda | 27677 | | |
| 17 | | Hisob-kitob scho'ti | 53924 | | |
| 18 | | Uzoq muddatli bank kreditlari | 40144 | | |
| 19 | | Materiallar | 10361 | | |
| **Balans** | | | | | |

**Talab qilinadi:**

1. Scho'tlar nomidan kelib chiqqan holda scho'tlar shifrini aniqlang.
2. Scho'tlarning iqtisodiy mohiyatidan kelib chiqgan holda ularning summalarini balans aktiv va passiv qismlariga ajratgan holda yozing.
3. Balans aktivi va passividagi summalarni tengligini aniqlang.
4. Bajarilgan hisob-kitoblarni tushuntirib bering.

4.3. Quyidagi «ASL-MIROB» mas'uliyati cheklangan jamiyat (MChJ) ma'lumotlarini scho'tlarning iqtisodiy mohiyatiga ko'ra turkumlang:

«ASL-MIROB» xususiy korxonasining ma'lumotlari
(01.01.20... holatiga)

| № | Scho't shifri | Scho'tlarning nomi | Saldo, ming so'm | Balansda | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | aktiv | passiv |
| 1 | | Asosiy vositalar | 85000 | | |
| 2 | | Asosiy vositalarning eskirishi | 49600 | | |
| 3 | | Materiallar | 20665 | | |
| 4 | | Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik | 1552 | | |
| 5 | | Xaridorlardan olinadigan scho'tlar | 8857 | | |
| 6 | | Mehnat haqi bo'yicha qarzdorlik | 4200 | | |
| 7 | | Ehtiyot qismlar | 1580 | | |
| 8 | | Taqsimlanmagan foyda | 18746 | | |
| 9 | | Hisob-kitob scho'ti | 24729 | | |
| 10 | | Mol yetkazib beruvchilarga qarzdorlik | 7935 | | |
| 11 | | Olingan bo'naklar | 428 | | |
| 12 | | Tayyor mahsulot | 500 | | |
| 13 | | Davlatning maqsadli fondlariga to'lovlar | 767 | | |
| 14 | | Tugallanmagan ishlab chiqarish | 5600 | | |
| 15 | | Boshqa debitorlik qarzlari | 356 | | |
| 16 | | Maqsadli davlat jamgarmalari va sug'urtalar bo'yicha bo'nak to'lovlari | 385 | | |
| 17 | | Ustav kapitali | 24144 | | |
| 18 | | Qisqa muddatli bank kreditlari | 40000 | | |
| 19 | | Boshqa kreditorlik qarzlari | 300 | | |
| **Balans** | | | | | |

**Talab qilinadi:**

1. Scho'tlar nomidan kelib chiqqan holda scho'tlar shifrini aniqlang.
2. Scho'tlarning iqtisodiy mohiyatidan kelib chiqgan holda ularning summalarini balans aktiv va passiv qismlariga ajratgan holda yozing.
3. Balans aktivi va passividagi summalarni tengligini aniqlang.
4. Bajarilgan hisob-kitoblarni tushuntirib bering.

## 5.2. Xo‘jalik operatsiyalarini scho‘tlarda ikki yoqlama aks ettirish (6 soat)

### Ikkiyoqlama yozuvning mohiyati va ahamiyati (2 soat)

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Ikkiyoqlama yozuv nima?
2. Ikkiyoqlama yozuvning joriy buxgalteriya hisobida mohiyati va ahamiyati nimadan iborat?
3. Buxgalteriya yozuvi (provodkasi)ni ta’riflang?
4. Buxgalteriya yozuvi (provodkasi)ning qanday turlari mavjud?
5. Scho‘tlar korrespondentsiyasini ta’riflang va misol keltiring.
6. Buxgalteriya provodkasini tuzish tartibini tushuntiring.
7. Oddiy buxgalteriya provodkasi deganda nimani tushunasiz?
8. Murakkab buxgalteriya provodkasi deganda nimani tushunasiz?

### TEST TOPSHIRIQLARI

**1. Ikki yoqlama yozuv deb nimaga aytiladi?**

A) Xronologik yozuvga aytiladi
B) Balansning aktiv va passiv tomonlariga aytiladi
C) Xo‘jalik operatsiyalarini aktiv yoki passiv tomonga yozishga aytiladi
D) Xo‘jalik operatsiyalarini bir scho‘tning debet tomoniga, ikkinchi scho‘tning kredit tomoniga yozishga aytiladi

**2. Scho‘tlar korrespondentsiyasi deb nimaga aytiladi?**

A) Xo‘jalik muomalalarini scho‘tlarda aks ettirish natijasida scho‘tlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqa
B) Scho‘tlarda qoldiq chiqarish tartibi
C) Sintetik scho‘tlar bo‘yicha oborot vedomosti tuzish
D) Scho‘tlarning debet yoki kredit oborotlarini jamlash

**3. Oddiy buxgalterlik yozuvi (provodka) deb nimaga aytiladi?**

A) Operatsiyalarni aktiv scho‘tning debetiga yozishga aytiladi
B) Operatsiyalarni balansning passiviga yozishga aytiladi
C) Operatsiyalarni bir scho‘tning debeti, ikkinchi bir scho‘tning kreditiga yozishga aytiladi
D) Operatsiyalarni passiv scho‘tning kreditiga yozishga aytiladi

**4. Murakkab buxgalterlik yozuvi (provodka) deb nimaga aytiladi?**

A) Operatsiyalarni passiv tomonga yozishga aytiladi
B) Operatsiyalarni bir scho‘tning debeti, bir necha scho‘tlarning kreditiga yoki aksincha yozishga aytiladi
C) Operatsiyalarni bir scho‘tning debeti, ikkinchi bir scho‘tning kreditiga yozishga aytiladi
D) Operatsiyalarni scho‘tlarning debetiga yozishga aytiladi

**5. №061310-chek bilan xodimlarga mehnat haqi to‘lash uchun olingan naqd pul kassaga kirim qilindi. Mazkur xo‘jalik operatsiyasi hisobida qanday buxgalteriya yozuvi bilan rasmiylashtiriladi?**

A) Debet 6710-“Xodimlar bilan mehnat haqi bo‘yicha hisoblashuvlar” scho‘ti, Kredit 5110-“Hisob-kitob scho‘ti”
B) Debet 5110-“Hisob-kitob scho‘ti”, Kredit 5010-“Milliy valyutadagi pul mablag‘lari” scho‘ti
C) Debet 5010-“Milliy valyutadagi pul mablag‘lari” scho‘ti, Kredit 5110-“Hisob-kitob scho‘ti”
D) Debet 6710-“Xodimlar bilan mehnat haqi bo‘yicha hisoblashuvlar” scho‘ti, Kredit 5010-“Milliy valyutadagi pul mablag‘lari” scho‘ti

**6. №6-sonli to‘lov vedomostiga asosan kassadan xodimlarga ish haqi tarqatildi. Ushbu operatsiya hisobda qanday buxgalteriya yozuvi bilan rasmiylashtiriladi?**

A) Debet 5010-“Milliy valyutadagi pul mablag‘lari” scho‘ti, Kredit 6710-“Xodimlar bilan mehnat haqi bo‘yicha hisoblashuvlar” scho‘ti

B) Debet 5110-"Hisob-kitob scho'ti", Kredit 6710-"Xodimlar bilan mehnat haqi bo'yicha hisoblashuvlar" scho'ti
C) Debet 6710-"Xodimlar bilan mehnat haqi bo'yicha hisoblashuvlar" scho'ti, Kredit 5110-"Hisob-kitob scho'ti"
D) Debet 6710-"Xodimlar bilan mehnat haqi bo'yicha hisoblashuvlar" scho'ti, Kredit 5010-"Milliy valyutadagi pul mablag'lari" scho'ti

**7. №7-sonli scho't-fakturaga asosan mol yetkazib beruvchilardan materiallar xarid qilindi. Mazkur xo'jalik operatsiyasi hisobga olishda qanday buxgalteriya provodkasi beriladi?**
A) Debet 6010-"Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga to'lanadigan scho'tlar" scho'ti, Kredit 5110-"Hisob-kitob scho'ti"
B) Debet 1010-"Xomashyo va materiallar" scho'ti, Kredit 6010-"Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga to'lanadigan scho'tlar" scho'ti
C) Debet 6010-"Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga to'lanadigan scho'tlar" scho'ti, Kredit 1010-"Xomashyo va materiallar" scho'ti
D) Debet 1010-"Xomashyo va materiallar" scho'ti, Kredit 5110-"Hisob-kitob scho'ti"

**8. №10-sonli to'lov topshiriqnomasiga asosan mol yetkazib beruvchilarga xarid qilingan materiallarning puli to'lab berildi. Ushbu xo'jalik operatsiyasi hisobga olishda qanday buxgalteriya provodkasi beriladi?**
A) Debet 1010-"Xomashyo va materiallar" scho'ti, Kredit 5110-"Hisob-kitob scho'ti"
B) Debet 6010-"Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga to'lanadigan scho'tlar" scho'ti, Kredit 5110-"Hisob-kitob scho'ti"
C) Debet 5110-"Hisob-kitob scho'ti", Kredit 6010-"Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga to'lanadigan scho'tlar" scho'ti
D) Debet 1010-"Xomashyo va materiallar" scho'ti, Kredit 6010-"Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga to'lanadigan scho'tlar" scho'ti

## AMALIY MASHQLAR

**1. Ikkiyoqlama yozuv, scho'tlar korrespondensiyasi va buxgalteriya yozuvi (provodkasi)ning mohiyati**

| | |
|---|---|
| **Ikkiyoqlama yozuv** | |
| **Scho'tlar korrespondentsiyasi** | |
| **Buxgalteriya yozuvi (provodkasi)** | |

**Talab qilinadi.** Yuqorida berilgan shaklga ikkiyoqlama yozuv, scho'tlar korrespondensiyasi va buxgalteriya yozuvi (provodkasi)ning ta'riflarini yozing va ularning mohiyatini misollar yordamida tushuntirib bering.

**2. Ikkiyoqlama yozuvning ahamiyati**




**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga ikkiyoqlama yozuv usulining ahamiyatini qisqacha tavsiflab yozing va tushuntiring.

**3. Buxgalteriya yozuvini tuzish tartibi**




**Talab qilinadi.** Yuqorida berilgan shaklga buxgalteriya yozuvi (provodkasi)ni tuzish tartibini yozing va tushuntiring.

## 4. Ikkiyoqlama yozuv usulining qo‘llanilishi

4.1. «XUMO» xususiy korxonasida hisobot davri davomida quyidagi xo‘jalik operatsiyalari sodir bo‘lgan (shartli ravishda):

**Xo‘jalik operatsiyalarini ro‘yxatga olish daftari**

| № | Xo‘jalik operatsiyalarining mazmuni | Summa, ming so‘m | Scho‘tlar aloqasi | |
|---|---|---|---|---|
| | | | Debet | Kredit |
| 1 | Mol yetkazib beruvchilardan olingan materiallar kirim qilindi | 5600 | | |
| 2 | Xaridorlardan hisob-kitob scho‘tiga sotilgan tayyor mahsulotlar uchun pul kelib tushdi | 6800 | | |
| 3 | Qisqa muddatli bank kreditining bir qismi hisob-kitob scho‘tidan to‘landi | 12800 | | |
| 4 | Ish haqi uchun hisob-kitob scho‘tidan kassaga pul olindi | 3395 | | |
| 5 | Kassadan ish haqi berildi | 3395 | | |
| 6 | Davlatning maqsadli fondlari bo‘yicha to‘lovlar hisob-kitob scho‘tidan o‘tkazildi | 1250 | | |
| 7 | Mol etkazib beruvchilarga hisob-kitob scho‘tidan to‘landi | 1750 | | |
| 8 | Olinadigan foizlar hisob-kitob scho‘tiga kelib tushdi | 3838 | | |

**Talab qilinadi.** Yuqoridagi xo‘jalik operatsiyalarini scho‘tlarda ikkiyoqlama yozuv usulidan foydalangan holda hisobda xo‘jalik operatsiyalarini ro‘yxatga olish daftarida aks ettiring.

4.2. «SAMO» xususiy korxonasida hisobot davri davomida quyidagi xo‘jalik operatsiyalari sodir bo‘lgan (shartli ravishda):

**Xo‘jalik operatsiyalarini ro‘yxatga olish daftari**

| № | Xo‘jalik operatsiyalarining mazmuni | Summa, ming so‘m | Scho‘tlar aloqasi | |
|---|---|---|---|---|
| | | | Debet | Kredit |
| 1 | Mol etkazib beruvchilardan olingan ehtiyot qismlar kirim qilindi | 2500 | | |
| 2 | Asosiy ishlab chiqarishda ishlayotgan ishchilarga ish haqi hisoblandi | 3600 | | |
| 3 | Hisoblangan ish haqidan daromad solig‘i hisoblandi | 324 | | |
| 4 | Hisoblangan ish haqiga nisbatan 1 % kasaba uyushmasiga ajratma hisoblandi | 36 | | |
| 5 | Xaridorlardan hisob-kitob scho‘tiga sotilgan tayyor mahsulotlar uchun pul kelib tushdi | 6400 | | |
| 6 | Xaridorlardan tayyor mahsulotlar uchun bo‘nak olindi | 700 | | |
| 7 | Hisob kitob scho‘tidan xizmat safari uchun avans olindi | 250 | | |
| 8 | Kassadan hisobdor shaxsga xizmat safari uchun avans berildi | 250 | | |
| 9 | Qisqa muddatli bank kreditining bir qismi hisob-kitob scho‘tidan to‘landi | 12500 | | |
| 10 | Ish haqi uchun hisob-kitob scho‘tidan kassaga pul olindi | 2700 | | |
| 11 | Kassadan ish haqi berildi | 2700 | | |
| 12 | Davlatning maqsadli fondlari bo‘yicha to‘lovlar hisob- | 1200 | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | kitob scho'tidan o'tkazildi | | | |
| 13 | Mol yetkazib beruvchilarga hisob-kitob scho'tidan to'landi | 1700 | | |
| 14 | Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz hisob kitob scho'tidan to'landi | 3890 | | |
| 15 | Mol yetkazib beruvchilardan idishlar olindi | 500 | | |
| 16 | Materiallar ishlab chiqarishga sarflandi | 3200 | | |
| 17 | Boshqa debitorlik qarzlari hisob-kitob scho'tiga kelib tushdi | 2200 | | |

**Talab qilinadi.** Ikki yoqlama yozuv usuludan foydalangan holda yuqoridagi xo'jalik operatsiyalariga buxgalteriya yozuvini (provodkasini) tuzing.

4.3. «NIHOL» mas'uliyati cheklangan jamiyatning faoliyati ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo'lib, hisobot davri davomida quyidagi xo'jalik muomalalari sodir bo'lgan (shartli ravishda):

**Xo'jalik operatsiyalarini ro'yxatga olish daftari**

| № | Xo'jalik operatsiyalarining mazmuni | Summa, ming so'm | Scho'tlar aloqasi | |
|---|---|---|---|---|
| | | | Debet | Kredit |
| 1 | "Alanga plyus" xususiy korxonasidan materiallar sotib olindi | 20000 | | |
| 2 | Asosiy ishlab chiqarishga materiallar berildi | 20500 | | |
| 3 | "Alanga plyus"xususiy korxonasidan olingan materiallar puli to'lab berildi | 20000 | | |
| 4 | Asosiy ishlab chiqarishda ishlayotgan ishchilarga ish haqi hisoblandi | 3500 | | |
| 5 | Hisoblangan ish haqidan daromad solig'i hisoblandi | 350 | | |
| 6 | Ish haqiga nisbatan 0,1% Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya fondi (ShJPF)ga hisoblandi | 35 | | |
| 7 | Hisoblangan ish haqiga nisbatan Yagona ijtimoiy to'lov hisoblandi (12%) | 875 | | |
| 8 | Mol yetkazib beruvchilarga hisob-kitob scho'tidan to'landi | 1500 | | |
| 9 | Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz hisob kitob scho'tidan to'landi | 80 | | |
| 10 | Ish haqi uchun hisob-kitob scho'tidan kassaga pul olindi | 3100 | | |
| 11 | Kassadan ish haqi berildi | 3100 | | |
| 12 | Davlatning maqsadli fondlari bo'yicha to'lovlar hisob-kitob scho'tidan o'tkazildi | 180 | | |
| 13 | Asosiy ishlab chiqarishda ishlatilayotgan asosiy vositalarga eskirish hisoblandi | 6274 | | |
| 14 | Qisqa muddatli bank kreditlarining bir qismi hisob-kitob scho'tidan to'landi | 10000 | | |
| 15 | "Davr" MChJdan ehtiyot qismlar olindi | 6500 | | |

**Talab qilinadi.** Ikki yoqlama yozuv usuludan foydalangan holda «NIHOL» mas'uliyati cheklangan jamiyatda sodir bo'lgan xo'jalik operatsiyalariga buxgalteriya yozuvini (provodkasini) tuzing.

4.4. «TAMANNO» xususiy korxonasi (XK) mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo'lib, hisobot oyida quyidagi xo'jalik muomalalari sodir bo'lgan (shartli ravishda):

1. 2019 yil 7 yanvarda mol yetkazib beruvchilardan 3 000 000 so'mlik ehtiyot qismlar qabul qilindi.
2. 2019 yil 4 yanvarda ishlab chiqarishga 15 800 000 so'mlik materiallar berildi.
3. Xususiy korxonani budjetga soliqlar bo'yicha qarzlari 10 000 000 so'm 2019 yil 15 yanvarda tuman soliq inspeksiyasiga o'tkazib berildi. Shuningdek, davlatning maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz 3 500 000 so'm ham shu sanada o'tkazib berildi.
4. Xaridorlardan 2019 yil 12 yanvarda hisob-kitob scho'tiga 12 800 000 so'm sotilgan tayyor mahsulotlar uchun pul kelib tushdi
5. Hisob-kitob scho'tidan 2019 yil 18 yanvarda ish haqi uchun 4 283 000 so'm naqd pul olindi.
6. Kassadan to'lov vedomostiga asosan 2019 yil 19 yanvarda 4 283 000 so'm ish haqi tarqatildi.
7. Xaridor va buyurtmachilardan 2019 yil 14 yanvarda 2 500 000 so'mlik avans olindi.
8. Boshqa debitorlik qarzlari 2 356 000 so'm 2019 yil 18 yanvarda hisob-kitob scho'tiga kelib tushdi
9. Ishlab chiqarishda ishlayotgan ishchilarga ish haqi hisoblandi (29.01.2019 yil): 20 000 000 so'm.
   - hisoblangan ish haqiga nisbatan yagona ijtimoiy to'lov (YaIT-12%) hisoblandi – 3 000 000 so'm;
   - ishchilarga hisoblangan ish haqidan daromad solig'i hisoblandi – 1 500 000 so'm.
10. Asosiy ishlab chiqarishda foydalanilayotgan asosiy vositalarga 2019 yil 29 yanvarda eskirish hisoblandi – 8 150 000 so'm.
11. 2019 yil 25 yanvarda mol yetkazib beruvchilarga 3 000 000 so'm to'lov topshiriqnomasiga asosan hisob-kitob scho'tidan o'tkazib berildi.

**Talab qilinadi.** Yuqoridagi xo'jalik operatsiyalarini ikkiyoqlama yozuv usulidan foydalangan holda quyidagi xo'jalik operatsiyalarini ro'yxatga olish daftarida aks ettiring.

**Xo'jalik operatsiyalarini ro'yxatga olish daftari**

| № | Xo'jalik operatsiyalarining mazmuni | Summa, ming so'm | Scho'tlar aloqasi | |
|---|---|---|---|---|
| | | | Debet | Kredit |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |

4.5. «TABASSUM» xususiy korxonasi (XK) mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo'lib, hisobot oyida quyidagi xo'jalik muomalalari sodir bo'lgan (shartli ravishda):

1. Boshqa kreditorlik qarzlari 2 356 000 so'm 2019 yil 5 yanvarda hisob-kitob scho'tidan to'lab berildi.
2. 2019 yil 7 yanvarda mol yetkazib beruvchilardan 3 000 000 so'mlik materiallar qabul qilindi.
3. 2019 yil 4 yanvarda ishlab chiqarishga 9 500 000 so'mlik materiallar berildi.
4. Xaridorlardan 2019 yil 12 yanvarda hisob-kitob scho'tiga 3 387 000 so'm sotilgan tayyor mahsulotlar uchun pul kelib tushdi

5. Xususiy korxonani budjetga soliqlar bo'yicha qarzlari 8 000 000 so'm 2019 yil 15 yanvarda tuman soliq inspeksiyasiga o'tkazib berildi. Shuningdek, davlatning maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz 3 500 000 so'm ham shu sanada o'tkazib berildi.

6. Hisob-kitob scho'tidan 2019 yil 18 yanvarda ish haqi uchun 4 800 000 so'm naqd pul olindi.

7. Kassadan to'lov vedomostiga asosan 2019 yil 19 yanvarda 4 800 000 so'm ish haqi tarqatildi.

8. Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga 2019 yil 15 yanvarda 1 500 000 so'mlik avans berildi.

9. Ishlab chiqarishda ishlayotgan ishchilarga ish haqi hisoblandi (28.01.2019 yil): 24 000 000 so'm.

- hisoblangan ish haqiga nisbatan yagona ijtimoiy to'lov (YaIT-12%) hisoblandi – 3 600 000 so'm;
- ishchilarga hisoblangan ish haqidan daromad solig'i hisoblandi – 1 800 000 so'm.

10. Asosiy ishlab chiqarishda foydalanilayotgan asosiy vositalarga 2019 yil 29 yanvarda eskirish hisoblandi – 8 150 000 so'm.

11. 2019 yil 25 yanvarda mol yetkazib beruvchilarga 3 000 000 so'm to'lov topshiriqnomasiga asosan hisob-kitob scho'tidan o'tkazib berildi.

**Talab qilinadi.** Yuqoridagi xo'jalik operatsiyalarini ikkiyoqlama yozuv usulidan foydalangan holda quyidagi xo'jalik operatsiyalarini ro'yxatga olish daftarida aks ettiring.

**Xo'jalik operatsiyalarini ro'yxatga olish daftari**

| № | Xo'jalik operatsiyalarining mazmuni | Summa, ming so'm | Scho'tlar aloqasi | |
|---|---|---|---|---|
| | | | Debet | Kredit |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |

## Scho'tlarda oborot va qoldiq chiqarish
## (2 soat)

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Joriy buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini umumlashtirish deganda nimani tushunasiz?
2. Oborot vedomostini ta'riflang va u nima uchun tuziladi?
   a) sintetik scho'tlar bo'yicha
   b) analitik scho'tlar bo'yicha
3. Oborot vedomostlari qanday tuziladi?
   a) sintetik scho'tlar bo'yicha
   b) analitik scho'tlar bo'yicha
4. Muayyan sitetik scho't bo'yicha oborot vedomosti va mazkur scho'tda ochilgan analitik scho'tlar bo'yicha oborot vedomosti o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?
5. Analitik scho'tlar bo'yicha saldo vedomostining mazmuni, ahamiyati va tuzilishi qanday?
6. Joriy buxgalteriya ma'lumotlari qanday umumlashtiriladi?
7. Aktiv scho'tlar bo'yicha hisobot davri oxiriga qoldiq qanday aniqlanadi?
8. Passiv scho'tlar bo'yicha hisobot davri oxiriga qoldiq qanday aniqlanadi?

## TEST TOPSHIRIQLARI

**1. "Sal'do" so`zining ma'nolarini toping?**
A) "u ishonadi", "qoldiq"
B) "u qarzdor", "qoldiq"
C) "qoldiq", "hisob-kitob"
D) "faoliyatli", "u qarzdor"
**2. Aktiv scho'tlarda qoldiq chiqarish tartibi qanday?**
A) Kredit oborotdan debet qoldiq ayriladi
B) Oy boshidagi debet qoldiqqa kredit oborot qo'shilib debet oborot ayriladi
C) Kredit qoldiqdan debet oborot ayriladi
D) Oy boshidagi debetqoldiqqa oylik debet oborot qo'shilib kredit oborot ayriladi
**3. Sintetik scho'tlar bo'yicha oborot vedomostidagi ikkinchi juft tenglik nimadan kelib chiqadi?**
A) Ikki yoqlama yozuvdan
B) Hujjatlashtirishdan
C) Balansdan
D) Oborot vedomostidan
**4. Debet oboroti – bu ....**
A) Scho't debeti bo'yicha jami summa
B) Scho't debeti bo'yicha jami summa (boshlang'ich debet qoldiqsiz)
C) Scho't krediti bo'yicha jami summa (boshlang'ich kredit qoldiqsiz)
D) Scho't krediti bo'yicha jami summa
**5. Kredit oboroti – bu ....**
A) Scho't krediti bo'yicha jami summa
B) Scho't debeti bo'yicha jami summa (boshlang'ich debet qoldiqsiz)
C) Scho't debeti bo'yicha jami summa
D) Scho't krediti bo'yicha jami summa (boshlang'ich kredit qoldiqsiz)
**6. Aktiv scho'tlarda oxirgi debet qoldiqni hisoblash to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.**
A) Scho'tning boshlang'ich debet qoldig'i + scho't bo'yicha debet oborot - scho't bo'yicha kredit oborot
B) Scho'tning boshlang'ich debet qoldig'i – scho't bo'yicha debet oborot + scho't bo'yicha kredit oborot
C) Scho'tning boshlang'ich krediti qoldig'i + scho't bo'yicha kredit oborot - scho't bo'yicha debet oborot
D) Scho'tning boshlang'ich kredit qoldig'i + scho't bo'yicha debet oborot - scho't bo'yicha kredit oborot
**7. Passiv scho'tlarda oxirgi kredit qoldiqni hisoblash to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.**
A) Scho'tning boshlang'ich kredit qoldig'i + scho't bo'yicha debet oborot - scho't bo'yicha kredit oborot
B) Scho'tning boshlang'ich debet qoldig'i – scho't bo'yicha debet oborot + scho't bo'yicha kredit oborot
C) Scho'tning boshlang'ich krediti qoldig'i + scho't bo'yicha kredit oborot - scho't bo'yicha debet oborot
D) Scho'tning boshlang'ich debet qoldig'i + scho't bo'yicha debet oborot - scho't bo'yicha kredit oborot
**8. Sistematik yozuv deb nimaga aytiladi?**
A) Xo'jalik muomalalarini tartib bilan aks ettirmaslikka
B) Xo'jalik muomalalarini sodir bo'lish ketma-ketligiga ko'ra qayd qilishga
C) Xo'jalik muomalalarini scho'tlar tizimi bo'yicha belgilangan scho'tlar aloqasi orqali qayd qilishga
D) Xo'jalik muomalalarini har xil daftarlarda qayd qilishga
**9. Xronologik yozuv deb nimaga aytiladi?**

A) Xo'jalik muomalalarini scho'tlar tizimi bo'yicha belgilangan scho'tlar aloqasi orqali qayd qilishga
B) Xo'jalik muomalalarini sodir bo'lish ketma-ketligiga ko'ra qayd qilishga
C) Xo'jalik muomalalarini tartib bilan aks ettirmaslikka
D) Xo'jalik muomalalarini xar xil daftarlarda qayd qilishga

**10. Kassadan xizmat safari uchun avans berildi. Mazkur xo'jalik operatsiyasi hisobda qanday buxgalteriya yozuvi orqali rasmiylashtiriladi?**

A) Debet 6710-"Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashuvlar" scho'ti; Kredit 5010-"Milliy valyutadagi pul mablag'lari" scho'ti
B) Debet 4210-"Mehnat haqi bo'yicha berilgan avanslar" scho'ti; Kredit 5010-"Milliy valyutadagi pul mablag'lari" scho'ti
C) Debet 4220-"Xizmat safarlariga berilgan avans" scho'ti; Kredit 5010-"Milliy valyutadagi pul mablag'lari" scho'ti
D) Debet Kredit 5010-"Milliy valyutadagi pul mablag'lari" scho'ti; 4220-"Xizmat safarlariga berilgan avans" scho'ti

## AMALIY MASHQLAR

### 1. Sintetik scho'tlar bo'yicha oborot va qoldiq chiqarish

1. «ASILBEK-SERVIS» xususiy korxonasining quyidagi ma'lumotlaridan foydalanib, hisobot davri boshiga buxgalteriya balansini tuzing, hisobot davrida sodir bo'lgan xo'jalik operatsiyalarini hisobida aks ettiring, scho'tlar bo'yicha oborotlarni va oxirgi qoldiqlarni aniqlang hamda hisobot davri oxiriga buxgalteriya balansini tuzing.

«ASILBEK-SERVIS» xususiy korxonasining ma'lumotlari
(01.01.20... holatiga scho'tlar saldolari)

| № | Scho'tlarning nomi | Saldo, ming so'm | Balansda | |
|---|---|---|---|---|
| | | | aktiv | passiv |
| 1 | Asosiy vositalar | 101991 | | |
| 2 | Asosiy vositalarning eskirishi | 46259 | | |
| 3 | Hisoblangan foizlar | 905 | | |
| 4 | Idish va idish materillari | 7300 | | |
| 5 | Xaridorlardan olingan bo'naklar | 4945 | | |
| 6 | Xaridorlardan olinadigan scho'tlar | 11401 | | |
| 7 | Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik | 4614 | | |
| 8 | Mol yetkazib beruvchilarga berilgan bo'naklar | 6891 | | |
| 9 | Maqsadli davlat jamgarmalari bo'yicha bo'nak to'lovlari | 1835 | | |
| 10 | Ustav kapitali | 18720 | | |
| 11 | Kassa | 1000 | | |
| 12 | Maxsus scho'tdagi pul mablag'lari | 14773 | | |
| 13 | Mol yetkazib beruvchilarga qarzdorlik | 4657 | | |
| 14 | Tayyor mahsulot | 8923 | | |
| 15 | Xodimlarga berilgan bo'naklar | 620 | | |
| 16 | Davlatning maqsadli fondlariga to'lovlar | 3890 | | |
| 17 | Mehnat haqi bo'yicha qarzdorlik | 3395 | | |
| 18 | Olinadigan foizlar | 3938 | | |
| 19 | Taqsimlanmagan foyda | 64750 | | |
| 20 | Qo'shilgan kapital | 15320 | | |
| 21 | Hisob-kitob scho'ti | 38604 | | |
| 22 | Qisqa muddatli bank kreditlari | 40182 | | |
| 23 | Materiallar | 10361 | | |
| **Balans** | | | | |

**Talab qilinadi:**

1. Yuqorida keltirilgan scho'tlarni aktiv va passiv scho'tlarga ajrating.
2. Aktiv scho'tlarni uzoq muddatli va joriy aktivlarga, passiv scho'tlarni o'z mablag'lar manbalari va majburiyatlarga ajrating.
3. Quyida keltirilgan shaklda hisobot davri boshiga boshlang'ich balans tuzing.

«ASILBEK-SERVIS» xususiy korxonasi buxgalteriya balansi

| Aktiv | Hisobot davri boshiga | Hisobot davri oxiriga | Passiv | Hisobot davri boshiga | Hisobot davri oxiriga |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | 3 | 4 | 5 | 7 | 8 |
| I. Uzoq muddatli aktivlar | | | I. O'z mablag'lari manbalari | | |
| I bo'lim bo'yicha jami | | | I bo'lim bo'yicha jami | | |
| II. Joriy aktivlar | | | II. Majburiyatlar. | | |
| II bo'lim bo'yicha jami | | | II bo'lim bo'yicha jami | | |
| **BALANS** | | | **BALANS** | | |

Yuqorida tuzilgan balansdan foydalanib, «ASILBEK-SERVIS» xususiy korxonasida hisobot davrida sodir bo'lgan quyidagi xo'jalik operatsiyalari ta'sirida ro'y bergan o'zgarishlarni balansda aks ettiring:

| **№** | **Xo'jalik muomalalari** | **Summa, ming so'm** | | | | | | **Scho'tlar aloqasi** | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | **Variant** | | | | | | | |
| | | **0** | **1** | **2** | **3** | **4** | **5** | **Debet** | **Kredit** |
| 1 | Mol yetkazib beruvchilar-dan olingan materiallar kirim qilindi | 5200 | 5100 | 5500 | 4980 | 5420 | 5600 | | |
| 2 | Xaridorlardan hisob-kitob scho'tiga sotilgan tayyor mahsulotlar uchun pul kelib tushdi | 6500 | 6540 | 6400 | 6300 | 6200 | 6800 | | |
| 3 | Qisqa muddatli bank kreditining bir qismi maxsus hisob-kitob scho'tidan to'landi | 12200 | 11900 | 12500 | 12900 | 11800 | 12800 | | |
| 4 | Ish haqi uchun hisob-kitob scho'tidan kassaga pul olindi | 3000 | 3300 | 3395 | 3000 | 3300 | 3395 | | |
| 5 | Kassadan ish haqi berildi | 3000 | 3300 | 3395 | 3000 | 3300 | 3395 | | |
| 6 | Davlatning maqsadli fondlari bo'yicha to'lovlar hisob-kitob scho'tidan o'tkazildi | 1500 | 1200 | 1400 | 1900 | 1300 | 1250 | | |
| 7 | Mol yetkazib beruvchilarga hisob-kitob scho'tidan to'landi | 1800 | 1700 | 1850 | 1900 | 1860 | 1750 | | |
| 8 | Olinadigan foizlar hisob-kitob scho'tiga kelib tushdi | 3900 | 3820 | 3890 | 3800 | 3850 | 3838 | | |

***Izoh:*** *Scho'tlar saldolari va xo'jalik muomalalari berilgan jadvaldagi 0-variantdagi misoldan foydalangan holda o'qituvchi mavzuni tuShuntiradi. Qolgan 1-5 variantlar esa dars oxirida talabalarga uy vazifasi sifatida taqsimlab beriladi.*

**Talab qilinadi:**

1. Belgilangan shaklda xo'jalik muomalalarini ro'yxatga olish jurnalini tuzing va unga topshiriqlarni to'lig'icha yozing. Scho'tlar korrespondensiyasini scho'tlar rejasiga muvofiq shifrlar yordamida belgilang.
2. Sintetik scho'tlar sxemasini chizing va oyning birinchi kuniga boshlang'ich qoldiq summalarini yozing. Scho'tlarni ochishda scho'tlar shifri bilan birga ularning nomlarini ham to'liq yozing. Scho'tlarni ularning raqamlari o'sish tartibida joylashtiring. Yozuvlar tugaganidan keyin har bir scho't bo'yicha oborotlarni va qoldiqlarni aniqlang.
3. Yuqorida keltirilgan shaklda hisobot davri oxiriga «ASILBEK-SERVIS» xususiy korxonasining balansini tuzing.

**Har bir sintetik scho'tni quyidagi shaklda ochib chiqing:**

**Aktiv scho'tlar uchun**

№____ *(scho't shifri)*

Debet *(scho'tlar nomi)* Kredit

S-do:

**Passiv scho'tlar uchun**

№____ *(scho't shifri)*

Debet *(scho'tlar nomi)* Kredit

S-do:

2. «FAYZ» xususiy korxonasining quyidagi ma'lumotlaridan foydalanib, hisobot davri boshiga buxgalteriya balansini tuzing, hisobot davrida sodir bo'lgan xo'jalik operatsiyalarini hisobida aks ettiring, scho'tlar bo'yicha oborotlarni va oxirgi qoldiqlarni aniqlang hamda hisobot davri oxiriga buxgalteriya balansini tuzing.

«FAYZ» xususiy korxonasining ma'lumotlari
(01.01.20... holatiga scho'tlar saldolari)

| № | Scho'tlarning nomi | Saldo, ming so'm | Balansda | |
|---|---|---|---|---|
| | | | aktiv | passiv |
| 1 | Asosiy vositalar | 88154 | | |
| 2 | Asosiy vositalarning eskirishi | 39669 | | |
| 3 | Materiallar | 20665 | | |
| 4 | Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik | 11552 | | |
| 5 | Xaridorlardan olinadigan scho'tlar | 13857 | | |
| 6 | Mehnatga haqi bo'yicha qarzdorlik | 4283 | | |
| 7 | Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga berilgan bo'naklar | 7158 | | |
| 8 | Taqsimlanmagan foyda | 38746 | | |
| 9 | Hisob-kitob scho'ti | 24729 | | |
| 10 | Mol yetkazib beruvchilarga qarzdorlik | 2935 | | |
| 11 | Olingan bo'naklar | 4428 | | |
| 12 | Tayyor mahsulot | 5525 | | |
| 13 | Davlatning maqsadli fondlariga to'lovlar | 3767 | | |
| 14 | Xodimlarga berilgan bo'naklar | 758 | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 15 | Boshqa debitorlik qarzlari | 2356 | | |
| 16 | Maqsadli davlat jamgarmalari va sug'urtalar bo'yicha bo'nak to'lovlari | 1385 | | |
| 17 | Ustav kapitali | 18720 | | |
| 18 | Qisqa muddatli bank kreditlari | 40182 | | |
| 19 | Boshqa kreditorlik qarzlari | 305 | | |
| | **Balans** | | | |

**Talab qilinadi:**

1. Yuqorida keltirilgan scho'tlarni aktiv va passiv scho'tlarga ajrating.
2. Aktiv scho'tlarni uzoq muddatli va joriy aktivlarga, passiv scho'tlarni o'z mablag'lar manbalari va majburiyatlarga ajrating.
3. Quyida keltirilgan shaklda hisobot davri boshiga boshlang'ich balans tuzing.

Yuqorida tuzilgan balansdan foydalanib, «FAYZ» xususiy korxonasida hisobot davrida sodir bo'lgan quyidagi xo'jalik operatsiyalari ta'sirida ro'y bergan o'zgarishlarni balansda aks ettiring:

| № | Xo'jalik muomalalari | Summa, ming so'm | | | | | | Scho'tlar aloqasi | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Variant | | | | | | | |
| | | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | Debet | Kredit |
| 1 | Mol yetkazib beruvchilardan olingan ehtiyot qismlar kirim qilindi | 2200 | 2100 | 2500 | 2900 | 2400 | 2600 | | |
| 2 | Asosiy ishlab chiqarishda ishlayotgan ishchilarga ish haqi hisoblandi | 3000 | 3500 | 3600 | 3200 | 3400 | 3100 | | |
| 3 | Hisoblangan ish haqidan daromad solig'i hisoblandi | 270 | 315 | 324 | 288 | 306 | 279 | | |
| 4 | Hisoblangan ish haqiga nisbatan 1 % kasaba uyushmasiga ajratma hisoblandi | 30 | 35 | 36 | 32 | 34 | 31 | | |
| 5 | Xaridorlardan hisob-kitob scho'tiga sotilgan tayyor mahsulotlar uchun pul kelib tushdi | 6500 | 6540 | 6400 | 6300 | 6200 | 6800 | | |
| 6 | Xaridorlardan tayyor mahsulotlar uchun bo'nak olindi | 500 | 600 | 700 | 800 | 900 | 600 | | |
| 7 | Hisob-kitob scho'tidan xizmat safari uchun avans olindi | 300 | 350 | 250 | 200 | 400 | 260 | | |
| 8 | Kassadan hisobdor shaxsga xizmat safari uchun avans berildi | 300 | 350 | 250 | 200 | 400 | 260 | | |
| 9 | Qisqa muddatli bank kreditining bir qismi hisob-kitob scho'tidan to'landi | 12000 | 11000 | 12500 | 13000 | 11800 | 12500 | | |
| 10 | Ish haqi uchun hisob-kitob scho'tidan kassaga pul olindi | 2500 | 2600 | 2700 | 2800 | 2900 | 3000 | | |
| 11 | Kassadan ish haqi berildi | 2500 | 2600 | 2700 | 2800 | 2900 | 3000 | | |
| 12 | Davlatning maqsadli fondlari bo'yicha to'lovlar hisob-kitob | 1000 | 1100 | 1200 | 1300 | 900 | 800 | | |

| | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | scho'tidan o'tkazildi | | | | | | | | |
| 13 | Mol etkazib beruvchilarga hisob-kitob scho'tidan to'landi | 1500 | 1600 | 1700 | 1900 | 1860 | 1750 | | |
| 14 | Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz hisob kitob scho'tidan to'landi | 3900 | 3920 | 3890 | 3800 | 3850 | 3938 | | |
| 15 | Mol etkazib beruvchilardan idishlar olindi | 300 | 400 | 500 | 600 | 700 | 800 | | |
| 16 | Asosiy ishlab chiqarishda ishlatilayotgan asosiy vositalarga eskirish hisoblandi | 1000 | 1200 | 1300 | 1400 | 1500 | 1600 | | |
| 17 | Materiallar ishlab chiqarishga sarflandi | 2500 | 3000 | 3200 | 3300 | 3500 | 3600 | | |
| 18 | Boshqa debitorlik qarzlari hisob-kitob scho'tiga kelib tushdi | 2000 | 2100 | 2200 | 2300 | 1800 | 1900 | | |
| 19 | Mol yetkazib beruvchilarga hisob-kitob scho'tidan to'landi | 2000 | 2100 | 2200 | 2300 | 1800 | 1900 | | |

**Talab qilinadi:**

1. Belgilangan shaklda xo'jalik muomalalarini ro'yxatga olish jurnalini tuzing va unga topshiriqlarni to'lig'icha yozing. Scho'tlar korrespondensiyasini scho'tlar rejasiga muvofiq shifrlar yordamida belgilang.
2. Sintetik scho'tlar sxemasini chizing va oyning birinchi kuniga boshlang'ich qoldiq summalarini yozing. Scho'tlarni ochishda scho'tlar shifri bilan birga ularning nomlarini ham to'liq yozing. Scho'tlarni ularning raqamlari o'sish tartibida joylashtiring. Yozuvlar tugaganidan keyin har bir scho't bo'yicha oborotlarni va qoldiqlarni aniqlang.
3. Yuqorida keltirilgan shaklda hisobot davri oxiriga «FAYZ» xususiy korxonasining balansini tuzing.

3. «NIHOL» fermer xo'jaligining quyidagi ma'lumotlaridan foydalanib, hisobot davri boshiga buxgalteriya balansini tuzing, hisobot davrida sodir bo'lgan xo'jalik operatsiyalarini hisobida aks ettiring, scho'tlar bo'yicha oborotlarni va oxirgi qoldiqlarni aniqlang hamda hisobot davri oxiriga buxgalteriya balansini tuzing.

«NIHOL» fermer xo'jaligining ma'lumotlari (01.01.20... holatiga scho'tlar saldolari):

«NIHOL» fermer xo'jaligida hisobot davri boshiga quyidagi xo'jalik mablag'lari va mablag'lar manbalari mavjud: Asosiy vositalar – 62 740 000 so'm, Ustav kapitali – 36 000 000 so'm, Taqsimlanmagan foyda – 2 385 000 so'm, Materiallar – 1 750 000 so'm, Budjetga soliqlar bo'yicha qarzlar – 80 000 so'm, Davlatning maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz – 180 000 so'm, Idishlar – 200 000 so'm, Asosiy vositalarga hisoblangan eskirish – 34 200 000 so'm, Qisqa muddatli bank krediti – 50 000 000 so'm, Kassadagi pul mablag'lari – 5 000 so'm, Mehnat haqi bo'yicha qarz – 500 000 so'm, Hisob-kitob scho'ti – 60 150 000 so'm, Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilardan qarzdorlik – 1 500 000 so'm.

**Talab qilinadi.** Fermer xo'jaligining xo'jalik mablag'lari va mablag'lar manbalarini turkumlang va hisobot davri boshiga buxgalteriya balansini tuzing.

«NIHOL» fermer xo'jaligida hisobot davri davomida quyidagi xo'jalik operatsiyalari bo'lgan (shartli ravishda):

**Xo‘jalik operatsiyalarini ro‘yxatga olish daftari**

| № | Xo‘jalik operatsiyasining mazmuni | Summa, ming so‘m | Scho‘tlar aloqasi | |
|---|---|---|---|---|
| | | | Debet | Kredit |
| 1 | “Alanga plyus” xususiy korxonasidan materiallar sotib olindi | 20000 | | |
| 2 | Asosiy ishlab chiqarishga materiallar berildi | 20500 | | |
| 3 | “Alanga plyus” xususiy korxonasidan olingan materiallar puli to‘lab berildi | 20000 | | |
| 4 | Asosiy ishlab chiqarishda ishlayotgan ishchilarga ish haqi hisoblandi | 3500 | | |
| 5 | Hisoblangan ish haqidan daromad solig‘i hisoblandi | 350 | | |
| 7 | Ish haqiga nisbatan 0,1% shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisob raqami (ShJPF)ga hisoblandi | 35 | | |
| 8 | Hisoblangan ish haqiga nisbatan Yagona ijtimoiy to‘lov hisoblandi (12%) | 875 | | |
| 9 | Mol yetkazib beruvchilarga hisob-kitob scho‘tidan to‘landi | 1500 | | |
| 10 | Budjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz hisob kitob scho‘tidan to‘landi | 80 | | |
| 11 | Ish haqi uchun hisob-kitob scho‘tidan kassaga pul olindi | 3100 | | |
| 12 | Kassadan ish haqi berildi | 3100 | | |
| 13 | Davlatning maqsadli fondlari bo‘yicha to‘lovlar hisob-kitob scho‘tidan o‘tkazildi | 180 | | |
| 14 | Asosiy ishlab chiqarishda ishlatilayotgan asosiy vositalarga eskirish hisoblandi | 6274 | | |
| 15 | Qisqa muddatli bank kreditlarining bir qismi hisob-kitob scho‘tidan to‘landi | 10000 | | |
| 16 | “Davr” MChJdan ehtiyot qismlar olindi | 6500 | | |

**Talab qilinadi:**

1. Yuqoridagi xo‘jalik operatsiyalarini scho‘tlarda ikkiyoqlama yozuv usulidan foydalangan holda hisobda xo‘jalik operatsiyalarini ro‘yxatga olish daftarida aks ettiring.
2. Tegishli sintetik scho‘tlarni oching hamda boshlang‘ich qoldiqlarni o‘tkazing.
3. Xo‘jalik operatsiyalarini ro‘yxatga olish daftarida hisobga olingan xo‘jalik operatsiyalarini tegishli scho‘tlarga o‘tkazing.
4. Scho‘tlar bo‘yicha oborotlarni va oxirgi qoldiqlarni aniqlang. Hisobot davri oxiriga buxgalteriya balansini tuzing

## 2. Sintetik scho‘tlar bo‘yicha oborot vedomosti

1. «SAMO» xususiy korxonasining quyidagi ma’lumotlaridan foydalanib, oborot vedomostini tuzing.

«SAMO» xususiy korxonasining ma’lumotlari
(01.01.20... holatiga scho‘tlar saldolari)

| № | Scho‘tlarning nomi | Saldo, ming so‘m |
|---|---|---|
| 1 | Asosiy vositalar | 101991 |
| 2 | Asosiy vositalarning eskirishi | 80899 |
| 3 | Hisoblangan foizlar | 905 |
| 4 | Xaridorlardan olingan bo‘naklar | 4945 |
| 5 | Xaridorlardan olinadigan scho‘tlar | 11401 |
| 6 | Budjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik | 4614 |
| 7 | Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga berilgan bo‘naklar | 6891 |

| | | |
|---|---|---|
| 8 | Maqsadli davlat jamgarmalari bo'yicha bo'nak to'lovlari | 1835 |
| 9 | Ustav kapitali | 18720 |
| 10 | Mol yetkazib beruvchilarga qarzdorlik | 4657 |
| 11 | Tayyor mahsulot | 8923 |
| 12 | Xodimlarga berilgan bo'naklar | 620 |
| 13 | Davlatning maqsadli fondlariga to'lovlar | 3890 |
| 14 | Mehnatga haqi bo'yicha qarzdorlik | 13395 |
| 15 | Olinadigan foizlar | 3900 |
| 16 | Taqsimlanmagan foyda | 27677 |
| 17 | Hisob-kitob scho'ti | 53924 |
| 18 | Qisqa muddatli bank kreditlari | 40144 |
| 19 | Materiallar | 10361 |

**Talab qilinadi.** Fermer xo'jaligining xo'jalik mablag'lari va mablag'lar manbalarini turkumlang va hisobot davri boshiga buxgalteriya balansini tuzing.

«SAMO» xususiy korxonasida hisobot davri davomida quyidagi xo'jalik operatsiyalari bo'lgan (shartli ravishda):

**Xo'jalik operatsiyalarini ro'yxatga olish daftari**

| № | Xo'jalik operatsiyalari | Summa, ming so'm | Scho'tlar aloqasi | |
|---|---|---|---|---|
| | | | Debet | Kredit |
| 1 | Mol yetkazib beruvchilardan olingan materiallar kirim qilindi | 8000 | | |
| 2 | Xaridorlardan hisob-kitob scho'tiga sotilgan tayyor mahsulotlar uchun pul kelib tushdi | 11401 | | |
| 3 | Ish haqi uchun hisob-kitob scho'tidan kassaga pul olindi | 13000 | | |
| 4 | Kassadan ish haqi berildi | 13000 | | |
| 5 | Mol yetkazib beruvchilarga hisob-kitob scho'tidan to'landi | 4600 | | |
| 6 | Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz hisob kitob scho'tidan to'landi | 3900 | | |
| 7 | Hisob-kitob scho'tidan xizmat safari uchun avans olindi | 700 | | |
| 8 | Kassadan hisobdor shaxsga xizmat safari uchun avans berildi | 700 | | |
| 9 | Qisqa muddatli bank kreditining bir qismi hisob-kitob scho'tidan to'landi | 10000 | | |
| 10 | Davlatning maqsadli fondlari bo'yicha to'lovlar hisob-kitob scho'tidan o'tkazildi | 3800 | | |
| 11 | Olinadigan foizlar hisob-kitob scho'tiga kelib tushdi | 3900 | | |
| 12 | Taqsimlanmagan foydaning bir qismi ustav kapitaliga o'tkazildi | 10000 | | |
| 13 | Asosiy ishlab chiqarishda ishlatilayotgan asosiy vositalarga eskirish hisoblandi | 7000 | | |
| 14 | Asosiy ishlab chiqarishga materiallar berildi | 15000 | | |
| 15 | Hisoblangan foizlar hisob-kitob scho'tidan to'landi | 905 | | |
| 16 | "Ta'minotchi" xususiy korxonasidan idishlar olindi | 1500 | | |
| 17 | Ombordagi idishlar ishlab chiqarishga berildi | 1000 | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 18 | "Ta'minotchi" xususiy korxonasidan olingan idishlar qiymati hisob-kitob scho'tidan to'landi | 1500 | | |
| 19 | Hisob-kitob scho'tidan ish haqi uchun bo'nak olindi | 4000 | | |
| 20 | Kassadan ish haqi ko'rinishida bo'nak berildi | 4000 | | |

**Talab qilinadi:**

1. Yuqoridagi xo'jalik operatsiyalarini scho'tlarda ikkiyoqlama yozuv usulidan foydalangan holda hisobda xo'jalik operatsiyalarini ro'yxatga olish daftarida aks ettiring.
2. Tegishli sintetik scho'tlarni oching hamda boshlang'ich qoldiqlarni o'tkazing.
3. Xo'jalik operatsiyalarini ro'yxatga olish daftarida hisobga olingan xo'jalik operatsiyalarini tegishli scho'tlarga o'tkazing.
4. Sintetik scho'tlar bo'yicha quyidagi tartibda oborot vedomostini tuzing va unda scho'tlarni o'sib borish tartibida joylashtiring. Oborot vedomostida hisobot davridagi scho'tlar bo'yicha oborotlarni va oxirgi qoldiqlarni aniqlang.
5. Hisobot davri boshiga va hisobot davri oxiriga «SAMO» xususiy korxonasining balansini tuzing.

**Oborot vedomosti**

| № | Scho't | Scho'tlar nomi | Oy boshiga qoldiq | | Oborot | | Oy oxiriga qoldiq | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | D-t | K-t | D-t | K-t | D-t | K-t |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | JAMI: | | | | | | |

2. «BINKENT» xususiy korxonasining quyidagi ma'lumotlaridan foydalanib, oborot vedomostini tuzing.

«BINKENT» xususiy korxonasining ma'lumotlari
(01.01.20... holatiga scho'tlar saldolari)

| № | Scho'tlarning nomi | Saldo, ming so'm |
|---|---|---|
| 1 | Asosiy vositalar | 85000 |
| 2 | Asosiy vositalarning eskirishi | 49600 |
| 3 | Materiallar | 20665 |
| 4 | Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik | 1552 |
| 5 | Xaridorlardan olinadigan scho'tlar | 8857 |
| 6 | Mehnat haqi bo'yicha qarzdorlik | 4200 |
| 7 | Ehtiyot qismlar | 1580 |
| 8 | Taqsimlanmagan foyda | 18746 |
| 9 | Hisob-kitob scho'ti | 24729 |
| 10 | Mol yetkazib beruvchilarga qarzdorlik | 7935 |
| 11 | Olingan bo'naklar | 428 |
| 12 | Tayyor mahsulot | 500 |

| | | |
|---|---|---|
| 13 | Davlatning maqsadli fondlariga to'lovlar | 767 |
| 14 | Tugallanmagan ishlab chiqarish | 5600 |
| 15 | Boshqa debitorlik qarzlari | 356 |
| 16 | Maqsadli davlat jamgarmalari va sug'urtalar bo'yicha bo'nak to'lovlari | 385 |
| 17 | Ustav kapitali | 24144 |
| 18 | Qisqa muddatli bank kreditlari | 40000 |
| 19 | Boshqa kreditorlik qarzlari | 300 |
| **Balans** | | |

**Talab qilinadi.** «BINKENT» xususiy korxonasining xo'jalik mablag'lari va mablag'lar manbalarini turkumlang va hisobot davri boshiga buxgalteriya balansini tuzing.

«BINKENT» xususiy korxonasida hisobot davri davomida quyidagi xo'jalik operatsiyalari sodir bo'lgan (shartli ravishda):

**Xo'jalik operatsiyalarini ro'yxatga olish daftari**

| № | Xo'jalik operatsiyalari | Summa, ming so'm | Scho'tlar aloqasi | |
|---|---|---|---|---|
| | | | Debet | Kredit |
| 1 | Asosiy ishlab chiqarishda ishlayotgan ishchilarga ish haqi hisoblandi | 8000 | | |
| 2 | Hisoblangan ish haqidan daromad solig'i hisoblandi | 800 | | |
| 4 | Hisoblangan ish haqiga nisbatan 1% kasaba uyushmasiga ajratma hisoblandi | 80 | | |
| 5 | Ish haqiga nisbatan 0,1% shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob raqami (SHJPF)ga hisoblandi | 80 | | |
| 6 | Hisoblangan ish haqiga nisbatan Yagona ijtimoiy to'lov hisoblandi (12%) | 2000 | | |
| 7 | Tugallanmagan ishlab chiqarishga materiallar berildi | 15000 | | |
| 8 | Xaridorlardan hisob-kitob scho'tiga sotilgan tayyor mahsulotlar uchun pul kelib tushdi | 8800 | | |
| 9 | Mol yetkazib beruvchilarga hisob-kitob scho'tidan to'landi | 5000 | | |
| 10 | Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz hisob-kitob scho'tidan to'landi | 1552 | | |
| 11 | Ish haqi uchun hisob-kitob scho'tidan kassaga pul olindi | 6640 | | |
| 12 | Kassadan ish haqi berildi | 6640 | | |
| 13 | Boshqa kreditorlik qarzlari hisob-kitob scho'tidan to'landi | 300 | | |
| 14 | Davlatning maqsadli fondlari bo'yicha to'lovlar hisob-kitob scho'tidan o'tkazildi | 767 | | |
| 15 | Asosiy ishlab chiqarishda ishlatilayotgan asosiy vositalarga eskirish hisoblandi | 7000 | | |
| 16 | Qisqa muddatli bank kreditlarining bir qismi hisob-kitob scho'tidan to'landi | 7000 | | |
| 17 | "Beshkent-Damas" MCHJdan ehtiyot qismlar olindi | 4500 | | |
| 18 | Ombordagi ehtiyot qismlar ishlab chiqarishga berildi | 4000 | | |
| 19 | Boshqa debitorlik qarzlari hisob-kitob scho'tiga kelib tushdi | 356 | | |

**Talab qilinadi:**

1. Yuqoridagi xo'jalik operatsiyalarini scho'tlarda ikkiyoqlama yozuv usulidan foydalangan holda hisobda xo'jalik operatsiyalarini ro'yxatga olish daftarida aks ettiring.
2. Tegishli sintetik scho'tlarni oching hamda boshlang'ich qoldiqlarni o'tkazing.
3. Xo'jalik operatsiyalarini ro'yxatga olish daftarida hisobga olingan xo'jalik operatsiyalarini tegishli scho'tlarga o'tkazing.
4. Oborot vedomostida hisobot davridagi scho'tlar bo'yicha oborotlarni va oxirgi qoldiqlarni aniqlang.
5. Hisobot davri boshiga va hisobot davri oxiriga «BINKENT» xususiy korxonasining balansini tuzing.

3. «XUVAYDO» xususiy korxonasining quyidagi ma'lumotlaridan foydalanib, oborot vedomostini tuzing.

«XUVAYDO» xususiy korxonasining ma'lumotlari (01.01.20... holatiga scho'tlar saldolari):

«XUVAYDO» xususiy korxonasida hisobot davri boshiga quyidagi xo'jalik mablag'lari va mablag'lar manbalari mavjud: Asosiy vositalar – 88 154 000 so'm, Ustav kapitali – 35 850 000 so'm, Xaridorlardan olinadigan scho'tlar - 13 857 000 so'm, Taqsimlanmagan foyda – 8 746 000 so'm, Materiallar – 20 665 000 so'm, Budjetga soliqlar bo'yicha qarzlar – 11 552 000 so'm, Boshqa debitorlik qarzlari – 2 356 000 so'm, Davlatning maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz – 3 767 000 so'm, Xo'jalik jihozlari va inventarlari – 1 000 000 so'm, Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilardan qarzdorlik – 1 500 000 so'm, Asosiy vositalarga hisoblangan eskirish – 39 669 000 so'm, Uzoq muddatli bank krediti – 100 000 000 so'm, Kassadagi pul mablag'lari – 1 000 so'm, Mehnat haqi bo'yicha qarz – 4 283 000 so'm, Hisob-kitob scho'ti – 79 334 000 so'm.

**Talab qilinadi.** «XUVAYDO» xususiy korxonasining xo'jalik mablag'lari va mablag'lar manbalarini turkumlang va hisobot davri boshiga buxgalteriya balansini tuzing.

«XUVAYDO» xususiy korxonasida hisobot davri davomida quyidagi xo'jalik operatsiyalari bo'lgan (shartli ravishda):

1. 2019 yil 7 yanvarda mol yetkazib beruvchilardan 3 000 000 so'mlik ehtiyot qismlar qabul qilindi.
2. 2019 yil 4 yanvarda ishlab chiqarishga 15 800 000 so'mlik materiallar berildi.
3. Xususiy korxonani budjetga soliqlar bo'yicha qarzlari 10 000 000 so'm 2019 yil 15 yanvarda tuman soliq inspeksiyasiga o'tkazib berildi. Shuningdek, davlatning maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz 3 500 000 so'm ham shu sanada o'tkazib berildi.
4. Xaridorlardan 2019 yil 12 yanvarda hisob-kitob scho'tiga 12 800 000 so'm sotilgan tayyor mahsulotlar uchun pul kelib tushdi
5. Hisob-kitob scho'tidan 2019 yil 18 yanvarda ish haqi uchun 4 283 000 so'm naqd pul olindi.
6. Kassadan to'lov vedomostiga asosan 2019 yil 19 yanvarda 4 283 000 so'm ish haqi tarqatildi.
7. Xaridor va buyurtmachilardan 2019 yil 14 yanvarda 2 500 000 so'mlik avans olindi.
8. Boshqa debitorlik qarzlari 2 356 000 so'm 2019 yil 18 yanvarda hisob-kitob scho'tiga kelib tushdi
9. Ishlab chiqarishda ishlayotgan ishchilarga ish haqi hisoblandi (29.01.2019 yil): 20 000 000 so'm.
   - hisoblangan ish haqiga nisbatan yagona ijtimoiy to'lov (YaIT-12 %) hisoblandi – 2 400 000 so'm;
   - ishchilarga hisoblangan ish haqidan daromad solig'i hisoblandi – 2 400 000 so'm;
10. Asosiy ishlab chiqarishda foydalanilayotgan asosiy vositalarga 2019 yil 29 yanvarda eskirish hisoblandi – 8 150 000 so'm.

11. 2019 yil 25 yanvarda mol yetkazib beruvchilarga 3 000 000 so'm to'lov topshiriqnomasiga asosan hisob-kitob scho'tidan o'tkazib berildi.

**Talab qilinadi:**

1. Yuqoridagi xo'jalik operatsiyalarini scho'tlarda ikkiyoqlama yozuv usulidan foydalangan holda hisobda xo'jalik operatsiyalarini ro'yxatga olish daftarida aks ettiring.
2. Tegishli sintetik scho'tlarni oching hamda boshlang'ich qoldiqlarni o'tkazing.
3. Xo'jalik operatsiyalarini ro'yxatga olish daftarida hisobga olingan xo'jalik operatsiyalarini tegishli scho'tlarga o'tkazing.
4. Oborot vedomostida hisobot davridagi scho'tlar bo'yicha oborotlarni va oxirgi qoldiqlarni aniqlang.
5. Hisobot davri boshiga va hisobot davri oxiriga «XUVAYDO» xususiy korxonasining balansini tuzing.

4. «PARVONA» xususiy korxonasining quyidagi ma'lumotlaridan foydalanib, oborot vedomostini tuzing.

«PARVONA» xususiy korxonasining ma'lumotlari (01.01.20... holatiga scho'tlar saldolari):

«PARVONA» xususiy korxonasida hisobot davri boshiga quyidagi xo'jalik mablag'lari va mablag'lar manbalari mavjud: Asosiy vositalar – 88 154 000 so'm, Ustav kapitali – 45 850 000 so'm, Xaridorlardan olinadigan scho'tlar -3 857 000 so'm, Taqsimlanmagan foyda – 18 746 000 so'm, Materiallar – 9 665 000 so'm, Budjetga soliqlar bo'yicha qarzlar – 8 552 000 so'm, Boshqa kreditorlik qarzlari – 2 356 000 so'm, Davlatning maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz – 3 767 000 so'm, Idishlar – 1 000 000 so'm, Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilardan qarzdorlik – 3 500 000 so'm, Asosiy vositalarga hisoblangan eskirish – 29 669 000 so'm, Qisqa muddatli bank krediti – 60 000 000 so'm, Kassadagi pul mablag'lari – 1 000 so'm, Mehnat haqi bo'yicha qarz – 4 800 000 so'm, Hisob-kitob scho'ti – 74 563 000 so'm.

**Talab qilinadi.** «PARVONA» xususiy korxonasining xo'jalik mablag'lari va mablag'lar manbalarini turkumlang va hisobot davri boshiga buxgalteriya balansini tuzing.

«PARVONA» xususiy korxonasida hisobot davri davomida quyidagi xo'jalik operatsiyalari bo'lgan (shartli ravishda):

1. Boshqa kreditorlik qarzlari 2 356 000 so'm 2019 yil 5 yanvarda hisob-kitob scho'tidan to'lab berildi.
2. 2019 yil 7 yanvarda mol yetkazib beruvchilardan 3 000 000 so'mlik materiallar qabul qilindi.
3. 2019 yil 4 yanvarda ishlab chiqarishga 9 500 000 so'mlik materiallar berildi.
4. Xaridorlardan 2019 yil 12 yanvarda hisob-kitob scho'tiga 3 387 000 so'm sotilgan tayyor mahsulotlar uchun pul kelib tushdi
5. Xususiy korxonani budjetga soliqlar bo'yicha qarzlari 8 000 000 so'm 2019 yil 15 yanvarda tuman soliq inspeksiyasiga o'tkazib berildi. Shuningdek, davlatning maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz 3 500 000 so'm ham shu sanada o'tkazib berildi.
6. Hisob-kitob scho'tidan 2019 yil 18 yanvarda ish haqi uchun 4 800 000 so'm naqd pul olindi.
7. Kassadan to'lov vedomostiga asosan 2019 yil 19 yanvarda 4 800 000 so'm ish haqi tarqatildi.
8. Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga 2019 yil 15 yanvarda 1 500 000 so'mlik avans berildi.
9. Ishlab chiqarishda ishlayotgan ishchilarga ish haqi hisoblandi (28.01.2019 yil): 24 000 000 so'm.

- hisoblangan ish haqiga nisbatan yagona ijtimoiy to‘lov (YaIT-12 %) hisoblandi – 2 880 000 so‘m;
- ishchilarga hisoblangan ish haqidan daromad solig‘i hisoblandi – 2 880 000 so‘m.

10. Asosiy ishlab chiqarishda foydalanilayotgan asosiy vositalarga 2019 yil 29 yanvarda eskirish hisoblandi – 8 150 000 so‘m.

11. 2019 yil 25 yanvarda mol yetkazib beruvchilarga 3 000 000 so‘m to‘lov topshiriqnomasiga asosan hisob-kitob scho‘tidan o‘tkazib berildi.

**Talab qilinadi:**

1. Yuqoridagi xo‘jalik operatsiyalarini scho‘tlarda xo‘jalik operatsiyalarini ro‘yxatga olish daftarida aks ettiring.
2. Tegishli sintetik scho‘tlarni oching hamda boshlang‘ich qoldiqlarni o‘tkazing.
3. Xo‘jalik operatsiyalarini ro‘yxatga olish daftarida hisobga olingan xo‘jalik operatsiyalarini tegishli scho‘tlarga o‘tkazing.
4. Oborot vedomostida hisobot davridagi scho‘tlar bo‘yicha oborotlarni va oxirgi qoldiqlarni aniqlang.
5. Hisobot davri boshiga va hisobot davri oxiriga «PARVONA» xususiy korxonasining balansini tuzing.

## Balans, scho‘tlar va ikki yoqlama yozuvning o‘zaro bog‘liqligi (2 soat)

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Buxgalteriya balansi, scho‘tlar va ikkiyoqlama yozuv usullari o‘rtasida qanday uzviy bog‘liqlik mavjud?
2. Buxgalteriya balansi nima va tuzilishini ta’riflang?
3. Balans formulasi va uning mazmunini tushuntirib bering?
4. Balans aktivi va passivida qanday bo‘limlar bor?
5. Buxgalteriya hisobi scho‘tlarini ta’riflang?
6. Aktiv va passiv scho‘tlar deb nimaga aytiladi va ularda oxirgi qoldiq qanday aniqlanadi?
7. Ikkiyoqlama yozuvning joriy buxgalteriya hisobida mohiyati va ahamiyati nimadan iborat?
8. Buxgalteriya provodkasini tuzish tartibini tushuntiring?

### TEST TOPSHIRIQLARI

**1. Balans deb nimaga aytiladi?**

A) Xo‘jalik mablag‘lari va ular manbalarining holatini ma’lum bir muddatga pul ifodasida umumlashtirish va guruhlash usuli
B) Xo‘jalik mablag‘larining tashkil topish manbalarini holatini ma’lum bir muddatga aks ettirishga
C) Xo‘jalik mablag‘larining holatini ma’lum bir muddatga pul ifodasida aks ettirishga
D) Uzoq muddatli va joriy aktivlarning holatini ma’lum bir muddatga aks ettirish

**2. Ikki yoqlama yozuv deb nimaga aytiladi?**

A) Xronologik yozuvga aytiladi
B) Balansning aktiv va passiv tomonlariga aytiladi
C) Muomalalarni aktiv yoki passiv tomonga yozishga aytiladi
D) Xo‘jalik muomalalarini bir scho‘tning debet tomoniga, ikkinchi scho‘tning kredit tomoniga yozishga aytiladi

**3. Aktiv schyo‘tlar deb nimaga aytiladi?**

A) Ishchi hayvonlarni hisobga oladigan schyo‘tlar
B) Xo‘jalik mablag‘larining manbalarini hisobga oladigan scho‘tlar
C) Xo‘jalik mablag‘lari va jarayonlarini hisobga oladigan scho‘tlar
D) Materiallarni hisobga oladigan schyo‘tlar

**4. Passiv schyo'tlar deb nimaga aytiladi?**

A) Xususiy kapitalni hisobga oladigan schyo'tlar

B) Xo'jalik mablag'larining manbalarini hisobga oladigan schyo'tlar

C) Asosiy vositalarni hisobga oladigan schyo'tlar

D) Xo'jalik mablag'larini hisobga oladigan schyo'tlar

**5. Aniqlangan kamomad xodimning ish haqidan ushlanganida qanday buxgalteriya provodkasi tuziladi?**

A) Debet 6710-«Mehnat haqi bo'yicha xodim bilan hisoblashishlar» scho'ti; Kredit 4730-«Moddiy zararni qoplash bo'yicha xodimlarning qarzi» scho'ti

B) Debet 6710-«Mehnat haqi bo'yicha xodim bilan hisoblashishlar» scho'ti; Kredit 5910-«Kamomadlar va qiymatliklarning buzilishidan yo'qotishlar» scho'ti

C) Debet 6710-«Mehnat haqi bo'yicha xodim bilan hisoblashishlar» scho'ti; Kredit 4210-«Mehnat haqi bo'yicha berilgan bo'naklar» scho'ti

D) Debet 4730-«Moddiy zararni qoplash bo'yicha xodimlarning qarzi» scho'ti; Kredit 6710-«Mehnat haqi bo'yicha xodim bilan hisoblashishlar» scho'ti.

**6. Quyidagi xo'jalik muomalasining iqtisodiy mohiyatini aniqlang: Debet 6710-« Mehnat haqi bo'yicha xodim bilan hisoblashishlar» scho'ti; Kredit 5010-«Milliy valyutadagi pul mablag'lari» scho'ti**

A) Ish haqi deponentga o'tkazildi

B) Xodimga oyning birinchi yarmi uchun bo'nak berildi

C) Ish haqidan daromad solig'i ushlandi

D) Xodimga hisobot davri uchun ish haqi berildi

## AMALIY MASHQLAR

**1. Buxgalteriya balansi, scho'tlar tizimi va ikkiyoqlama yozuvni ta'riflang**

| | |
|---|---|
| **Buxgalteriya balansi** | |
| **Schyotlar tizimi** | |
| **Ikkiyoqlama yozuv** | |

**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga buxgalteriya balansi, scho'tlar tizimi va ikkiyoqlama yozuv usullarining ta'rifini yozing va izohlab bering.

**2. Balans, scho'tlar va ikkiyoqlama yozuv o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik**




**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga balansi, scho'tlar va ikkiyoqlama yozuv o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yozing va tushuntirib bering.

**3. Scho'tlar, ikkiyoqlama yozuv va balans o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikga doir amaliy misollar**

1. «GULShAN-GULUSTON» mas'uliyati cheklangan jamiyat (MChJ)ning xo'jalik mablag'lari va mablag'lar manbalari hamda hisobot davrida sodir bo'lgan xo'jalik operatsiyalari keltirilgan:

a) «GULShAN-GULUSTON» mas'uliyati cheklangan jamiyat ma'lumotlari (01.01.20... holatiga scho'tlar saldolari):

| № | Scho'tlarning nomi | Saldo, ming so'm | Balansda | |
|---|---|---|---|---|
| | | | aktiv | passiv |
| 1 | Asosiy vositalar | 98154 | | |
| 2 | Asosiy vositalarning eskirishi | 39669 | | |
| 3 | Materiallar | 20665 | | |
| 4 | Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik | 11552 | | |
| 5 | Xaridorlardan olinadigan scho'tlar | 13857 | | |
| 6 | Mehnat haqi bo'yicha qarzdorlik | 4283 | | |
| 7 | Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga berilgan bo'naklar | 7158 | | |
| 8 | Taqsimlanmagan foyda | 38746 | | |
| 9 | Hisob-kitob scho'ti | 24729 | | |
| 10 | Mol yetkazib beruvchilarga qarzdorlik | 2935 | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 11 | Olingan bo'naklar | 4428 | | |
| 12 | Tayyor mahsulot | 5525 | | |
| 13 | Davlatning maqsadli fondlariga to'lovlar | 3767 | | |
| 14 | Xodimlarga berilgan bo'naklar | 758 | | |
| 15 | Boshqa debitorlik qarzlari | 2356 | | |
| 16 | Maqsadli davlat jamg'armalari va sug'urtalar bo'yicha bo'nak to'lovlari | 1385 | | |
| 17 | Ustav kapitali | 28720 | | |
| 18 | Qisqa muddatli bank kreditlari | 40182 | | |
| 19 | Boshqa kreditorlik qarzlari | 305 | | |
| | **Balans** | | | |

**Talab qilinadi.** «GULShAN-GULUSTON» MChJning xo'jalik mablag'lari va mablag'lar manbalarini turkumlang va hisobot davri boshiga buxgalteriya balansini tuzing.

b) «GULShAN-GULUSTON» MChJda hisobot davri davomida quyidagi xo'jalik operatsiyalari sodir bo'lgan (shartli ravishda):

**Xo'jalik operatsiyalarini ro'yxatga olish daftari**

| № | Xo'jalik operatsiyalari | Summa, ming so'm | Scho'tlar aloqasi | |
|---|---|---|---|---|
| | | | Debet | Kredit |
| 1 | Mol yetkazib beruvchilardan materiallar kirim qilindi | 2500 | | |
| 2 | Asosiy ishlab chiqarishda ishlayotgan ishchilarga ish haqi hisoblandi | 3600 | | |
| 3 | Hisoblangan ish haqidan daromad solig'i hisoblandi | 324 | | |
| 4 | Hisoblangan ish haqiga nisbatan 1 % kasaba uyushmasiga ajratma hisoblandi | 36 | | |
| 5 | Xaridorlardan hisob-kitob scho'tiga sotilgan tayyor mahsulotlar uchun pul kelib tushdi | 6400 | | |
| 6 | Xaridorlardan tayyor mahsulotlar uchun bo'nak olindi | 700 | | |
| 7 | Hisob-kitob scho'tidan xizmat safari uchun bo'nak olindi | 250 | | |
| 8 | Kassadan hisobdor shaxsga xizmat safari uchun bo'nak berildi | 250 | | |
| 9 | Qisqa muddatli bank kreditining bir qismi hisob-kitob scho'tidan to'landi | 12500 | | |
| 10 | Ish haqi uchun hisob-kitob scho'tidan kassaga pul olindi | 2700 | | |
| 11 | Kassadan ish haqi berildi | 2700 | | |
| 12 | Davlatning maqsadli fondlari bo'yicha to'lovlar hisob-kitob scho'tidan o'tkazildi | 1200 | | |
| 13 | Mol yetkazib beruvchilarga hisob-kitob scho'tidan to'landi | 1700 | | |
| 14 | Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz hisob-kitob scho'tidan to'landi | 3890 | | |
| 15 | Mol yetkazib beruvchilardan idishlar olindi | 500 | | |
| 16 | Asosiy ishlab chiqarishda ishlatilayotgan asosiy vositalarga eskirish hisoblandi | 1300 | | |
| 17 | Materiallar ishlab chiqarishga sarflandi | 3200 | | |
| 20 | Boshqa debitorlik qarzlari hisob-kitob scho'tiga kelib tushdi | 2200 | | |
| 21 | Mol yetkazib beruvchilarga hisob-kitob scho'tidan to'landi | 2200 | | |

**Talab qilinadi:**

1. Yuqoridagi xo'jalik operatsiyalarini scho'tlarda ikkiyoqlama yozuv usulidan foydalangan holda hisobda xo'jalik operatsiyalarini ro'yxatga olish daftarida aks ettiring.
2. Tegishli sintetik scho'tlarni oching hamda boshlang'ich qoldiqlarni o'tkazing.
3. Xo'jalik operatsiyalarini ro'yxatga olish daftarida hisobga olingan xo'jalik operatsiyalarini tegishli scho'tlarga o'tkazing.
4. Oborot vedomostida hisobot davridagi scho'tlar bo'yicha oborotlarni va oxirgi qoldiqlarni aniqlang.
5. Hisobot davri boshiga va hisobot davri oxiriga «GULShAN-GULUSTON» mas'uliyati cheklangan jamiyatning balansini tuzing.

2. «YULDUZ» mas'uliyati cheklangan jamiyat (MChJ)ning xo'jalik mablag'lari va mablag'lar manbalari hamda hisobot davrida sodir bo'lgan xo'jalik operatsiyalari keltirilgan:

a) «YULDUZ» mas'uliyati cheklangan jamiyat ma'lumotlari (01.01.20... holatiga scho'tlar saldolari):

| № | Scho'tlarning nomi | Saldo, ming so'm | Balansda | |
|---|---|---|---|---|
| | | | aktiv | passiv |
| 1 | Asosiy vositalar | 78154 | | |
| 2 | Asosiy vositalarning eskirishi | 39669 | | |
| 3 | Materiallar | 20665 | | |
| 4 | Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik | 11552 | | |
| 5 | Xaridorlardan olinadigan scho'tlar | 13857 | | |
| 6 | Mehnat haqi bo'yicha qarzdorlik | 4283 | | |
| 7 | Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga berilgan bo'naklar | 7158 | | |
| 8 | Taqsimlanmagan foyda | 38746 | | |
| 9 | Hisob-kitob scho'ti | 24729 | | |
| 10 | Mol yetkazib beruvchilarga qarzdorlik | 2935 | | |
| 11 | Olingan bo'naklar | 4428 | | |
| 12 | Tayyor mahsulot | 5525 | | |
| 13 | Davlatning maqsadli fondlariga to'lovlar | 3767 | | |
| 14 | Xodimlarga berilgan bo'naklar | 758 | | |
| 15 | Boshqa debitorlik qarzlari | 2356 | | |
| 16 | Maqsadli davlat jamgarmalari va sug'urtalar bo'yicha bo'nak to'lovlari | 1385 | | |
| 17 | Ustav kapitali | 18720 | | |
| 18 | Qisqa muddatli bank kreditlari | 30182 | | |
| 19 | Boshqa kreditorlik qarzlari | 305 | | |
| **Balans** | | | | |

**Talab qilinadi.** «YULDUZ» MChJning xo'jalik mablag'lari va mablag'lar manbalarini turkumlang va hisobot davri boshiga buxgalteriya balansini tuzing.

b)«YULDUZ» mas'uliyati cheklangan jamiyatda hisobot davri davomida quyidagi xo'jalik operatsiyalari sodir bo'lgan (shartli ravishda):

**Xo‘jalik operatsiyalarini ro‘yxatga olish daftari**

| № | Xo‘jalik operatsiyalari | Summa, ming so‘m | Scho‘tlar aloqasi | |
|---|---|---|---|---|
| | | | Debet | Kredit |
| 1 | Mol yetkazib beruvchilardan olingan materiallar kirim qilindi | 2900 | | |
| 2 | Asosiy ishlab chiqarishda ishlayotgan ishchilarga ish haqi hisoblandi | 3200 | | |
| 3 | Hisoblangan ish haqidan daromad solig‘i hisoblandi | 288 | | |
| 5 | Hisoblangan ish haqiga nisbatan 1 % kasaba uyushmasiga ajratma hisoblandi | 32 | | |
| 6 | Xaridorlardan hisob-kitob scho‘tiga sotilgan tayyor mahsulotlar uchun pul kelib tushdi | 6300 | | |
| 7 | Xaridorlardan tayyor mahsulotlar uchun bo‘nak olindi | 800 | | |
| 8 | Hisob kitob scho‘tidan xizmat safari uchun bo‘nak olindi | 200 | | |
| 9 | Kassadan hisobdor shaxsga xizmat safari uchun bo‘nak berildi | 200 | | |
| 10 | Qisqa muddatli bank kreditining bir qismi hisob-kitob scho‘tidan to‘landi | 13000 | | |
| 11 | Ish haqi uchun hisob-kitob scho‘tidan kassaga pul olindi | 2800 | | |
| 12 | Kassadan ish haqi berildi | 2800 | | |
| 13 | Davlatning maqsadli fondlari bo‘yicha to‘lovlar hisob-kitob scho‘tidan o‘tkazildi | 1300 | | |
| 14 | Mol yetkazib beruvchilarga hisob-kitob scho‘tidan to‘landi | 1900 | | |
| 15 | Budjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz hisob kitob scho‘tidan to‘landi | 3800 | | |
| 16 | Mol yetkazib beruvchilardan idishlar olindi | 600 | | |
| 17 | Asosiy ishlab chiqarishda ishlatilayotgan asosiy vositalarga eskirish hisoblandi | 1400 | | |
| 18 | Materiallar ishlab chiqarishga sarflandi | 3300 | | |
| 19 | Boshqa debitorlik qarzlari hisob-kitob scho‘tiga kelib tushdi | 2300 | | |
| 20 | Mol yetkazib beruvchilarga hisob-kitob scho‘tidan to‘landi | 2300 | | |

**Talab qilinadi:**

1. Yuqoridagi xo‘jalik operatsiyalarini scho‘tlarda ikkiyoqlama yozuv usulidan foydalangan holda buxgalteriya provodkasini bering.
2. Tegishli sintetik scho‘tlarni oching hamda boshlang‘ich qoldiqlarni o‘tkazing.
3. Xo‘jalik operatsiyalarini ro‘yxatga olish daftarida hisobga olingan xo‘jalik operatsiyalarini tegishli scho‘tlarga o‘tkazing.
4. Oborot vedomostida hisobot davridagi scho‘tlar bo‘yicha oborotlarni va oxirgi qoldiqlarni aniqlang.
5. Hisobot davri boshiga va hisobot davri oxiriga «YULDUZ» mas’uliyati cheklangan jamiyatning balansini tuzing.

3. «ASILBEK-ABS» mas’uliyati cheklangan jamiyat (MChJ)ning quyidagi ma’lumotlaridan foydalanib, boshlang‘ich balans tuzing, hisobot davrida sodir bo‘lgan xo‘jalik operatsiyalarini hisobda aks ettiring va hisobot davri oxiriga balans tuzing.

«ASILBEK-ABS» MChJda hisobot davri boshiga quyidagi xo‘jalik mablag‘lari va mablag‘lar manbalari mavjud: Asosiy vositalar – 80 200 000 so‘m, Ustav kapitali – 64 700 000 so‘m, Taqsimlanmagan foyda – 8 200 000 so‘m, Xaridor va buyurtmachilarning qarzi – 10 000 000 so‘m, Asosiy vositalarga hisoblangan eskirish – 24 200 000 so‘m, Olingan bo‘naklar – 1 000 000 so‘m, Materiallar – 7 200 000 so‘m, Budjetga soliqlar bo‘yicha qarzlar – 580 000 so‘m, Davlatning maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarz – 200 000 so‘m, Qisqa muddatli bank krediti –

50 000 000 so'm, Mehnat haqi bo'yicha qarz – 10 000 000 so'm, Hisob-kitob scho'ti – 67 000 000 so'm, Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilardan qarzdorlik – 5 520 000 so'm.

**Talab qilinadi.** Xo'jalik mablag'lari va mablag'lar manbalarini turkumlang va hisobot davri boshiga buxgalteriya balansini tuzing.

«ASILBEK-ABS» mas'uliyati cheklangan jamiyat (MChJ)da hisobot davri davomida quyidagi xo'jalik operatsiyalari bo'lgan (shartli ravishda):

1. 2019 yil 3 yanvarda Mol yetkazib beruvchilardan bo'lgan qarzdorlik hisob-kitob scho'tidan o'tkazib berildi – 5 520 000 so'm.
2. 2019 yil 5 yanvarda Xaridolardan sotilgan tayyor mahsulotlarning puli kelib tushdi 10 000 000 so'm.
3. Hisob-kitob scho'tidan 2019 yil 17 yanvarda ish haqi uchun 10 000 000 so'm naqd pul olindi.
4. 2019 yil 6 yanvarda ishlab chiqarishga 7 000 000 so'mlik materiallar berildi.
5. MChJni budjetga soliqlar bo'yicha qarzlari 880 000 so'm 2019 yil 6 yanvarda tuman soliq inspeksiyasiga o'tkazib berildi. Shuningdek, davlatning maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz 200 000 so'm ham shu sanada o'tkazib berildi.
6. 2019 yil 5 yanvarda mol yetkazib beruvchilarga 2 500 000 so'm miqdorida bo'nak berildi.
7. MChJning qisqa muddatli bank kreditining bir qismi 10 000 000 so'm 2019 yil 8 yanvarda hisob-kitob scho'tidan to'landi.
8. Kassadan to'lov qaytnomasiga asosan 2019 yil 18 yanvarda 10 000 000 so'm ish haqi tarqatildi.
9. 2019 yil 10 yanvarda mol yetkazib beruvchilardan 12 000 000 so'mlik materiallar olindi.
10. Xaridor va buyurtmachilardan 2019 yil 17 yanvarda 2 800 000 so'm miqdorida bo'nak olindi.
11. Ishlab chiqarishda ishlayotgan ishchilarga ish haqi hisoblandi (28.01.2019 yil): 10 000 000 so'm.
    - hisoblangan ish haqiga nisbatan yagona ijtimoiy to'lov (YaIT-12%) hisoblandi – 1 200 000 so'm;
    - ishchilarga hisoblangan ish haqidan daromad solig'i hisoblandi – 1 200 000 so'm;
    - hisoblangan ish haqiga nisbatan 1 % kasaba uyushmasiga 100 000 so'm ajratma hisoblandi.
    - hisoblangan ish haqiga nisbatan 0,1 % shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob raqamiga 10 000 so'm ajratma hisoblandi.
12. Asosiy ishlab chiqarishda foydalanilayotgan asosiy vositalarga 2019 yil 29 yanvarda eskirish hisoblandi – 5 614 000 so'm.

**Talab qilinadi:**

1. Hisobot oyida sodir bo'lgan xo'jalik operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettiring
2. Tegishli sintetik scho'tlarni oching hamda boshlang'ich qoldiqlarni o'tkazing.
3. Xo'jalik muomalalarini tegishli scho'tlarga o'tkazing, scho'tlar bo'yicha oborotlarni va oxirgi qoldiqlarni aniqlang.
4. Hisobot davri oxiriga buxgalteriya balansini tuzing.

# 6-MAVZU. BUXGALTERIYA HISOBI SCHO‘TLARINING TURKUMLANISHI VA SCHO‘TLAR REJASI
**(6 soat)**

## 6.1. Buxgalteriya hisobi scho‘tlarining turkumlanishi
**(2 soat)**

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Scho‘tlar turkumlanishini ta’riflang.
2. Buxgalteriya hisobi scho‘tlarining tizimi deganda nimani tushunasiz?
3. Buxgalteriya hisobining scho‘tlari qanday belgilari bo‘yicha turkumlanadi?
4. Scho‘tlar balansga munosabati va batafsillik darajasi bo‘yicha qanday turkumlanadi?
5. Scho‘tlar hisob obyektlarining iqtisodiy mazmuniga ko‘ra qanday turkumlanadi?
6. Quyidagi scho‘tlar guruhlarining mazmunini va ularga qaysi scho‘tlar turkumiga kirishini tavsiflang:
   a) mulklarni hisobga oluvchi scho‘tlar;
   b) mulklarning vujudga kelish manbalarini hisobga oluvchi scho‘tlar;
   c) xo‘jalik jarayonlarini hisobga oluvchi scho‘tlar.
7. Scho‘tlar tayinlanishi va tuzilishi bo‘yicha qanday turkumlanadi?
8. Tayinlanishi va tuzilishi bo‘yicha scho‘tlarning quyidagi guruhlariga qaysi scho‘tlar kiradi?:
   a) asosiy scho‘tlar;
   b) tartibga soluvchi scho‘tlar;
   c) taqsimlovchi scho‘tlar;
   d) kalkulatsiya scho‘tlari;
   e) tranzit scho‘tlar;
   f) balansdan tashqari scho‘tlar.

### TEST TOPSHIRIQLARI

**1. Qaysi javobda buxgalteriya hisobi scho‘tlarining turkumlanishiga to‘g‘ri ta’rif berilgan?**

A) Scho‘tlarning balansga munosabati va hisob obyektlarini qamrab olish darajasiga, aks ettiriladigan ko‘rsatkichlarning iqtisodiy mazmuniga hamda tuzilish va tayinlanishiga qarab guruhlarga birlashtirishidir

B) Scho‘tlarning balansga munosabati va hisob obyektlarini qamrab olish darajasiga ko‘ra guruhlarga birlashtirishdir

C) Scho‘tlarda aks ettiriladigan ko‘rsatkichlarning iqtisodiy mazmuniga hamda tuzilish va tayinlanishiga qarab guruhlarga birlashtirishidir

D) Scho‘tlarning tuzilishi va tayinlanishiga qarab guruhlarga birlashtirishidir

**2. Balans scho‘tlari – bu ....**

A) Hisobot davrida foydalaniladigan, lekin yopiladigan Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotda aks ettiriladigan hisobot davri oxiriga qoldiqqa ega bo‘lmaydigan daromadlar va xarajatlarni hisobga oluvchi scho‘tlar

B) Korxonalar iqtisodiy resurslarining holati va harakati haqidagi buxgalteriya axborotini qayd etish va saqlash uslubi

C) Hisobot davri oxiriga saldoga ega bo‘lib, buxgalteriya balansida aks ettiriladigan aktivlar, majburiyatlar va kapital scho‘tlari

D) Korxonaga qarashli bo‘lmagan, lekin vaqtinchalik tasarrufida bo‘lgan, aktivlarning mavjudligi va harakati, shartli huquqlar va majburiyatlar haqidagi axborotni umumlashtirishga mo‘ljallangan scho‘tlar

**3. Balansdan tashqari scho‘tlar – bu ...**

A) Korxonaga qarashli bo‘lmagan, lekin vaqtinchalik tasarrufida bo‘lgan, aktivlarning mavjudligi va harakati, shartli huquqlar va majburiyatlar haqidagi axborotni umumlashtirishga mo‘ljallangan scho‘tlar

B) Korxonalar iqtisodiy resurslarining holati va harakati haqidagi buxgalteriya axborotini qayd etish va saqlash uslubi
C) Hisobot davrida foydalaniladigan, lekin yopiladigan Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotda aks ettiriladigan hisobot davri oxiriga qoldiqqa ega bo‘lmaydigan daromadlar va xarajatlarni hisobga oluvchi scho‘tlar
D) Hisobot davri oxiriga saldoga ega bo‘lib, buxgalteriya balansida aks ettiriladigan aktivlar, majburiyatlar va kapital scho‘tlari

**4. Buxgalteriya hisobi scho‘tlarining iqtisodiy mazmuni bo‘yicha guruhlanishi qaysi javobda berilgan?**
A) Xo‘jalik mablag‘larini hg‘isobga oluvchi scho‘tlar, xo‘jalik mablag‘lari manbalarini hisobga oluvchi scho‘tlar, tranzit scho‘tlar, kalkulyatsiya scho‘tlari
B) Asosiy scho‘tlar, tartibga soluvchi scho‘tlar, taqsimlovchi scho‘tlar, kalkulyatsiya scho‘tlari, tranzit (taqqoslovchi) scho‘tlar
C) Asosiy scho‘tlar, tartibga soluvchi scho‘tlar, taqsimlovchi scho‘tlar
D) Xo‘jalik mablag‘larini hisobga oluvchi scho‘tlar, xo‘jalik mablag‘lari manbalarini hisobga oluvchi scho‘tlar, xo‘jalik jarayonlarini hisobga oluvchi scho‘tlar

**5. Tranzit (vaqtinchalik) scho‘tlar – bu ...**
A) Korxonaga qarashli bo‘lmagan, lekin vaqtinchalik tasarrufida bo‘lgan, aktivlarning mavjudligi va harakati, shartli huquqlar va majburiyatlar haqidagi axborotni umumlashtirishga mo‘ljallangan scho‘tlar
B) Korxonalar iqtisodiy resurslarining holati va harakati haqidagi buxgalteriya axborotini qayd etish va saqlash uslubi
C) Hisobot davrida foydalaniladigan, lekin yopiladigan Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotda aks ettiriladigan hisobot davri oxiriga qoldiqqa ega bo‘lmaydigan daromadlar va xarajatlarni hisobga oluvchi scho‘tlar
D) Hisobot davri oxiriga saldoga ega bo‘lib, buxgalteriya balansida aks ettiriladigan aktivlar, majburiyatlar va kapital scho‘tlari

**6. Kontr-aktiv scho‘t deb nimaga aytiladi?**
A) Ishlab chiqarish zahiralarini hisobga oladigan scho‘tlar
B) O‘zidan oldingi passiv scho‘tning sof qiymatini moliyaviy hisobotda aks ettirish uchun muljallangan scho‘tlar
C) O‘zidan oldingi aktiv scho‘tning sof qiymatini moliyaviy hisobotda aks ettirish uchun mo‘ljallangan scho‘tlar
D) Pul mablag‘larini hisobga oluvchi scho‘tlar

**7. Kontr-passiv scho‘tlar deb qanday scho‘tlarga aytiladi?**
A) Xususiy kapitalni hisobga oladigan scho‘tlar
B) O‘zidan oldingi passiv scho‘tning sof qiymatini moliyaviy hisobotda aks ettirish uchun muljallangan scho‘tlar
C) Moliyaviy natijalarni hisobga oluvchi scho‘tlar
D) O‘zidan oldingi aktiv scho‘tning sof qiymatini moliyaviy hisobotda aks ettirish uchun muljallangan scho‘tlar

**8. Buxgalteriya hisobi scho‘tlarining tuzilishi va tayinlanishi bo‘yicha turkumlanishi qaysi javobda berilgan?**
A) Xo‘jalik mablag‘larini hisobga oluvchi scho‘tlar, xo‘jalik mablag‘lari manbalarini hisobga oluvchi scho‘tlar, xo‘jalik jarayonlarini hisobga oluvchi scho‘tlar
B) Asosiy scho‘tlar, tartibga soluvchi scho‘tlar, taqsimlovchi scho‘tlar, kalkulyatsiya scho‘tlari, tranzit (taqqoslovchi) scho‘tlar
C) Asosiy scho‘tlar, tartibga soluvchi scho‘tlar, taqsimlovchi scho‘tlar
D) Xo‘jalik mablag‘larini hg‘isobga oluvchi scho‘tlar, xo‘jalik mablag‘lari manbalarini hisobga oluvchi scho‘tlar, tranzit scho‘tlar, kalkulyatsiya scho‘tlari

**9. Korxonaning ayrim turdagi xarajatlarini hisobga olish va tannarx obyektlariga taqsimlash maqsadida qo‘llanalidagin scho‘tlar qanday nomlanadi?**

A) Tranzit scho'tlar
B) Kalkulyatsiya scho'tlari
C) Tartibga soluvchi scho'tlar
D) Taqsimlovchi scho'tlari

## AMALIY MASHQLAR

**1. Buxgalteriya hisobi scho'tlarining turkumlanishi**




**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga buxgalteriya hisobi scho'tlarining turkumlanishini yozing va ularni tavsiflab bering.

**2. Scho'tlarni balansga munosabati va hisob ob'ektlarini qamrab olish darajasiga ko'ra turkumlanishi**



**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga scho‘tlarni balansga munosabati va hisob ob’ektlarini qamrab olish darajasiga ko‘ra turkumlab yozing va ularni tavsiflab bering.

### 3. Scho‘tlarni tayinlanishi va tuzilishi bo‘yicha turkumlanishi




**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga scho‘tlarni tayinlanishi va tuzilishi bo‘yicha turkumlab yozing va ularni izohlab bering.

### 4. Xo‘jalik mablag‘lari va mablag‘lar manbalarining scho‘tlarda iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra turkumlanishi

1. «MASH’AL» xususiy korxonasining quyidagi ma’lumotlaridan foydalanib, boshlang‘ich balans tuzing, hisobot davrida sodir bo‘lgan xo‘jalik operatsiyalarining iqtisodiy mazmunidan kelib chiqqan holda scho‘tlarda aks ettiring va hisobot davri oxiriga balans tuzing.

«MASH'AL» xususiy korxonasida hisobot davri boshiga quyidagi xo'jalik mablag'lari va mablag'lar manbalari mavjud: Ustav kapitali – 35 850 000 so'm, Xaridorlardan olinadigan scho'tlar -13 857 000 so'm, Taqsimlanmagan foyda – 8 746 000 so'm, Materiallar – 20 665 000 so'm, Budjetga soliqlar bo'yicha qarzlar – 11 552 000 so'm, Boshqa debitorlik qarzlari – 2 356 000 so'm, Davlatning maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz – 3 767 000 so'm, Asosiy vositalar – 88 154 000 so'm, Xo'jalik jihozlari va inventarlari – 1 000 000 so'm, Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilardan qarzdorlik – 1 500 000 so'm, Asosiy vositalarga hisoblangan eskirish – 39 669 000 so'm, Uzoq muddatli bank krediti – 100 000 000 so'm, Kassadagi pul mablag'lari – 1 000 so'm, Mehnat haqi bo'yicha qarz – 4 283 000 so'm, Hisob-kitob scho'ti – 79 334 000 so'm.

**Talab qilinadi.** Xo'jalik mablag'lari va mablag'lar manbalarini turkumlang va hisobot davri boshiga buxgalteriya balansini tuzing.

«MASH'AL» xususiy korxonasida hisobot davri davomida quyidagi xo'jalik operatsiyalari bo'lgan (shartli ravishda):

1. 2019 yil 4 yanvarda ishlab chiqarishga 16 800 000 so'mlik materiallar berildi.
2. 2019 yil 7 yanvarda mol yetkazib beruvchilardan 5 000 000 so'mlik ehtiyot qismlar qabul qilindi.
3. Xaridorlardan 2019 yil 12 yanvarda hisob-kitob scho'tiga 13 857 000 so'm sotilgan tayyor mahsulotlar uchun pul kelib tushdi
4. Xususiy korxonani budjetga soliqlar bo'yicha qarzlari 10 500 000 so'm 2019 yil 15 yanvarda tuman soliq inspektsiyasiga o'tkazib berildi. Shuningdek, davlatning maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz 3 700 000 so'm ham shu sanada o'tkazib berildi.
5. Hisob-kitob scho'tidan 2019 yil 18 yanvarda ish haqi uchun 4 283 000 so'm naqd pul olindi.
6. Kassadan to'lov vedomostiga asosan 2019 yil 19 yanvarda 4 283 000 so'm ish haqi tarqatildi.
7. Xaridor va buyurtmachilardan 2019 yil 14 yanvarda 2 500 000 so'mlik avans olindi.
8. Boshqa debitorlik qarzlari 2 356 000 so'm 2019 yil 18 yanvarda hisob-kitob scho'tiga kelib tushdi
9. Ishlab chiqarishda ishlayotgan ishchilarga ish haqi hisoblandi (29.01.2019 yil): 35 000 000 so'm.
   - hisoblangan ish haqiga nisbatan yagona ijtimoiy to'lov (YaIT-12%) hisoblandi – 4 200 000 so'm;
   - ishlarga hisoblangan ish haqidan daromad solig'i hisoblandi – 4 200 000 so'm.
10. Asosiy ishlab chiqarishda foydalanilayotgan asosiy vositalarga 2019 yil 29 yanvarda eskirish hisoblandi – 8 150 000 so'm.
11. 2019 yil 25 yanvarda mol yetkazib beruvchilarga 2 800 000 so'm to'lov topshiriqnomasiga asosan hisob-kitob scho'tidan o'tkazib berildi.

**Talab qilinadi:**

1. «MASH'AL» xususiy korxonasida hisobot oyida sodir bo'lgan xo'jalik operatsiyalarini "Xo'jalik operatsiyalarini ro'yxatga olish daftari"da buxgalteriya provodkalarini tuzing
2. Tegishli sintetik scho'tlarni oching hamda boshlang'ich qoldiqlarni o'tkazing.
3. Xo'jalik muomalalarini tegishli scho'tlarga o'tkazing, scho'tlar bo'yicha oborotlarni va oxirgi qoldiqlarni aniqlang. Hisobot davri oxiriga buxgalteriya balansini tuzing.

2. «TAMANNO» xususiy korxonasining quyidagi ma'lumotlaridan foydalanib, boshlang'ich balans tuzing, hisobot davrida sodir bo'lgan xo'jalik operatsiyalarining iqtisodiy mazmunidan kelib chiqqan holda scho'tlarda aks ettiring va hisobot davri oxiriga balans tuzing.

«TAMANNO» xususiy korxonasida hisobot davri boshiga quyidagi xo'jalik mablag'lari va mablag'lar manbalari mavjud: Asosiy vositalar – 108 500 000 so'm, Ustav kapitali – 65 905 000 so'm, Xaridorlardan olinadigan scho'tlar -3 857 000 so'm, Taqsimlanmagan foyda – 18 746 000 so'm, Materiallar – 10 665 000 so'm, Budjetga soliqlar bo'yicha qarzlar – 8 552 000 so'm, Boshqa

kreditorlik qarzlari – 2 356 000 so'm, Davlatning maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz – 3 767 000 so'm, Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilardan qarzdorlik – 3 500 000 so'm, Asosiy vositalarga hisoblangan eskirish – 29 669 000 so'm, Qisqa muddatli bank krediti – 60 000 000 so'm, kassadagi pul mablag'lari – 1 000 so'm, Mehnat haqi bo'yicha qarz – 4 800 000 so'm, Hisob-kitob scho'ti – 74 563 000 so'm.

**Talab qilinadi.** Xo'jalik mablag'lari va mablag'lar manbalarini turkumlang va hisobot davri boshiga buxgalteriya balansini tuzing.

«TAMANNO» xususiy korxonasida hisobot davri davomida quyidagi xo'jalik operatsiyalari bo'lgan (shartli ravishda):

1. 2019 yil 4 yanvarda ishlab chiqarishga 9 000 000 so'mlik materiallar berildi.
2. 2019 yil 7 yanvarda mol yetkazib beruvchilardan 4 000 000 so'mlik materiallar qabul qilindi.
3. 2019 yil 5 yanvarda boshqa kreditorlik qarzlari 2 356 000 so'm hisob-kitob scho'tidan to'lab berildi.
4. Xaridorlardan 2019 yil 12 yanvarda hisob-kitob scho'tiga 3 857 000 so'm sotilgan tayyor mahsulotlar uchun pul kelib tushdi
5. Xususiy korxonani budjetga soliqlar bo'yicha qarzlari 8 500 000 so'm 2019 yil 15 yanvarda tuman soliq inspektsiyasiga o'tkazib berildi. Shuningdek, davlatning maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz 3 700 000 so'm ham shu sanada o'tkazib berildi.
6. Hisob-kitob scho'tidan 2019 yil 18 yanvarda ish haqi uchun 4 800 000 so'm naqd pul olindi.
7. Kassadan to'lov vedomostiga asosan 2019 yil 19 yanvarda 4 800 000 so'm ish haqi tarqatildi.
8. Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga 2019 yil 15 yanvarda 1 500 000 so'mlik avans berildi.
9. Ishlab chiqarishda ishlayotgan ishchilarga ish haqi hisoblandi (28.01.2019 yil): 24 000 000 so'm.
   - hisoblangan ish haqiga nisbatan yagona ijtimoiy to'lov (YaIT-12%) hisoblandi – 2 880 000 so'm;
   - ishlarga hisoblangan ish haqidan daromad solig'i hisoblandi – 2 880 000 so'm.
10. Asosiy ishlab chiqarishda foydalanilayotgan asosiy vositalarga 2019 yil 29 yanvarda eskirish hisoblandi – 10 850 000 so'm.
11. 2019 yil 25 yanvarda mol yetkazib beruvchilarga 4 170 000 so'm to'lov topshiriqnomasiga asosan hisob-kitob scho'tidan o'tkazib berildi.

**Talab qilinadi:**

1. «TAMANNO» xususiy korxonasida hisobot oyida sodir bo'lgan xo'jalik operatsiyalarini "Xo'jalik operatsiyalarini ro'yxatga olish daftari"da buxgalteriya provodkalarini tuzing
2. Tegishli sintetik scho'tlarni oching hamda boshlang'ich qoldiqlarni o'tkazing.
3. Xo'jalik muomalalarini tegishli scho'tlarga o'tkazing, scho'tlar bo'yicha oborotlarni va oxirgi qoldiqlarni aniqlang. Hisobot davri oxiriga buxgalteriya balansini tuzing.

## 6.2. Namunaviy va ishchi scho'tlar rejasi (4 soat)

### Namunaviy scho'tlar rejasi – scho'tlarning iqtisodiy mazmuniga ko'ra turkumlanishi (2 soat)

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Scho'tlar rejasi buxgalteriya hisobini tashkil etishda qanday ahamiyatga ega?
2. Scho'tlar rejasining bo'limlari qaysi belgi bo'yicha guruhlangan?
3. Scho'tlar rejasi nechta qism va bo'limlardan iborat?

4. Scho‘tlar rejasida quyidagi bo‘limlarining mazmunini tushuntirib bering:
   I. Asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va boshqa uzoq muddatli aktivlar
   II. Tovar-moddiy zaxiralar
   III. Kelgusi davr xarajatlari va kechiktirilgan xarajatlar – joriy qismi
   IV. Olinadigan scho‘tlar – joriy qismi
   V. Pul mablag‘lari, qisqa muddatli investitsiyalar va boshqa aktivlar
   VI. Joriy majburiyatlar
   VII. Uzoq muddatli majburiyatlar
   VIII. Kapital, taqsimlanmagan foyda va rezervlar
   IX. Daromadlar va xarajatlar.
5. Balansdan tashqari scho‘tlar
6. Balans bo‘limlari va scho‘tlar rejasi bo‘limlari o‘rtasida qanday aloqadorlik mavjud?

## TEST TOPSHIRIQLARI

**1. Qaysi javobda buxgalteriya hisobi scho‘tlarining turkumlanishiga to‘g‘ri ta’rif berilgan?**

A) Scho‘tlarning balansga munosabati va hisob obyektlarini qamrab olish darajasiga ko‘ra guruhlarga birlashtirishdir

B) Scho‘tlarning balansga munosabati va hisob obyektlarini qamrab olish darajasiga, aks ettiriladigan ko‘rsatkichlarning iqtisodiy mazmuniga hamda tuzilish va tayinlanishiga qarab guruhlarga birlashtirishidir

C) Scho‘tlarda aks ettiriladigan ko‘rsatkichlarning iqtisodiy mazmuniga hamda tuzilish va tayinlanishiga qarab guruhlarga birlashtirishidir

D) Scho‘tlarning tuzilishi va tayinlanishiga qarab guruhlarga birlashtirishidir

**2. Balans scho‘tlari – bu ....**

A) Hisobot davrida foydalaniladigan, lekin yopiladigan Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotda aks ettiriladigan hisobot davri oxiriga qoldiqqa ega bo‘lmaydigan daromadlar va xarajatlarni hisobga oluvchi scho‘tlar

B) Korxonalar iqtisodiy resurslarining holati va harakati haqidagi buxgalteriya axborotini qayd etish va saqlash uslubi

C) Hisobot davri oxiriga saldoga ega bo‘lib, buxgalteriya balansida aks ettiriladigan aktivlar, majburiyatlar va kapital scho‘tlari

D) Korxonaga qarashli bo‘lmagan, lekin vaqtinchalik tasarrufida bo‘lgan, aktivlarning mavjudligi va harakati, shartli huquqlar va majburiyatlar haqidagi axborotni umumlashtirishga mo‘ljallangan scho‘tlar

**3. Doimiy scho‘tlarga qaysi scho‘tlar kiradi?**

A) Aktiv, kontr-passiv va tranzit scho‘tlar

B) Balansdan tashqari scho‘tlar

C) Aktiv, passiv, kontr-aktiv, kontr-passiv scho‘tlar

D) Tranzit va balansdan tashqari scho‘tlar

**4. Tranzit (vaqtinchalik) scho‘tlar – bu ...**

A) Hisobot davrida foydalaniladigan, lekin yopiladigan Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotda aks ettiriladigan hisobot davri oxiriga qoldiqqa ega bo‘lmaydigan daromadlar va xarajatlarni hisobga oluvchi scho‘tlar

B) Korxonalar iqtisodiy resurslarining holati va harakati haqidagi buxgalteriya axborotini qayd etish va saqlash uslubi

C) Korxonaga qarashli bo‘lmagan, lekin vaqtinchalik tasarrufida bo‘lgan, aktivlarning mavjudligi va harakati, shartli huquqlar va majburiyatlar haqidagi axborotni umumlashtirishga mo‘ljallangan scho‘tlar

D) Hisobot davri oxiriga saldoga ega bo‘lib, buxgalteriya balansida aks ettiriladigan aktivlar, majburiyatlar va kapital scho‘tlari

**5. Balansdan tashqari scho‘tlar – bu ...**

A) Korxonaga qarashli bo‘lmagan, lekin vaqtinchalik tasarrufida bo‘lgan, aktivlarning mavjudligi

va harakati, shartli huquqlar va majburiyatlar haqidagi axborotni umumlashtirishga mo'ljallangan scho'tlar

B) Korxonalar iqtisodiy resurslarining holati va harakati haqidagi buxgalteriya axborotini qayd etish va saqlash uslubi

C) Hisobot davrida foydalaniladigan, lekin yopiladigan Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda aks ettiriladigan hisobot davri oxiriga qoldiqqa ega bo'lmaydigan daromadlar va xarajatlarni hisobga oluvchi scho'tlar

D) Hisobot davri oxiriga saldoga ega bo'lib, buxgalteriya balansida aks ettiriladigan aktivlar, majburiyatlar va kapital scho'tlari

**6. Buxgalteriya hisobi scho'tlarining iqtisodiy mazmuni bo'yicha guruhlanishi qaysi javobda berilgan?**

A) Asosiy scho'tlar, tartibga soluvchi scho'tlar, taqsimlovchi scho'tlar

B) Asosiy scho'tlar, tartibga soluvchi scho'tlar, taqsimlovchi scho'tlar, kalkulyatsiya scho'tlari, tranzit (taqqoslovchi) scho'tlar

C) Xo'jalik mablag'larini hisobga oluvchi scho'tlar, xo'jalik mablag'lari manbalarini hisobga oluvchi scho'tlar, xo'jalik jarayonlarini hisobga oluvchi scho'tlar

D) Xo'jalik mablag'larini hg'isobga oluvchi scho'tlar, xo'jalik mablag'lari manbalarini hisobga oluvchi scho'tlar, tranzit scho'tlar, kalkulyatsiya scho'tlari

**7. Kontr-aktiv scho't deb nimaga aytiladi?**

A) Ishlab chiqarish zahiralarini hisobga oladigan scho'tlar

B) O'zidan oldingi passiv scho'tning sof qiymatini moliyaviy hisobotda aks ettirish uchun muljallangan scho'tlar

C) O'zidan oldingi aktiv scho'tning sof qiymatini moliyaviy hisobotda aks ettirish uchun mo'ljallangan scho'tlar

D) Pul mablag'larini hisobga oluvchi scho'tlar

**8. Kontr-passiv scho'tlar deb qanday scho'tlarga aytiladi?**

A) Moliyaviy natijalarni hisobga oluvchi scho'tlar

B) Xususiy kapitalni hisobga oladigan scho'tlar

C) O'zidan oldingi passiv scho'tning sof qiymatini moliyaviy hisobotda aks ettirish uchun muljallangan scho'tlar

D) O'zidan oldingi aktiv scho'tning sof qiymatini moliyaviy hisobotda aks ettirish uchun muljallangan scho'tlar

**9. Buxgalteriya hisobi scho'tlarining tuzilishi va tayinlanishi bo'yicha turkumlanishi qaysi javobda berilgan?**

A) Asosiy scho'tlar, tartibga soluvchi scho'tlar, taqsimlovchi scho'tlar, kalkulyatsiya scho'tlari, tranzit (taqqoslovchi) scho'tlar

B) Xo'jalik mablag'larini hisobga oluvchi scho'tlar, xo'jalik mablag'lari manbalarini hisobga oluvchi scho'tlar, xo'jalik jarayonlarini hisobga oluvchi scho'tlar

C) Asosiy scho'tlar, tartibga soluvchi scho'tlar, taqsimlovchi scho'tlar

D) Xo'jalik mablag'larini hg'isobga oluvchi scho'tlar, xo'jalik mablag'lari manbalarini hisobga oluvchi scho'tlar, tranzit scho'tlar, kalkulyatsiya scho'tlari

**10. Scho'tlar rejasi – bu ...**

A) Nazoratni amalga oshirish va moliyaviy hisobotni tuzish maqsadlarida korxona mulklari va kapitalining joriy buxgalteriya hisobida aks ettirish uchun ishlatiladigan scho'tlar ro'yxati

B) Nazoratni amalga oshirish va moliyaviy hisobotni tuzish maqsadlarida ishlatiladigan guruhlangan va bir tizimga solingan scho'tlar ro'yxati

C) Korxona mulklari va kapitalining joriy buxgalteriya hisobida aks ettirish uchun ishlatiladigan, ilmiy asosda guruhlangan va bir tizimga solingan scho'tlar ro'yxati

D) Xos raqam belgilaridan foydalangan holda nazoratni amalga oshirish va moliyaviy hisobotni tuzish maqsadlarida korxona mulklari va kapitalining joriy buxgalteriya hisobida aks ettirish uchun ishlatiladigan, ilmiy asosda guruhlangan va bir tizimga solingan scho'tlar ro'yxati

## AMALIY MASHQLAR

### 1. Scho'tlarni hisob ob'ektining iqtisodiy mazmuniga ko'ra turkumlanishi




**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga scho'tlarning iqtisodiy mazmuniga ko'ra turkumlab yozing va ularni izohlab bering.

## 2. Xo‘jalik mablag‘lari (aktivlar)ni hisobga oluvchi scho‘tlar

**Xo‘jalik mablag‘lari (aktivlar)ni hisobga oluvchi scho‘tlar**

| Scho‘t № | Scho‘tlarning turkumlari va nomlari |
|---|---|
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |

**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga xo‘jalik mablag‘lari (aktivlar)ni hisobga oluvchi scho‘tlarni yozing va ularni tavsiflab bering.

### 3. Mablag'lar manbalari (passivlar)ni hisobga oluvchi scho'tlar

**Mablag'lar manbalari (passivlar)ni hisobga oluvchi scho'tlar**

| Scho't № | Scho'tlarning turkumlari va nomlari |
|---|---|
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |

**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga mablag'lar manbalari (passivlar)ni hisobga oluvchi scho'tlarni yozing va ularni tavsiflab bering.

**4. Xo‘jalik jarayonlarini va moliya-xo‘jalik faoliyati natijalarini hisobga oluvchi scho‘tlar**

**Xo‘jalik jarayonlarini va moliya-xo‘jalik faoliyati natijalarini hisobga oluvchi scho‘tlar**

| Scho‘t № | Scho‘tlarning turkumlari va nomlari |
|---|---|
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |

**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga xo‘jalik jarayonlarini va moliya-xo‘jalik faoliyati natijalarini hisobga oluvchi scho‘tlarni yozing va ularni tavsiflab bering.

**5. Scho‘tlar rejasining tarkibiy tuzulmasi**




**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga scho‘tlar rejasining tarkibiy tuzulmasini yozing va ularni izohlab bering.

## Ishchi scho‘tlar rejasini tuzish
## (2 soat)

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Ishchi scho‘tlar rejasi deganda nimani tushunasiz?
2. Ishchi scho‘tlar rejasi qanday tuziladi?
3. Namunaviy scho‘tlar rejasidan ishchi scho‘tlar rejasining farqi nimada?
4. Ishchi scho‘tlar rejasi kim tomonidan ishlab chiqiladi?
5. Scho‘tlar korrespondensiyasining namunalari nima va ularga misol keltiring?
6. Amaliyotda scho‘tlar korrespondensiyasining namunalaridan qanday foydalaniladi?

## TEST TOPSHIRIQLARI

**1. Korxonani debitor qarzlari scho‘tlar rejasining qaysi bo‘limidagi scho‘tlarida hisobga olinadi?**

A) II qism, IV bo‘lim
B) I qism, I bo‘lim
C) III qism, VI bo‘lim
D) IV qism, VIII bo‘lim

**2. Uzoq muddatli debitor qarzlar scho‘tlar rejasining qaysi bo‘limidagi scho‘tlarda hisobga olinadi?**

A) IV qism, VIII bo‘lim
B) II qism, IV bo‘lim
C) III qism, VI bo‘lim
D) I qism, I bo‘lim

**3. Buxgalteriya balansi axborotlari scho‘tlar rejasi qaysi qismlarida shakllantiriladi?**

A) I qism
B) I, II, III, IV qismlari
C) I, II qismlari
D) III va VI qismlari

**4. Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot ma’lumotlari scho‘tlar rejasining .................dan olinadi?**

A) III qism, VI bo‘limi
B) IV qism, XII bo‘limi
C) V qism, IX bo‘limi
D) III qism, VII bo‘limi

**5. Scho‘tlar rejasi VI qismi qanday nomlanadi?**

A) Daromadlar va xarajatlar
B) Uzoq muddatli majburiyatlar
C) Xususiy kapital
D) Balansdan tashqari scho‘tlar

**6. Scho‘tlar rejasi IV qismi qanday nomlanadi?**

A) Xususiy kapital
B) Uzoq muddatli majburiyatlar
C) Daromadlar va xarajatlar
D) Balansdan tashqari scho‘tlar

## AMALIY MASHQLAR
### Ishchi scho‘tlar rejasini tuzish

1. “TANGIM” fermer xo‘jaligi chorvachilikka ixtisoslashgan bo‘lib, sut va gusht yo‘nalishida mahsulotlar ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanadi.

Siz fermer xo‘jaligiga buxgalter lavozimiga ishga qabul qilindingiz. Fermer xo‘jaligi rahbariyati Sizdan buxgalteriya hisobining namunaviy scho‘tlar rejasiga muvofiq fermer xo‘jaligi

faoliyatining xususiyatidan kelib chiqqan holda unda qo‘llaniladigan scho‘tlardan iborat ishchi scho‘tlar rejasini ishlab chiqish topshirig‘ini berdi. Chunki, ishchi scho‘tlar rejasi fermer xo‘jaligi hisob siyosatining muhim tarkibiy qismi ekanligini tushuntirdi.

**Talab qilinadi.** Buxgalteriya hisobining namunaviy scho‘tlar rejasiga muvofiq “TANGIM” fermer xo‘jaligi faoliyatida qo‘llaniladigan scho‘tlardan iborat bo‘lgan ishchi scho‘tlar rejasini ishlab chiqing. Bunda quyidagi jadvaldan foydalaning:

“TANGIM” fermer xo‘jaligi
moliyaviy-xo‘jalik faoliyatida qo‘llaniladigan
**ISHCHI SCHO‘TLAR REJASI**

| Scho‘tlar t/r | Scho‘tlar nomi | Scho‘tlar turi |
|---|---|---|
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |

2. “BARAKA-SAVDO” xususiy korxonasi ulgurji savdo faoliyati bilan shug‘ullanadi. Xususiy korxona Sizga moliyaviy-xo‘jalik faoliyatida qo‘llaniladigan ishchi scho‘tlar rejasini ishlab chiqish taklifi bilan murojaat qildi. Ya’ni, xususiy korxonaning faoliyat xususiyatidan kelib chiqqan holda unda qo‘llaniladigan ishchi scho‘tlar rejasini ishlab chiqish lozimligini ta’kidlab o‘tdi. Bunda Siz buxgalteriya hisobining namunaviy scho‘tlar rejasidan foydalanishingiz mumkinligini tushuntirdi.

**Talab qilinadi.** Buxgalteriya hisobining namunaviy scho‘tlar rejasiga muvofiq “BARAKA-SAVDO” xususiy korxonasi moliyaviy-xo‘jalik faoliyatida qo‘llaniladigan scho‘tlardan iborat bo‘lgan ishchi scho‘tlar rejasini ishlab chiqing.

3. “OLTIN VODIY” xususiy korxonasi (XK) mahsulot ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanadi. Xususiy korxonada hisobot davri boshiga quyidagi xo‘jalik mablag‘lari va mablag‘lar manbalari mavjud bo‘lgan:

Asosiy vositalar – 60 400 000 so‘m, Olingan bo‘naklar – 5 000 000 so‘m, Ustav kapitali – 26 800 000 so‘m, Taqsimlanmagan foyda – 4 800 000 so‘m, Materiallar – 8 200 000 so‘m, Byudjetga soliqlar bo‘yicha qarzlar – 880 000 so‘m, Davlatning maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarz – 800 000 so‘m, Xaridor va buyurtmachilarning qarzi – 1 800 000 so‘m, Ehtiyot qismlar – 1 550 000 so‘m, Asosiy vositalarga hisoblangan eskirish – 34 200 000 so‘m, Qisqa muddatli bank krediti – 50 000 000 so‘m, Kassadagi pul mablag‘lari – 5 000 so‘m, Mehnat haqi bo‘yicha qarz – 5 000 000 so‘m, Hisob-kitob scho‘ti – 62 025 000 so‘m, Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilardan qarzdorlik – 6 500 000 so‘m.

“OLTIN VODIY” XKda hisobot davrida quyidagi xo‘jalik operatsiyalari sodir bo‘lgan (shartli ravishda):

1. XKning qisqa muddatli bank kreditining bir qismi 10 000 000 so‘m 2019 yil 8 yanvarda hisob-kitob scho‘tidan to‘landi.
2. 2019 yil 5 yanvarda xaridorlardan 1 500 000 so‘m miqdorida avans olindi.
3. Mol yetkazib beruvchilarga hisob-kitob scho‘tidan 2 000 000 so‘m miqdorida bo‘nak 2019 yil 10 yanvarda o‘tkazib berildi.
4. Hisob-kitob scho‘tidan 2019 yil 17 yanvarda ish haqi uchun 5 000 000 so‘m naqd pul olindi.
5. 2019 yil 6 yanvarda ishlab chiqarishga 8 000 000 so‘mlik materiallar berildi.
6. XKni budjetga soliqlar bo‘yicha qarzlari 880 000 so‘m 2019 yil 6 yanvarda tuman soliq inspektsiyasiga o‘tkazib berildi. Shuningdek, davlatning maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarz 800 000 so‘m ham shu sanada o‘tkazib berildi.
7. Kassadan to‘lov vedomostiga asosan 2019 yil 18 yanvarda 5 000 000 so‘m ish haqi tarqatildi.
8. 2019 yil 10 yanvarda mol yetkazib beruvchilardan 8 000 000 so‘mlik materiallar olindi. 2019 yil 20 yanvarda mazkur materiallar qiymati to‘lab berildi.
9. Xaridorlardan 2019 yil 17 yanvarda hisob-kitob scho‘tiga 1 800 000 so‘m pul kelib tushdi.
10. Mol yetkazib beruvchilardan bo‘lgan qarzdorlik 2019 yil 24 yanvarda hisob-kitob scho‘tidan o‘tkazib berildi – 6 500 000 so‘m.
11. Ishlab chiqarishda ishlayotgan ishchilarga ish haqi hisoblandi (28.01.2019 yil) 8 000 000 so‘m.
12. Ishchilarga hisoblangan ish haqiga nisbatan quyidagi to‘lovlar hisoblandi:
    - hisoblangan ish haqiga nisbatan yagona ijtimoiy to‘lov (YaIT-12 %) hisoblandi – 960 000 so‘m;
    - ishlarga hisoblangan ish haqidan daromad solig‘i hisoblandi – 960 000 so‘m.
13. Asosiy ishlab chiqarishda foydalanilayotgan asosiy vositalarga 2019 yil 29 yanvarda eskirish hisoblandi – 4 240 000 so‘m.

**Talab qilinadi:**

1. “OLTIN VODIY” xususiy korxonasi moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini hisobga olgan holda ishchi scho‘tlar rejasini ishlab chiqing.
2. Xo‘jalik mablag‘lari va mablag‘lar manbalarini turkumlang va hisobot davri boshiga buxgalteriya balansini tuzing.
3. Hisobot davrida sodir bo‘lgan xo‘jalik operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettiring.
4. Scho‘tlar bo‘yicha oborotlarni va oxirgi qoldiqlarni aniqlang. Hisobot davri oxiriga buxgalteriya balansini tuzing.

## 7-MAVZU. XO'JALIK OPERASIYALARINI HUJJATLASHTIRISH
(4 soat)

### 7.1. Buxgalteriya hisobi hujjatlari va ularni rasmiylashtirish
(2 soat)

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Xo'jalik jarayonlarini dastlabki kuzatishning ahamiyati nimadan iborat?
2. Buxgalteriya hisobida hujjat deb nima qabul qilingan?
3. Hujjatlashtirish va hujjatlarning rekvizitlari nima?
4. Hujjatlarning turkumlanishini tavsiflang.
5. Hujjatlarni to'lg'azishda qanday talablar qo'yiladi?
6. Elektron hujjat nima va uning o'ziga xos xususiyatlari?
7. Elektron hujjatda qanday majburiy rekvizitlar bo'lishi kerak?
8. Elektron raqamli imzoning mazmuni nimadan iborat?

### TEST TOPSHIRIQLARI

**1. Hujjatlashtirish deganda nimani tushunasiz?**

A) Bu korxona mablag'lari, ularning tashkil topish manbalari va xo'jalik jarayonlarini guruhlash, joriy tartibda aks ettirish va nazorat qilish usulidir

B) Bu sodir bo'lgan muomalani dastlabki ro'yxatga olish usulidir

C) Bu xo'jalik muomalasini buxgalteriya scho'tlarida aks ettirish usulidir

D) Bu hujjatlarda ko'rsatilgan xo'jalik muomalalarini pulda ifodalash usulidir

**2. Buxgalteriya hisobida hujjat deb nimaga aytiladi?**

A) Xo'jalik muomalasining sodir bo'lganligi rahbar va bosh buxgalter imzosi bilan tasdiqlangan, istalgan axborot tashuvchisi

B) Korxona rahbari va bosh buxgalteri tomonidan imzolanib, muhrlangan har qanday ish qog'ozi

C) Xo'jalik operatsiyasining sodir bo'lganligini shak-shubhasiz tasdiqlaydigan rekvizitlariga ega istalgan yozma guvohlik

D) Xo'jalik muomalasining sodir bo'lganligi yuridik jihatdan tasdiqlovchi istalgan axborot tashuvchisi

**3. Hujjat nima va uning iqtisodiy, huquqiy ahamiyati?**

A) Scho'tlarda qayd etilgan, xo'jalik faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni tashuvchi qayta ishlashga tegishli registr ma'lumotlarni tashuvchi. Scho'tlar va hujjatlar yordamida hisob ma'lumotlarini qayta ishlash

B) Hisob - iqtisodiy axborotlarni tashuvchi

C) Xo'jalik operatsiyalari haqiqatda bajarilishini tasdiqlovchi belgilangan shakldagi qog'oz

D) Xo'jalik jarayonlarini aks ettiruvchi qog'oz

**4. Buxgalteriya hujjatlari xo'jalik operatsiyalarini qamrab olish xususiyatiga ko'ra qaysi guruhlarga bo'linadi?**

A) Ko'p martalik, jamlama

B) Dastlabki, yig'ma

C) Bir martalik, jamlama

D) Buxgalteriyada rasmiylashtiriladigan, tasdiqlovchi

**5. Buxgalteriya hujjatlari tuzilish tartibiga ko'ra qaysi guruhlarga bo'linadi?**

A) Uyg`unlashtirilgan, dastlabki

B) Farmoyish, tasdiqlovchi

C) Buxgalteriyada rasmiylashtiriladigan, uyg'unlashtirilgan

D) Dastlabki, yig'ma

# AMALIY MASHQLAR

## 1. Hujjatlashtirish va buxgalteriya hujjati tushunchalariga ta'rif




**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga hujjatlashtirish va buxgalteriya hujjati tushunchalarini ta'riflab yozing va ularni izohlab bering.

## 2. Buxgalteriya hujjatlarining turkumlanishi




**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga buxgalteriya hujjatlarini turkumlagan holda yozing va ularni tavsiflab bering.

**3. Buxgalteriya hisobining hujjatlari shakllantirish tartibiga**

**Buxgalteriya hisobining hujjatlari shakllantirish tartibiga кўра гурухланиши**

**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga buxgalteriya hisobining hujjatlari shakllantirish tartibiga ko‘ra guruhlanishini yozing va misollar yordamida tavsivlab bering.

**4. Elektron hujjat va elektron raqamli imzo tushunchalari ta’rifi**

**Elektron hujjat**

**Elektron raqamli imzo**

**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga elektron hujjat va elektron raqamli imzo tushunchalariga ta’rif bering va ularni izohlab bering.

**5. Hujjatlar rekvizitlarining turkumlanishi**




**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga hujjatlar rekvizitlarining turkumlanishini yozing va ularni tavsiflab bering.

**6. Buxgalteriya hisobi hujjatlarini rasmiylashtirish**

1. "FAYZ" xususiy korxonasining 15.09.20___ ga kassadagi qoldiq – 1200 so'mni tashkil qiladi.

15.09.20__ da "FAYZ" xususiy korxonasida quyidagi kassa operatsiyalari amalga oshirildi:

- tijorat bankidagi hisob-kitob scho'tidan pul chekiga asosan xizmat safari uchun naqd pul olindi – 700000 so'm;
- xususiy korxona muhandisi R.Rahimovga xizmat safari uchun hisobi beriladigan naqd pul mablag'lari berildi – 700000 so'm;
- xususiy korxona ishchi, xizmatchilariga avgust oyi uchun ish haqi tarqatish maqsadida pul chekiga asosan hisob-kitob scho'tidan naqd pul mablag'lari olindi – 30 000 000 so'm;
- №5-vedomostga asosan kassadan xodimlarga ish haqi tarqatildi – 30 000 000 so'm;
- moddiy javobgar shaxs tomonidan kamomad summasi kassaga naqd pul ko'rinishida to'landi – 100000 so'm;
- kassa limitidan ortiqcha pul mablag'lari hisob-kitob scho'tiga topshirildi – 100000 so'm.

**Talab qilinadi:**

1.Yuqoridagi xo'jalik operatsiyalari bo'yicha kassa kirim va chiqim orderlarini to'lg'azing.
2.Tuzilgan kassa kirim va chiqim orderlariga asoslanib kassir hisobotini tuzing.
3. Naqd pul mablag'lari bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalariga buxgalteriya provodkasini bering.

2. "MALIKA" mas'uliyati cheklangan jamiyati (MChJ) 20... yil 12 avgust sanasida Toshkent shahar Sirg'ali tumani tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish inspektsiyasida ro'yxatdan o'tgan bo'lib, uning rikvizitlari quyidagicha:

Adresi: Toshkent shahri Sirg'ali tumani O'zbekiston ko'chasi 6 uy;
INN (STIR) raqami: 307 650 498; OKONX 71 501;
Banki: Xalqbanki Sirg'ali filiali;
Hisob raqami: 2020 8001 6050 4682 2005;

MFO: 01652;
Tel: 8371 283-65-84.
Asosiy faoliyati: Xo'jalik mollari ishlab chiqarish

MChJ xo'jalik faoliyatida foydalanish maqsadida 20... yil 10 yanvar kuni "Yulduz" xususiy korxonasi bilan 50 000 000 so'mlik materiallar xarid qilish bo'yicha №10-sonli shartnoma tuzdi. Shartnomaning amal qilish muddati 31 dekabr 20... yil.

"Yulduz" xususiy korxonasining rikvizitlari quyidagicha:
Adresi: Toshkent shahri Sirg'ali tumani Gullola ko'chasi 16 uy;
INN (STIR) raqami: 626 545 840; OKONX 71 200;
Banki: Agrobank ATB Sirg'ali filiali;
Hisob raqami: 2020 8001 8652 4826 2001;
MFO: 01561;
Tel: 8371 283-60-24.
Asosiy faoliyati: Ulgurji savdo.

Xususiy korxona rahbari A.Botirov, bosh hisobchi M.Samadov va ombor mudiri D.Akbarov.

MChJ rahbariyati o'z xodimi bo'lgan D.Safarovga 20... yil 18 yanvarda №7 sonli ishonchnoma berib, materialarni olib kelish vazifasini topshirdi. Berilgan ishonchnomaning amal qilish muddati 10 kun.

MChJ xodimi D.Safarov pasport ma'lumotlari: AA 6259060 Toshkent shahri Sirg'ali tumani IIB, 26.04.2014 yilda berilgan.

20... yil 19 yanvar kuni "Yulduz" xususiy korxonasi tomonidan shartnomada ko'rsatilgan materiallar №10-sonli scho't-fakturaga muvofiq olib kelindi.

**Talab qilinadi.** "MALIKA" mas'uliyati cheklangan jamiyati (MChJ)da materiallarni xarid qilish bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalarini buxgalteriya hisobi hujjatlarida rasmiylashtiring.

3. "SANAM" xususiy korxonasi 20... yil 20 yanvarda Qarshi shahri tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish inspektsiyasida ro'yxatdan o'tgan bo'lib, uning rikvizitlari quyidagicha:
Adresi: Qarshi shahri Chorsu ko'chasi 60 uy;
INN (STIR) raqami: 326 506 980; OKONX 81 108;
Banki: Aloqa bank ATB Qarshi shahar filiali;
Hisob raqami: 2020 8000 6520 6822 2001;
MFO: 01520;
Tel: 8378 248-50-80.
Asosiy faoliyati: Tirikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish

Xususiy korxona xo'jalik faoliyatida foydalanish maqsadida 20... yil 2 yanvarda "TOSHKENT TEXTEL" xususiy korxonasi bilan 100 000 000 so'mlik gazlama materiallarini xarid qilish bo'yicha №5-sonli shartnoma tuzdi. Shartnomaning amal qilish muddati 31 dekabr 20... yil.

Xususiy korxona 20... yil 15 yanvarda hisob-kitob scho'tidan "TOSHKENT TEXTEL" xususiy korxonasiga shartnoma qiymatining 15 foizi miqdorida avans o'tkazib berdi. Shartnoma qiymatining qolgan qismini esa gazlama materiallari olib kelingandan so'ng 2 fevral kuni to'lab berildi.

"TOSHKENT TEXTEL" xususiy korxonasining rikvizitlari quyidagicha:
Adresi: Toshkent shahri Yunusobod tumani Nurafshon ko'chasi 10A uy;
INN (STIR) raqami: 610 425 405; OKONX 91 800;
Banki: Agrobank ATB Yunusobod filiali;
Hisob raqami: 2020 8001 6252 2662 2001;
MFO: 01822;

**Talab qilinadi.** "SANAM" xususiy korxonasida pul mablag'lari bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalarini buxgalteriya hisobi hujjatlarida rasmiylashtiring.

4. "THE BEST KONSALTING" mas'uliyati cheklangan jamiyat (MChJ) 20... yil 12 avgust sanasi Toshkent shahar M.Ulug'bek tumani tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish inspektsiyasida ro'yxatdan o'tgan. MChJning rikvizitlari quyidagicha:

Adresi: Toshkent shahri M. Ulug'bek tumani Darxon ko'chasi 56 uy;

INN (STIR) raqami: 302 556 849;

OKONX 91 150;

Banki: Trastbank Darxon filiali;

Hisob raqami: 2020 8000 5080 5468 2001;

MFO: 01256;

Tel: 8371 268-56-48.

Asosiy faoliyati: Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash.

MChJda quyidagi xo'jalik operatsiyalar sodir bo'lgan (shartli ravishda):

1. MChJ xo'jalik faoliyatida foydalanish maqsadida 20... yil 2 senyabr kuni tuzilgan №10-sonli shartnomaga muvofiq "Uzoq bobo" xususiy korxonasidan 5 525 000 so'mlik quyidagi kontstovar mahsulotlarini xarid qildi:

| № | Nomi | O'l.bir | Miqdori | Bahosi |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Qog'oz | pochka | 20 | 35000 |
| 2 | Ruchka | dona | 100 | 1500 |
| 3 | Qalam | dona | 100 | 1000 |
| 4 | Kalkulyator | dona | 10 | 45000 |
| 5 | Papka (Dlya bumaga) | dona | 100 | 1000 |

Shartnoma shartlariga ko'ra, "Uzoq bobo" xususiy korxonasi shartnoma qiymatining 15 foizi miqdorida oldindan avans olgandan so'ng, 7 ish kunida mahsulotlarni yetkazib berishi lozim.

Shartnomaning amal qilish muddati 31 dekabr 20... yil.

"Uzoq bobo" xususiy korxonasining rikvizitlari quyidagicha:

Adresi: Toshkent shahri Yunusobod tumani Gullola ko'chasi 6A uy;

INN (STIR) raqami: 662 655 984;

OKONX 71 500;

Banki: Agrobank ATB Yunusobod filiali;

Hisob raqami: 2020 8005 8001 4862 2001;

MFO: 01561;

Tel: 8371 224-60-24.

Asosiy faoliyati: Ulgurji savdo.

Xususiy korxona rahbari A.Safarov, bosh hisobchi A.Botirov va ombor mudiri S.Saidov.

MChJ rahbariyati o'z xodimi bo'lgan I.Davletovga 20... yil 18 sentyabrda №37 - sonli ishonchnoma berib, kontstovar mahsulotlarini olib kelish vazifasini topshirdi. Berilgan ishonchnomaning amal qilish muddati 10 kun.

MChJ xodimi I.Davletov pasport ma'lumotlari: AA 6680926 Toshkent shahri Mirzo-Ulug'bek tumani IIB, 27.05.2015 yilda berilgan.

20... yil 19 sentyabr kuni "Uzoq bobo" xususiy korxonasi tomonidan shartnomada ko'rsatilgan kontstovar mahsulotlari №107-sonli scho't-fakturaga muvofiq olib kelindi.

2. MChJ 20... yil 15 sentyabrda hisob-kitob scho'tidan "Uzoq bobo" xususiy korxonasiga shartnoma qiymatining 15 foizi miqdorida avans o'tkazib berdi. Shartnoma qiymatining qolgan qismini kontstovar mahsulotlari olib kelingandan so'ng 20... yil 20 senyabr kuni o'tkazib berdi.

3. MChJ xodimlariga ish haqi hisoblash maqsadida ularning avgust oyida qancha kun ishlaganligiga ko'ra tabel ishlab chiqdi. Unga ko'ra MChJ xodimlari hisobot oyida quyidagicha ishlashgan:

| № | Lavozim | Soni | F.I.O | Ishlagan kunlari | Oklad bo‘yicha hisoblanadigan ish haqi | To‘lanadigan ish haqi |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Direktor | 1 | Safarov Baxtiyor | 27 | 1 500 000 | 1 300 000 |
| 2 | Buxgalter | 1 | Sobirjonov Anvar | 27 | 1 000 000 | 850 000 |
| 3 | Kassir | 1 | Pirmatova Moxira | 27 | 800 000 | 750 000 |
| 4 | O‘qituvchi | 6 | Davletov Ikrom | 27 | 1 500 000 | 1 300 000 |
| | | | **Obidov Asatullo** | **22** | **1 500 000** | **1 000 000** |
| | | | **Karimova Lola** | **12** | **1 500 000** | **700 000** |
| | | | **Saidova Dilfuza** | **12** | **1 500 000** | **700 000** |
| | | | Usmonov Jasur | 27 | 1 500 000 | 1 300 000 |
| | | | Ortiqov Diyor | 27 | 1 500 000 | 1 300 000 |
| 5 | Farrosh | 1 | Mamatqulova Lola | 27 | 700 000 | 650 000 |
| 6 | Jami | 10 | | | 13 000 000 | 9 850 000 |

MChJ xodimi A.Obidov avgust oyida 22 kun ishlagan bo‘lib, 15 avgustdan 19 avgusgacha kasal bo‘lgan. L.Karimova esa 1 avgustdan 17 avgustgacha hamda D.Saidova 15 avgustdan 31 avgustgacha mehnat ta’tillarida bo‘lishgan.

MChJda hisob-kitob to‘lov vedomostiga asosan №8 sonli to‘lov vedomosti 20... yil 5 sentyabr kuni ishlab chiqildi.

4. MChJ ish haqi tarqatish maqsadida hisob-kitob scho‘tidan pul chekiga asosan naqd pul olindi. Hamda 20... yil 10 sentyabrda №008-sonli kirim kassa orderi to‘ldirildi. 20... yil 19 avgust kuni №012-sonli kassa chiqim orderiga muvofiq kassadagi naqd pul mablag‘lari tarqatildi. Kun oxirida MChJ kassiri kassa hisobotini tuzib, buxgalterga topshirdi.

**Talab qilinadi.** “THE BEST KONSALTING” mas’uliyati cheklangan jamiyatda sodir bo‘lgan xo‘jalik operatsiyalarini tegishli tartibda buxgalteriya hisobi hujjatlari orqali rasmiylashtiring.

## 7.2. Hujjatlardagi xatolarni tuzatish, hujjatlar aylanishi va arxivini tashkil etish (2 soat)

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Hujjatlarni rasmiylashtirish, tekshirish va ularga ishlov berishning ahamiyati nimadan iborat?
2. Dastlabki hujjatlarni to‘ldirishga qo‘yiladigan asosiy talablar
3. Hujjatlarda xatoliklar yuzaga kelganda ularni tuzatish qanday amalga oshiriladi?
4. Hujjatlar aylanishi va uning ahamiyati nimadan iborat?
5. Hujjatlar aylanish grafigi deganda nimani tushunasiz?
6. Elektron hujjatning aylanishi nima va uning xususiyatlari qanday?
7. Hujjatlarni unifikatsiyalash va standartlash nima?
8. Buxgalteriya hujjatlarini olish tartibi?
9. Hujjatlarni rasmiylashtirish, tekshirish va ularga ishlov berishning ahamiyati nimadan iborat?
10. Hujjatlar arxivini tashkil etish va unga quyiladigan talablar?

### TEST TOPSHIRIQLARI

**1. Hujjatlarni tekshirish turlari qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**
A) Mazmuniga qarab, arifmetik
B) Mohiyatiga ko‘ra, formal, arifmetik
C) Mohiyatiga ko‘ra, formal
D) Mazmuniga qarab, formal, xatosiga ko‘ra

**2. Hujjatlarning aylanish grafigi qanday tuziladi va kim tomonidan tasdiqlanadi?**
A) Yuqori tashkilotlar tomonidan ko‘rsatiladi va beriladi
B) Bo‘limlar bo‘yicha bosh buxgalter tomonidan tuziladi va tasdiqlanadi
C) Bosh buxgalter tomonidan bo‘limlar bo‘yicha tuzilib, xo‘jalik rahbari tasdiqlaydi

D) Xo'jalik ma'muriyati tomonidan tuziladi

**3. Hujjatlarni unifikatsiyalashtirish ma'nosini toping?**

A) Hujjatlarga xatosiz yozish

B) Har xil shakllardan foydalanish

C) Yagona nusxaga keltirish

D) Bir xil shaklga keltirish

**4. Hujjatlarni standartlashtirish deganda nimani tushunasiz?**

A) Arifmetik tekshirish

B) Yagona nusxaga keltirish

C) Formal tekshirish

D) Har xil shakllardan foydalanish

**5. Dastlabki hujjatlar korxonada qancha muddat saqlanishi lozim?**

A) 3 yil

B) 5 yil

C) 10 yil

D) 75 yil

**6. Xronologik yozuv deb nimaga aytiladi?**

A) Xo'jalik muomalalarining sodir bo'lish ketma-ketligiga ko'ra qayd qilishga

B) Xo'jalik muomalalarini scho'tlar tizimi bo'yicha belgilangan scho'tlar aloqasi orqali qayd qilishga

C) Xo'jalik muomalalrini sodir bo'lish ketma-ketligiga karamasdan qayd qilishga

D) Xo'jalik muomalalarini har xil daftarlarda qayd qilishga

**7. Hujjatlar oboroti deb nimaga aytiladi?**

A) Ijrochilar ish joyidan arxivga topshirilguncha o'tgan vaqt

B) Rasmiylashtirilib va qayta ishlanib ijrochilar ish joyiga tushgunga qadar o'tgan vaqt

C) Hujjatlarga birinchi yozuv yozilganidan arxivga topshirilgunga qadar bosib utilgan yo'li

D) Hujjatlarni ish joyidan bajarilishi bo'yicha birin-ketin o'tishi

**8. Cheklar, to'lov – topshiriqlari va talabnomalaridagi yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatish mumkinmi?**

A) Cheklar, to'lov – topshiriqlari va talabnomalaridagi xatoliklarga yo'l qo'yilishi mumkin emas

B) Yo'q. Mazkur holatda bu hujjatlar bekor qilinib, yangidan rasmiylashtiriladi

C) Ha. Xato yozilgan so'z yoki raqam ustidan bir marta chiziq tortish va yuqori qismiga to'g'ri so'z yoki raqamni yozib qo'yish yo'li bilan o'zgartirishi lozim

D) Bu holatda rahbarning qaroriga ko'ra ish ko'riladi

**9. Yillik buxgalteriya hisobotlari va ularga tushuntirishlar qancha muddat saqlanishi kerak?**

A) 5 yil

B) 10 yil

C) 3 yil

D) 75 yil

**10. Hujjatlarni mohiyatiga ko'ra tekshirish deganda nimani tushunasiz?**

A) Bu bitta hujjatni boshqasi bilan taqqoslab tekshirish

B) Hujjatlarning to'g'ri rasmiylashtirilishi, barcha belgilangan rekvizitlarni to'lg'azilishi, xo'jalik muomalasini amalga oshirish va hujjatlarni rasmiylashtirish uchun mas'ul shaxslarning imzolari, xatolarni tuzatish hollarida izohning mavjudligini tekshirishga aytiladi

C) Bunday tekshirishda jamlangan yig'indilarning to'g'riligi hamda miqdor, sifat va summaviy ko'rsatkichlarning to'g'ri aks ettirilganligi aniqlanadi

D) Ularda aks ettirilgan xo'jalik muomalalarining iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini va qonuniyligini aniqlashga aytiladi

**11. Korxona xodimlarining shaxsiy hisobvaraqalari qancha muddat saqlanishi lozim?**

A) 75 yil

B) 10 yil

C) 5 yil

D) 3 yil

**12. Hujjatlarni shaklan tekshirish deganda nimani tushunasiz?**

A) Hujjatlarning to‘g‘ri rasmiylashtirilishi, barcha belgilangan rekvizitlarni to‘lg‘azilishi, xo‘jalik muomalasini amalga oshirish va hujjatlarni rasmiylashtirish uchun mas’ul shaxslarning imzolari, xatolarni tuzatish hollarida izohning mavjudligini tekshirishga aytiladi

B) Bu bitta hujjatni boshqasi bilan taqqoslab tekshirish

C) Ularda aks ettirilgan xo‘jalik muomalalarining iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini va qonuniyligini aniqlashga aytiladi

D) Bunday tekshirishda jamlangan yig‘indilarning to‘g‘riligi hamda miqdor, sifat va summaviy ko‘rsatkichlarning to‘g‘ri aks ettirilganligi aniqlanadi

**13. Hujjatlarni arifmetik tekshirish deganda nimani tushunasiz?**

A) Bu bitta hujjatni boshqasi bilan taqqoslab tekshirish

B) Bunday tekshirishda jamlangan yig‘indilarning to‘g‘riligi hamda miqdor, sifat va summaviy ko‘rsatkichlarning to‘g‘ri aks ettirilganligi aniqlanadi

C) Ularda aks ettirilgan xo‘jalik muomalalarining iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini va qonuniyligini aniqlashga aytiladi

D) Hujjatlarning to‘g‘ri rasmiylashtirilishi, barcha belgilangan rekvizitlarni to‘lg‘azilishi, xo‘jalik muomalasini amalga oshirish, xatolarni tuzatish hollarida izohning mavjudligini tekshirishga aytiladi

**14. Hujjatlarni qarama-qarshi tekshirish deganda nimani tushunasiz?**

A) Ularda aks ettirilgan xo‘jalik muomalalarining iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini va qonuniyligini aniqlashga aytiladi

B) Bu bitta hujjatni boshqasi bilan taqqoslab tekshirish

C) Hujjatlarning to‘g‘ri rasmiylashtirilishi, barcha belgilangan rekvizitlarni to‘lg‘azilishi, xo‘jalik muomalasini amalga oshirish va hujjatlarni rasmiylashtirish uchun mas’ul shaxslarning imzolarning mavjudligini tekshirishga aytiladi

D) Bunday tekshirishda jamlangan yig‘indilarning to‘g‘riligi hamda miqdor, sifat va summaviy ko‘rsatkichlarning to‘g‘ri aks ettirilganligi aniqlanadi

## AMALIY MASHQLAR

**1. Hujjatlarni tekshirish turlari**




**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga hujjatlarni tekshirish turlarini yozing va ularni tavsiflab bering.

**2. Buxgalteriya hujjatlarini olish tartibi**




**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga buxgalteriya hujjatlarini olish tartibini yozing va ularni izohlab bering.

**3. Hujjatlar aylanishi**

1. "SAMO" xususiy korxonasi mol yetkazib beruvchilardan 15-sonli scho't-fakturaga muvofiq 5 000 000 so'mlik materiallar xarid qildi. Moddiy javobgar shaxs mol yetkazib beruvchilardan olingan materiallarni tasdiqlovchi scho't-fakturani buxgalteriya bo'limiga taqdim etdi.

**Talab qilinadi.** "SAMO" xususiy korxonasida scho't-faktura bo'yicha hujjatlar aylanishi reja-grafigini tuzing.

2. "ASILBEK-ABS" kichik korxonasi 20... yil 18 yanvarda 27-sonli to'lov topshiriqnomasiga asosan budjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik summasini to'lab berildi.

**Talab qilinadi.** "ASILBEK-ABS" kichik korxonasida rasmiylashtirilgan to'lov topshiriqnomasi bo'yicha hujjatlar aylanishi reja-grafigini tuzing.

3. "DUNYO SHIRINLIKLARI" xususiy korxonasi kadrlar bo'limi boshlig'i yanvar oyida xodimlarning ishga kelishi bo'yicha tabelni rasmiylashtirgan holda 20... yil 28 yanvarda korxona buxgalteriya bo'limiga taqdim etdi. Buxgalteriya bo'limi tabel ma'lumotlaridan kelib chiqqan holda xodimlarga ish haqi hisobladi.

**Talab qilinadi.** "DUNYO SHIRINLIKLARI" xususiy korxonasida rasmiylashtirilgan tabel bo'yicha hujjatlar aylanishi reja-grafigini tuzing.

**4. Hujjatlardagi xatolarni tuzatish**

1. "Sharq" fermer xo'jaligi rahbari mineral o'g'itlar olish maqsadida "Qishloqxo'jalikkimyo" AJ bilan shartnoma tuzdi. Shartnoma shartlariga ko'ra shartnoma qiymati

(60 000 000 so'm)ning 15 % i oldindan to'langandan keyin AJ tomonidan mineral o'g'itlar fermer xo'jaligiga yetkazib berilishi belgilangan. Shu sababli, fermer xo'jaligi rahbariyati 15 % oldindan to'lovni amalga oshirish maqsadida to'lov topshiriqnomasini rasmiylashtirdi. To'lov topshiriqnomada mavjud bo'lgan barcha rekvizitlar to'ldirilgan holda rasmiylashtirildi. Biroq, to'lov summasi 900 000 so'm sifatida ko'rsatilgan. Vaholanki, shartnoma qiymatining 15 % i 900 000 so'm emas, balki 9 000 000 (60 000 000 * 15 %) so'mga teng bo'ladi. Bundan ko'rinadiki, fermer xo'jaligi rahbariyati to'lov topshiriqnomasida to'lov summasini noto'g'ri aks ettirgan.

**Talab qilinadi.** Mazkur yo'l qo'yilgan xatolik qanday tartibda bartaraf etiladi yoki to'lov topshiriqnomasi bekor qilinib, yangidan rasmiylashtiriladimi? Fikringizni izohlang.

2. "BOTIR SERVIS" xususiy korxonasi buxgalteri xaridorga qiymati 5 000 000 so'm bo'lgan scho't-fakturani rasmiylashtirdi. Scho't fakturaning birinchi nusxasi sharikli ruchkada va ikkinchi nusxasi nusxa ko'chiradigan qog'oz orqali to'ldirildi. Imzo quyish huquqiga ega bo'lgan shaxslar tomonidan birinchi nusxaga imzolar qo'yildi va ikkichi nusxasiga imzolar qo'yilmasdan ko'chirildi.

**Talab qilinadi:**

1. Ushbu holatda scho't faktura to'g'ri rasmiylashtirildimi?
2. Agarda noto'g'ri rasmiylashtirilgan bo'lsa, buxgalter tomonidan qanday xatolikka yo'l qo'yildi?
3. Yo'l qo'yilgan xatolik qanday tartibda bartaraf etiladi?
4. Fikringizni izohlab bering.

3. "YULDUZ" oilaviy korxonasi buxgalteri xodimlariga yanvar oyining ish haqisini tarqatish maqsadida to'lov vedomostini rasmiylashtirdi. Kassadan ish haqi tarqatilayotganda korxona xodimi A.Safarovga to'lov vedomostida 1 500 000 so'm berilishi ko'rsatilgan edi. Biroq, A.Safarov o'ziga 1 500 000 so'm emas, balki 500 000 so'm berilishi kerakligini aytdi. Chunki, u oy boshida 1 000 000 so'm miqdorida ariza bilan murojaat qilgan holda avans olganligini tushuntirib o'tdi. Shundan so'ng, buxgalter tomonidan to'lov vedomosti bilan hisob-kitob vedomosti ma'lumotlari solishtirilib ko'rildi va haqiqatdan ham A.Safarovga 500 000 so'm berilishi kerakligi aniqlandi. Ya'ni, to'lov vedomostida to'lanishi kerak bo'lgan ish haqi summasi noto'g'ri ko'rsatilgan ekan.

**Talab qilinadi:** Ushbu holatda buxgalter tomonidan to'lov vedomosti to'ldirishda xatolikka yo'l qo'yilgan. Mazkur xatolik qanday tartibda bartaraf etiladi? Fikringizni izohlab bering.

4. "Azizbek" fermer xo'jaligi buxgalteri to'lov topshiriqnomasini rasmiylashtirdi. Buxgalter tomonidan to'lov topshiriqnomasining barcha rekvizitlar to'liq va aniq to'ldirildi. Shundan keyin, to'lov topshiriqnomasi fermer xo'jaligi rahbari va buxgalteri tomonidan imzolangan holda tasdiqlanib, muhr bosildi. Hujjatda fermer xo'jaligi rahbari va buxgalterining ismi, familyasi va sharifi ko'rsatib o'tilmadi.

**Talab qilinadi:** Ushbu holatda buxgalter tomonidan to'lov topshiriqnomasi to'g'ri rasmiylashtirildi deb o'ylaysizmi? Yoki hujjatni to'ldirishda xatolikka yo'l qo'yildimi? Agarda xatolik mavjud bo'lsa, u qanday tartibda bartaraf etiladi? Fikringizni izohlab bering.

5. "Umid-Nihollari" xususiy korxonasi hisobdor shaxsga xizmat safari uchun kassadan 500000 so'm bo'nak berdi. Xususiy korxona buxgalteri ushbu xo'jalik operasiyasini hisob registirida quyidagicha buxgalteriya yozuvini yozib aks ettirdi:

Debet: 4890 – «Boshqa debitorlar qarzlari» schoti – 500000 so'm

Kredit: 5010 - «Milliy valutadagi pul mablag'lari» schoti – 500000 so'm.

**Talab qilinadi:** Ushbu holatda buxgalter tomonidan to'g'ri buxgalteriya yozuvi yozilganmi? Yoki xatolikka yo'l qo'yildimi? Agarda xatolik mavjud bo'lsa, u qanday tartibda bartaraf etiladi? Fikringizni izohlab bering.

## 8-MAVZU. AKTIVLAR VA MAJBURIYATLARNI INVENTARIZASIYA QILISH
**(4 soat)**

### 8.1. Inventarizatsiyaning mazmuni, normativ-huquqiy va tashkiliy-uslubiy asoslari
**(2 soat)**

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Inventarizatsiyaning mohiyati nimadan iborat?
2. Inventarizatsiya tashkil etish, o‘tkazish va natijalarini rasmiylashtirish tartibi qaysi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan?
3. Inventarizatsiyaning asosiy maqsadlari va vazifalarini aytib bering.
4. Inventarizatsiya ma’lumotlari va buxgalteriya hisobi ma’lumotlari o‘rtasidagi farqlarning sabablari nimalardan iborat?
5. Inventarizatsiya o‘tkazishga qanday talablar qo‘yiladi?
6. Inventarizatsiyaning turlari qanday va ularni tavsiflang?
7. Inventarizatsiya obyektlari o‘tkazish muddatlari bo‘yicha qanday turlarga bo‘linadi?

### TEST TOPSHIRIQLARI

**1. Inventarizatsiya nima?**
A) Debitor va kreditor qarzlarni taqqoslash dalolatnomasi tuzish yo‘li bilan tasdiqlash
B) Ombordagi materiallarni sanash va o‘lchash
C) Korxona aktivlari va majburiyatlarining haqiqiy qoldiqlarini aniqlash va hisob ma’lumotlari bilan taqqoslash orqali nazoratni ta’minlash hamda boshqarish usuli
D) Korxona aktivlarining scho‘tlarda aks ettirilishini tekshirish

**2. Quyidagilardan qaysi biri inventarizatsiya maqsadini ifoda qilmaydi?**
A) Mulklarning haqiqiy mavjudligini aniqlash
B) Mulklarning haqiqiy bahosini aniqlash
C) Haqiqatda mavjud mulklarni buxgalteriya hisobi ma’lumotlari bilan taqqoslash
D) Majburiyatlarning hisobda to‘liq aks ettirilishini tekshirish

**3. Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish qaysi buxgalteriya hisobi milliy standarti (BHMC) bilan tartibga solinadi?**
A) 19-sonli BHMS
B) 5-sonli BHMS
C) 4-sonli BHMS
D) 21-sonli BHMS

**4. Inventarizatsiya o‘tkazishga qo‘yiladigan talablar qaysi javobda to‘liq berilgan?**
A) To‘satdan, komissiya ishtirokida, komissiya a’zolarining amaliy ishtiroki, uzluksiz, moddiy javobgar shaxslar ishtiroki
B) To‘satdan, uzluksiz, komisssiya ishtirokida, moddiy javobgar shaxslar ishtiroki
C) Komissiya a’zolarining amaliy ishtiroki, uzluksiz, to‘satdan, moddiy javobgar shaxslar ishtiroki
D) Komissiya tuzib, moddiy javobgar shaxslar ishtirokida

**5. Hisob obyektlarini qamrab olish hajmiga ko‘ra inventarizatsiya turlari?**
A) Tanlab, yoppasiga
B) To‘liq, qisman
C) reja bo‘yicha, rejadan tashqari, takroriy, nazorat tekshiruv
D) asosiy vositalar inventarizatsiyasi, pul mablag‘i inventarizatsiyasi, hisob-kitoblar inventarizatsiyasi, tugallanmagan ishlab chiqarish inventarizatsiyasi

**6. Tekshiruv obyektlariga ko‘ra inventarizatsiya turlari?**
A) Asosiy vositalar inventarizatsiyasi, pul mablag‘i inventarizatsiyasi, hisob-kitoblar inventarizatsiyasi,TMQ inventarizatsiyasi, tugallanmagan ishlab chiqarish inventarizatsiyasi
B) To‘liq, qisman
C) Reja bo‘yicha, rejadan tashqari, takroriy, nazorat tekshiruv

D) Tanlab, yollashga

**7. Hisob obyektlarini qamrab olish to‘liqligiga ko‘ra inventarizatsiya turlari?**

A) Asosiy vositalar inventarizatsiyasi, pul mablag‘i inventarizatsiyasi, hisob-kitoblar inventarizatsiyasi, tugallanmagan ishlab chiqarish inventarizatsiyasi

B) Reja bo‘yicha, rejadan tashqari, takroriy, nazorat tekshiruv

C) Tanlab, yoppasiga

D) To‘liq, qisman

**8. Inventarizatsiya tayinlanishi va tavsifiga ko‘ra turlari?**

A) Reja bo‘yicha, rejadan tashqari, takroriy, nazorat tekshiruv

B) Tanlab, yollashga

C) Asosiy vositalar inventarizatsiyasi, pul mablag‘i inventarizatsiyasi, hisob-kitoblar inventarizatsiyasi,TMQ inventarizatsiyasi, tugallanmagan ishlab chiqarish inventarizatsiyasi

D) To‘liq, qisman

## AMALIY MASHQLAR

### 1. Inventarizatsiyaning mohiyati va normativ-huquqiy asoslari




**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga inventarizatsiyaning mohiyati va normativ-huquqiy asoslarini yozing va ularni izohlab bering.

**2. Inventarizatsiyaning maqsadi va asosiy vazifalari**




**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga inventarizatsiyaning asosiy maqsadlari va vazifalarini yozing va ularni tavsiflab bering.

**3. Inventarizatsiyani o‘tkazishga qo‘yiladigan talablar**




**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga inventarizatsiyani o‘tkazishga qo‘yiladigan asosiy talablarni yozing va ularni izohlab bering.

**4. Inventarizatsiya turlari**




**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga inventarizatsiya turlarini yozing va ularni tavsiflab bering.

**5. Inventarizatsiya natijalarini hisobga olish**

1. Korxonaning ombori inventarizatsiyadan o'tkazildi. Inventarizatsiya vaqtida omborda bir birligining qiymati 20 000 so'm bo'lgan 2 dona idish kamomadi aniqlandi. Inventarizatsiya jarayoni yakunlangandan so'ng ishchi inventarizatsiya komissiyasi tomonidan omborda aniqlangan kamomad uchun moddiy javobgar shaxs aybdor deb topildi va kamomad summasi to'liq uning zimmasiga yuklatildi. Moddiy javobgar shaxs kamomad summasini naqd pulda korxona kassasiga to'lab berdi.

**Talab qilinadi.** Inventarizatsiya natijalarini va to'langan kamomad summasini korxona buxgalteri sifatida hisob registrlarida to'g'ri aks ettiring.

2. "Toshkent-vino" aksiyadorlik jamiyatining ishlab chiqarish sexi inventarizatsiyadan o'tkazildi. Inventarizatsiya natijalariga ko'ra sexda bir birliging qiymati 800 so'm bo'lgan 10 dona shisha kamomadi aniqlandi. Mazkur holatni inventarizatsiya komissiyasiga sex boshlig'l 10 dona shisha singanligi va ular ishlab chiqarishga yaroqsiz bo'lganligi uchun ishlab chiqarishdan olib tashlanganligini tushuntirdi. Inventarizatsiya yakunlangandan so'ng komissiya aniqlangan kamomad uchun sexning aybdor emasligini va kamomad summasi korxona xarajatlari sifatida tan olinishi to'g'risida qaror qabul qildi.

**Talab qilinadi.** Inventarizatsiya natijalarini korxona buxgalteri sifatida hisob registrlarida to'g'ri aks ettiring.

3. "ASILBEK-SERVIS" xususiy korxonasida boshlang'lch qiymati 8 000 000 so'm, eskirish qiymati – 4 500 000 so'm bo'lgan uskuna mavjud edi. Uskuna hisobot davrining 15 martida

o‘g‘irlanganligi aniqlandi. Korxona tomonidan tuzilgan ishchi inventarizatsiya komissiyasi tomonidan uskuna haqiqatdan ham o‘g‘irlanganligi tasdiqlandi va quyidagicha qaror qilindi:

*Birinchi holat:* Uskunaning o‘g‘irlanishi bo‘yicha aybdor shaxs sifatida korxona muhandisi A.Tursunov belgilansin va kamomad summasi uskunaning qoldiq qiymatining ikki barobari miqdorida undirilsin.

*Ikkinchi holat:* Uskuna o‘g‘irlanishi bo‘yicha aybdor shaxs aniqlanmaganligi sababli, uning qiymati korxona xarajatlari tarkibiga o‘tkazilsin.

**Talab qilinadi.** Inventarizatsiya natijalarini korxona buxgalteri sifatida hisob registrlarida to‘g‘ri aks ettiring va uskunaning o‘g‘irlanishi bo‘yicha har ikki holat bo‘yicha moliyaviy natijalarni aniqlang.

4. Buxgalteriya hisobi hujjatlariga ko‘ra xususiy korxonada boshlang‘ich qiymati 2000 ming so‘m, eskirish summasi 300 ming so‘m bo‘lgan kompyuter jihozlari mavjud. Ishchi inventarizatsiya komissiyasi tomonidan o‘tkazilgan inventarizatsiya yakunlariga ko‘ra mazkur kompyuter jihozlari yo‘qligi, ya’ni kamomadi aniqlandi.

**Talab qilinadi.** Kompyuter jihozlarining kamomadi bo‘yicha bo‘yicha moliyaviy natijani aniqlang va hisob registrlarida aks ettiring:

- kompyuter jihozlari kamomadi bo‘yicha aybdor shaxs aniqlanmadi va kamomad to‘laligicha xarajatlarga olib borildi.
- kompyuter jihozlari kamomadi bo‘yicha aybdor shaxs aniqlandi va kamomad summasi aybdor shaxsdan 2 barobar miqdorda undirishga qaror qilindi.

5. Korxonada tuzilgan ishchi inventarizatsiya komissiyasi tomonidan korxona kassasi inventarizatsiyadan o‘tkazildi. Korxona kassiri tomonidan berilgan kassa hisobotiga ko‘ra 20... yil 11 noyabr sanasida kassada mavjud bo‘lgan naqd pul mablag‘lari qoldig‘i 5 472 000 so‘mni tashkil qiladi. Inventarizatsiya komissiyasi tomonidan kassadagi naqd pul mablag‘lari kupyuralarga ajratilgan holda sanab ko‘rilganda 5 458 500 so‘mga teng bo‘lgan. Inventarizatsiya komissiyasi raisi moddiy javobgar shaxsdan aniqlangan kamomad summasi bo‘yicha tushuntirish talab qildi. Korxona kassiri kamomad summasi o‘zining aybi bilan yuzaga kelganligi va buning uchun javobgar ekanligini hamda uni to‘lab berishini bayon qilgan holda tushuntirish xati yozdi.

Inventarizatsiya yakunlangandan so‘ng, komissiya qaroriga muvofiq korxona kassasida aniqlangan kamomad summasi uchun to‘liq javobgarlik korxona kassiri zimmasiga yuklatildi va to‘liq undirib olish belgilandi. Korxona kassirining arizasiga asosan kamomad summasi uning ish haqisidan ushlab qolindi.

**Talab qilinadi.** Korxona kassasida o‘tkazilgan inventarizatsiya natijalarini hisobda to‘g‘ri aks ettiring.

## 8.2. Inventarizatsiyani tashkil etish, o‘tkazish va natijalarini rasmiylashtirish (2 soat)

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish texnikasi qanday?
2. Qanday hollarda majburiy inventarizatsiya o‘tkaziladi?
3. Inventarizatsiya o‘tkazish bosqichlari va ularning mazmuni qanday?
4. Inventarizatsiya o‘tkazish qanday tashkil etiladi?
5. Inventvrizatsiya o‘tkazish uchun qanday komissiyalar tashkil etiladi?
6. Inventarizatsiya natijalari qanday rasmiylashtiriladi va buxgalteriya hisobi scho‘tlarida qanday aks ettiriladi?
7. Inventarizatsiya natijasida aniqlangan yaroqsiz va buzilgan mulklar qanday rasmiylashtiriladi?
8. Tabiiy kamayishning qanday turlarini bilasiz va ular qanday hollarda qo‘llaniladi?
9. Inventarizatsiya natijalari bo‘yicha yakuniy qaror qanday hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi?
10. Inventarizatsiya natijalari qaysi hisobot davrida aks ettirilishi lozim?

## TEST TOPSHIRIQLARI

**1. Qaysi javobda inventarizatsiyani o‘tkazish bosqichlari ko‘rsatilgan?**

A) Asosiy, inventarizatsiya natijalarini rasmiylashtirish va e’lon qilish
B) Asosiy va yakunlash
C) Tayyorgarlik, asosiy va yakunlash
D) O‘tkazish jarayoni va inventarizatsiya natijalarini rasmiylashtirish

**2. Yillik inventarizatsiya o‘tkazish rejasi qanday tuziladi?**

A) Xo‘jalik ma’muriyati tomonidan belgilanadi
B) Yillik inventarizatsiya o‘tkazish rejasi va muddatlari buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi nizomlari, qonun va qoidalari bo‘yicha o‘tkaziladi
C) Yillik inventarizatsiya o‘tkazish rejasi xo‘jalik ma’muriyati xoxishiga ko‘ra o‘tkaziladi
D) Yillik inventarizatsiya yuqori tashkilotlarning ko‘rsatmalari bo‘yicha o‘tkaziladi

**3. Doimiy faoliyat ko‘rsatadigan inventarizatsiya komissiyasi tarkibida kimlar bo‘ladi?**

A) Korxona rahbari boshchiligida uning barcha xodimlari
B) Korxona bo‘linmasi rahbarlarining vakili (komissiya raisi), mutaxasislar (iqtisodchi, buxgalteriya xodimi, muhandis, texnolog, tovarshunos, omborchi va boshqa)
C) Bosh buxgalter (komissiya raisi), omborchi, jamoatchilik vakillari
D) Korxona rahbari yoki uning o‘rinbosari (komissiya raisi), bosh buxgalter, tarkibiy bo‘linmalar boshliqlari, jamoatchilik vakillari

**4. Ishchi inventarizatsiya komissiyasi tarkibida kimlar bo‘ladi?**

A) Korxona bo‘linmasi rahbarlarining vakili (komissiya raisi), mutaxasislar (iqtisodchi, buxgalteriya xodimi, muhandis, texnolog, tovarshunos, omborchi va boshqa)
B) Korxona rahbari boshchiligida uning barcha xodimlari
C) Korxona rahbari yoki uning o‘rinbosari (komissiya raisi), bosh buxgalter, tarkibiy bo‘linmalar boshliqlari, jamoatchilik vakillari
D) Bosh buxgalter (komissiya raisi), omborchi, jamoatchilik vakillari

**5. O‘tkazilgan inventarizatsiyaning ishonchliligi, haqqoniyligi va sifatiga shubha vujudga kelgan hollarda nima qilinadi?**

A) Rejadan tashqari inventarizatsiya o‘tkaziladi
B) Tanlab inventarizatsiya o‘tkaziladi
C) Takroriy inventarizatsiya tayinlanadi
D) Rejali inventarizatsiya o‘tkaziladi

**6. Permanent inventarizatsiya-bu...........**

A) Doimiy faoliyat ko‘rsatadigan inventarizatsiya komissiyasi tomonidan TMZlarning eng kam qoldiqlar qolgan paytda o‘tkaziladigan inventarizatsiya
B) Oldindan belgilab qo‘yilgan muddatlarda o‘tkaziladigan inventarizatsiya
C) Korxona rahbarining farmoyishi(buyrug‘i) bilan o‘tkaziladigan inventarizatsiya
D) Korxonaning barcha bo‘limlarida bir vaqtda o‘tkaziladigan inventarizatsiya

**7. Inventarizatsiya natijalari qanday tartibda rasmiylashtiriladi?**

A) Inventarizatsiya ro‘yxatlarini to‘ldirishning to‘g‘riligini va ularda komissiya raisi, a’zolari hamda moddiy javobgar shaxslar imzolarining mavjudligini o‘rganish orqali
B) Inventarizatsiya ro‘yxati, taqqoslash qaydnomasi (hisob miqdor – nav bo‘yicha yuritilganda), inventarizatsiya natijalarini rasmiylashtirish bayonnomasi (hisob so‘mda yuritilganda)
C) Korxona rahbarining buyrug‘i va turli dalolatnomalar orqali
D) Korxona rahbarining buyrug‘i va moddiy javobgar shaxslardan olingan tilxatlar asosida

**8. Inventarizatsiya ro‘yxatlarini to‘ldirishning to‘g‘riligi qanday tartibda tekshiriladi?**

A) Korxona rahbarining buyrug‘i va moddiy javobgar shaxslardan olingan tilxatlar asosida
B) Korxona rahbarining buyrug‘i va turli dalolatnomalar orqali
C) Taqqoslash qaydnomasi (hisob miqdor – nav bo‘yicha yuritilganda) yoki inventarizatsiya natijalarini rasmiylashtirish bayonnomasi (hisob so‘mda yuritilganda) o‘rganish orqali
D) Inventarizatsiya ro‘yxatlarini to‘ldirishning to‘g‘riligini va ularda komissiya raisi, a’zolari hamda moddiy javobgar shaxslar imzolarining mavjudligini o‘rganish orqali

## AMALIY MASHQLAR

**1. Inventarizatsiyani o‘tkazish bosqichlari**




**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga inventarizatsiyani o‘tkazish bosqichlarini yozing va ularni tavsiflab bering.

**2. Inventarizatsiya natijalarini rasmiylashtirish**




**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga inventarizatsiya natijalarini rasmiylashtirish tartibini yozing va ularni izohlab bering.

**3. Inventarizatsiya natijalarini hisobga olish**

1. “NASTARIN IFORI” xususiy korxonasining ombori tuzilgan ishchi inventarizatsiya komissiyasi tomonidan inventarizatsiyadan o‘tkazildi. Inventarizatsiya vaqtida omborda bir birligining qiymati 5200 so‘m bo‘lgan 2 ta ehtiyot qism kamomadi aniqlandi. Inventarizatsiya jarayoni yakunlangandan so‘ng inventarizatsiya komissiyasi tomonidan omborda aniqlangan kamomad uchun moddiy javobgar shaxs aybdorligi sababli kamomad summasi uning zimmasiga yuklatilishi bo‘yicha qaror qilindi. Moddiy javobgar shaxsning arizasiga muvofiq uning ish haqisidan kamomad summasi ushlab qolindi.

**Talab qilinadi.** Inventarizatsiya natijalarini va to‘langan kamomad summasini korxona buxgalteri sifatida hisob registrlarida to‘g‘ri aks ettiring.

2. “PARVONA” korxonasining kassasi inventarizatsiyadan o‘tkazildi. Inventarizatsiya natijalariga ko‘ra kassada 8000 so‘m naqd pul kamomadi aniqlandi. Inventarizatsiya jarayoni yakunlangandan so‘ng komissiya aniqlangan kamomad uchun moddiy javobgar shaxs kassir aybdor ekanligi va kamomad summasi undan undirilishi bo‘yicha qaror qabul qildi. Kamomad summasini kassir naqd pulda to‘ladi.

**Talab qilinadi.** Inventarizatsiya natijalarini korxona buxgalteri sifatida hisob registrlarida to‘g‘ri aks ettiring.

3. “Umid” xususiy korxonasining buxgalteriya hisobi hujjatlariga ko‘ra korxona omborida qiymati 1200000 so‘m bo‘lgan ehtiyot qism mavjud. Moddiy javobgar shaxsning tushuntirishiga muvofiq mazkur ehtiyot qism hisobot davrining 20 yanvar sanasida o‘g‘irlanganligi aniqlandi. Korxona tomonidan tuzilgan ishchi komissiyasi tomonidan ehtiyot qism haqiqatdan ham o‘g‘irlanganligi tasdiqlandi va quyidagicha qaror qilindi:

*Birinchi holat:* Ehtiyot qism o‘g‘irlanishi bo‘yicha moddiy javobgar shaxs aybdor deb topilsin va kamomad summasining ikki barobari miqdorida naqd pulda undirilsin.

*Ikkinchi holat:* Ehtiyot qism o‘g‘irlanishi bo‘yicha moddiy javobgar shaxs aybdor emas deb topilsin va kamomad summasi korxona xarajatlari sifatida tan olinsin.

**Talab qilinadi.** Inventarizatsiya natijalarini korxona buxgalteri sifatida hisob registrlarida to‘g‘ri aks ettiring va ehtiyot qismning o‘g‘irlanishi bo‘yicha har ikki holat bo‘yicha moliyaviy natijalarni aniqlang.

4. Buxgalteriya hisobi hujjatlariga ko‘ra xususiy korxonada boshlang‘ich qiymati 5 600 ming so‘m, eskirish summasi 3 200 ming so‘m bo‘lgan mebellar to‘plami mavjud edi. Ishchi inventarizatsiya komissiyasi tomonidan o‘tkazilgan inventarizatsiya yakunlariga ko‘ra mazkur mebellar to‘plami yo‘qligi, ya’ni kamomadi aniqlandi.

**Talab qilinadi.** Mebellar to‘plamining kamomadi bo‘yicha bo‘yicha moliyaviy natijani aniqlang va hisob registrlarida aks ettiring:

- mebellar to‘plami kamomadi bo‘yicha aybdor shaxs aniqlanmadi va kamomad to‘laligicha xarajatlarga olib borildi.
- mebellar to‘plami kamomadi bo‘yicha moddiy javobgar shaxs aybdor deb topildi va kamomad summasi moddiy javobgar shaxsdan 2 barobar miqdorda undirishga qaror qilindi.

5. Korxonada tuzilgan ishchi inventarizatsiya komissiyasi tomonidan korxona kassasi inventarizatsiyadan o‘tkazildi. Korxona kassiri tomonidan berilgan kassa hisobotiga ko‘ra 20... yil 28 noyabr sanasida kassada mavjud bo‘lgan naqd pul mablag‘lari qoldig‘i 1 700 000 so‘mni tashkil qiladi. Inventarizatsiya komissiyasi tomonidan kupyuralarga ajratilgan holda sanab ko‘rilganda kassadagi naqd pul mablag‘lari 2 810 000 so‘mga teng bo‘lgan. Inventarizatsiya komissiyasi raisi moddiy javobgar shaxsdan aniqlangan naqd pul mablag‘larining ortiqchaligi bo‘yicha tushuntirish talab qildi. Korxona kassiri kassa hisobotida berilgan naqd pul mablag‘larining qoldig‘i to‘g‘ri chiqarilganligi, aniqlangan ortiqcha pul mablag‘lari esa o‘zining oylik maoshi ekanligini bayon qilgan holda tushuntirish xati yozdi.

Inventarizatsiya komissiyasi tomonidan buxgalteriya hujjatlari to‘liq o‘rganib chiqildi va kassir hisobotida chiqarilgan qoldiq summasi to‘g‘ri ko‘rsatilgan deb topildi. Korxona kassiri “Yuridik shaxslar tomonidan kassa operatsiyalarini yuritish Qoidalari” bilan yana bir marotaba tanishtirilib, oylik maoshini kassada saqlash mumkin emasligi tushuntirildi va unga xayfsan berdi.

**Talab qilinadi:**

1. Korxona kassiri oylik maoshini kassada saqlaganligini qanday baholaysiz?
2. Mazkur holatda korxona kassiri to‘g‘ri yo‘l tutganmi?
3. Inventarizatsiya komissiyasi aniqlangan naqd pul mablag‘lari ortiqchaligi bo‘yicha to‘g‘ri qaror qabul qildimi? Fikringizni asoslang.

6. Ishchi inventarizatsiya komissiyasi tomonidan korxona ombori inventarizatsiyadan o‘tkazildi. Inventarizatsiya vaqtida omborda bir birligining qiymati 5300 so‘m bo‘lgan 4 dona yashik kamomadi aniqlandi. Inventarizatsiya jarayoni yakunlangandan so‘ng inventarizatsiya komissiyasi tomonidan omborda aniqlangan kamomad uchun moddiy javobgar shaxs aybdorligi sababli kamomad summasi uning zimmasiga yuklatilishi bo‘yicha qaror qilindi. Moddiy javobgar shaxs mazkur kamomad summasini 4 dona yashiklar olib kelib berish orqali to‘ladi.

**Talab qilinadi.** Inventarizatsiya natijalarini va to‘langan kamomad summasini korxona buxgalteri sifatida hisob registrlarida to‘g‘ri aks ettiring.

## 9-MAVZU. BUXGALTERIYA HISOBIDA AKTIVLARNI BAHOLASH
## (4 soat)

### 9.1. Baholashning mohiyati, normativ-huquqiy asoslari va turlari
### (2 soat)

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Baholash tushunchasini ta'riflang.
2. Baholash qanday normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi?
3. Baholashning qanday prinsiplari bor?
4. Bozor iqtisodiyoti sharoitida buxgalteriya hisobining axborot tizimini shakllantirish jarayonida baholash qanday o'rin tutadi?
5. Baholashning qanday turlari bor?
6. Baholanishi lozim bo'lgan buxgalteriya hisobi obyektlariga nimalar kiradi?

### TEST TOPSHIRIQLARI

**1. Baholash - bu.........**

A) Har xil o'lchovlarda ifodalangan hisob obyektlarini pul o'lchoviga o'tkazish usuli
B) Har xil o'lchovlarda ifodalangan hisob obyektlarini umumlashtirish
C) Hisob obyektlarini bitta umumiy o'lchovda aks ettirish
D) Har bir xo'jalik muomalasini bir xil summada bir scho'tning debeti va ikkinchi scho'tning kreditida aks ettirish usuli

**2. Tegishli aktivlarning diskontlangan qiymati bu -**

A) Aniq bir aktivdan olingan tushumning qiymati
B) Sotishdan tushgan sof tushum
C) Yaqin kelajakda tegishli aktivni ishlatishdan olinishi kutilayotgan iqtisodiy naflar summasining yakuniy natija sifatidagi qiymati
D) Tegishli aktivni ma'lum shart-sharoitlarda ishlatishdan olinishi kutilayotgan iqtisodiy naf qiymati

**3. Baholashning asosiy prinsiplari:**

A) Uzluksizlik, pulda baholash, hisoblash
B) Baholashning haqqoniyligi, baholash qoidalarinnig bir xilligi
C) Ehtiyotkorlik, ko'rsatkichlarning taqqoslanuvchanligi
D) Hisobot davri daromadlari va xarajatlarining muvofiqligi

**4. Baholanadigan asosiy hisob obyektlariga nimalar kiradi?**

A) Uzoq muddatli aktivlar, o'z mablag'lari manbalari va majburiyatlar
B) Asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, kreditorlik qarzlari va boshqa majburiyatlar
C) Asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, materiallar, tayyor mahsulot va tovarlar
D) Uzoq muddatli aktivlar, pul mablag'lari, debitor qarzlar, kreditor qarzlari va boshqa majburiyatlar

**5. Tovar-moddiy zaxiralarni baholash metodlari qaysi normativ hujjatlar bilan belgilanadi?**

A) 4-sonli «Tovar-moddiy zaxiralar» nomli BHMS, 5-sonli «Asosiy vositalar» nomli BHMS, 7-sonli «Nomoddiy ak-tivlar» nomli BHMS
B) 5-sonli «Asosiy vositalar» nomli BHMS, «Chet el valutasida ifodalangan operatsiyalarni buxgalteriya hisobi, statistik va boshqa hisobotlarda aks ettirish tartibi to'g'risida»gi Nizom
C) 7-sonli «Nomoddiy ak-tivlar» nomli BHMS, «Chet el valutasida ifodalangan operatsiyalarni buxgalteriya hisobi, statistik va boshqa hisobotlarda aks ettirish tartibi to'g'risida»gi Nizom
D) 4-sonli «Tovar-moddiy zaxiralar» nomli BHMS, «Chet el valutasida ifodalangan operatsiyalarni buxgalteriya hisobi, statistik va boshqa hisobotlarda aks ettirish tartibi to'g'risida»gi Nizom

## AMALIY MASHQLAR

**1. Baholashning mohiyati va buxgalteriya hisobida baholanishi lozim bo‘lgan asosiy obyektlar**




**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga baholashning mohiyati va buxgalteriya hisobida baholanishi lozim bo‘lgan asosiy obyektlarni va ularni tavsiflab bering.

**2. Materiallarni kirimga olish vaqtida baholash usullari**




**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga materiallarni kirimga olish vaqtida baholash usullarini yozing va ularni tavsiflab bering.

**3. Materiallarni hisobdan chiqarish vaqtida baholash usullari**




**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga materiallarni hisobdan chiqarish vaqtida baholash usullarini yozing va ularni izohlab bering.

**4. Asosiy vositalarni baholash usullari**




**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga asosiy vositalarni baholash usullarini yozing va ularni tavsiflab bering.

**5. Tayyor mahsulotlarni baholash usullari**




**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga tayyor mahsulotlarni baholash usullarini yozing va ularni izohlab bering.

**6. Savdo korxonalarida tovarlarni baholash usullari**




**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga savdo korxonalarida tovarlarni baholash usullarini yozing va ularni izohlab bering.

**7. Asosiy hisob obyektlarini baholash tartibi**

1. Korxona mol yetkazib beruvchidan 60000000 so'mlik ehtiyot qismlar sotib olindi. Ehtiyot qismlarni tashib keltirishda avtotransport korxonasi xizmatidan foydalanildi. Avtotransport korxonasi transport xizmati haqi sifatida shartnomaga muvofiq 1300000 so'm tan olindi va to'lab berildi. Ehtiyot qismlarni ortish va tushirish jarayonida ishlagan ishchilarga 360000 so'm ish haqi hisoblandi, hisoblangan ish haqidan 43200 so'm yagona ijtimoiy to'lov hisoblandi.

**Talab qilinadi:**

1. Sotib olingan ehtiyot qismlarni haqiqiy tannarxini aniqlang va asos bo'luvchi xujjatlarni yozing.
2. Korxonada ehtiyot qismlarni sotib olish bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalariga buxgalteriya provodkasini bering.

2. "FAYZ - BARAKA" xususiy korxonasida yil davomida quyidagi materiallar sotib olindi:

| **Sotib olish sanasi** | **Miqdori** | **Bir birlik materialning bahosi** | **Jami qiymat, ming so'm** |
|---|---|---|---|
| 11 mart | 1500 | 600 | 900 |
| 28 may | 1700 | 800 | 1360 |
| 8 noyabr | 1500 | 900 | 1350 |
| Jami | 4700 | | 3610 |

Xususiy korxonada yil davomida asosiy ishlab chiqarishga 2800 birlik materiallar sarflandi va yil oxirida omborda 1900 birlik material qoldi.

**Talab qilinadi:**

1. Materiallarni baholash usullaridan foydalanib sarflangan material tannarxi hamda yil oxirida zahiralarga taqsimlanadigan xarajatlarni aniqlang.
2. Materialarni hisobdan chiqarish bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalariga buxgalteriya provodkasini bering.

3. Qurilish mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxona o'z mahsulotlarini sotish maqsadida xo'jalik usulida savdo dukonini qurib, foydalanishga topshirgan. Ammo, u bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalari hisobda aks ettirilmagan. Savdo dukoni qurilishi bilan bog'liq quyidagi xo'jalik operatsiyalari sodir bo'lgan:

- sarflangan qurilish materiallari – 63 000 ming so'm;
- hisoblangan ish haqi – 50 500 ming so'm;
- YAIT (12 %) – 6060 ming so'm;
- chet tashkilotlar xizmatidan foydalanilgan – 2 500 ming so'm;
- jihozlash maqsadida ombordan inventarlar olingan – 7100 ming so'm.

**Talab qilinadi:**

1. Savdo dukonini dastlabki qiymatini aniqlang.
2. Savdo dukoni bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalarini hisobda aks ettiring va uni asosiy vositalar tarkibiga o'tkazing.

4. Korxonada mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan materiallar qiymati 72 500 000 so'mga teng bo'lgan. Korxonada asosiy ishlab chiqarishda ishlayotgan ishchilarga 24 000 000 so'mlik ish haqi va ish haqiga nisbatan 12 % yagona ijtimoiy to'lov hisoblangan. Shu bilan birga, ishlarga hisoblangan ish haqidan daromad solig'i 2 880 000 so'm hisoblandi. Bundan tashqari asosiy ishlab chiqarishda foydalanilgan asosiy vositalarga 4 200 000 so'm eskirish hisoblangan. Tuman elektr tarmog'iga foydalanilgan elektr energiya uchun 600 000 so'm hisoblandi va to'landi. Hisobot davri yakunida asosiy ishlab chiqarishdan tayyor mahsulot olindi.

**Talab qilinadi:**

1. Asosiy ishlab chiqarishdan olingan tayyor mahsulotlarni haqiqiy tannarxini aniqlang.
2. Tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlarni hisobda aks ettiring.

## 9.2. Asosiy hisob obyektlarini baholash metodlari (2 soat)

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Materiallar kirim qilish paytida qanday baholanadi?
2. Materiallarni chiqim qilish paytida qanday baholash usullari qo'llaniladi va ularni tavsiflang?
3. Asosiy vositalarni baholashning qanday usullarini bilasiz?
4. Asosiy vositalar ob'ektining dastlabki qiymati qanday aniqlanadi?
5. Asosiy vositalar ob'ektining qoldiq qiymati qanday aniqlanadi?
6. Asosiy vositalar ob'ektining tiklash qiymati deganda nimani tushunasiz va uni aniqlashda qanday usullar qo'llaniladi?
7. Nomoddiy aktivlarni baholashning qanday usullarini bilasiz va ularni tavsiflang?
8. Tayyor mahsulotlarni baholashning qanday usullari mavjud va ular qanday qo'llaniladi?
9. Savdo korxonalarida tovarlarni baholash usullari va ularning xususiyatlari qanday?

### TEST TOPSHIRIQLARI

**1. Tovar-moddiy zaxiralrni baholash qaysi usullar bilan amalga oshiriladi:**
A) Normativ, reja
B) O'rtacha o'lchangan, kumulyativ
C) Dastlabki qiymati, qoldiq qiymati, tiklash qiymati
D) Haqiqiy ishlab chiqarish tannarxi, ortacha tannarx, FIFO

**2. №5 "Asosiy vositalar" nomli BHMSga muvofiq asosiy vositalarni baholashda quyidagi usullar qo'llaniladi:**
A) O'rtacha o'lchangan, kumulyativ
B) Dastlabki qiymati, qoldiq qiymati, tiklash qiymati
C) Jadallashtirilgan, identifikatsiya qilinadigan
D) Normativ, reja

**3. Korxonada ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot joriy hisobda qanday baholanadi?**
A) Ishlab chiqarish tannarxi
B) Bozor qiymati

C) Shartnoma qiymati
D) O'tgan hisobot davridagi qiymat

**4. Asosiy vositaning tiklash qiymati – bu ... .**

A) Hozirgi sharoitda asosiy vositalarni (hozirgi baholarda, zamonaviy texnikalar va h.k.) qayta barpo etish qiymati. Bu qiymati asosiy vositalarning qayta baholash yo'li bilan aniqlanadi
B) Ularning dastlabki qiymatidan eskirish summasini ayirish yo'li bilan aniqlanadi
C) Ularni sotib olish, qurish va tayyorlash uchun qilingan haqiqiy xarajatlar bo'yicha aniqlanadi
D) Bu birinchi kirim qilingan baho bo'yicha chiqim qilish yo'li bilan aniqlanadi

**5. Asosiy vositalarning qoldiq qiymati – bu ... .**

A) Hozirgi sharoitda asosiy vositalarni (hozirgi baholarda, zamonaviy texnikalar va h.k.) qayta barpo etish qiymati. Bu qiymati asosiy vositalarning qayta baholash yo'li bilan aniqlanadi
B) Ularning dastlabki qiymatidan eskirish summasini ayirish yo'li bilan aniqlanadi
C) Ularni sotib olish, qurish va tayyorlash uchun qilingan haqiqiy xarajatlar bo'yicha aniqlanadi
D) Bu birinchi kirim qilingan baho bo'yicha chiqim qilish yo'li bilan aniqlanadi

**6. Tovar-moddiy zaxiralar birligining qiymati AVECO usuli bo'yicha qanday aniqlanadi?**

A) Bu usuli bo'yicha hisobdan chiqarilayotgan tovar-moddiy zaxiralar tannarxiga birinchi navbatda sotib olingan yoki ishlab chiqarilgan zaxiralar qiymati olib boriladi.
B) Ularning dastlabki qiymatidan eskirish summasini ayirish yo'li bilan aniqlanadi
C) Zaxiralar umumiy tannarxini ularning umumiy miqdoriga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi
D) Ularni sotib olish, qurish va tayyorlash uchun qilingan haqiqiy xarajatlar bo'yicha aniqlanadi

**7. Buxgalteriya hisobida va balansda tayyor mahsulotlar qaysi bahoda ko'rsatiladi?**

A) Haqiqiy ishlab chiqarish tannarxi bo'yicha ko'rsatiladi
B) Reja (normativ) tannarxi bo'yicha ko'rsatiladi
C) Bozor bahosida ko'rsatiladi
D) Ta'sischilar bilan kelishilgan bahoda ko'rsatiladi

**8. Tayyor mahsulotlarni baholash usullari berilgan javobni ko'rsating?**

A) Reja (normativ) tannarxi, haqiqiy ishlab chiqarish tannarxi
B) O'rtacha o'lchangan, kumulyativ
C) Dastlabki qiymati, qoldiq qiymati, tiklash qiymati
D) Normativ, reja

## AMALIY MASHQLAR

### 1. Materiallarni kirimga olish vaqtida baholash

1. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxona shartnomaga asosan mol yetkazib beruvchilardan 15 000 000 so'mlik idishlar xarid qildi. Idishlarni tashib kelishda transport xizmatlaridan foydalanildi. Transport tashkiloti tomonidan bajarilgan ishlar qiymati 250 000 so'm sifatida baholandi va bu summas korxona tomonidan tan olindi hamda to'lab berildi. Shuningdek, idishlarni xarid qilish bo'yicha hisobdor shaxsning xizmat safari xarajatlari 150 000 so'mni tashkil etgan.

**Talab qilinadi:**

1. Korxona tomonidan xarid qilingan idishlarni haqiqiy tannarxini aniqlang va asos bo'luvchi xujjatlarni yozing.
2. Korxonada idishlarni xarid qilish bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalariga buxgalteriya provodkasini bering.

2. "Azizjon" fermer xo'jaligi xo'jalik faoliyatida foydalanish maqsadida "Qishloqxo'jalikkimyo" AJ bilan mineral o'g'itlar sotib olish bo'yicha 45 000 000 so'mlik shartnoma tuzdi. 20... yil 18 fevralda fermer xo'jaligi 36 000 000 so'mlik (QQS bilan) mineral o'g'itlarni sotib oldi. Scho't-fakturada mineral o'g'itlarning xarid bahosi 30 000 000 so'm, QQS so'mmasi 6 000 000 so'm qilib ko'rsatilgan. Bundan tashqari scho't-fakturada 300 000 so'm transport xarajatlari ham ko'rsatib o'tilgan.

**Talab qilinadi:**

1. "Azizjon" fermer xo'jaligi tomonidan xarid qilingan mineral o'g'itlarni haqiqiy tannarxini aniqlang va asos bo'luvchi xujjatlarni yozing.
2. Fermer xo'jaligida mineral o'g'itlarni xarid qilish bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalariga buxgalteriya provodkasini bering.

3. "MALIKA" xususiy korxonasi ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanadi. Xususiy korxona "YULDUZ" mas'uliyati cheklangan jamiyat (MChJ)ning ta'sislaridan hisoblanadi. Xususiy korxonaning MChJ ustav kapitalidagi ulushi 50 000 000 so'mni tashkil qiladi. Xususiy korxona ishlab chiqarish tannarxi 45 000 000 so'm bo'lgan tayyor mahsulotlarni MChJga ustav kapitalidagi ulushi sifatida kiritdi. Bu tayyor mahsulotlar MChJ moliyaviy-xo'jalik faoliyatida xomashyo sifatida foydalaniladi. Xususiy korxona tomonidan kiritilgan tayyor mahsulotlar ta'sischilar tomonidan 50 000 000 so'mga baholandi va xususiy korxonaning ustav kapitalidagi ulushi bo'yicha qarzi to'liq to'landi deb tan olindi.

**Talab qilinadi:**

1. Ustav kapitaliga ulush sifatida berilgan tayyor mahsulotlar "YULDUZ" MChJ tomonidan qaysi bahoda tan olinib kirim qilinadi.
2. "MALIKA" xususiy korxonasida tayyor mahsulotlarning chiqib ketishi va ularni "YULDUZ" MChJda ustav kapitaliga ulush sifatida olinishi bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalariga buxgalteriya provodkasini tuzing.

4. Korxona qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonadan shartnomaga asosan qiymati 100 000 000 so'm bo'lgan qurilish materiallarini xarid qildi. Qurilish materiallarini tashib keltirishda avtotransport korxonasi xizmatidan foydalanildi. Avtotransport korxonasi transport xizmati haqi sifatida shartnomaga muvofiq 3000000 so'm tan olindi va to'lab berildi. Qurilish materiallarini ortish va tushirish jarayonida ishlagan ishchilarga 1000000 so'm ish haqi hisoblandi, hisoblangan ish haqidan 120000 so'm yagona ijtimoiy to'lov hisoblandi.

**Talab qilinadi:**

1. Sotib olingan qurilish materiallarining haqiqiy tannarxini aniqlang va asos bo'luvchi xujjatlarni yozing.
2. Korxonada qurilish materiallarini sotib olish bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalariga buxgalteriya provodkasini bering.

**2. Materiallarni hisobdan chiqarish vaqtida baholash**

1. "ARZANDA" xususiy korxonasi yil davomida quyidagi idishlar sotib olindi:

| Sotib olish sanasi | Miqdori | Bir birlik materialning bahosi |
|---|---|---|
| 03 yanvar | 1200 | 700 |
| 28 aprel | 1600 | 800 |
| 18 oktabr | 1400 | 900 |
| Jami | 4200 | x |

Xususiy korxonada yil davomida asosiy ishlab chiqarishga 3200 birlik materiallar sarflandi va yil oxirida omborda 1000 birlik material qoldi.

**Talab qilinadi:**

1. Materiallarni baholash usullaridan foydalanib sarflangan material tannarxi hamda yil oxirida zahiralarga taqsimlanadigan xarajatlarni aniqlang.
2. Materialarni hisobdan chiqarish bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalariga buxgalteriya provodkasini bering.

2. “NAFIS SAVDO” xususiy korxonasida hisobot davri boshiga tovarlar qoldig‘i mavjud emas. Hisobot davri davomida xususiy korxona tomonidan tovarlar quyidagi birliklar va baholarda sotib olingan:

| Sotib olish sanasi | Sotib olingan tovarlar miqdori | Bir dona tovarning tannarxi |
|---|---|---|
| 18 yanvar | 3000 | 300 |
| 28 iyun | 4500 | 330 |
| 18 sentyabr | 1500 | 345 |
| 25 oktyabr | 7500 | 375 |
| 15 dekabr | 1500 | 390 |

“NAFIS SAVDO” xususiy korxonasida o‘tkazilgan inventarizatsiya natijalariga ko‘ra hisobot davri oxiriga tovarlar qoldig‘i 3750 donani tashkil qilgan.

**Talab qilinadi:**

1. Tovarlarni hisobdan chiqarish vaqtida baholash usullaridan foydalanib sotilgan tovarlarning tannarxini hamda yil oxirida taqsimlanadigan xarajatlarni aniqlang.
2. Tovarlarni sotib olish va sotish bilan bog‘liq xo‘jalik operatsiyalariga buxgalteriya provodkasini bering.

3. Qurilish tashkiloti qurilish jarayonida foydalanish maqsadida hisobot davri davomida quyidagi qurilishda ishlatiladigan qo‘lqoplarni sotib oldi va sarfladi. Qurilish tashkiloti omborida hisobot davri boshida qo‘lqoplar mavjud bo‘lmagan.

Sotib olingan va sarflangan qurilish qo‘lqoplari to‘g‘risida ma’lumot:

| Sotib olish sanasi | Sotib olingan materiallar miqdori | Bir birlik materialning bahosi |
|---|---|---|
| | *Kirim* | |
| 8 yanvar | 3000 | 1000 |
| 15 iyun | 4500 | 1300 |
| | *Chiqim: ishlab chiqarishga berildi* | |
| 12 sentyabr | 5500 | |
| | **Kirim** | |
| 2 oktyabr | 7500 | 1700 |
| | *Chiqim: ishlab chiqarishga berildi* | |
| 25 dekabr | 6500 | |

Qurilish tashkiloti omborida qurilish qo‘lqoplari qoldig‘i hisobot davri oxiriga 3000 donani tashkil etadi.

**Talab qilinadi:**

1. Materiallarni hisobdan chiqarish vaqtida baholash usullaridan foydalanib sarflangan qurilish qo‘lqoplarining tannarxini hamda yil oxirida taqsimlanadigan xarajatlarni aniqlang.
2. Qurilish qo‘lqoplarini sotib olish va sarflanishi bilan bog‘liq xo‘jalik operatsiyalariga buxgalteriya provodkasini bering.

4. “Toshkent sharbat” mas’uliyati cheklangan jamiyat (MChJ)da hisobot davri boshiga idish (bonka) qoldig‘i 3000 donani tashkil qiladi. Uni sotib olish bilan bog‘liq xarajatlar 1 500 000 so‘mga teng bo‘lgan. Shu bilan birga, MChJ hisobot davri davomida idish (bonka)larni quyidagi birliklar va baholarda sotib olgan va o‘zining ishlab chiqarish faoliyatida foydalangan:

| Sotib olish sanasi | Sotib olingan materialar miqdori | Bir birlik material bahosi |
|---|---|---|
| | *Kirim* | |
| 18 yanvar | 3000 | 530 |
| | *Chiqim: ishlab chiqarishga berildi* | |

| | | |
|---|---|---|
| 26 mart | 5200 | |
| *Kirim* | | |
| 5 may | 2400 | 550 |
| *Chiqim: ishlab chiqarishga berildi* | | |
| 28 iyun | 3000 | |
| *Kirim* | | |
| 23 avgust | 3400 | 580 |
| *Chiqim: ishlab chiqarishga berildi* | | |
| 18 sentyabr | 3500 | |
| *Kirim* | | |
| 25 oktyabr | 1500 | 600 |
| 15 dekabr | 2500 | 650 |

MChJ omborida hisobot davri oxirida idish (bonka)lar qoldig'i 4100 donani tashkil qiladi.

**Talab qilinadi:**

1. Materiallarni hisobdan chiqarish vaqtida baholash usullaridan foydalanib sarflangan idish (bonka)larning tannarxini hamda yil oxirida taqsimlanadigan xarajatlarni aniqlang.
2. Idish (bonka)larni sotib olish va sarflanishi bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalariga buxgalteriya provodkasini bering.

**3. Asosiy vositalarni baholash**

1. "A" korxonaga mol yetkazib beruvchidan 38 860 000 so'mga mebil va ofis jihozlari sotib olindi. Mebil va ofis jihozlarini korxonaga olib kelish uchun transport xarajatlari - 450000 so'm, o'rnatish ishlari uchun – 750000 so'm sarflandi.

**Talab qilinadi:**

1. Korxonaga olib kelingan mebil va ofis jihozlarining boshlang'ich qiymatini aniqlang.
2. Mebel va ofis jixozlarini sotib olish bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalariga buxgalteriya pravodkasini bering va bajarilgan hisob-kitoblarni tushuntiring.

2. Qurilish tashkiloti xo'jalik faoliyatida foydalanish maqsadida omborxona binosini qurib foydalanishga topshirdi. Ammo, u bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalari hisobda aks ettirilmagan. Omborxona qurilishi bilan bog'liq quyidagi xo'jalik operatsiyalari sodir bo'lgan:

- sarflangan qurilish materiallari – 163 000 ming so'm;
- hisoblangan ish haqi – 50 500 ming so'm;
- Yagona ijtimoiy to'lov (12 %) – 6060 ming so'm;
- chet tashkilotlar xizmatidan foydalanilgan – 18 500 ming so'm;
- Jihozlash maqsadida ombordan inventarlar olingan – 17100 ming so'm.

**Talab qilinadi:**

1. Qurib foydalanishga topshirilgan omborxona binosining boshlang'ich qiymatini aniqlang.
2. Omborxonani qurish va uni asosiy vositalar tarkibiga qabul qilish bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalariga buxgalteriya pravodkasini bering va bajarilgan hisob-kitoblarni tushuntiring.

3. "NIHOL-2016" xususiy korxonasi 20... yil 15 fevralda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida so'ngi rusumdagi uskunani sotib olish uchun "IMKON SERVIS" MChJ bilan 72 800 000 so'mlik shartnoma imzoladi. 20... yil 25 fevralda uskuna uchun shartnoma qiymatining 15 foizi miqdorida avans "IMKON SERVIS" MChJga o'tkazib berilgan. 20... yil 02 mart kuni mol yetkazib beruvchidan uskuna qabul qilib olindi. Shuningdek, xususiy korxonada uskunani sotib olish bilan bog'liq quyidagi qo'shimcha xarajatlar qilingan:

- uskunani o'rnatish xarajatlari uchun "A'lo-Servis" korxonasiga 2785 000 so'm to'landi;
- uskunani dastlabki sozlash jarayonida korxona omboridan 3 236 000 so'mlik xom-ashyo sarflandi.

20... yil 10 mart kuni “IMKON SERVIS” MChJga uskunaning qolgan summasi o‘tkazib berildi.

**Talab qilinadi:**

1. Sotib olingan uskunaning boshlang’ich qiymatini aniqlang.
2. Uskunani sotib olish va asosiy vositalar tarkibiga o‘tkazish bilan bog‘liq xo‘jalik operatsiyalariga buxgalteriya pravodkasini bering va bajarilgan hisob-kitoblarni tushuntiring.

4. Korxonada boshlang‘ich qiymati 85625 ming so‘m va eskirishi 35230 ming so‘m bo‘gan ishlab chiqarish binosi mavjud. Mazkur asosiy vositaning hisobot davri uchun qayta baholash indeksi 1,121 koeffitsentni tashkil etadi.

**Talab qilinadi.** Ushbu ishlab chiqarish binosini belgilangan indeks bo‘yicha qayta baholang va qayta baholash natijalarini hisobda aks ettiring.

5. “Xumo” MChJda boshlang‘ich qiymati 72126 ming so‘m, hisoblangan eskirishi 52360 ming so‘m bo‘lgan uskuna mavjud. Mazkur uskuna uchun qayta baholash indeksi 1,110 koeffitsient belgilangan.

**Talab qilinadi:** Belgilangan indeks koeffitsentidan foydalanib uskunaning qiymatini qayta baholang va uning natijalarini hisobda aks ettiring.

6. Korxonada boshlang‘ich qiymati 82653 ming so‘m va eskirishi 53560 ming so‘m bo‘gan transport vositasi mavjud. Mazkur asosiy vositaning hisobot davri uchun qayta baholash indeksi 1,115 koeffitsentni tashkil etadi.

**Talab qilinadi.** Ushbu tiransport vositasini belgilangan indeks bo‘yicha qayta baholang va qayta baholash natijalarini hisobda aks ettiring.

7. “Fayz” MChJda boshlang‘ich qiymati 70658 ming so‘m, hisoblangan eskirishi 50230 ming so‘m bo‘lgan uskuna mavjud. Mazkur uskuna uchun qayta baholash indeksi 1,08 koeffitsient belgilangan.

**Talab qilinadi.** Belgilangan indeks koeffitsentidan foydalanib uskunaning qiymatini qayta baholang va uning natijalarini hisobda aks ettiring.

**4. Nomoddiy aktivlarni baholash**

1. Kompaniya 20___ yil yanvar oyida qiymati 25 000 000 so’mlik dasturiy ta’minotni “EHM-SERVIS” korxonasidan sotib oldi va uni nomoddiy aktiv sifatida balansga qabul qildi.

**Talab qilinadi:**

1. Dasturiy ta’minotning balansga qabul qilishda uning boshlang‘ich qiymatini aniqlang.
2. Dasturiy ta’minotni sotib olish va nomoddiy aktivlar tarkibiga kiritish bilan bog‘liq xo‘jalik operatsiyalariga buxgalteriya provodkasini bering.

2. “KAMALON” korxonasi sanoat namunasi sotib olish uchun konsalting firmasiga murojat qildi. Konsalting firmasining tavsiyasiga ko’ra chet el kompaniyasidan qiymati 120 000 000 so’m bo‘lgan sanoat namunasi sotib olindi.

Konsalting firmasiga marketing izlanishlari uchun 5 800 000 so’m xizmat haqi shartnomaga asosan to‘lab berildi.

**Talab qilinadi:**

1. Korxona tomonidan sotib olingan sanoat namunisining boshlang‘ich qiymatini aniqlang.
2. Sanoat namunasini sotib olish bilan bog‘liq xo‘jalik operatsiyalariga buxgalteriya provodkasini bering va bajarilgan hisob-kitoblarni tushuntiring.

3. “JPBP-SYSTEMS” qo‘shma korxonasi ichki faoliyatida foydalanish uchun kompyuter dasturini ishlab chiqdi. Kompyuter dasturini ishlab chiqish uchun quyidagi xarajatlar qilindi:

- dasturni ishlab chiqarish uchun dasturchilarga ish haqi hisoblandi – 80 000 000 so’m;
- ish haqiga nisbatan hisoblangan yaagona ijtimoiy to‘lov (25 %) – 20 000 000 so’m;
- material sarf-xarajatlari – 17 000 000 so’m.

**Talab qilinadi:**

1. Xo'jalik faoliyatida foydalanish maqsadida ishlab chiqilgan kompyuter dasturini boshlang'ich qiymatini aniqlang.
2. Kompyuter dasturini yaratish bilan bog'liq xarajatlarni hisobda aks ettiring va bajarilgan hisob-kitoblarni tushuntirib bering.

**5. Tayyor mahsulotlarni baholash**

1. Ishlab chiqarish korxonasida hisobot davrida mahsulot ishlab chiqarish uchun 142 000 000 so'mlik xomashyo va materiallar sarflandi. Shuningdek, asosiy ishlab chiqarishda ishlayotgan ishchilarga 68 000 000 so'mlik ish haqi va ish haqiga nisbatan 12 % yagona ijtimoiy to'lov hisoblangan. Bundan tashqari, ishchilarga hisoblangan ish haqidan daromad solig'i 12 % va ish haqiga nisbatan 0,1 % shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob raqamiga (ShJBPH) ajratma hisoblangan.

**Talab qilinadi:**

1. Ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotning haqiqiy tannarxini aniqlang.
2. Tayyor mahsulotni ishlab chiqarish va omborga qabul qilish bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalarini hisobda aks ettiring va bajarilgan hisob-kitoblarni tushuntirib bering.

2. Sut mahsulotlarini qayta ishlovchi korxona tomonidan hisobot davrida mahsulot ishlab chiqarish uchun berilgan xomashyo va materiallar qiymati 82 500 000 so'mni tashkil qiladi. Shu bilan birga ishlab chiqarishda ishlayotgan ishchilarga 48 000 000 so'mlik ish haqi va ish haqiga nisbatan 12 % yagona ijtimoiy to'lov hisoblangan. Shuningdek, ishlarga hisoblangan ish haqidan 12 % daromad solig'i va ish haqiga nisbatan 0,1 % shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob raqamiga (ShJBPH) ajratma hisoblandi. Bundan tashqari asosiy ishlab chiqarishda foydalanilgan asosiy vositalarga 4 000 000 so'm eskirish hisoblangan.

**Talab qilinadi:**

1. Sut mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonada ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar haqiqiy tannarxini aniqlang.
2. Tayyor mahsulotni ishlab chiqarish va omborga qabul qilish bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalarini hisobda aks ettiring va bajarilgan hisob-kitoblarni tushuntirib bering.

3. "YULDUZ+" MChJning faoliyati ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo'lib, hisobot davrida tayyor mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq quyidagi xo'jalik operatsiyalari sodir bo'lgan:

1. Asosiy ishlab chiqarishga mahsulot ishlab chiqarish uchun 108 520 000 so'mlik materiallar sarflandi.
2. MChJ xodimlariga ish haqi hisoblandi:
   - asosiy ishlab chiqarish xodimlariga – 49 700 000 so'm;
   - ish haqiga nisbatan 12 % yagona ijtimoiy to'lov hisoblang;
   - hisoblangan ish haqidan daromad solig'i (12 foizli yagona stavka bo'yicha) va ish haqiga nisbatan 0,1 % shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob raqamiga (ShJBPH) ajratma hisoblang.
3. MChJning asosiy vositalariga quyidagicha eskirish hisoblangan:
   - Bino – 2 125 000 so'm;
   - Tikuv dastgohlari – 1 500 625 so'm;
   - Mebel va ofis jihozlari – 298 750 so'm.

4. Tuman elektr ta'minoti korxonasidan scho't-faktura taqdim etildi. Unga ko'ra is'temol qilingan energiya miqdori 750 000 so'mni tashkil etadi. Elektr energiya xarajatlari 80 % i ishlab chiqarish va 20 foizi ma'muriy xarajatlar sifatida tan olindi.

**Talab qilinadi:**

1. "YULDUZ+" MChJda ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar haqiqiy tannarxini aniqlang.
2. Tayyor mahsulotni ishlab chiqarish va omborga qabul qilish bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalarini hisobda aks ettiring va bajarilgan hisob-kitoblarni tushuntirib bering.

## 10-MAVZU. MAHSULOT (ISH, XIZMAT)LAR TANNARXINI KALKULYASIYALASH (4 soat)

### 10.1. Kalkulyatsiyaning normativ va tashkiliy-uslubiy asoslari hamda turlari (2 soat)

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Kalkulatsiya tushunchasini ta'riflang.
2. Kalkulatsiyaning ahamiyati nimalardan iborat?
3. Kalkulatsiyani qanday turlarini bilasiz? Ular qachon va qanday tuziladi?
4. Kalkulatsiya obyekti deganda nimani tushunasiz?
5. Kalkulatsiya obyektlarining qanday turlarini bilasiz?
6. Kalkulatsiya birligi deganda nimani tushunasiz?
7. Kalkulatsiya birliklarining qanday turlarini bilasiz?

### TEST TOPSHIRIQLARI

**1. Kalkulyatsiya nima?**
A) Ta'minot jarayoni
B) Mahsulotlarni sotish jarayoni
C) Mahsulot(iz, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxini aniqlash usuli
D) Mahsulotlarni ishlab chiqarishdan, sotishgacha bo'lgan jarayon
**2. Kalkulyatsiya turlari qaysi javobda to'g'ri berilgan?**
A) Reja, normativ,kutilayotgan, hisobot
B) Reja, normativ, hisobot
C) Reja, normativ, kutilayotgan (provizor), hisobot
D) Reja, kutilayotgan, prognoz, hisobot, haqiqiy
**3. Reja kalkulyatsiya nima?**
A) Normativ va haqiqiy kalkulyatsiya
B) Biznes-reja bo'yicha kalkulyatsiya
C) Alohida kalkulyatsiya moddalari bo'yicha hisoblangan har bir buyum, mahsulot turi yoki guruhining rejalashtirilgan tannarxi
D) Tarixiy va real kalkulyatsiya
**4. Kalkulyatsiya obyekti nima?**
A) Davr xarajatlari
B) Nazorat va tartibga solish tizimida ishlatiladigan xarajatlar
C) Ishlab chiqarilgan mahsulotlar, texnologik jarayonlar, ya'ni har xil tayyorgarlik darajasidagi mahsulotlar, ish yoki xizmat turlari
D) Tugallanmagan ishlab chiqarish
**5. Kalkulyatsiya birligi deganda nimani tushunasiz?**
A) Kalkulyatsiyalash obyektining o'lchovi
B) Buxgalteriya hisobi metodining elementi
C) Kalkulyatsiyalash obyekti
D) Mahsulot(ish, xizmat)lar tannarxini kalkulyatsiyalash jarayonida alohida elementlarni o'lchash usuli
**6. Tannarx turlari berilgan to'g'ri javobni ko'rsating?**
A) Sexlar, uchastkalar, ishlab chiqarishlar, bo'laklar
B) Reja, normativ, kutilayotgan (provizor), hisobot
C) Texnologik, ishlab chiqarish, to'liq
D) Reja, kutilayotgan, prognoz, hisobot, haqiqiy
**7. Qaysi javobda kalkulyatsiya birligining turlari ko'rsatilgan?**
A) Natural, yiriklashtirilgan natural, shartli natural, qiymat, mehnat, ish, xizmat, texnik-iqtisodiy
B) Texnologik, ishlab chiqarish, to'liq

C) Reja, normativ, kutilayotgan (provizor), hisobot
D) Natural, mehnat, pul

**8. Haqiqiy (hisobot) kalkulyatsiyasi nima?**

A) Alohida kalkulyatsiya moddalari bo'yicha hisoblangan har bir buyum, mahsulot turi yoki guruhining rejalashtirilgan tannarxi
B) Hisobot davridagi muayyan mahsulot turiga to'g'ri keladigan haqiqiy xarajatlarning miqdori
C) Hisobot davri boshiga hisob-kitob qilinadi va amal qilayotgan norma va normativlarni hisobga olgan holda ishlab chiqariladigan mahsulot birligiga moddalar bo'yicha sarflaydi
D) Bu tannarx hisoblash uchun xarajatlarni guruhlash usuli

## AMALIY MASHQLAR

### 1. Kalkulatsiyalashning mohiyati va tannarxni kalkulyatsiya qilishning vazifalari




**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga kalkulatsiyalashning mohiyati va tannarxni kalkulyatsiya qilishning vazifalari yozing va ularni tavsiflab bering.

### 2. Tannarx turlari




**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga tannarx turlarini yozing va ularni tavsiflab bering.

### 3. Kalkulatsiyaning turlari



**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga kalkulatsiyaning turlarini yozing va ularni izohlab bering.

**4. Kalkulatsiya ob'ektlari**




**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga kalkulatsiya ob'ektlarini yozing va ularni tavsiflab bering.

**5. Xarajatlarni turkumlash**

1. Quyida keltirilgan xarajatlarni turkumlang.

| Xarajat moddalari | Doimiy | O'zgaruvchan | Bevosita (to'g'ri) | Bilvosita (egri) |
|---|---|---|---|---|
| Ishbay mehnat haqi | | | | |
| Xom-ashyo va materiallar (asosiy qismlar) | | | | |
| Aniq tovar reklamasi uchun xarajatlar | | | | |
| Asosiy vositalar eskirishi | | | | |
| Stanoklar ishlashi uchun foydalaniladigan elektr energiya | | | | |
| Sex boshlig'ining ish haqi | | | | |
| Bir mahsulot turini ishlab chiqaruvchi zavod nazoratchisi ish haqi | | | | |
| Umumiy ijara xarajati | | | | |

2. Quyida keltirilgan xarajatlarni turkumlang.

| Xarajat moddalari | Doimiy | O'zgaruvchan | Bevosita (to'g'ri) | Bilvosita (egri) |
|---|---|---|---|---|
| Korxona oshxonasi uchun mahsulotlar | | | | |
| Ishlab chiqarish binosi ijara haqi (bir necha mahsulot turini ishlab chiqaruvchi) | | | | |
| Ombor xodimining ish haqi | | | | |
| Mahsulotlarga pardoz berishda ishlatiladigan materiallar | | | | |
| Stanoklar uchun ehtiyot qismlar | | | | |
| Mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan xomashyo va materiallar | | | | |
| Telefon uchun abonent to'lovi | | | | |
| Ishlab chiqarish binosini isitish xarajatlari | | | | |
| Bitta mahsulotni qadoqlash xarajatlari | | | | |
| Mahsulot ishlab chiqarish jarayonida foydalanilayotgan asosiy vositalarning eskirish xarajatlari | | | | |

3. Bir necha qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi qishloq xo'jalik korxonasi uchun quyida keltirilgan xarajatlarni turkumlang.

| Xarajat moddalari | Doimiy | O'zgaruvchan | Bevosita (to'g'ri) | Bilvosita (egri) |
|---|---|---|---|---|
| Urug'lik xarajatlari | | | | |
| Agronomning ish haqi | | | | |
| Transport vositalarining eskirishi | | | | |
| Aniq mahsulot yetishtiriladigan maydonni ekishga tayyorlash xarajatlari | | | | |
| Mineral o'g'it | | | | |
| Asosiy ishlab chiqarishdagi ishchilarning ish haqi (ishbay) | | | | |
| O'simliklarni himoya qilish vositalari | | | | |
| Yer haydash uchun yoqilg'i | | | | |
| Ombor xodimining ish haqi | | | | |
| Mahsulotlarni daladan omborga tashish xarajatlari | | | | |

## 10.2. Xarajatlar hisobi va tannarx hisoblash usullari
## (2 soat)

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Xarajat elementlarini aytib bering
2. Xarajatlar iqtisodiy elementlari bo'yicha qanday guruhlanadi?
3. Mahsulot (ish, xizmat) larning ishlab chiqarish tannarxi qanday moddalardan iborat?
4. Xarajatlarni turkumlash nima uchun zarur?
5. Xarajatlar qanday belgilar bo'yicha turkumlanadi?
6. Xarajat hisobi obyektlari deganda nimani tushunasiz?
7. Xarajat hisobi obyektlarining qanday turlari mavjud?
8. Mahsulot (ish, xizmat)lar birligining tannarxi qanday hisoblanadi?
9. Xarajatlarni hisobga olish va mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini kalkulatsiyalashning qanday usullari mavjud? Ularni tavsiflang.

### TEST TOPSHIRIQLARI

**1. Mahsulot tannarxiga to'g'ridan-to'g'ri olib boriladigan xarajatlar qanday nomlanadi?**

A) Ishlab chiqarish ustama xarajatlari
B) Bilvosita ishlab chiqarish xarajatlari
C) Bevosita ishlab chiqarish xarajatlari
D) Realizatsiya xarajatlari

**2. Quyidagi javoblarda berilganlarning qaysi biri ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxiga olib borilmaydi?**

A) Ishlab chiqarishdagi mehnat haqi xarajatlari
B) Ishlab chiqarish moddiy xarajatlari
C) Sotish xarajatlari
D) Ishlab chiqarish ustama xarajatlari

**3. Korxona ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanadi. Oktyabr oyi davomida quyidagi xarajatlarni amalga oshirgan: Material xarajatlar - 150 000so'm; Asosiy ishlab chiqarish xodimlari ish haqi - 200 000 so'm; Boshqa xarajatlar - 100 000 so'm; Ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar eskirishi - 50 000 so'm; Boshqa operatsion xarajatlar - 60 000 so'm; Ishlab chiqarilgan mahsulot - 15 150 birlik. Bir birlik mahsulot tannarxini aniqlang?**

A) 30 so'm/birlik
B) 33 so'm/birlik

C) 37so'm/birlik
D) 47so'm/birlik

**4. Hisobot davrida amalga oshirilgan, lekin mahsulot tannarxiga kiritilmaydigan xarajatlar qanday nomlanadi?**
A) Bilvosita ishlab chiqarish xarajatlari
B) Bevosita ishlab chiqarish xarajatlari
C) Davr xarajatlari
D) Ishlab chiqarish ustama xarajatlari

**5. "Standart-kost" usuli qaysi turkumga mansub?**
A) Hisob obyektlari
B) Hisobning tezkorligi va xarajatlar nazorati
C) Hisobga olinadigan xarajatlarning to'liqligi
D) Kalkulyatsiyalash obyektlari

**6. Davr xarajatlari deganda nimani tushunasiz?**
A) Ishlab chiqarish sarflariga olib boriladi va mahsulot tannarxiga qo'shiladi
B) Soliq to'langunga qadar foydadan qoplanadigan xarajatlar hisoblanadi
C) Asosiy faoliyatdan olingan foyda hisobidan qoplanadigan xarajatlar hisoblanadi
D) Bu moliyaviy faoliyat xarajatlari bo'lib, mahsulot tannarxiga qo'shilmaydi

**7. Qaysi javobda xarajatlarni hisobga olish obyektlari ko'rsatilgan?**
A) Texnologik, ishlab chiqarish, to'liq
B) Natural, yiriklashtirilgan natural, shartli natural, qiymat, mehnat, ish, xizmat, texnik-iqtisodiy
C) Reja, normativ, kutilayotgan (provizor), hisobot
D) Natural, mehnat, pul

**8. Xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini hisoblash usullarini ko'rsating?**
A) To'liq, bo'lakli (yarim fabrikatli), buyurtmali, normativ, to'g'ri chiziq usuli, ishlab chiqarish usuli, jadallashtirilgan usullar
B) Oddiy (jarayonli), FIFO usuli, AVECO usuli, reja, normativ va haqiqiy
C) To'g'ri chiziq usuli, jadallashtirilgan usullar, ishlab chiqarish usuli Standart kost tizimi, Direkt kost tizimi
D) Oddiy (jarayonli), bo'lakli (yarim fabrikatsiz), bo'lakli (yarim fabrikatli), buyurtmali, normativ, Standart kost tizimi, Direkt kost tizimi

## AMALIY MASHQLAR

**1. Xarajatlarni turkumlash**

| **Xarajatlarni turkumlash** | |
|---|---|
| **Turkumlash belgilari** | **Xarajatlarning turlari** |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |

**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga xarajatlarni turkumlash belgilari va xarajatlarning turlarini yozing va ularni tavsiflab bering.

## 2. Xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini hisoblash usullari




**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini hisoblash usullarini yozing va va ularni izohlab bering.

## 3. Xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini hisoblash

### Tannarxni kalkulyatsiya qilishning buyurtmali usuli

1. Korxona ikki turdagi ofis mebellarini ishlab chiqarishga buyurtma oldi. Mazkur ikki turdagi ofis mebellarini ishlab chiqarish jarayonida quyidagi xo'jalik operatsiyalari sodir bo'lgan:

**Xo'jalik operatsiyalarini ro'yxatga olish daftari**

| № | Xo'jalik operatsiyalarining mazmuni | Summa, ming so'm | Scho'tlar aloqasi | |
|---|---|---|---|---|
| | | | Debet | Kredit |
| 1 | Korxona mol yetkazib beruvchilardan quyidagi materiallarni xarid qildi:<br>a) xomashyo va materiallar<br>b) ehtiyot qismlar | <br><br>14340,0<br>765,0 | | |
| 2 | Mol yetkazib beruvchilarga xarid qilingan xomashyo va materiallar hamda ehtiyot qismlar haqi hisob-kitob scho'tidan to'landi | 15105,0 | | |
| 3 | Buyurtma bo'yicha ombordan ishlab chiqarish tsexiga quyidagi materiallar berildi:<br>a) xomashyo va materiallar<br>- "A" mahsulotga<br>- "B" mahsulotga<br>b) ehtiyot qismlar | <br><br>12600,0<br>7770,0<br>4830,0<br>297,0 | | |
| 4 | Buyurtma bo'yicha ish haqi hisoblandi:<br>a) tsex masterlariga<br>b) ishchilarga<br>- "A" mahsulot uchun<br>- "B" mahsulot uchun | <br>2250,0<br>19428,0<br>13211,0<br>6217,0 | | |
| 5 | Hisoblangan ish haqiga nisbatan yagona ijtimoiy to'lov hisoblandi (12 %) | | | |
| 6 | Hisoblangan ish haqidan daromad solig'i ushlandi (12 %) | | | |
| 7 | Hisob-kitob scho'tidan ish haqi tarqatish uchun naqd pul olindi | 19077,0 | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 8 | Kassadan to'lov vedomostiga asosan ish haqi tarqatildi | 19077,0 | | |
| 9 | Umum ishlab chiqarish xarajatlari amalga oshirildi:<br>a) elektr energiya xarajatlari<br>b) sug'urta xarajatlari<br>s) mol-mulk solig'i | 429,0<br>109,5<br>96,8 | | |
| 10 | Umum ishlab chiqarish xarajatlari hisob-kitob scho'tidan to'landi:<br>a) elektr energiya xarajatlari<br>b) sug'urta xarajatlari<br>s) mol-mulk solig'i | 429,0<br>109,5<br>96,8 | | |

**Qo'shimcha ma'lumotlar:**

Korxonada umum ishlab chiqarish xarajatlari to'g'ri mehnat xarajatlarining 85 foizini tashkil qiladi deb normativ koeffitsient qabul qilingan. Shundan 85 foizi "A" mahsulotga va qolgan 15 % "B" mahsulotga tegishli.

Buyurtma bo'yicha "A" turdagi mahsulotdan 12 dona ishlab chiqarildi va umumiy xarajatlar 31913 ming so'mga teng bo'lgan. Korxona buyurtmachilarga 10 dona "A" mahsulotni yuklab jo'natgan. Shartnomaga ko'ra mahsulotlarning umumiy sotish bahosi 40500,0 ming so'mni tashkil qilgan.

**Talab qilinadi:**

1. Yuqorida sodir bo'lgan xo'jalik operatsiyalariga buxgalteriya provodkasini bering.
2. Umum ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlang.
3. Umumishlab chiqarish xarajatlari normativ koeffitsienti va haqiqiy xarajatlar o'rtasidagi taflvutni aniqlang va tuzatish kiriting.
4. "A" turdagi bir dona mahsulotning tannarxini aniqlang.
5. Mahsulot sotishdan olingan moliyaviy natijani aniqlang.

2. "GREEN GRASS" buyurtmali tannarx aniqlash usulidan foydalanuvchi ishlab chiqarish korxonasidir. 1 yanvar hisobot davri boshiga zaxiralar scho'tidagi qoldiqlar quyidagicha:

| | |
|---|---|
| Xom-ashyo | 20 000 ming so'm |
| Tugallanmagan ishlab chiqarish | 15 000 ming so'm |
| Tayyor mahsulotlar | 30 000 ming so'm |

Korxona ishlab chiqarish ustama xarajatlarini buyurtmalar tannarxiga ishlangan stanok-soatlar asosida taqsimlaydi. Joriy yilda 75 000 stanok-soat ishlanishi, ishlab chiqarish ustama xarajatlari esa 450 000 ming so'mni tashkil etishi kutilmoqda.

Yil davomida quyidagi muomalalar sodir bo'lgan:

1) 410 000 ming so'mlik xom-ashyo xarid qilingan;

2) ishlab chiqarishga 380 000 ming so'mlik xom-ashyo sarflandi (360 000 ming so'm asosiy material, 20 000 ming so'm bilvosita materiallar);

3) ishchilar ish haqi xarajatlari: bevosita mehnat haqi xaraatlari – 75 000 ming so'm, yordamchi xodimlar ish haqi – 110 000 ming so'm, savdo komissioni – 90 000 ming so'm va ma'muriyat xodimlari ish haqi – 200 000 ming so'm;

4) savdo agentlarining xizmat safarlari xarajatlari – 17 000 ming so'm;

5) ishlab chiqarishga tegishli komunal to'lovlar – 43 000 ming so'm;

6) mahsulot reklamasi xarajatalri – 18 000 ming so'm;

7) yil davomida hisoblangan eskarish – 250 000 ming so'm (80%i ishlab chiqarish faoliyatiga, 10 % savdo va 10 % ma'muriy faoliyatga tegishli);

8) yil bo'yicha sug'urta xarajatlari – 10 000 ming so'm (70% ishlab chiqarishga, 15 % savdo va 15 % ma'muriy faoliyatga tegishli);

9) ishlab chiqarish ustama xarajatlari mahsulot tannarxiga taqsimlangan. Mahsulotga bo'lgan talab yuqori bo'lganligi sababli korxonada yil davomida 80 000 stanok-soat ishlangan.

10) yil davomida 900 000 ming so'mlik tayyor mahsulot ishlab chiqarilgan.

11) yil davomida realizatsiya hajmi 1 500 000 ming so'mni tashkil etgan. Sotilgan tayyor mahsulotning tannarxi 870 000 so'mga teng.

**Talab qilinadi:**

1. Yuqoridagi muomalalarga buxgalteriya provodkalarini tuzing.
2. Muomalalarni T-scho'tlarga o'tkazing (boshlang'ich qoldiqlarni aks ettirishni unutmang).
3. Yil davomidagi ishlab chiqarish ustama xarajatlarini to'liq taqsilanmaganmi yoki ortiqcha taqsimlanganmi? Ishlab chiqarish ustama xaraatlarini scho'ti qoldiqlarini realizatsiya qilingan mahsulot tannarxiga taqsimlash bo'yicha scho'tni yopuvchi provodka bering.
4. Yil uchun foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot tuzing.

3. "Samo" xususiy korxonasi buyurtmali tannarx aniqlash usulida bevosita xarajatlar (asosiy materiallar va asosiy ishlab chiqarish ishchilar ish haqi) va ishlab chiqarish ustama xarajatlari (ishlab chiqarish ishchilarining mehnat haqi xarajattlaridan foydalangan holda taqsimlanadi) asosida hisoblanadigan normal-kosting(normal-costing)dan foydalaniladi.

"Materiallar" scho'ti

| | |
|---|---|
| 31.12.20... y.ga qoldiq 15 000 | |

"Mehnatga haq to'lash bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar" scho'ti

| | |
|---|---|
| | 31.12.20... y.ga qoldiq 3 000 |

"Ishlab chiqarish ustama xarajatlari" scho'ti

| | |
|---|---|
| Yanvar oyi obroti 57 000 | |

"Tayyor mahsulotlar" scho'ti

| | |
|---|---|
| 31.12.20... y.ga qoldiq 20 000 | |

**Qo'shimcha ma'lumotlar:**

a) ishlab chiqarish ustama xarajatlari dekabr oyidagi belgilangan rejalashtirilgan (byudjet) koeffitsientlaridan (stavkalaridan) foydalangan holda taqsimlanadi. Byudjetga 20... yil uchun 600 000 so'm ishlab chiqarish ustama xarajatlari, 400 000 so'm ish haqi xarajatlari kiritilgan.

b) 20... yil 31 dekabrga tugallanmagan ishlab chiqarish scho'tida 2 000 so'm asosiy ishchilarning ish haqi xarajatlari (ishchilar tomonidan 125 soat sarflangan), 8 so'mlik bevosita asosiy material xarajatlari sarflangan №419-sonli buyurtma bo'lgan.

v) yanvar oyida ishlab chiqarishga sarflangan materiallar umumiy qiymati 90 000 so'm;

g) yanvar oyida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot tannarxi 180 000 so'm;

d) 20... yil 31 yanvarda materiallar zaxirasi 20 000 so'm;

e) 20.. yil 31 yanvarda tayyor mahsulotlar zaxirasi 15 000 so'mni tashkil etgan.

yo) barcha ishlab chiqarish ishchilari mehnatiga haq to'lash tarif stavkasi bir xil. Asosiy ishlab chiqarish xodimlarining ishlangan soatlari 2 500 soatni tashkil etgan. Yordamchi ishlab chiqarish xodimlarining, nazoratchilar va boshqalarning mehnat haqi xarajatlari 10 000 so'mga teng.

j) yanvar oyida to'langan umumiy ish haqi summasi 52 000 so'mga teng ( ish haqidan ushlanmalar hisobga olinmaydi).

z) barcha haqiqatda sarflangan ishlab chiqarish ustama xarajatlari scho'tida hisobga olingan.

**Talab qilinadi:**

1. "Samo" xususiy korxonasi uchun buxgalteriya provodkalarini tuzing va 20... yil 31 yanvar holatiga T-scho'tlarni to'ldiring.
2. Yuqoridagi ma'lumotlardan foydalangan holda yanvar oyida №419-sonli buyurtmaga olib boriladigan ishlab chiqarish xarajatlarini hisoblang.

4. Korxona buyurtmalar bo'yicha mahsulot ishlab chiqaradi. Korxonaning buxgalteri ishdan bushab ketganligi bois, korxona rahbariyati Sizga quyidagi ma'lumotlarni taqdim etib, mahsulot tannarxini hisoblab berishingizni so'rab murojaat qildi:

| Hisobot davri boshiga | Summa, ming so'm |
|---|---|
| Materiallar | 6063,0 |
| (B-2 buyurtma) bo‘yicha tugallanmagan ishlab chiqarish | 8865,0 |
| (B-1 buyurtma) bo‘yicha tayyor mahsulot | 10755,0 |
| Hisobot davrida buyurtmalarni bajarish uchun materiallar sarflangan: | |
| B-2 buyurtma uchun | 2550,0 |
| B-4 buyurtma uchun | 6420,0 |
| B-6 buyurtma uchun | 8175,0 |
| Hisobot davrida ish haqi xarajatlari quyidagicha bo‘lgan: | |
| B-2 buyurtma bo‘yicha | 5295,0 |
| B-4 buyurtma bo‘yicha | 6522,0 |
| B-6 buyurtma bo‘yicha | 9840,0 |

**Qo‘shimcha ma’lumotlar:**

Umum ishlab chiqarish xarajatlarining normativ koeffitsienti ish haqi xarajatlariga nisbatan 150 foiz miqdorida belgilangan.

B-2 va B-4 buyurtmalar tugatilgan. B-1 va B-2 buyurtmalar xaridorlarga jo‘natilgan. Buyurtmalar bo‘yicha quyidagi miqdorlarda mahsulotlar tayyorlangan:

B-1 buyurtma – 450 dona;

B-2 buyurtma – 825 dona;

B-3 buyurtma – 720 dona.

**Talab qilinadi:**

1. B-1, B-2 va B-4 buyurtmalar bo‘yicha ishlab chiqarilgan mahsulot birliklarining tannarxini aniqlang.
2. “Asosiy ishlab chiqarish”, “Tayyor mahsulot” scho‘tlari qoldig‘ini va “Sotilgan tayyor mahsulotlar tannarxi”ni hisoblang.

### Tannarxni kalkulyatsiya qilishning jarayonli usuli

Korxona bolalar o‘yinchoqlari ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanadi. Korxona mahsulot ishlab chiqarish jarayoni ikki bosqichda amalga oshiriladi. Ya’ni, birinchi bosqichda mahsulot tugallangan yarim fabrikat holatga keltiriladi (A sexda) va ikkinchi bosqichda unga qayta ishlov berilib, tayyor holga keltiriladi (B sexda) va shundan so‘ng tayyor mahsulotlar omborga topshiriladi. A sexda ishlab chiqarish jarayonida asosiy xomashyo va materiallar sarflanadi. Qo‘shilgan xarajatlar har ikki sexda ham ishlab chiqarish jarayonida teng taqsimlanadi.

Shuningdek, mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq qo‘shimcha ma’lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan:

| | | |
|---|---|---|
| Hisobot davri boshiga tugallanmagan ishlab chiqarish, ming dona | | 15 |
| Xomashyo va materiallar, ming so‘m | 6000,0 | |
| Qo‘shilgan xarajatlar (40 %ga tugatilgan), ming so‘m | 1665,0 | 7665,0 |
| Hisobot oyi davomida ishlab chiqarilgan, ming dona | | 72 |
| Hisobot oyida qayta ishlash boshlangan qismi, ming dona | | 60 |
| Belgilangan muddat yakunida asosiy ishlab chiqarish (50 %ga tugatilgan), ming dona | | 3 |
| Hisobot oyida asosiy materiallar berilgan, ming so‘m | | 33000 |
| Hisobot oyi uchun qo‘shilgan xarajatlar:<br>- to‘g‘ri mehnat xarajatlari, ming so‘m<br>- umum ishlab chiqarish xarajatlari, ming so‘m | <br>9000,0<br>18000,0 | <br><br>27000,0 |

**Talab qilinadi:**
1. A sexda ishlab chiqarilgan mahsulot birligining tannarxini aniqlang.
2. A sexdan B sexga berilgan yarim fabrikatlarning tannarxini aniqlang va A sexdagi tugallanmagan ishlab chiqarish qoldig'ining miqdorini hisoblang.

2. Quyidagi jadvalda «Fayz» xususiy korxonasida mahsulotlarni yig'ish bo'limining may oyi uchun ishlab chiqarish bilan bog'liq ma'lumotlar berilgan:

| Ko'rsatkichlar | Natural birliklar | Asosiy materiallar | Qo'shimcha xarajatlar |
|---|---|---|---|
| Davr boshiga tugallanmagan ishlab chiqarish (1-may) | 8 | 4 933 600 | 910 400 |
| May oyida ishlab chiqarishga berildi | 50 | | |
| May oyida ishlab chiqarish yakunlandi | 46 | | |
| 31- mayga tugallanmagan ishlab chiqarish | 12 | | |
| May oyi bo'yicha jami xarajatlar | | 32 200 000 | 13 920 000 |

**Qo'shimcha ma'lumotlar:**

1 maydagi tugallanmagan ishlab chiqarishning tugallanganlik darajasi: materiallar bo'yicha 90 %; qo'shilgan xarajatlar (ishlov berish qiymati bo'yicha 40 %).

31 maydagi tugallanmagan ishlab chiqarishning tugallanganlik darajasi materiallar bo'yicha 60 %; qo'shilgan xarajatlar bo'yicha 30 %.

**Talab qilinadi:**
1. Asosiy materiallar va qo'shilgan xarajatlar (ishlov berish qiymati) bo'yicha tenglashtirilgan (ekvivalent) birliklar miqdorini hisoblang.
2. Bir tenglashtirilgan (ekvivalent) birlikka to'g'ri keladigan asosiy materiallar hamda qo'shilgan xarjatlar qiymatini hisoblang.
3. Ishlab chiqarish xarajatlarini tayyor mahsulotlar va tugallanmagan ishlab chiqarish o'rtasida taqsimlang.
4. Yuqorida bajarilgan amallarni FIFO usulida bajaring.

3. "Global tarmoq" ishlab chiqarish korxonasi maishiy uskunalar ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi. Har bir mahsulot ikki tsexdan (yig'ish va sinash tsexlari) o'tadi. Yig'ish tsexida qo'shilgan xarajatlar butun jarayon davomida mutonosib ravishda berib boriladi. Yig'ish tsexida ish yakunlangandan so'ng mahsulotlar sinov tsexiga jo'natiladi. "Global tarmoq" jarayon bo'yicha hisoblashda o'rtacha tortilgan qiymat usulidan foydalanadi.

Quyidagi jadvalda yig'ish tsexining oktyabr oyiga tegishli ma'lumotlari berilgan:

| Ko'rsatkichlar | Natural birliklar | Asosiy materiallar | Qo'shimcha xarajatlar |
|---|---|---|---|
| 1 oktyabrga tugallanmagan ishlab chiqarish (A) | 20 | 460 000 | 120 000 |
| Oktyabr oyida ishlab chiqarishga berildi | 80 | | |
| Oktyabr oyida ishlab chiqarish yakunlandi | 90 | | |
| 31 oktyabrga tugallanmagan ishlab chiqarish (B) | 10 | | |
| Oktyabr oyi barcha xarajatlari | | 2 000 000 | 935 000 |

**Qo'shimcha ma'lumotlar:**

1 oktyabrga tugallanmagan ishlab chiqarishning tugallanganlik darajasi: materiiallar bo'yicha 80 %; qo'shilgan xarajatlar bo'yicha 60%.

31 oktyabrga tugallanmagan ishlab chiqarishning tugallanganlik darajasi: materiallar bo'yicha 60 %; qo'shilgan xarajatlar bo'yicha 70 %.

**Talab qilinadi:**
1. Yig'ish tsexiga har bir xarajat elementi bo'yicha tenlashtirilgan (ekvivalent) birliklar miqdorini hisoblang.
2. Har bir xarajat elementi bo'yicha bir tenglashtirilgan birlikka to'g'ri keladigan xarajatlarni

hisoblang.

3. Oy bo'yicha ishlab chiqarish xarajatlarni tayyor mahsulotlar va tugallanmagan ishlab chiqarishga taqsimlang.

**Mahsulotlar tannarxini "Standart-cost" usuli bo'yicha hisoblash**

1. Korxona mahsulot ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanadi. Hisobot davrida korxona ruchka ishlab chiqarish bo'yicha xarajatlar me'yorini aniqlayapdi: to'g'ri material xarajati har bir ruchka uchun – bitta (0,040 kv metr) plastmassa korpusdan va ruchkani harakatlantiruvchi qismdan iborat bo'ladi. Shundan, to'g'ri material xarajati bir metr kvadrat uchun 900 so'mni va bitta harakatlantiruvchi mexanizm uchun 25 so'mni tashkil qiladi.

To'g'ri mehnat xarajatlari – shtamplash sexida, bitta ruchka uchun – 0,01 soatni va yig'ish sexida – 0,05 soatni tashkil qiladi. To'g'ri mehnat xarajatlarining bir soatlik me'yorlashtirilgan pul miqdori, shtamplash sexida – 180 so'mga va yig'ish sexida 200 so'mga teng.

Umum ishlab chiqarish xarajatlarining me'yoriy koeffitsientlari quyidagicha: o'zgaruvchan xarajatlari qismi uchun bir soatlik mehnat xarajatlari miqdoridan 350 so'mga va doimiy xarajatlar qismi uchun 190 so'mga.

**Talab qilinadi.** Korxona tomonidan ishlab chiqariladigan bir dona ruchkaning me'yorlashtirilgan ishlab chiqarish tannarxini aniqlang.

2. "Malika" xususiy korxonasi tikuvchilik faoliyati bilan shug'ullanadi. Hisobot davrida korxona erkaklar kuylagini ishlab chiqarish bo'yicha xarajatlar me'yorini aniqlayapdi: to'g'ri material xarajati har bir kuylak uchun – bitta (0,8 metr) gazlamadan, 14 dona tugmadan va 8 metr ipdan iborat bo'ladi. Shundan, to'g'ri material xarajati bir metr uchun 25000 so'mni, bir dona tugma 20 so'mni va bir metr ip 2 so'mni tashkil qiladi.

To'g'ri mehnat xarajatlari – bichish sexida, bitta kuylak uchun – 10 000 so'mni va tikish sexida – 15 000 so'mni tashkil qiladi.

Umum ishlab chiqarish xarajatlarining me'yoriy koeffitsientlari quyidagicha: o'zgaruvchan xarajatlari qismi uchun bir dona kuylak mehnat xarajatlari miqdoridan 4500 so'mga va doimiy xarajatlar qismi uchun 2800 so'mga.

**Talab qilinadi.** Korxona tomonidan ishlab chiqariladigan bir dona erkaklar kuylagining me'yorlashtirilgan ishlab chiqarish tannarxini aniqlang.

**Mahsulotlar tannarxini "Direct-cost" usuli bo'yicha hisoblash**

1. "MALIKA" MChJ bitta turdagi mahsulot ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi va quyidagi smetaga ega (1 dona uchun):

| Ko'rsatkichlar | Summa, ming so'm |
|---|---|
| Realizatsiya bahosi | 15 |
| Asosiy materiallar | 4 |
| Ishbay haq to'lash | 3 |
| Ishlab chiqarish ustama xarajatlari, o'zgaruvchan qismi | 1 |
| Ishlab chiqarish ustama xarajatlari, doimiy qismi, 1 oy uchun | 12 000 |
| Noishlab chiqarish xarajatlari, o'zgaruvchan qismi | 1 |
| Noishlab chiqarish xarajatlari, doimiy qismi, 1 oy uchun | 3 000 |
| Ishlab chiqarish hajmi, bir oyda birliklar | 6 000 birlik |

**Talab qilinadi:**

Quyidagi usullardan foydalangan holda mahsulot birligining ishlab chiqarish tannarxini hisoblang va moliyaviy natijani aniqlab, hisobot tuzing:

1. Xarajatlarni to'liq taqsimlash orqali tannarxni hisoblash.
2. O'zgaruvchan xarajatlar asosida mahsulot tannarxini aniqlash.

2. “ARZANDA” mas’uliyati cheklangan jamiyat (MChJ) mahsulot ishlab chiqarish jarayoni bilan shug‘ullanadi va quyidagi smetaga ega (1 dona uchun):

| Ko‘rsatkichlar | Summa, ming so‘m |
|---|---|
| Realizatsiya bahosi | 110 |
| Asosiy materiallar | 30 |
| Ishbay haq to‘lash | 20 |
| Ishlab chiqarish ustama xarajatlari, o‘zgaruvchan qismi | 10 |
| Ishlab chiqarish ustama xarajatlari, doimiy qismi, 1 oy uchun | 100 000 |
| Noishlab chiqarish xarajatlari, o‘zgaruvchan qismi | 10 |
| Noishlab chiqarish xarajatlari, doimiy qismi, 1 oy uchun | 20 000 |
| Ishlab chiqarish hajmi, bir oyda birliklar | 5 000 dona |

**Talab qilinadi.** Hisobot davrida “ARZANDA” MChJ tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori 5000 donani tashkil etadi. Shundan hisobot davrida 4500 donasini realizatsiya qilingan. Quyidagi usullardan foydalangan holda hisobot davri uchun MChJning moliyaviy natijasini aniqlang va hisobotini tuzing:

1. Xarajatlarni to‘liq taqsimlash orqali tannarxni hisoblash.
2. O‘zgaruvchan xarajatlar asosida mahsulot tannarxini aniqlash

3. Quyidagi bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi kompaniya bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan. Berilgan ma’lumotlar 3 davrni o‘z ichiga oladi:

| Ko‘rsatkichlar | Summa, ming so‘m |
|---|---|
| Realizatsiya bahosi | 100 |
| Mahsulot birligiga o‘zgaruvchan ishlab chiqarish xarajatlari | 60 |
| Davrning doimiy ishlab chiqarish ustama xarajatlari | 3000 |
| Noishlab chiqarish xarajatlari | 1000 |
| Birinchi davr boshiga tayyor mahsulot qoldigi | 0 |

Belgilangan davrlarda mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmi quyidagicha:

| Ko‘rsatkich | 1-davr | 2-davr | 3-davr |
|---|---|---|---|
| Sotish birligi | 150 | 140 | 160 |
| Ishlab chiqarish birligi | 150 | 170 | 140 |

Doimiy ishlab chiqarish ustama xarajatlari davrdagi 150 birlik hajmdagi mahsulotga taqsimlanadi.

**Talab qilinadi.** Quyidagi usullardan foydalangan holda mahsulot birligining ishlab chiqarish tannarxini hisoblang va moliyaviy natijani aniqlab, hisobot tuzing:

1. Xarajatlarni to‘liq taqsimlash orqali tannarxni hisoblash.
2. O‘zgaruvchan xarajatlar asosida mahsulot tannarxini aniqlash.

# 11-MAVZU. ASOSIY XO'JALIK JARAYONLARINI HISOBGA OLISH METODOLOGIYASI
## (12 soat)

## 11.1. Asosiy xo'jalik jarayonlari va ta'minot jarayonini hisobga olish
## (4 soat)

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Asosiy xo'jalik jarayonlarining mazmunini tushuntiring?
2. Ta'minot jarayoni va uni hisobga olishning mazmunini bayon qiling?
3. Transport – tayyorlov xarajatlari deganda nimani tushunasiz?
4. Transport-tayyorlov xarajatlari qanday tartibda hisobga olinadi?
5. Ta'minot jarayonida qanday xo'jalik operatsiyalari yuzaga keladi?
6. Ta'minot jarayonida sodir bo'lgan xo'jalik operatsiyalarini hisobga olish tartibini tushuntiring?

### TEST TOPSHIRIQLARI

**1. Xo'jalik jarayonlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**
A) Ishlab chiqarish, sotish
B) Ta'minot, ishlab chiqarish
C) Ta'minot, ishlab chiqarish, sotish
D) Ta'minot, realizatsiya, sotish

**2. Xo'jalik jarayonlari va ularni natijalarini nazorat qilish:**
A) Hujjatlashtirish orqali amalga oshiriladi
B) Kuzatish, o'lchash va ro'yxatga olish orqali amalga oshiriladi
C) Ikkiyoqlama yozish usuli orqali amalga oshiriladi
D) Hisob tuzish orqali amalga oshiriladi

**3. Xo'jalikning hisob-kitob scho'tidan shartnomaga muvofiq mol yetkazib beruvchilarga bo'nak o'tkazilganda scho'tlar aloqasi qanday bo'ladi?**
A) D-t 4310 K-t 5110
B) D-t 5110 K-t 4310
C) D-t 6010 K-t 5110
D) D-t 5110 K-t 6010

**4. Xo'jalikning hisob-kitob scho'tidan mol yetkazib beruvchilarga pul mablag'lari o'tkazilganda scho'tlar aloqasi qanday bo'ladi?**
A) D-t 6010 K-t 5510
B) D-t 5110 K-t 6010
C) D-t 6010 K-t 5110
D) D-t 6210 K-t 5110

**5. Xo'jalikning hisob-kitob scho'tiga xaridorlardan pul mablag'lari kelib tushganda scho'tlar aloqasi qanday bo'ladi?**
A) D-t 6010 K-t 5110
B) D-t 5110 K-t 6010
C) D-t 4010 K-t 5510
D) D-t 4010 K-t 5110

**6. Mol yetkazib beruvchilardan materiallar olingada scho'tlar aloqasi qanday bo'ladi?**
A) D-t 6010 K-t 1010
B) D-t 1010 K-t 6010
C) D-t 6010 K-t 2810
D) D-t 2810 K-t 6010

## AMALIY MASHQLAR
### Asosiy xo‘jalik jarayonlarining tavsifi va ta’minot jarayoni hisobi
### (2 soat)

**1. Asosiy xo‘jalik jarayonlari**




**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga asosiy xo‘jalik jarayonlarini yozing va ularni tavsiflab bering.

**2. Ta’minot jarayoniga oid xo‘jalik operatsiyalarini hisobda aks ettirish**

1. Korxona ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanadi. Korxonada 1-aprel 20....-yil holatiga materiallarni hisobga oluvchi scho‘tlarning qoldiqlari quyidagicha bo‘lgan:

1010-«Xomashyo va materiallar» scho‘ti - 100000 so‘m

shu jumladan:

materiallarning jami summasidan, so‘m hisobida:

- «A» material (3000 kg x 20 so‘m) 60000 so‘m
- «B» material (1000 kg x 40 so‘m) 40000 so‘m

Jami : 100000 so‘m

5110-«Hisob-kitob scho‘ti» - 90000 so‘m

6010-«Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan scho‘tlar» - 12000 so‘m

Mol yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq korxonaga 61200 so‘mlik scho‘t taqdim qilingan. Jumladan:

- «A» material – 20000 so‘m (1000 kg x 20 so‘m)
- «B» material – 40000 so‘m (1000 kg x 40 so‘m) .

Jami 60000 so‘m

Materiallarni temir yo‘l orqali tashib keltirish qiymati korxona hisobidan qoplanadi 1200 so‘m

H a m m a s i : 61200 so‘m

Mazkur korxonada aprel oyi davomida quyidagi ta’minot jarayoniga oid xo‘jalik operatsiyalari sodir bo‘lgan:

**1-muomala.** Mol yetkazib beruvchilarga shartnomaga muvofiq 15% bo‘nak o‘tkazildi.

**2-muomala.** Mol yetkazib beruvchilardan quyidagi materiallar korxonaga keltirilgan, so‘m hisobida:

«A» material – 20000 so‘m (1000 kg x 20 so‘m)

«B» material – 40000 so‘m (1000 kg x 40 so‘m) .

Jami 60000 so‘m

Materiallarni temir yo‘l orqali tashib keltirish qiymati korxona hisobiga mol yetkazib beruvchilar tomonidan to‘langan. 1200 so‘m

H a m m a s i : 61200 so‘m

**3-muomala.** Materiallarni temir yo‘l stansiyasidan korxona omboriga tashib keltirganligi uchun transport tashkilotiga 3000 so‘m hisoblandi.

**4-muomala.** Sotib olingan materiallar shartnoma bahosi bo‘yicha (60000 so‘m) omborga kirim qilindi.

**5-muomala.** Mol yetkazib beruvchilardan olingan materiallar bo‘yicha transport-tayyorlov xarajatlariga to‘g‘ri keladigan farq summa aniqlandi.

**6-muomala.** Mol yetkazib beruvchilarga shartnomaga muvofiq o‘tkazilgan 15 % oldin to‘lov (bo‘nak) hisobga qabul qilindi.

**7-muomala.** Hisob-kitob scho‘tidan qarzning qolgan qismini qoplash uchun o‘tkazildi.

**Talab qilinadi:**

1. Ta’minot jarayoni bilan bog‘liq sodir bo‘lgan xo‘jalik operatsiyalarini hisobda aks ettiring.
2. Sodir bo‘lgan xo‘jalik operatsiyalarini analitik va sintetik hisob scho‘tlarida aks ettiring.
3. Materiallar turiga tegishli transport-tayyorlov xarajatlarini taqsimlang.
4. Sotib olingan materiallar haqiqiy tannarxini aniqlang.

2. “Sharq” fermer xo‘jaligi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanadi. Fermer xo‘jaligida 1-iyun 20....-yil holatiga materiallarni hisobga oluvchi scho‘tlarning qoldiqlari quyidagicha bo‘lgan:

1010-«Xomashyo va materiallar» scho‘ti – 10 000 000 so‘m

shu jumladan:

materiallarning jami summasidan, so‘m hisobida:

- «Urug‘lik» material (2000 kg x 4000 so‘m) 8 000 000 so‘m
- «Mineral o‘g‘it» material (250 kg x 8000 so‘m) 2 000 000 so‘m

Jami : 10 000 000 so‘m

5110-«Hisob-kitob scho‘ti» - 20 000 000 so‘m

6010-«Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan scho‘tlar» - 2 100 000 so‘m

Mol yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq korxonaga 9 420 000 so‘mlik scho‘t taqdim qilingan. Jumladan:

- «Mineral o‘g‘it» material – 8 000 000 so‘m (1000 kg x 8000 so‘m)
- «O‘simliklarni himoya qilish vositalari» material – 1 000 000 so‘m (100 kg x 10000 so‘m) .

Jami 9 000 000 so‘m

Materiallarni temir yo‘l orqali tashib keltirish qiymati korxona hisobidan qoplanadi 420 000 so‘m

H a m m a s i: 9 420 000 so‘m

“Sharq” fermer xo‘jaligida iyun oyi davomida quyidagi ta’minot jarayoniga oid xo‘jalik operatsiyalari sodir bo‘lgan:

**1-muomala.** Mol yetkazib beruvchilarga shartnomaga muvofiq 15% bo‘nak o‘tkazildi.

**2-muomala.** Mol yetkazib beruvchilardan quyidagi materiallar fermer xo‘jaligiga keltirilgan, so‘m hisobida:

- «Mineral o‘g‘it» material – 8 000 000 so‘m (1000 kg x 8000 so‘m)
- «O‘simliklarni himoya qilish vositalari» material – 1 000 000 so‘m (100 kg x 10000 so‘m) .

Jami 9 000 000 so‘m

Materiallarni temir yo‘l orqali tashib keltirish qiymati mol yetkazib beruvchilar tomonidan to‘langan. 420 000 so‘m

H a m m a s i: 9 420 000 so‘m

**3-muomala.** Materiallarni temir yo‘l stansiyasidan fermer xo‘jaligi omboriga tashib keltirganligi uchun transport tashkilotiga 150 000 so‘m hisoblandi.

**4-muomala.** Sotib olingan materiallar shartnoma bahosi bo‘yicha omborga kirim qilindi.

**5-muomala.** Mol yetkazib beruvchilardan olingan materiallar bo‘yicha transport-tayyorlov xarajatlariga to‘g‘ri keladigan farq summa aniqlandi.

**6-muomala.** Mol yetkazib beruvchilarga shartnomaga muvofiq o‘tkazilgan 15 % oldin to‘lov (bo‘nak) hisobga qabul qilindi.

**7-muomala.** Hisob-kitob scho‘tidan qarzning qolgan qismini qoplash uchun o‘tkazildi.

**Talab qilinadi:**

1. Fermer xo'jaligida ta'minot jarayoni bilan bog'liq bo'lgan xo'jalik operatsiyalarini hisobda aks ettiring.
2. Sodir bo'lgan xo'jalik operatsiyalarini analitik va sintetik hisob scho'tlarida aks ettiring.
3. Materiallar turiga tegishli transport-tayyorlov xarajatlarini taqsimlang.
4. Sotib olingan materiallar haqiqiy tannarxini aniqlang.

## Ta'minot jarayoni hisobi
## (2 soat)

1. "JASMIN" xususiy korxonasining 20... yil 01 aprel holatiga scho'tlari qoldiq(saldo)lari quyidagicha:

| Scho'tlar shifri | Scho'tlarning nomi | Saldo, ming so'm |
|---|---|---|
| 0100 | Asosiy vositalarni hisobga oluvchi scho'tlar | 90000 |
| 0200 | Asosiy vositalar eskirishini hisobga oluvchi scho'tlar | 43000 |
| 1010 | Xom-ashyo va materiallar | 25600 |
| 2810 | Tayyor mahsulotlar | 4100 |
| 4890 | Turli debitor qarzlar | 900 |
| 5010 | Kassadagi pul mablag'lari | 100 |
| 5110 | Hisob-kitob scho'ti | 36000 |
| 6010 | Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan scho'tlar | 15000 |
| 6410 | Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz | 400 |
| 6520 | Maqsadli davlat jamg'armalariga qarz | 1200 |
| 6710 | Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar | 2000 |
| 6810 | Qisqa muddatli bank kreditlari | 30000 |
| 8300 | Ustav kapitali | 52000 |
| 8710 | Taqsimlanmagan foyda | 13100 |

Bundan tashqari quyidagi scho'tlar bo'yicha analitik scho'tlar qoldiqlari haqida ma'lumotlar berilgan:

**1010-«Xom-ashyo va materiallar» scho'ti bo'yicha**

1011-«A» scho'ti – 12000 ming so'm
1012-«B» scho'ti – 5100 ming so'm
1013-«S» scho'ti – 8500 ming so'm

**2810-"Tayyor mahsulotlar" scho'ti bo'yicha**

2811-«X mahsulot» scho'ti – 2 100 ming so'm
2812-«U mahsulot» scho'ti – 2 000 ming so'm

**6010-"Mol etkazib beruvchi va pudratchilarga to'lanadigan scho'tlar" bo'yicha**

6011-«Beshkent-Damas» MCHJ scho'ti – 2 000 ming so'm
6012-«Asl-ta'minot» scho'ti – 8 000 ming so'm
6013-«Asilbek-Servis» MCHJ scho'ti – 5 000 ming so'm

**Talab qilinadi:**

1. "JASMIN" xususiy korxonasining 01 aprel holatiga boshlang'ich balans tuzing.
2. Sintetik scho'tlar sxemasini chizing va unga oy boshiga boshlang'ich qoldiqlarni yozing. Scho'tlarni ochishda scho'tlar shifri bilan birga ularning nomlarini ham to'liq yozing. Scho'tlarni ularning raqamlari o'sish tartibida joylashtiring.
3. Analitik scho'tlar sxemasini chizing va ularda qoldiqlarni aks ettiring. Analitik scho'tlar boshlang'ich saldolarining tegishli sintetik scho't saldosi bilan tengligini aniqlang.

Yuqoridagi "JASMIN" xususiy korxonasining sintetik va analitik scho'tlar qoldiqlari va ular uchun ochilgan scho'tlar sxemasidan foydalangan holda ta'minot jarayonida sodir bo'lgan xo'jalik operatsiyalarini hisobda aks ettiring.

Xususiy korxonada hisobot davrida ta'minot jarayoni bilan bog'liq quyidagi operatsiyalar sodir bo'lgan:

| Ta'minot jarayonini hisobga olish | | | | |
|---|---|---|---|---|
| № | Xo'jalik muomalalari mazmuni | Summa | Scho'tlar bog'lanishi | |
| | | | Debet | Kredit |
| 1 | Asilbek-Servis MCHJdan materiallar olindi (S material) | 5 000 | | |
| 2 | Debitor qarzlar hisob-kitob scho'tiga kelib tushdi | 900 | | |
| 3 | Mol etkazib beruvchilarga to'landi<br>a) "Asl-ta'minot"ga – 6 000 so'm<br>b) "Asilbek-Servis" MCHJga – 2 000 so'm | 8 000 | | |
| 4 | Qisqa muddatli bank krediti uchun foiz hisoblandi | 7000 | | |
| 5 | "Asl-ta'minot" korxonasidan materiallar olindi ("B" material) | 4 000 | | |
| 6 | Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz to'landi | 400 | | |
| 7 | Davlatning maqsadli fondlariga to'lovlar to'landi (Yagona ijtimoiy to'lov) | 1 200 | | |
| 8 | Beshkent-Damas MCHJga olingan materiallar uchun to'landi | 2 000 | | |
| 9 | Ish haqi uchun naqd pul olindi | 2 000 | | |
| 10 | Kassadan ish haqi tarqatildi | 2 000 | | |
| 11 | Beshkent-Damas MCHJdan materiallar olindi (A material) | 5000 | | |

**Talab qilinadi:**

1. Xo'jalik muomalalari ro'yxatga olish daftariga scho'tlar aloqasini yozing.
2. Sodir bo'lgan xo'jalik operatsiyalarini analitik va sintetik hisob scho'tlarida aks ettiring.
3. Bajarilgan hisob-kitoblarni tushuntirib bering.

2. "UMID-NIHOLLARI" mas'uliyati cheklangan jamiyat (MChJ)ning 20... yil 01 yanvar holatiga scho'tlari qoldiq(saldo)lari quyidagicha:

| Scho'tlar shifri | Scho'tlarning nomi | Saldo, ming sum |
|---|---|---|
| 0100 | Asosiy vositalarni hisobga oluvchi scho'tlar | 120000 |
| 0200 | Asosiy vositalar eskirishini hisobga oluvchi scho'tlar | 18000 |
| 1010 | Xom-ashyo va materiallar | 15700 |
| 1040 | Ehtiyot qismlar | 4325 |
| 2810 | Tayyor mahsulotlar | 10425 |
| 5010 | Kassadagi pul mablag'lari | 100 |
| 5110 | Hisob-kitob scho'ti | 49200 |
| 6010 | Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan scho'tlar | 12500 |
| 6410 | Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz | 6650 |
| 6520 | Maqsadli davlat jamg'armalariga qarz | 10000 |
| 6710 | Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar | 4600 |
| 6810 | Qisqa muddatli bank kreditlari | 50000 |
| 8300 | Ustav kapitali | 90000 |
| 8710 | Taqsimlanmagan foyda | 8000 |

Bundan tashqari quyida sintetik scho'tlar tarkibida ochilgan analitik scho'tlar va ulardagi qoldiqlar bo'yicha malumotlar berilgan:

**1010 – "Xom-ashyo va materiallar" scho'ti bo'yicha**
1011-«A» scho'ti -4800 ming so'm
1012-«B» scho'ti-3100 ming so'm
1013-«S» scho'ti-7800 ming so'm
**2810- "Tayyor mahsulotlar" scho'ti bo'yicha**
2811-«X» scho'ti-4025 ming so'm
2812-«U» scho'ti -3800 ming so'm
2813-«Z» scho'ti -2600 ming so'm
**6010-"Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga to'lanadigan scho'tlar" bo'yicha**
6011-«Samo» xususiy korxonasi scho'ti - 3600 ming so'm
6012-«Fayz-baraka» MChJ scho'ti – 3050 ming so'm
**Talab qilinadi:**
1. "UMID-NIHOLLARI" MChJning 01 yanvar holatiga boshlang'ich balans tuzing.
2. Sintetik scho'tlar sxemasini chizing va unga oy boshiga boshlang'ich qoldiqlarni yozing. Scho'tlarni ochishda scho'tlar shifri bilan birga ularning nomlarini ham to'liq yozing. Scho'tlarni ularning raqamlari o'sish tartibida joylashtiring.
3. Analitik scho'tlar sxemasini chizing va ularda qoldiqlarni aks ettiring. Analitik scho'tlar boshlang'ich saldolarining tegishli sintetik scho't saldosi bilan tengligini aniqlang.

Yuqoridagi "UMID-NIHOLLARI" MChJning sintetik va analitik scho'tlar qoldiqlari va ular uchun ochilgan scho'tlar sxemasidan foydalangan holda ta'minot jarayonida sodir bo'lgan xo'jalik operatsiyalarini hisobda aks ettiring.

MChJda hisobot davrida ta'minot jarayoni bilan bog'liq quyidagi operatsiyalar sodir bo'lgan:

| Taminot jarayonini hisobga olish | | | | |
|---|---|---|---|---|
| № | Xo'jalik muomalalarini mazmuni | Summa, ming so'm | Scho'tlar bog'lanishi | |
| | | | Debet | Kredit |
| 1 | "Fayz-baraka" MChJdan materiallar olindi (A material) | 17000 | | |
| 2 | Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz to'landi | 6650 | | |
| 3 | Qisqa muddatli bank krediti bo'yicha foiz hisoblandi | 834 | | |
| 4 | Maqsadli davlat jamg'armalariga qarz to'landi (Yagona ijtimoiy to'lov) | 10000 | | |
| 5 | Qisqa muddatli bank krediti bo'yicha hisoblangan foizlar hisob-kitob scho'tidan to'landi | 834 | | |
| 6 | "Samo" XKdan materiallar olindi (D material) | 24000 | | |
| 7 | Hisob-kitob scho'tidan ish haqi uchun naqd pul olindi | 4600 | | |
| 8 | Kassadan ish haqi tarqatildi | 4100 | | |
| 9 | Vaqtida olinmagan ish haqi deponentga o'tkazildi | 500 | | |
| 10 | Deponentlangan ish haqi hisob-kitob scho'tiga topshirildi | 500 | | |

**Talab qilinadi:**
1. Xo'jalik muomalalari ro'yxatga olish daftariga scho'tlar aloqasini yozing.
2. Sodir bo'lgan xo'jalik operatsiyalarini analitik va sintetik hisob scho'tlarida aks ettiring.
3. Bajarilgan hisob-kitoblarni tushuntirib bering.

## 11.2. Ishlab chiqarish jarayonini hisobga olish
(4 soat)

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Ishlab chiqarish jarayoni va uni hisobga olishning mazmunini bayon qiling?
2. Ishlab chiqarish jarayoni bilan aloqador sintetik scho'tlarga qisqacha tavsiflab bering?
3. Ishlab chiqarish jarayonini hisobga olishning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
4. Reja tannarxi deganda nimani tushunasiz?
5. Haqiqiy tannarx qanday hisob-kitob qilib aniqlanadi?
6. Reja va haqiqiy tannarx o'rtasida tafovut aniqlansa qayday korrektirovka qilinadi?
7. Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga qanday xarajatlar kiradi?
8. Ishlab chiqarish jarayonida qanday xo'jalik operatsiyalari yuzaga keladi?
9. Ishlab chiqarish jarayonida sodir bo'lgan xo'jalik operatsiyalarini hisobga olish tartibini tushuntiring?

### TEST TOPSHIRIQLARI

**1. Xarajatlarni elementlar bo'yicha guruhlash nima uchun zarur?**

A) Butun korxona bo'yicha hisobot davrida nima va qanchadan sarflanganligini aniqlash

B) Mahsulot, ish va xizmatlar muayyan turining tannarxini hisoblash uchun ichki xo'jalik rejalashtirish tizimi qandayligini aniqlash

C) Bir xil xo'jalik yuritish sharoitidagi korxonalarida alohida ishlab chiqarishni joriy xarajatlarni taqqoslash mumkinligini aniqlash

D) Muayyan mahsulot turini ishlab chiqarish, ish bajarish yoki xizmat ko'rsatish bo'yicha biznes-reja tuzishda ushbu ma'lumotlardan qay darajada foydalanishi

**2. Mahsulot tannarxiga to'g'ridan-to'g'ri olib boriladigan xarajatlar qanday nomlanadi?**

A) Bevosita ishlab chiqarish xarajatlari

B) Bilvosita ishlab chiqarish xarajatlari

C) Ishlab chiqarish ustama xarajatlari

D) Realizatsiya xarajatlari

**3. Xo'jalikda hisobot yilida 120 ming so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi va tayyor mahsulot sifatida kirim qilindi. Ushbu muomalaga qanday scho'tlar aloqasi tuziladi?**

A) D-t 2810 K-t 2010

B) D-t 2010 K-t 2810

C) D-t 2910 K-t 2010

D) D-t 2010 K-t 2910

**4. Ishlab chiqarish jarayonida ishlayotgan ishchilarga ish haqi hisoblansa, buxgalteriya hisobida qanday aks ettiriladi?**

A) D-t 6710 K-t 2010

B) D-t 2010 K-t 6710

C) D-t 4210 K-t 2010

D) D-t 2010 K-t 4210

**5. Haqiqiy tannarx reja tannarxidan past, ya'ni xarajatlar tejalgan bo'lsa, o'rtadagi farq qanday tuzatiladi?**

A) Korrektirovka usuli orqali tuzatish kiritiladi

B) Qizil storno usuli yordamida tuzatish kiritiladi

C) Qo'shimcha yozuv usuli yordamida tuzatish kiritiladi

D) Haqiqiy tannarx reja tannarxidan past bo'lsa, hech qanday tuzatish kiritilmaydi.

**6. Haqiqiy tannarx reja tannarxidan yuqori bo'lsa, o'rtadagi farq qanday tuzatiladi?**

A) Korrektirovka usuli orqali tuzatish kiritiladi

B) Qizil storno usuli yordamida tuzatish kiritiladi

C) Qo'shimcha yozuv usuli yordamida tuzatish kiritiladi

D) Haqiqiy tannarx reja tannarxidan past bo'lsa, hech qanday tuzatish kiritilmaydi.

## AMALIY MASHQLAR
### Ishlab chiqarish xarajatlarining hisobi
### (2 soat)

1. Ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishda ta'minot jarayonini hisobga olish (11.1-paragraf) bo'yicha berilgan birlamchi ma'lumotlardan foydalanamiz. Hisobot oyida korxonada ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq quyidagi xo'jalik operatsiyalari sodir bo'lgan:

**1-muomala.** Ishlab chiqarishga materiallar haqiqiy tannarxi bo'yicha ombordan berildi va sarflandi.

| | |
|---|---|
| a) «A» mahsulotni ishlab chiqarish uchun | 45000 so'm |
| b) «B» mahsulotni ishlab chiqarish uchun | 50000 so'm |
| | Jami 95000 so'm |
| d) umumishlab chiqarish xarajatlari uchun | 5000 so'm |
| | Hammasi 100000 so'm |

**2-muomala.** Hisobot oyi uchun korxona xodimlariga ish haqi hisoblandi:

| | |
|---|---|
| a) «A» mahsulotni ishlab chiqarishdagi xodimlarga | 130 000 so'm |
| b) «B» mahsulotni ishlab chiqarishdagi xodimlarga | 150 000 so'm |
| | Jami: 280 000 so'm |
| d) ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish xodimlariga | 20 000 so'm |
| | Hammasi 300 000 so'm |

**3-muomala.** Hisoblangan ish haqiga nisbatan yagona ijtimoiy to'lov hisoblanadi.

**4-muomala.** Belgilangan me'yorlarga muvofiq hisobot oyi uchun hisoblangan eskirish summalari aks ettirilgan:

| | |
|---|---|
| a) asosiy ishlab chiqarish binolari va inshootlariga | 20 000 so'm |
| b) umumishlab chiqarish binolariga | 10 000 so'm |
| | Jami 30 000 so'm. |

**5-muomala.** «Toshelektrtarmoqlari» korxonasi tomonidan taqdim qilingan scho't-fakturaga muvofiq iste'mol qilingan elektr energiyasi uchun qarzdorlik quyidagicha:

| | |
|---|---|
| a) ishlab chiqarish binolarini yoritish uchun | 25 000 so'm |
| b) umumishlab chiqarish ehtiyojlari uchun | 15 000 so'm. |
| | Jami 40 000 so'm. |

**6-muomala.** Binoni joriy ijaraga olish shartnomasi bo'yicha ijaraga olingan omborxona binosi uchun 20...-yilning II va III-choragi uchun 6 oylik ijara to'lovi bo'yicha ijaraga beruvchiga qarz summasi 60000 so'mni tashkil etadi.

**7-muomala.** Hisobot oyi oxirida umumishlab chiqarish xarajatlari o'rnatilgan taqsimlash bazasiga asosan, bilvosita yo'l bilan «A» va «B» mahsulotlarning tannarxiga qo'shilgan. Bilvosita xarajatlarni taqsimlashda taqsimlash bazasi sifatida ko'pincha asosiy ishlab chiqarishdagi xodimlarning ish haqi summasi qabul qilinadi. Bizning misolimizda u 300000 so'mni tashkil etgan (*2-muomalaga qarang*).

**8-muomala.** Ishlab chiqarishdan tayyor mahsulotlar olindi: «A» mahsulot 500 dona, 1 donasining reja tannarxi 440 so'm; «B» mahsulot mos ravishda 600 dona, bir donasi reja tannarxi 500 so'm va tayyor mahsulot omborga qabul qilindi.

**9-muomala.** Tayyor mahsulotlarning haqiqiy tannarxi aniqlandi va reja tannarxi bilan o'rtasidagi farq hisobdan chiqarildi.

**Talab qilinadi:**

1. Ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq sodir bo'lgan xo'jalik operatsiyalarini hisobda aks ettiring.
2. Sodir bo'lgan xo'jalik operatsiyalarini analitik va sintetik hisob scho'tlarida aks ettiring.
3. Ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarning haqiqiy tannarxi aniqlang va reja tannarxi bilan o'rtasidagi farqni tuzating.

2. “Sharq” fermer xo‘jaligida ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishda ta’minot jarayonini hisobga olish (11.1-paragraf) bo‘yicha berilgan birlamchi ma’lumotlardan foydalaning.

“Sharq” fermer xo‘jaligida hisobot oyida ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liq quyidagi xo‘jalik operatsiyalari sodir bo‘lgan:

**1-muomala.** Ishlab chiqarishga materiallar haqiqiy tannarxi bo‘yicha ombordan berildi va sarflandi.

a) «X» mahsulotni ishlab chiqarish uchun 6 000 000 so‘m
b) «Y» mahsulotni ishlab chiqarish uchun 2 000 000 so‘m
Jami 8 000 000 so‘m
d) umumishlab chiqarish xarajatlari uchun 1 000 000 so‘m
Hammasi 9 000 000 so‘m

**2-muomala.** Hisobot oyi uchun korxona xodimlariga ish haqi hisoblandi:

a) «X» mahsulotni ishlab chiqarishdagi xodimlarga 3 200 000 so‘m
b) «Y» mahsulotni ishlab chiqarishdagi xodimlarga 2 020 000 so‘m
Jami: 5 220 000 so‘m
d) ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish xodimlariga 2 000 000 so‘m
Hammasi 7 220 000 so‘m

**3-muomala.** Hisoblangan ish haqiga nisbatan yagona ijtimoiy to‘lov hisoblanadi.

**4-muomala.** Belgilangan me’yorlarga muvofiq hisobot oyi uchun hisoblangan eskirish summalari aks ettirilgan:

a) asosiy ishlab chiqarish binolari va inshootlariga 320 000 so‘m
b) umumishlab chiqarish binolariga 202 000 so‘m
Jami 522 000 so‘m.

**5-muomala.** Tuman MTP tomonidan taqdim qilingan scho‘t-fakturaga muvofiq iste’mol qilingan xizmatlar qiymati quyidagicha:

a) «X» mahsulotni ishlab chiqarish uchun 260 000 so‘m
b) «Y» mahsulotni ishlab chiqarish uchun 200 000 so‘m
Jami 460 000 so‘m

**6-muomala.** Hisobot oyi oxirida umumishlab chiqarish xarajatlari o‘rnatilgan taqsimlash bazasiga asosan, bilvosita yo‘l bilan «X» va «Y» mahsulotlarning tannarxiga qo‘shilgan. Bilvosita xarajatlarni taqsimlash-da taqsimlash bazasi sifatida ko‘pincha asosiy ishlab chiqarishdagi xodimlarning ish haqi summasi qabul qilinadi. Bizning misolimizda u 7720000 so‘mni tashkil etgan (*2-muomalaga qarang*).

**7-muomala.** Ishlab chiqarishdan tayyor mahsulotlar olindi: «X» mahsulot 2300 kilogram, 1 kilogramning reja tannarxi 4400 so‘m; «Y» mahsulot mos ravishda 480 kilogram, 1 kilogramning reja tannarxi 5000 so‘m va tayyor mahsulot omborga qabul qilindi.

**8-muomala.** Tayyor mahsulotlarning haqiqiy tannarxi aniqlandi va reja tannarxi bilan o‘rtasidagi farq hisobdan chiqarildi.

**Talab qilinadi:**

1. Ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liq sodir bo‘lgan xo‘jalik operatsiyalarini hisobda aks ettiring.
2. Sodir bo‘lgan xo‘jalik operatsiyalarini analitik va sintetik hisob scho‘tlarida aks ettiring.
3. Ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarning haqiqiy tannarxi aniqlang va reja tannarxi bilan o‘rtasidagi farqni tuzating.

**Tannarx hisoblash va tafovutlarni tuzatish**
**(2 soat)**

1. "JASMIN" xususiy korxonasida mahsulotlar tannarxini hisoblash va tafovutlarni tuzatishda ta'minot jarayonini hisobga olish (11.1-paragraf) bo'yicha berilgan birlamchi ma'lumotlardan foydalaning.

"JASMIN" xususiy korxonasida hisobot oyida ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq quyidagi xo'jalik operatsiyalari sodir bo'lgan:

**Ishlab chiqarish jarayonini hisobga olish**

| № | Xo'jalik muomalalari mazmuni | Summa | Scho'tlar bog'lanishi | |
|---|---|---|---|---|
| | | | Debet | Kredit |
| 12 | Ishlab chiqarishga materiallar sarflandi:<br>"X" –mahsulot ishlab chiqarish<br>A-material – 9 000 ming so'm<br>B-material – 4 000 ming so'm<br>S-material – 4100 ming so'm<br>"U" – mahsulot ishlab chiqarish<br>A-material – 7000 ming so'm<br>B-material – 4200 ming so'm<br>S-material – 4000 ming so'm | 32 300 | | |
| 13 | Asosiy vositalarga eskirish hisoblandi<br>a) asosiy ishlab chiqarishdagi<br>"X" –mahsulot ishlab chiqarish – 5000 ming so'm<br>"U" – mahsulot ishlab chiqarish – 3920 ming so'm<br>b) ma'muriy<br>jami | 8920<br>1400<br>10320 | | |
| 14 | Korxona xodimlariga ish haqi hisoblandi:<br>a) asosiy ishlab chiqarishdagi<br>"X" –mahsulot ishlab chiqarish – 12000 ming so'm<br>"U" – mahsulot ishlab chiqarish – 6000 ming so'm<br>b) ma'muriyat xodimlari<br>jami | 18000<br>2 500<br>20500 | | |
| 15 | Hisoblangan ish haqiga nisbatan Yagona ijtimoiy to'lov hisoblandi (12%)<br>a) asosiy ishlab chiqarishdagi<br>"X" –mahsulot ishlab chiqarish – 1440 ming so'm<br>"U" – mahsulot ishlab chiqarish – 720 ming so'm<br>b) ma'muriy<br>jami | 2160<br>300<br>2460 | | |
| 16 | Ish haqidan ushlandi<br>a) 1% kasaba uyushmasiga<br>b) daromad solig'i<br>jami | 205<br>2460<br>2665 | | |
| 17 | Ish haqiga nisbatan 0,1% shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya fondi (SHJPF)ga hisoblandi | 20,5 | | |
| 18 | Asosiy ishlab chiqarish "Asl-ta'minot" korxonasi tomonidan xizmat ko'rsatildi<br>"X" –mahsulot ishlab chiqarish – 800 ming so'm<br>"U" – mahsulot ishlab chiqarish – 400 ming so'm | 1200 | | |
| 19 | Asosiy ishlab chiqarishdan reja tannarxida tayyor mahsulotlar olindi | 66000 | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | "X" mahsulot – 36000 ming so'm<br>"U" mahsulot – 30000 ming so'm | | | |
| 20 | Tayyor mahsulotlarning haqiqiy tannarxi aniqlandi va reja tannarxi bilan o'rtasidagi farq hisobdan chiqarildi<br>"X" mahsulot – ming so'm<br>"U" mahsulot – ming so'm | | | |

**Talab qilinadi:**

1. Xo'jalik muomalalari ro'yxatga olish daftariga scho'tlar aloqasini yozing.
2. Sodir bo'lgan xo'jalik operatsiyalarini analitik va sintetik hisob scho'tlarida aks ettiring.
3. Ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarning haqiqiy tannarxi aniqlang va reja tannarxi bilan o'rtasidagi farqni tuzating.

2. "UMID-NIHOLLARI" mas'uliyati cheklangan jamiyat (MChJ)da mahsulotlar tannarxini hisoblash va tafovutlarni tuzatishda ta'minot jarayonini hisobga olish (11.1-paragraf) bo'yicha berilgan birlamchi ma'lumotlardan foydalaning.

"UMID-NIHOLLARI" MChJda hisobot oyida ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq quyidagi xo'jalik operatsiyalari sodir bo'lgan:

| Ishlab chiqarish jarayonini hisobga olish | | | | |
|---|---|---|---|---|
| № | Xo'jalik muomalalarini mazmuni | Summa, ming so'm | Scho'tlar bog'lanishi | |
| | | | Debet | Kredit |
| 11 | Ishlab chiqarishga materiallar sarflandi:<br>"X" - mahsulot ishlab chiqarishga<br>"A"material -9200 ming so'm<br>"B" material -2200 ming so'm<br>"S" material - 2500 ming so'm<br>"D" material - 16000 ming so'm<br>"U" - mahsulot ishlab chiqarishga<br>"A"material -10000 ming so'm<br>"B" material -400 ming so'm<br>"S" material - 700 ming so'm<br>"D"material - 5000 ming so'm<br>"Z" - mahsulot ishlab chiqarishga<br>"A"material -1350 ming so'm<br>"S" material - 800 ming so'm<br>"D"material - 3000 ming so'm<br>Jami | 51150 | | |
| 12 | MChJ xodimlariga ish haqi hisoblandi:<br>a) Asosiy ishlab chiqarishdagi<br>"X" - mahsulot ishlab chiqarish –8000 ming so'm<br>"U" - mahsulot ishlab chiqarish – 14000 ming so'm<br>"Z" - mahsulot ishlab chiqarish – 11000 ming so'm<br>b) mamuriyat xodimlariga<br>Jami | 33000<br>10000<br>43000 | | |
| 13 | Hisoblangan ish haqiga nisbatan Yagona ijtimoiy to'lov hisoblandi (12%)<br>a) Asosiy ishlab chiqarishdagi<br>"X" - mahsulot ishlab chiqarish – 960 ming so'm<br>"U" - mahsulot ishlab chiqarish – 1680 ming so'm<br>"Z" - mahsulot ishlab chiqarish – 1320 ming so'm<br>b) mamuriyat xodimlari | 3960<br>1200 | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | Jami | 5160 | | |
| 14 | Ish haqidan ushlandi:<br>a) 1% kasaba uyushmasiga<br>b) daromad solig‘i<br>Jami | <br>430<br>6450<br>6880 | | |
| 15 | Ish haqiga nisbatan 0,1% ShJPF ga hisoblandi | 43 | | |
| 16 | Asosiy vositalarga eskirish hisoblandi:<br>a) Asosiy ishlab chiqarishdagi<br>“X” - mahsulot ishlab chiqarish – 3000 ming so‘m<br>“U” - mahsulot ishlab chiqarish – 3600 ming so‘m<br>“Z” - mahsulot ishlab chiqarish – 4200 ming so‘m<br>b) Mamuriy-boshqaruvdagi<br>Jami | <br><br><br><br>10800<br>2400<br>13200 | | |
| 17 | Mahsulotlarni sotish jarayonida chet tashkilot xizmatlaridan foydalanildi | 1000 | | |
| 18 | Asosiy ishlab chiqarishdan reja tannarxida tayyor mahsulotlar olindi<br>“X” mahsulot – 40000 ming so‘m<br>“U” mahsulot – 38000 ming so‘m<br>“Z” mahsulot – 22000 ming so‘m<br>Jami | 100000 | | |
| 19 | Tayyor mahsulotlarning haqiqiy tannarxi aniqlandi va reja tannarxi bilan o‘rtasidagi farq hisobdan chiqarildi<br>“X” mahsulot– ming so‘m<br>“U” mahsulot– ming so‘m<br>“Z” mahsulot – ming so‘m<br>Jami | | | |

**Talab qilinadi:**

1. Xo‘jalik muomalalari ro‘yxatga olish daftariga scho‘tlar aloqasini yozing.
2. Sodir bo‘lgan xo‘jalik operatsiyalarini analitik va sintetik hisob scho‘tlarida aks ettiring.
3. Ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarning haqiqiy tannarxi aniqlang va reja tannarxi bilan o‘rtasidagi farqni tuzating.

## 11.3. Realizatsiya jarayoni va moliyaviy natijalar hisobi (4 soat)

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Realizatsiya jarayonining mohiyati va uning hisobi qanday tashkil etiladi?
2. Shartnoma majburiyatlarining bajarilishi va hisob-kitoblar ustidan nazorat o‘rnatishda buxgalteriya hisobi oldiga qanday vazifalar quyilgan?
3. Realizatsiya jarayonida qanday xo‘jalik operatsiyalari yuzaga keladi?
4. Realizatsiya jarayonida sodir bo‘lgan xo‘jalik operatsiyalarini hisobga olish tartibini tushuntiring?
5. Moliyaviy natijalarni shakllantirish hisobi qanday tashkil etiladi?

### TEST TOPSHIRIQLARI

**1. Quyidagi vaziyatlarning qaysi birida hisoblash tamoyiliga asosan mahsulot sotilgan hisoblanadi?**

A) Mahsulot jo‘natilib, xaridorga to‘lov hujjatlari taqdim qilinganida
B) Mahsulot uchun pul kelib tushganida
C) Xaridorga to‘lov hujjatlari taqdim qilinganida

D) Mahsulot yuklab jo‘natilganda

**2. Mahsulot sotishdan olingan daromad nima?**

A) Mahsulot sotishdan foyda

B) Sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi

C) Sotilgan mahsulot uchun olinadigan pul mablag‘lari

D) Mahsulot sotish jarayonida amalga oshirilgan sarflar

**3. Shartnomaga muvofiq xaridorlarga jo‘natilgan mahsulot haqiqiy tannarxi bo‘yicha hisobdan o‘chirilishi buxgalteriya hisobida qanday aks ettiriladi?**

A) D-t 4010 K-t 9010

B) D-t 9010 K-t 4010

C) D-t 9110 K-t 2810

D) D-t 2810 K-t 9110

**4. Sotilgan mahsulotlar shartnomaga muvofiq xaridorlar tomonidan qabul qilindi. Mazkur xo‘jalik operatsiyasi buxgalteriya hisobida qanday hisobga olinadi?**

A) D-t 4010 K-t 9010

B) D-t 9010 K-t 4010

C) D-t 9110 K-t 2810

D) D-t 2810 K-t 9110

**5. Xaridorlar tomonidan sotilgan mahsulotlarning qiymati shartnomaga muvofiq to‘lab berilganda buxgalteriya hisobida qanday hisobga olinadi?**

A) D-t 5110 K-t 9010

B) D-t 5110 K-t 4010

C) D-t 4010 K-t 5110

D) D-t 5110 K-t 2810

**6. Xaridorlar tomonidan shartnomaga muvofiq 15 % oldindan bo‘nak to‘lab berilganda buxgalteriya hisobida qanday hisobga olinadi?**

A) D-t 5110 K-t 9010

B) D-t 5110 K-t 6310

C) D-t 6310 K-t 5110

D) D-t 5110 K-t 4010

## AMALIY MASHQLAR
### Mahsulot (ish, xizmat)larni sotish
### (2 soat)

1. “ELGA XIZMAT” xususiy korxonasi mahsulot ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanadi. Xususiy korxonaning 1-sentabr 20...-yilga 2810-«Ombordagi tayyor mahsulotlar» scho‘ti va uning analitik scho‘tlarida qoldiqlar quyidagicha bo‘lgan:

«V» mahsulot 276000 so‘m (18400 dona, haqiqiy tannarxi 15 so‘m),

«G» mahsulot 300000 so‘m (15000 dona, haqiqiy tannarxi 20 so‘m).

Jami: 576000 so‘m

“ELGA XIZMAT” xususiy korxonasida hisobot oyida mahsulotlarni realizatsiya qilish jarayoni bilan bog‘liq quyidagi xo‘jalik operatsiyalari sodir bo‘lgan:

**1-muomala.** Shartnomaga muvofiq xaridor tashkilotga quyidagi mahsulotlar uchun scho‘t taqdim qilindi:

«V» mahsulot 16400 dona, 25 so‘mdan 410000 so‘m,

«G» mahsulot 13000 dona, 32 so‘mdan 416000 so‘m.

Jami: 826000 so‘m

**2-muomala.** Shartnomaga muvofiq mahsulotlar bahosining 50%i miqdorida bo‘nak olindi:

**3-muomala.** Shartnomaga muvofiq xaridorlarga jo‘natilgan mahsulot haqiqiy tannarxi bo‘yicha hisobdan o‘chirildi.

**4-muomala.** Sotilgan mahsulotlar uchun olingan bo'naklar xaridorga to'lov hujjatlari taqdim etilganidan so'ng hisobga o'tkazildi.

**5-muomala.** Sotilgan mahsulotlar uchun shartnoma qiymatining qolgan 50%i hisob-kitob scho'tiga kelib tushdi.

**6-muomala.** Sotilgan mahsulotlarni yuklash va yetkazib berish uchun transport tashkilotining scho'ti aktseplandi – 17400 so'm.

**8-muomala.** Qisqa muddatli bank krediti bo'yicha foiz 12000 so'm hisoblandi.

**9-muomala.** Foydadan budjetga to'lovlar bo'yicha summalar hisoblandi – 82600 so'm.

**Talab qilinadi:**

1. Realizatsiya jarayoni bilan bog'liq sodir bo'lgan xo'jalik operatsiyalarini hisobda aks ettiring.
2. Sodir bo'lgan xo'jalik operatsiyalarini analitik va sintetik hisob scho'tlarida aks ettiring.
3. Daromadlar va xarajatlarni hisobga oluvchi scho'tlarni to'liq yoping va yakuniy moliyaviy natijani aniqlang.
4. Bajarilgan hisob-kitoblarni tushuntirib bering.

2. "OBOD TURMUSh" xususiy korxonasi mahsulot ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanadi. Xususiy korxonaning 1-yanvar 20...-yilga 2810-«Ombordagi tayyor mahsulotlar» scho'ti va uning analitik scho'tlarida qoldiqlar quyidagicha bo'lgan:

«A» mahsulot 81 000 000 so'm (1800 dona, haqiqiy tannarxi 45000 so'm),

«B» mahsulot 48 000 000 so'm (1500 dona, haqiqiy tannarxi 32000 so'm).

Jami: 129 000 000 so'm

"OBOD TURMUSh" xususiy korxonasida hisobot oyida mahsulotlarni realizatsiya qilish jarayoni bilan bog'liq quyidagi xo'jalik operatsiyalari sodir bo'lgan:

**1-muomala.** Shartnomaga muvofiq xaridor tashkilotga quyidagi mahsulotlar uchun scho't taqdim qilindi:

«A» mahsulot 1740 dona, 58500 so'mdan 101 790 000 so'm,

«B» mahsulot 1300 dona, 41600 so'mdan 54 080 000 so'm.

Jami: 155 870 000 so'm

**2-muomala.** Shartnomaga muvofiq mahsulotlar bahosining 15%i miqdorida bo'nak olindi:

**3-muomala.** Shartnomaga muvofiq xaridorlarga jo'natilgan mahsulot haqiqiy tannarxi bo'yicha hisobdan o'chirildi.

**4-muomala.** Sotilgan mahsulotlar uchun olingan bo'naklar xaridorga to'lov hujjatlari taqdim etilganidan so'ng hisobga o'tkazildi.

**5-muomala.** Sotilgan mahsulotlar uchun shartnoma qiymatining qolgan qismi hisob-kitob scho'tiga kelib tushdi.

**6-muomala.** Sotilgan mahsulotlarni yuklash va yetkazib berish uchun transport tashkilotining scho'ti aktseplandi – 779350 so'm.

**8-muomala.** Qisqa muddatli bank krediti bo'yicha foiz 120000 so'm hisoblandi.

**9-muomala.** Foydadan budjetga to'lovlar bo'yicha summalar hisoblandi – 6 234 800 so'm.

**Talab qilinadi:**

1. Realizatsiya jarayoni bilan bog'liq sodir bo'lgan xo'jalik operatsiyalarini hisobda aks ettiring.
2. Sodir bo'lgan xo'jalik operatsiyalarini analitik va sintetik hisob scho'tlarida aks ettiring.
3. Daromadlar va xarajatlarni hisobga oluvchi scho'tlarni to'liq yoping va yakuniy moliyaviy natijani aniqlang.
4. Bajarilgan hisob-kitoblarni tushuntirib bering.

## Moliyaviy natijalar hisobi
## (2 soat)

1. "JASMIN" xususiy korxonasida moliyaviy natijalarni shakllantirish hisobini tashkil etishda ta'minot jarayonini hisobga olish (11.1-paragraf) va ishlab chiqarish jarayonini hisobga olish (11.2-paragraf) bo'yicha berilgan birlamchi ma'lumotlardan foydalaning.

"JASMIN" xususiy korxonasida hisobot oyida realizatsiya jarayoni bilan bog'liq quyidagi xo'jalik operatsiyalari sodir bo'lgan:

| Realizatsiya jarayonini hisobga olish | | | | |
|---|---|---|---|---|
| № | Xo'jalik muomalalari mazmuni | Summa, ming so'm | Scho'tlar aloqasi | |
| | | | Debet | Kredit |
| 21 | Hisob-kitob scho'tidan to'landi:<br>a) Yagona ijtimoiy to'lov<br>b) 1% Kasaba uyushmasiga<br>v) 0,1 % SHJPFga<br>g) daromad solig'i<br>Jami | <br>2460<br>205<br>20,5<br>2460 | | |
| 22 | Tayyor mahsulotlar sotishga jo'natildi:<br>a) haqiqiy tannarxi bo'yicha<br>"X" mahsulot – ming so'm<br>"U" mahsulot – ming so'm<br>b) shartnoma bahosi<br>"X" mahsulot – 59020 ming so'm<br>"U" mahsulot – 38376 ming so'm | 97 396 | | |
| 23 | Sotish jarayonida "Asl-ta'minot" korxonasi tomonidan xizmat ko'rsatildi | 800 | | |
| 24 | Yagona soliq to'lovi hisoblandi (4%) | 3896 | | |
| 25 | Sotilgan mahsuotlarning tannarxi hisobdan chiqarildi | | | |
| 26 | Mahsulot sotishdan olingan daromadlar hisobdan chiqarildi | | | |
| 27 | Davr xarajatlari hisobdan chiqarildi<br>a) sotish xarajatlari<br>b) ma'muriy xarajatlar<br>Jami | | | |
| 28 | Foiz xarajatlari hisobdan chiqarildi | | | |
| 29 | Soliq xarajatini hisobga oluvchi scho'tning yopilishi | | | |
| 30 | Yakuniy moliyaviy natija aniqlandi va taqsimlanmagan foyda sifatida aks ettirildi | | | |

**Talab qilinadi:**

1. Xo'jalik operatsiyalarini ro'yxatga olish daftariga scho'tlar aloqasini yozing.
2. Yozuvlar tugagandan keyin har bir scho't bo'yicha oborotlarni va qoldiqlarni aniqlang.
3. Sintetik va analitik scho'tlar bo'yicha mart oyi uchun oborot vedomostini tuzing.
4. Daromadlar va xarajatlarni hisobga oluvchi scho'tlarni to'liq yoping va yakuniy moliyaviy natijani aniqlang.
5. 20_ y. 1 aprel holatiga buxgalteriya balansi tuzing.

2. "UMID-NIHOLLARI" MChJda moliyaviy natijalarni shakllantirish hisobini tashkil etishda ta'minot jarayonini hisobga olish (11.1-paragraf) va ishlab chiqarish jarayonini hisobga olish (11.1-paragraf) bo'yicha berilgan birlamchi ma'lumotlardan foydalaning.

"UMID-NIHOLLARI" MChJda hisobot oyida realizatsiya jarayoni bilan bog'liq quyidagi xo'jalik operatsiyalari sodir bo'lgan:

| Realizatsiya jarayonini hisobga olish | | | | |
|---|---|---|---|---|
| № | Xo'jalik muomalalari mazmuni | Summa, ming so'm | Scho'tlar aloqasi | |
| | | | Debet | Kredit |
| 21 | Hisob-kitob scho'tidan to'landi:<br>a) Yagona ijtimoiy to'lov<br>b) 1% Kasaba uyushmasiga<br>v) 0,1 % SHJPFga<br>g) daromad solig'i | <br>5160<br>430<br>43<br>6450 | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | Jami | | | |
| 22 | Tayyor mahsulotlar sotishga jo'natildi:<br>a) Haqiqiy tannarxi bo'yicha<br>*"X" - mahsulot– ming so'm*<br>*"U" - mahsulot– ming so'm*<br>*"Z" – mahsulot – ming so'm*<br>Jami<br>b) shartnoma bahosi bo'yicha<br>*"X" - mahsulot– 60000 ming so'm*<br>*"U" - mahsulot– 52000 ming so'm*<br>*"Z" – mahsulot –28000 ming so'm*<br>Jami | 140000 | | |
| 23 | Yagona soliq to'lovi hisoblandi (5%) | 7000 | | |
| 24 | Sotilgan maxsulotlarning tannarxi hisobdan chiqarildi | | | |
| 25 | Tayyor mahsulotlarni sotishdan olingan daromadlar hisobdan chiqarildi | | | |
| 26 | Davr xarajatlari hisobdan chiqarildi:<br>-sotish xarajatlari<br>- mamuriy xarajatlar<br>Jami | | | |
| 27 | Foiz xarajatlari xisobdan chiqarildi | | | |
| 28 | Soliq xarajati hisobdan chiqarildi | | | |
| 29 | Yakuniy moliyaviy natija aniqlandi va taqsimlanmagan foyda sifatida aks ettirildi | | | |

**Talab qilinadi:**

1. Xo'jalik operatsiyalarini ro'yxatga olish daftariga scho'tlar aloqasini yozing.
2. Yozuvlar tugagandan keyin har bir scho't bo'yicha oborotlarni va qoldiqlarni aniqlang.
3. Sintetik va analitik scho'tlar bo'yicha yanvar oyi uchun oborot vedomostini tuzing.
4. Daromadlar va xarajatlarni hisobga oluvchi scho'tlarni to'liq yoping va yakuniy moliyaviy natijani aniqlang.
5. 20_ y. 1 fevral holatiga buxgalteriya balansi tuzing.

### Asosiy xo'jalik jarayonlarini hisobga olish

1. "KUHNA KESH" kichik korxonasi mahsulot ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanadi. Korxonada 20__ yil 01 yanvar holatiga quyidagi xo'jalik mablag'lari va mablag'lar manbalari mavjud bo'lgan:

Ustav kapitali – 139 800 000 so'm; Asosiy vositalari – 188 600 000 so'm; Asosiy vositalar eskirishi – 62 400 000 so'm; Materiallar – 6 000 000 so'm; Mol yetkazib beruvchilar qarzi – 10 000 000 so'm; Xaridor va buyurtmachilardan olingan bo'nak – 16 000 000 so'm; Hisobdor shaxslarga xizmat safari uchun berilgan bo'naklar – 1 200 000 so'm; Taqsimlanmagan foyda – 14 500 000 so'm; Tayyor mahsulot – 16 500 000 so'm; Hisob-kitob scho'tidagi qoldiq – 80 000 000 so'm; Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarz – 17 000 000 so'm; Maqsadli davlat jamg'armalari bo'yicha bo'nak to'lovlari – 1 500 000 so'm; Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz – 7 500 000 so'm; Mol yetkazib beruvchilarga berilgan avans – 2 000 000 so'm; Rezerv kapitali – 28 600 000 so'm.

**Talab qilinadi.** Xo'jalik mablag'lari va mablag'lar manbalarini turkumlang va hisobot davri boshiga buxgalteriya balansini tuzing.

"KUHNA KESH" kichik korxonasida hisobot davrida asosiy xo'jalik jarayonlari bilan bog'liq quyidagi xo'jalik operatsiyalari sodir bo'lgan:

| № | Muomala mazmuni | Summa, so'm | Scho'tlar aloqasi | |
|---|---|---|---|---|
| | | | Debet | Kredit |
| 1 | Mol yetkazib beruvchilarga o'tkazildi | 10 000 000 | | |
| 2 | Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz o'tkazildi | 7 500 000 | | |
| 3 | Dekabr oyi uchun ish haqi olindi | 17 000 000 | | |
| 4 | Dekabr oyi uchun ish haqi tarqatildi | 15 800 000 | | |
| 5 | Vaqtida olinmagan ish haqi deponentga o'tkazildi | 1 200 000 | | |
| 6 | Deponentga o'tkazilga ish haqi hisob-kitob scho'tiga topshirildi | 1 200 000 | | |
| 7 | Tayyor mahsulot tannarxi bo'yicha sotishga chiqarildi | 13 200 000 | | |
| 8 | Hisob-kitob scho'tidan korxona ehtiyojlari uchun olindi | 3 500 000 | | |
| 9 | Ekspeditor A.Saidmurodovga korxona ehtiyojlari uchun avans berildi. | 3 500 000 | | |
| 10 | Ta'minot tashkilotidan materiallar olindi | 48 000 000 | | |
| 11 | Ta'minot tashkilotiga sotib olingan materiallar haqi to'landi | 48 000 000 | | |
| 12 | Asosiy ishlab chiqarishga materiallar sarflandi | 52 500 000 | | |
| 13 | Sotilgan mahsulotlar xaridorlar tomonidan bozor bahosida qabul qilindi | 17 160 000 | | |
| 14 | Ekspeditor A.Saidmurodov sotish xarajatlari uchun sarfladi | 3 500 000 | | |
| 15 | Xaridorlardan sotilgan mahsulotlarning puli kelib tushdi | 17 160 000 | | |
| 16 | Tayyor mahsulot tannarxi bo'yicha sotishga chiqarildi | 3 300 000 | | |
| 17 | Tayyor mahsulotlarni sotishdan naqd pul kirim qilindi | 4 290 000 | | |
| 18 | Mahsulotni naqd pulga sotishdan tushgan tushum hisob-kitob scho'tiga topshirildi | 4 290 000 | | |
| 19 | Ish haqi hisoblandi:<br>a) asosiy ishlab chiqarishdagi ishchilarga<br>b) ma'muriy – boshqaruv xodimlariga<br>Jami: | <br>18 000 000<br>2 400 000<br>20 400 000 | | |
| 20 | Ish haqiga nisbatan 12 % Yagona ijtimoiy to'lov hisoblandi:<br>a) asosiy ishlab chiqarishdagi ishchilarning ish haqiga nisbatan<br>b) ma'muriy – boshqaruv xodimlarining ish haqiga nisbatan<br>Jami: | | | |
| 21 | Ish haqidan daromad solig'i ushlandi:<br>a) Ishchilar<br>b) rahbarlar va xizmatchilarga<br>Jami: | <br>2 160 000<br>288 000<br>2 448 000 | | |
| 23 | Ish haqidan kasaba uyushmasiga ajratma ushlandi (1%):<br>a) Ishchilar | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | b) rahbarlar va xizmatchilarga<br>Jami: | | | |
| 24 | Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob raqamiga foiz (0,1 %) hisoblab yozildi:<br>a) Ishchilar<br>b) rahbarlar va xizmatchilarga<br>Jami: | | | |
| 25 | Asosiy vositalarga eskirish hisoblandi:<br>a) asosiy ishlab chiqarishdagi<br>b) ma'muriy maqsadlarda foydalanayotgan<br>Jami | <br>15 088 000<br>3 772 000<br>18 860 000 | | |
| 26 | Qisqa muddatli bank kreditlari olindi | 100 000 000 | | |
| 27 | Asosiy ishlab chiqarishdan tayyor mahsulot haqiqiy tannarxda qabul qilindi | | | |
| 28 | Tayyor mahsulot sotishga junatildi (haqiqiy tannarxda) | | | |
| 29 | Tayyor mahsulot bozor bahosida xaridorlar tomonidan qabul qilindi | 137 310 000 | | |
| 30 | Xaridorlardan sotilgan mahsulotlar puli kelib tushdi | 137 310 000 | | |
| 31 | Olingan qisqa muddatli kredit uchun foiz hisoblandi | 2 000 000 | | |
| 32 | Yanvar oyi uchun hisoblangan foiz summasi o'tkazildi | 2 000 000 | | |
| 33 | Oy oxirida mahsulot tannarxini hisobga oluvchi scho't yopildi<br>9110 - | | | |
| 34 | Oy oxirida mahsulotlarni sotishdan olingan daromad scho'ti yopildi<br>9010 - | | | |
| 35 | Oy oxirida davr xarajatlarini hisobga oluvchi scho'tlar yopildi<br>9410 –<br>9420 –<br>9430 – | | | |
| 36 | Oy oxirida moliyaviy faoliyat xarajatlarini hisobga oluvchi scho't yopildi<br>9610 – | | | |
| 37 | Yil oxirida yakuniy moliyaviy natija scho'ti yopildi<br>9910 – | | | |

**Talab qilinadi:**

1. Yuqoridagi xo'jalik operatsiyalariga scho'tlar bog'lanishini ko'rsating (buxgalteriya provodkasini tuzing).
2. Scho'tlar sxemasini ochib unga qoldiqlarni va muomaladagi summalarni o'tkazing.
3. Yozuvlar tugagandan keyin har bir scho't bo'yicha oborotlarni va qoldiqlarni aniqlang.
4. 20_ y. 1 fevral holatiga buxgalteriya balansi tuzing.

2. "SHAMS" mas'uliyati cheklangan jamiyat (MChJ)da hisobot davri boshiga quyidagi xo'jalik mablag'lari va mablag'lar manbalari mavjud:

Asosiy vositalar – 95 240 000 so'm, Ustav kapitali – 86 800 000 so'm, Taqsimlanmagan foyda – 10 350 000 so'm, Materiallar – 34 200 000 so'm, Budjetga soliqlar bo'yicha qarzlar –

900 000 so‘m, Davlatning maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarz – 800 000 so‘m, yoqilg‘i – 700 000 so‘m, Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilardan qarzdorlik – 5 500 000 so‘m, asosiy vositalarga hisoblangan eskirish – 45 500 000 so‘m, Ta’sischilarning qarzlari – 8 400 000 so‘m, Qisqa muddatli bank krediti – 60 345 000 so‘m, Kassadagi pul mablag‘lari – 5 000 so‘m, Mehnat haqi bo‘yicha qarz – 8 500 000 so‘m, Hisob-kitob scho‘ti – 80 150 000 so‘m.

**Talab qilinadi.** Xo‘jalik mablag‘lari va mablag‘lar manbalarini turkumlang va hisobot davri boshiga buxgalteriya balansini tuzing.

“SHAMS” MChJ mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo‘lib, hisobot oyida quyidagi xo‘jalik muomalalari sodir bo‘lgan (shartli ravishda):

1. 2019 yil 12 yanvarda ishlab chiqarishga 39 000 000 so‘mlik materiallar berildi. Shuningdek, asosiy ishlab chiqarishda ishlatilayotgan transport vositalari uchun 300 000 so‘mlik yoqilg‘i-moylash materiallari berildi.
2. 2019 yil 2 yanvarda mol yetkazib beruvchilardan 10 000 000 so‘mlik materiallar olindi. 2019 yil 20 yanvarda mazkur materiallar qiymati to‘lab berildi.
3. MChJning qisqa muddatli bank kreditlarining bir qismi 10 000 000 so‘m 2019 yil 10 yanvarda hisob-kitob scho‘tidan to‘landi.
4. MChJni budjetga soliqlar bo‘yicha qarzlari 900 000 so‘m 2019 yil 5 yanvarda tuman soliq inspektsiyasiga o‘tkazib berildi. Shuningdek, davlatning maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarz 800 000 so‘m ham shu sanada o‘tkazib berildi.
5. Hisob-kitob scho‘tidan 2019 yil 18 yanvarda ish haqi va xizmat safari uchun avans olindi - 9 000 000 so‘m.
6. Kassadan to‘lov vedomostiga asosan 2019 yil 19 yanvarda 8 500 000 so‘m ish haqi tarqatildi. Hamda 500 000 so‘m xizmat safari uchun avans berildi.
7. Ta’sischilar ustav kapitali oldidagi qarzini naqd pulda to‘ladi – 8 400 000 so‘m.
8. “Tuman neft ta’minot” unitar korxonasidan xo‘jalik maqsadlarida foydalanish uchun 2019 yil 27 yanvarda 300 000 so‘mlik yoqilg‘i olindi.
9. Ish haqi hisoblandi (26.01.2019 yil):
   - asosiy ishlab chiqarish xodimlariga - 20 000 000 so‘m;
   - ma’muriy boshqaruv xodimlariga – 5 000 000 so‘m.
   - hisoblangan ish haqiga nisbatan yagona ijtimoiy to‘lov (YaIT-12%) hisoblandi (o‘zingiz hisoblang va hisobga oling);
   - ishlarga hisoblangan ish haqidan daromad solig‘i hisoblandi (o‘zingiz hisoblang va hisobga oling);
   - hisoblangan ish haqiga nisbatan 1 % kasaba uyushmasiga ajratma hisoblandi (o‘zingiz hisoblang va hisobga oling).
   - hisoblangan ish haqiga nisbatan 0,1 % shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisob raqamiga ajratma hisoblang.
10. Asosiy vositalarga eskirish hisoblandi (2019 yil 29 yanvar):
    - asosiy ishlab chiqarishda foydalanilayotgan asosiy vositalarga – 7 400 000 so‘m
    - ma’muriy maqsadlarda foydalanayotgan asosiy vositalarga – 1 700 000 so‘m.
11. MChJ hisobot davrida ishlab chiqarish faoliyatidan olingan tayyor mahsulotlarni haqiqiy tannarxida omborga qabul qildi (2019 yil 30 yanvar).
12. MChJda o‘tkazilgan inventarizatsiya ma’lumotlariga ko‘ra kassada 5000 so‘m naqd pul kamomadi aniqlandi. Aniqlangan kamomad summasi moddiy javobgar shaxs, kassir D.Asadovdan naqd pulda undirishga qaror qilindi (2019 yil 31 yanvar).
13. MChJ hisobot davrida ishlab chiqarilgan mahsulotlari haqiqiy tannarxida sotishga chiqarildi va “UMID-GULSHANI” MChJga shartnoma asosida mahsulotlar 102 000 000 so‘mga sotildi.
14. MChJ yagona soliq to‘lovchisi hisoblanadi. Belgilangan soliq stavkasi – 5 %.

**Talab qilinadi:**

1. Yuqoridagi xo'jalik operatsiyalarini xo'jalik muomalalarini ro'yxatga olish daftarida scho'tlar bog'lanishini ko'rsating (buxgalteriya provodkasini tuzing).
2. Scho'tlar sxemasini ochib unga qoldiqlarni va muomaladagi summalarni o'tkazing.
3. Daromadlar va xarajatlarni hisobga oluvchi scho'tlarni to'liq yoping va yakuniy moliyaviy natijani aniqlang.
4. Yozuvlar tugagandan keyin har bir scho't bo'yicha oborotlarni va qoldiqlarni aniqlang.
5. Hisobot davri uchun oborot vedomostini tuzing.
6. 20_ y. 1 fevral holatiga buxgalteriya balansi tuzing.

3. "UMID" fermer xo'jaligida hisobot davri boshiga quyidagi xo'jalik mablag'lari va mablag'lar manbalari mavjud:

Asosiy vositalar – 72 740 000 so'm, Ustav kapitali – 26 994 000 so'm, Taqsimlanmagan foyda – 2 350 000 so'm, Materiallar (920 kg bug'doy urug'ligi) – 414 000 so'm, Budjetga soliqlar bo'yicha qarzlar – 160 000 so'm, Davlatning maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz – 100 000 so'm, idishlar – 100 000 so'm, Xo'jalik jihozlari va inventarlar – 150 000 so'm, Asosiy vositalarga hisoblangan eskirish – 22 500 000 so'm, Qisqa muddatli bank krediti – 65 000 000 so'm, kassadagi pul mablag'lari – 50 000 so'm, Mehnat haqi bo'yicha qarz – 1 500 000 so'm, Hisob-kitob scho'ti – 45 150 000 so'm.

**Talab qilinadi.** Fermer xo'jaligining xo'jalik mablag'lari va mablag'lar manbalarini turkumlang va hisobot davri boshiga buxgalteriya balansini tuzing

"UMID" fermer xo'jaligi o'simlikchilikka ixtisoslashgan bo'lib, hisobot davrida asosiy xo'jalik jarayonlari bilan bog'liq quyidagi xo'jalik operatsiyalari sodir bo'lgan:

1. "Parvina agro tex" MChJdan 35 600 000 so'mga traktor xarid qilgan. Traktorni olib kelishdagi transport xarajatlari uchun "Davr" MChJga 250 000 so'm to'langan, traktorni xarid qilish bilan bog'liq hujjatlarni rasmiylashtirish uchun 80 000 so'm xarajat qilingan.

2. "Shams" fermer xo'jaligidan 2 000 kg yuqori sifatli bug'doy urug'ligi xarid qilgan. Xarid qilingan bug'doy urug'ining 1 kg 500 so'm. Urug'likni xo'jalikka olib kelishda "Davr" MChJga 50 000 so'm tashib kelganligi uchun to'langan.

3. Xo'jalikning o'zida yetishtirilgan 920 kg urug'lik bug'doy hamda yuqori sifatli 2 000 kg urug'lik bug'doy ekilgan. Xo'jalikda bug'doy yetishtirishda band bo'lgan ishchilarga 2 500 000 so'm ish haqi va ish haqiga nisbatan 15% yagona ijtimoiy to'lov hisoblangan. Bundan tashqari bug'doyni yetishtirishda foydalanilgan asosiy vositalarga 120 000 so'm eskirish hisoblangan. Shuningdek ishlab chiqarishga 200 000 so'mlik yoqilg'i ham sarflangan.

4. Fermer xo'jaligi hisobot yilida 30 t bug'doy hosilini xo'jalik omboriga tayyor mahsulot sifatida qabul qilgan.

5. Xo'jalikda o'tkazilgan inventarizatsiya ma'lumotlariga ko'ra xo'jalik omborida qiymati 10 000 so'm bo'lgan 2 dona idish kamomadi aniqlangan. Aniqlangan kamomad summasi moddiy javobgar shaxs, xo'jalik xodimi O.Olimov zimmasiga yuklatilgan. O.Olimov tomonidan kamomad summasi naqd pulda xo'jalik kassasiga to'langan.

6. Xo'jalikda yetishtirilgan 30 t bug'doy "G'alla-Altek" MChJga 950 so'm/kgdan shartnoma asosida sotildi. "G'alla-Altek" MChJ shartnoma bo'yicha shartnoma qiymatining 85%ini oldindan to'lab bergan, qolgan 15%ini kelgusi hisobot yilining yanvar oyida to'lab berishi kerak.

**Talab qilinadi:**

1. Xo'jalik muomalalarini ro'yxatga olish daftarida yuqoridagi xo'jalik operatsiyalari bilan bog'liq scho'tlar bog'lanishini ko'rsating (buxgalteriya provodkasini tuzing).
2. Daromadlar va xarajatlarni hisobga oluvchi scho'tlarni to'liq yoping va yakuniy moliyaviy natijani aniqlang.
3. Yozuvlar tugagandan keyin har bir scho't bo'yicha oborotlarni va qoldiqlarni aniqlang. Hisobot davri uchun oborot vedomostini tuzing.
4. Hisobot davri oxiriga buxgalteriya balansini tuzing.

## 12-MAVZU. BUXGALTERIYA HISOBINING REGISTRLARI VA SHAKLLARI (4 soat)

### 12.1. Buxgalteriya hisobi registrlari, ularni turkumlash, rasmiylashtirish va xatolarini tuzatish (2 soat)

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Hisob registrlari nima va ularning buxgalteriya hisobidagi vazifalari qanday?
2. Hisob registrlarining turkumlanishini ta'riflang.
3. Korxona uchun hisob registrlarini tanlash mezonlari qanday?
4. Joriy hisobda qanday yozuvlar bajariladi?
5. Hisob yozuvlaridagi xatolar nima sababli sodir bo'ladi?
6. Hisob yozuvlaridagi xatolarni tuzatishning qanday usullari bor?

### TEST TOPSHIRIQLARI

**1. Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonunga muvofiq buxgalteriya hisobi registrlari?**
A) Inventar kartochkalari.
B) Ikkiyoqlama yozuv qoidalariga muvofiq yuritiladigan jurnallar, qaydnomalar, tasdiqlangan blankalar.
C) To'lov vedomosti
D) Hammasi to'g'ri.

**2. Hisob registrlarini turkumlash qanday belgilarga ko'ra amalga oshiriladi?**
A) To'ldirish usuli, axborotlar hajmi, tashqi ko'rinishi, hisob obyektlarini qamrab olishi
B) To'ldirish usuli, hisob yozuvlarining turlari, axborotlar hajmi
C) Tuzilishi, to'ldirish usuli, hisob yozuvlarining turlari, axborotlar hajmi, tashqi ko'rinishi
D) To'ldirish usuli, hisob yozuvlarining turlari, tashqi ko'rinishi

**3. Hisob registrlari tayinlanishiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?**
A) Buxgalteriya daftarlari, kartochkalar
B) Alohida varaqlar, dastlabki hujjatlar
C) Xronologik, sistematik va uyg'unlashgan registrlar
D) Sintetik va analitik hisob registrlari

**4. Hisob registrlari tashqi ko'rinishlari bo'yicha qanday turlarga bo'linadi?**
A) Sintetik va analitik registrlarga.
B) Xronologik, sistematik va uyg'unlashgan registrlarga.
C) Dastlabki va yig'ma hujjatlar.
D) Buxgalteriya daftarlari kartochkalari va alohida varaqlar.

**5. Axborotlar hajmiga ko'ra hisob registrlari qanday turlarga bo'linadi?**
A) Sintetik va analitik registrlar
B) Xronologik, sistematik va uyg'unlashgan registrlar
C) Buxgalteriya daftarlari, kartochkalari va alohida varaqlar
D) Bosh daftar va jurnal-orderlar

**6. Hisob registrlaridagi xatolarni tuzatishda qanday usullar qo'llaniladi?**
A) O'chirib yozish, kleylash va bo'yash
B) Qizil yozuv, qora yozuv va o'chirib yozish
C) Korrektura, qizil storno va qo'shimcha yozuv
D) Qizil storno va qora yozuv

**7. Sintetik hisob registrlari ko'rsatilgan qatorni aniqlang?**
A) Kassa daftari, kassa kirim va chiqim orderi
B) Jurnal orderlar, bosh daftar
C) Balans, yuk xati, ombor daftari
D) Kassa daftari, balans

**8. Analitik hisob registrlari ko'rsatilgan qatorni aniqlang?**
A) Kassa daftari, bosh daftar
B) Kassa daftari, ombor mudiri daftari
C) Kassa chiqim orderi, akt, ishonchnoma
D) Inventar kartochkalar, kassa kirim orderi

## AMALIY MASHQLAR

### 1. Hisob registrlari va xo'jalik operatsiyalarini hisobda aks ettirish jarayoni




**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga hisob registrlari ta'rifini va xo'jalik operatsiyalarini hisobda aks ettirish jarayonini yozing va ularni tavsiflab bering.

### 2. Hisob registrlarining turkumlanishi



**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga hisob registrlarini alohida belgilari bo'yicha turkumlab yozing va ularni tushuntirib bering.

**3. Buxgalteriya hisobi registrlarini rasmiylashtirish**

1. "FARRUX FAYZ" mas'uliyati cheklangan jamiyat (MChJ)da hisobot davri boshiga quyidagi xo'jalik mablag'lari va mablag'lar manbalari mavjud:

Asosiy vositalar – 95 240 000 so'm, Ustav kapitali – 86 800 000 so'm, Taqsimlanmagan foyda – 10 350 000 so'm, Materiallar – 34 200 000 so'm, Budjetga soliqlar bo'yicha qarzlar – 900 000 so'm, Davlatning maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz – 800 000 so'm, Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilardan qarzdorlik – 4 800 000 so'm, Asosiy vositalarga hisoblangan eskirish – 45 500 000 so'm, Ta'sischilarning qarzlari – 18 400 000 so'm, Qisqa muddatli bank krediti – 160 345 000 so'm, Kassadagi pul mablag'lari – 5 000 so'm, Mehnat haqi bo'yicha qarz – 18 500 000 so'm, Hisob-kitob scho'ti – 180 150 000 so'm.

"FARRUX FAYZ" MChJ mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo'lib, hisobot oyida quyidagi xo'jalik muomalalari sodir bo'lgan (shartli ravishda):

1. 2019 yil 2 yanvarda mol yetkazib beruvchilardan 10 000 000 so'mlik materiallar olindi. 2019 yil 20 yanvarda mazkur materiallar qiymati to'lab berildi.
2. MChJni budjetga soliqlar bo'yicha qarzlari 900 000 so'm 2019 yil 5 yanvarda tuman soliq inspektsiyasiga o'tkazib berildi. Shuningdek, davlatning maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz 800 000 so'm ham shu sanada o'tkazib berildi.
3. MChJning qisqa muddatli bank kreditlarining bir qismi 18 000 000 so'm 2019 yil 10 yanvarda hisob-kitob scho'tidan to'landi.
4. 2019 yil 12 yanvarda ishlab chiqarishga 44 000 000 so'mlik materiallar berildi.
5. Hisob-kitob scho'tidan 2019 yil 18 yanvarda ish haqi va xizmat safari uchun avans olindi - 19 000 000 so'm.
6. Kassadan to'lov vedomostiga asosan 2019 yil 19 yanvarda 18 500 000 so'm ish haqi tarqatildi. Hamda 500 000 so'm xizmat safari uchun avans berildi.
7. Ta'sischilar ustav kapitali oldidagi qarzini naqd pulda to'ladi – 18 400 000 so'm.
8. Ish haqi hisoblandi (26.01.2019 yil):
   - asosiy ishlab chiqarish xodimlariga - 60 000 000 so'm;
   - ma'muriy boshqaruv xodimlariga – 15 000 000 so'm.
   - hisoblangan ish haqiga nisbatan yagona ijtimoiy to'lov (YaIT-12%) hisoblandi (o'zingiz hisoblang va hisobga oling);
   - ishlarga hisoblangan ish haqidan daromad solig'i hisoblandi (o'zingiz hisoblang va hisobga oling);
   - hisoblangan ish haqiga nisbatan 1 % kasaba uyushmasiga ajratma hisoblandi (o'zingiz hisoblang va hisobga oling).
   - hisoblangan ish haqiga nisbatan 0,1 % shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob raqamiga ajratma hisoblang.
9. "Tuman neft ta'minot" unitar korxonasidan xo'jalik maqsadlarida foydalanish uchun 2019 yil 27 yanvarda 3 000 000 so'mlik yoqilg'i olindi.
10. Asosiy vositalarga eskirish hisoblandi (2019 yil 29 yanvar):
    - asosiy ishlab chiqarishda foydalanilayotgan asosiy vositalarga – 7 200 000 so'm
    - ma'muriy maqsadlarda foydalanayotgan asosiy vositalarga – 1 900 000 so'm.
11. MChJ hisobot davrida ishlab chiqarish faoliyatidan olingan tayyor mahsulotlarni haqiqiy tannarxida omborga qabul qildi (2019 yil 30 yanvar).
12. MChJda o'tkazilgan inventarizatsiya ma'lumotlariga ko'ra kassada 5000 so'm naqd pul kamomadi aniqlandi. Aniqlangan kamomad summasi moddiy javobgar shaxs, kassir D.Asadovdan naqd pulda undirishga qaror qilindi (2019 yil 31 yanvar).
13. MChJ hisobot davrida ishlab chiqarilgan mahsulotlari haqiqiy tannarxida sotishga chiqarildi va "UMID-GULSHANI" MChJga shartnoma asosida mahsulotlar 120 000 000 so'mga sotildi.
14. MChJ yagona soliq to'lovchisi hisoblanadi. Belgilangan soliq stavkasi – 5 %.

**Topshiriqlar:**

1. Xo‘jalik mablag‘lari va mablag‘lar manbalarini turkumlang va hisobot davri boshiga buxgalteriya balansini tuzing.

**“FARRUX FAYZ” MChJning buxgalteriya balansi**
**(20... yil 1 yanvar holatiga)**

| Aktiv | Hisobot davri boshiga | Hisobot davri oxiriga | Passiv | Hisobot davri boshiga | Hisobot davri oxiriga |
|---|---|---|---|---|---|
| **I. Uzoq mud. aktivlar** | | | **I. O‘z manbalari** | | |
| | | | | | |
| | | | | | |
| | | | | | |
| | | | | | |
| **I bo‘lim jami** | | | **I bo‘lim jami** | | |
| **II Joriy aktivlar** | | | **II Majburiyatlar** | | |
| | | | | | |
| | | | | | |
| | | | | | |
| | | | | | |
| | | | | | |
| | | | | | |
| | | | | | |
| | | | | | |
| | | | | | |
| | | | | | |
| | | | | | |
| | | | | | |
| | | | | | |
| | | | | | |
| | | | | | |
| **II bo‘lim jami** | | | **II bo‘lim jami** | | |
| **B a l a n s** | | | **B a l a n s** | | |

2. Hisobot oyida sodir bo‘lgan xo‘jalik operatsiyalariga buxgalteriya provodkalarini tuzing va guruhlashtiring.

**Xo‘jalik operatsiyalarini ro‘yxatga olish daftari**

| № | Sana | Xo‘jalik operatsiyasining mazmuni | Summa | Scho‘tlar aloqasi | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | **Debet** | **Kredit** |
| | | | | | |
| | | | | | |
| | | | | | |
| | | | | | |
| | | | | | |
| | | | | | |
| | | | | | |
| | | | | | |

**Tegishli sintetik scho‘tlarda xo‘jalik muomilalarini guruhlash**

| № | Scho‘t № | Scho‘tlar nomi | Summa | |
|---|---|---|---|---|
| | | | Debet | Kredit |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |

3. Hisobot davri uchun oborot vedomostini tuzing

**OBOROT VEDOMOSTI**

| № | Scho't | Scho'tlar nomi | Oy boshiga qoldiq (01.01.20...) | | Oborot | | Oy oxiriga qoldiq (31.01.20...) | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | **JAMI:** | | | | | | |

4. Bosh daftarda tegishli sintetik scho'tlarni oching va boshlang'ich qoldiqlarni o'tkazing hamda oborot vedomostidan yanvar oyidagi scho'tlar bo'yicha oborotlarni va oxirgi qoldiqlarni aniqlang.

## BOSH DAFTAR

| | № | | № | | № | | № | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Qoldiq | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| Yanvar | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| Qoldiq | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |

| | № | | № | | № | | № | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Qoldiq | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| Yanvar | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| Qoldiq | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |

| | № | | № | | № | | № | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Qoldiq | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| Yanvar | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| Qoldiq | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |

| | № | | № | | № | | № | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Qoldiq | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| Yanvar | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| Qoldiq | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |

| | № | | № | | № | | № | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Qoldiq | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| Yanvar | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| Qoldiq | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |

| | № | | № | | № | | № | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Qoldiq | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| Yanvar | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| Qoldiq | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |

| | № | | № | | № | | № | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Qoldiq | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| Yanvar | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| Qoldiq | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |

| | № | | № | | № | | № | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Qoldiq | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| Yanvar | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| Qoldiq | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |

| | № | | № | | № | | № | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Qoldiq | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| Yanvar | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| Qoldiq | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |

| | № | | № | | № | | № | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Qoldiq | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| Yanvar | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| Qoldiq | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |

| | № | | № | | № | | № | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Qoldiq | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| Yanvar | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| Qoldiq | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |

| | № | | № | | № | | № | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Qoldiq | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| Yanvar | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| Qoldiq | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |

5. Hisobot davri oxiriga buxgalteriya balansini tuzing (Buxgalteriya balansi 1-sonli shakl yuqorida 1-topshriqda keltirilgan).

2. “UMID-NIHOLLARI” xususiy korxonasi (XK) mahsulot ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxona bo‘lib, u o‘z faoliyatini 2014 yil dekabr oyida boshlagan. XKda 2019 yil 01 yanvar holatiga quyidagi asosiy vositalari mavjud bo‘lgan:

- Bino: boshlang‘ich qiymati 80 000 ming so‘m, jamg‘arilgan eskirish qiymati 24000 ming so‘m. XK binosi maydonining 20 % ma’muriy maqsadlarda, qolgan qismi mahsulot ishlab chiqarish maqsadlarida foydalaniladi. Belgilangan eskirish normasi 5 %.
- Uskuna: XKda umumiy boshlang‘ich qiymati 100 000 ming so‘m, jamg‘arilgan eskirish qiymati 60000 ming so‘m bo‘lgan 5 dona uskuna mavjud. Belgilangan eskirish normasi 15 %.
- Mebel va ofis jihozlari: Boshlang‘ich qiymati 18500 ming so‘m, jamg‘arilgan eskirish qiymati 7400 ming so‘m. Mebel va ofis jihozlarining 70 % ma’muriy maqsadlarda, qolgan qismi ishlab chiqarish maqsadlarida foydalaniladi. Belgilangan eskirish normasi 10 %.
- Kompyuter va kompyuter jihozlari – Boshlang‘ich qiymati – 15000 ming so‘m, jamg‘arilgan eskirishi qiymati – 9000 ming so‘m. Belgilangan eskirish normasi 20 %.
- Boshqa aktiv va passivlari quyidagicha: Ustav kapitali – 75 000 ming so‘m, taqsimlanmagan foyda – 12 850 ming so‘m, Materiallar – 50 000 ming so‘m, Budjetga soliqlar bo‘yicha qarzlar – 4 800 ming so‘m, Davlatning maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarz – 2 500 ming so‘m, Qisqa muddatli bank krediti – 150 000 ming so‘m, Xaridor va buyurtmachilarning qarzi – 38 080 ming so‘m, Mehnat haqi bo‘yicha qarz – 33 180 ming so‘m, Hisob-kitob scho‘ti – 80 150 ming so‘m, To‘lanadigan foizlar – 3 000 ming so‘m.

“UMID-NIHOLLARI” XKning faoliyati ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. 2019 yil yanvar oyi davomida XKda quyidagi xo‘jalik operatsiyalari sodir bo‘lgan:

1. XKda mavjud asosiy vositalar 2019 yil 01 yanvar holatiga qayta baholash amalga oshirilmagan. Moliya vazirligi tomonidan e’lon qilingan qayta baholash indekslari quyidagicha:

✓ Bino uchun – 1,10 koeffitsient;
✓ Uskunalar uchun – 1,15 koeffitsient;
✓ Kompyuterlar uchun – 1,05 koeffitsient;
✓ Transport vositalari uchun – 1,2 koeffitsient
✓ Mebel va ofis jihozlari uchun – 1,05 koeffitsient.

2. 2019 yil 3 yanvarda Xaridolardan sotilgan tayyor mahsulotlarning puli kelib tushdi 28 500 000 so‘m.

3. XKni budjetga soliqlar bo‘yicha qarzlari 4 800 000 so‘m 2019 yil 5 yanvarda tuman soliq inspektsiyasiga o‘tkazib berildi. Shuningdek, davlatning maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarz 2 500 000 so‘m ham shu sanada o‘tkazib berildi.

4. 2019 yil 6 yanvarda mol yetkazib beruvchilarga shartnoma qiymatining 15 % miqdorida avans berildi (Shartnoma qiymati – 50 000 000 so‘m). 2019 yil 7 yanvarda mol yetkazib beruvchilardan 50 000 000 so‘mlik materiallar olindi. Shundan so‘ng, mol yetkazib beruvchilarga berilgan avans summasi hisobga olindi. 2019 yil 10 yanvarda ombordan ishlab chiqarishga 67 500 000 so‘mlik materiallar berildi.

5. 2019 yil 10 yanvarda hisob-kitob scho‘tidan bankdagi maxsus scho‘tga ish haqiko‘rinishidagi majburiyatning 50 % miqdoridagi pul mablag‘lari plastik kartochkalarga taqsimot qilish maqsadida o‘tkazildi. 2019 yil 11 yanvarda maxsus scho‘tdagi pul mablag‘lari plastik kartochkalarga taqsimot qilindi.

6. XKning qisqa muddatli bank kreditining bir qismi 12 500 000 so‘m va kredit foizi 3 000 000 so‘m 2019 yil 12 yanvarda hisob-kitob scho‘tidan to‘landi. 2019 yil 15 yanvarda Yanvar oyi uchun qisqa muddatli bank krediti bo‘yicha 2 750 000 so‘m foiz hisoblandi.

7. Hisob-kitob scho‘tidan 2019 yil 17 yanvarda ish haqi uchun naqd pul olindi. Kassadan to‘lov vedomostiga asosan 2019 yil 18 yanvarda ish haqi tarqatildi.

8. Ish haqi hisoblandi (26.01.2019 yil):

- asosiy ishlab chiqarish xodimlariga - 36 000 000 so‘m;
- ma’muriy boshqaruv xodimlariga – 6 000 000 so‘m.

- hisoblangan ish haqiga nisbatan yagona ijtimoiy to‘lov (YaIT-12%) hisoblandi (o‘zingiz hisoblang va hisobga oling);
- ishlarga hisoblangan ish haqidan daromad solig‘i hisoblandi (o‘zingiz hisoblang va hisobga oling);
- hisoblangan ish haqiga nisbatan 1 % kasaba uyushmasiga ajratma hisoblandi (o‘zingiz hisoblang va hisobga oling).
- hisoblangan ish haqiga nisbatan 0,1 % shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisob raqamiga ajratma hisoblandi (o‘zingiz hisoblang va hisobga oling).

9. XKning asosiy vositalariga Yanvar oyi uchun eskirish hisoblandi (2019 yil 29 yanvar):
- asosiy ishlab chiqarish faoliyatida foydalanayotgan asosiy vositalarga – 7 500 000 so‘m;
- ma’muriy maqsadlarda foydalanayotgan asosiy vositalarga – 1 500 000 so‘m.

10. XK hisobot davrida ishlab chiqarish faoliyatidan olingan tayyor mahsulotlarni haqiqiy tannarxida omborga qabul qildi (2019 yil 30 yanvar).

11. Xaridor va buyurtmachilardan 2019 yil 27 yanvarda 30 600 000 so‘m miqdorida bo‘nak olindi. 2019 yil 29 yanvarda XK hisobot davrida ishlab chiqarilgan mahsulotlari haqiqiy tannarxida sotishga chiqarildi va 4800 dona mahsulotlar xaridorlarga shartnoma asosida bir birligining qiymati 42500 so‘mdan yetkazib berildi. Tayyor mahsulotlarni yetkazib berishda “Asilbek-serves” xususiy korxonasi xizmatlaridan foydalanildi hamda xizmat haqi 4 500 000 so‘m sifatida hisobga olindi va to‘lab berildi (2019 yil 30 yanvar). Shundan so‘ng xaridorlardan olingan avans summasi hisobga olindi (2019 yil 30 yanvar).

12. Tijorat banki bilan tuzilgan shartnomaga ko‘ra ko‘rsatilgan xizmatlar qiymati to‘lov summasining 1 % miqdorida belgilangan. Hisobot oyining oxirida ko‘rsatilgan xizmat haqi bank tomonidan undirib olingan.

13. XK yagona soliq to‘lovchisi hisoblanadi. Soliq summasi mahsulot sotishdan olingan yalpi tushumdan hisoblanadi. Belgilangan soliq stavkasi – 5 %.

**Talab qilinadi:**

1. Xo‘jalik mablag‘lari va mablag‘lar manbalarini turkumlang va hisobot davri boshiga buxgalteriya balansini tuzing.
2. Yuqoridagi xo‘jalik operatsiyalariga buxgalteriya provodkalari tuzing va guruhlashtiring.
3. Hisobot davri uchun oborot vedomostini tuzing.
4. Bosh daftarda tegishli sintetik scho‘tlarni oching. Tegishli scho‘tlar bo‘yicha boshlang‘ich qoldiqlarni o‘tkazing. Oborot vedomostidan yanvar oyidagi scho‘tlar bo‘yicha oborotlarni va oxirgi qoldiqlarni aniqlang. Hisobot davri uchun moliyaviy natijalarni aniqlang.
5. Hisobot davri oxiriga buxgalteriya balansini tuzing.

### 4. Hisob registrlaridagi xatolarni tuzatish usullari



**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga hisob registrlaridagi xatolarni tuzatish usullarini yozing va ularni tavsiflab bering.

**5. Hisob registrlaridagi xato-yozuvlarni aniqlash va tuzatish**

1. Korxona kassasidan xodimlarga ish haqi ko'rinishida 500 000 so'm bo'nak berildi. Ushbu sodir bo'lgan xo'jalik muomalasini korxona buxgalteri hisobda quyidagicha aks ettirdi:

Dt 4890 Kt 5010 500 000 so'm.

**Talab qilinadi.** Korxona buxgalteri xo'jalik muomalasini hisobda to'g'ri aks ettirganmi? Agarda xatolik mavjud bo'lsa, xatolarni tuzatish usullaridan foydalanib to'g'ri yozuvni amalga oshiring.

2. Korxona mol yetkazib beruvchidan scho't-fakturaga asosan 5 000 000 so'mlik materiallar xarid qilgan. Ushbu xo'jalik operatsiyasini korxona bkxgalteriya quyidagicha hisob registrlarida aks ettirgan:

Dt 1010 Kt 6010 500000 so'm.

**Talab qilinadi.** Korxona buxgalteri xo'jalik muomalasini hisob registrlarida to'g'ri aks ettirganmi? Agarda xatolik mavjud bo'lsa, xatolarni tuzatish usullaridan foydalanib to'g'ri yozuvni amalga oshiring.

3. Korxona buxgalteri hisobot oyi uchun ishchiga 4 000 000 so'm oylik maosh hisobladi. Shuningdek, hisoblangan oylik maoshdan quyidagi ushlanmalarni ham hisoblab hisob registrlarida aks ettirdi:

1). Daromad solig'i – 400 000 so'm;

2). Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob raqamiga ajratma – 4000 so'm.

Ushbu muomalalarni buxgalteri hisobda quyidagicha aks ettirdi:

- hisoblangan oylik maosh summasi: D-t 2010 K-t 6710 4 000 000
- daromad solig'i summasi Dt 6710 Kt 6410 400 000
- ShJBPHR ajratma summasi Dt 6710 Kt 6530 4000

**Talab qilinadi.** Korxona buxgalteri ishchining oylik maoshidan ushlanadigan ushlanmalarni to'g'ri hisoblaganligi va ularning buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirganligini tekshiring. Agarda xatolik mavjud bo'lsa, xatolarni tuzatish usullaridan foydalanib to'g'ri yozuvni amalga oshiring.

4. Korxona mahsulot ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanadi. Hisobot davrida korxonada ikki xil, ya'ni "Shirin" va "Dunyo" nomlaridagi qandolat mahsulotlari ishlab chiqarilgan. Korxona tomonidan "Shirin" nomli mahsulotning 1 klogram uchun reja tannarxi 4 500 so'm va "Dunyo" nomli mahsulotning 1 klogram uchun reja tannarxi 6 000 so'm qilib belgilangan.

Hisobot davri yakunlangandan so'ng korxonada ishlab chiqarilgan mahsulotlar uchun qilingan xarajatlar hisoblandi. Hisob-kitoblarga ko'ra "Shirin" nomli mahsulotni 1 klogramning haqiqiy tannarxi 5000 so'mni, "Dunyo" nomli mahsulotni 1 klogramning haqiqiy tannarxi 5 800 so'mni tashkil etdi.

**Talab qilinadi.** Korxonada ishlab chiqarilgan mahsulotlarning haqiqiy tannarxi bilan reja tannarxi o'rtasidagi farqlarni aniqlang hamda xatolarni tuzatish usullaridan foydalanib buxgalteriya yozuvlarini to'g'rilang.

5. Korxona mahsulot ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanadi. Hisobot davrida korxonada ikki turdagi mahsulotlar ishlab chiqarilgan. Korxona tomonidan "A" nomli mahsulotning bir donasi uchun reja tannarxi 26 320 so'm va "D" nomli mahsulotning bir donasi uchun reja tannarxi 26 000 so'm qilib belgilangan.

Hisobot davri yakunlangandan so'ng korxonada ishlab chiqarilgan mahsulotlar uchun qilingan xarajatlar hisoblandi. Hisob-kitoblarga ko'ra "A" nomli mahsulotni bir donasining haqiqiy tannarxi 26 820 so'mni, "D" nomli mahsulotni bir donasining haqiqiy tannarxi 25800 so'mni tashkil etdi.

**Talab qilinadi.** Korxonada ishlab chiqarilgan mahsulotlarning haqiqiy tannarxi bilan reja tannarxi o'rtasidagi farqlarni aniqlang hamda xatolarni tuzatish usullaridan foydalanib buxgalteriya yozuvlarini to'g'rilang.

## 12.2. Buxgalteriya hisobining asosiy shakllari va ularni yuritish prinsiplari (2 soat)

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Buxgalteriya hisobining shakli nima?
2. Buxgalteriya hisobi memorial-order shaklining asosiy prinsipi nimadan iborat?
3. Buxgalteriya hisobining «Bosh-jurnal» shaklining mazmuni nimadan iborat?
4. Hisobning jurnal-order shaklining mazmuni va tuzilish prinsipi qanday?
5. Buxgalteriya hisobining avtomatlashtirilgan shaklining mohiyati nimadan iborat?
6. Buxgalteriya hisobi soddalashtirilgan shaklining mazmuni va ahamiyati qanday?

### TEST TOPSHIRIQLARI

**1. Buxgalterlik hisobini shakli deb ...**

A) Metod elementlariga aytiladi

B) Hisob registrlaridan foydalanishning ketma-ketlik va bajarilishi texnikasini yuzaga chiqaradigan ma'lum tizimga aytiladi

C) Xo'jalik muomalalarini joriy tartibda qayd qilish va guruhlashga aytiladi

D) Hujjatlarda ko'rsatilgan xo'jalik muomalalarini pulda ifodalash usuliga aytiladi

**2. Buxgalteriya hisobining qanday tashkiliy shakllari bor?**

A) Oddiy va murakkab

B) Operativ-texnik, statistik va buxgalterlik hisobi

C) Markazlashtirilgan, markazlashtirilmagan va aralash

D) Moliyaviy va boshqaruv hisobi

**3. Buxgalteriya hisobining qanday asosiy shakllari bor?**

A) asosiy shakl va qo'shimcha shakl

B) memorial-order, jurnal order, avtomatlashtirilgan shakl, soddalashtirilgan shakl

C) markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan

D) uyg'unlashtirilgan va mexanizatsiyalashtirilgan

**4. Buxgalteriya hisobining jurnal-order shaklida balans nimaga asosan tuziladi?**

A) Bosh daftar

B) Jurnal-orderlar

C) Oborot qaydnomalari

D) Bosh jurnal

**5. Buxgalteriya hisobi jurnal-order shaklining tuzilishida qanday belgi asos bo'ladi?**

A) Debet

B) Kredit

C) Debet va kredit

D) Qoldiq (saldo)

**6. Qaysi javobda buxgalteriya hisobi memorial-order shaklining kamchiligi keltirilgan?**

A) Bitta hisob yozuvining har xil hisob registrlarida ko'p marta takrorlanishi

B) Memorial-order shaklida sintetik hisob ikkita hisob registrida – Ro'yxatga olish jurnali va Bosh daftarda yuritilmaydi

C) Analitik va sintetik hisob o'rtasida vaqt bo'yicha uzilish mavjud bo'lmaydi

D) Hisob registrlari hisobot shakllarini tuzishda zarur bo'ladigan ko'rsatkichlarni guruhlash uchun avtomatik ravishda moslashgan

**7. Hisob registrlarida schotlar korrespondensiyasi to'g'ri tuzilib, summa kamaytirib yozilganida tuzatish qanday usul bo'yicha amalga oshiriladi?**

A) korrektura

B) qo'shimcha yozuv

C) «qizil storno»

D) bekor qilish

## AMALIY MASHQLAR

### 1. Buxgalteriya hisobining shakllari va ularning tavsifi




**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga buxgalteriya hisobi shakliga ta'rif bering va uning turlarini tavsiflab bering.

### 2. Buxgalteriya hisobining memorial-order shakli

1. "YULDUZ" mas'uliyati cheklangan jamiyat (MChJ) keyim-kechak mahsulotlari ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona bo'lib, u o'z faoliyatini 2014 yil dekabr oyida boshlagan. MChJda 2019 yil 01 yanvar holatiga quyidagi asosiy vositalari mavjud bo'lgan:

- Bino: boshlang'ich qiymati 510 000 ming so'm, eskirish qiymati 102000 ming so'm. MChJning hisob siyosatiga ko'ra bino uchun eskirish hisoblashda to'g'ri chiziq usulidan foydalaniladi. Binoning umumiy hajmi 6300 kv mni tashkil etadi. Binoning 2/10 qismidan ofis sifatida, qolgan qismi ishlab chiqarish faoliyati maqsadida foydalaniladi. Bino 2014 yil 25 dekabrda sotib olingan.
- Tikuv dastgohlari: MChJda umumiy boshlang'ich qiymati 250 000 ming so'm, eskirish qiymati 189975 ming so'm bo'lgan 50 dona tikuv dastgohi mavjud mavjud. Tikuv dastgohlari uchun eskirish hisoblashda jadallashtirilgan usullardan, ya'ni qoldiqli kamayish usulidan foydalanish ko'zda tutilgan. Soliq Kodeksining 144-moddasiga ko'ra uskuna uchun eskirish normasi 15 foiz belgilangan. Uskunalarning barchasi bir vaqtda ya'ni 2014 yil 22 dekabrda xarid qilingan.
- Mebel va ofis jihozlari: Boshlang'ich qiymati 35850 ming so'm, eskirish qiymati 14340 ming so'm. Xizmat muddati 10 yil belgilangan. To'g'ri chiziq usulida eskirish hisoblash belgilangan. Mebel va ofis jihozlari 2014 yil 25 dekabrda sotib olingan. Mebel va ofis jihozlarining 5/10 qismidan ofis sifatida, qolgan qismi ishlab chiqarish faoliyati maqsadida foydalaniladi.
- Boshqa aktiv va passivlari quyidagicha: Ustav kapitali – 552 990 000 so'm, taqsimlanmagan foyda – 44 905 000 so'm, Budjetga soliqlar bo'yicha qarzlar – 1 800 000 so'm, Xom-ashyo va meterialar 82 190 000 so'm, Davlatning maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz – 880 000 so'm, Tayyor mahsulot – 24 520 000 so'm, Mehnat haqi bo'yicha qarz – 20 000 000 so'm, Hisob-kitob scho'ti – 60 150 000 so'm, Mol yetkazib beruvchilardan qarzdorlik – 35 820 000 so'm.

**“YULDUZ” MChJning faoliyati ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. 2019 yil yanvar oyi davomida MChJda quyidagi xo‘jalik muomalalari sodir bo‘lgan (shartli):**

1. Hisobot davrining 2 yanvarida shartnomaga asosan “Malika” MChJdan 15 foiz miqdorida avans kelib tushdi. Shu kunning o‘zida ishlab chiqarish tannarxi 24 520 000 so‘m bo‘lgan tayyor mahsulotlar MChJga shartnomaga asosan 36 500 000 so‘m qiymatda topshirildi. Shundan so‘ng olingan avans miqdori hisobga olindi.

2. 5 yanvarda MCHJni budjetga soliqlar bo‘yicha qarzlari va davlatning maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarzi ham to‘lab berildi.

3. Xodimlar ish haqisining 50 foizi plastik kartichkalarga o‘tkazib to‘lanishi sababli, 7 yanvarda hisob-kitob scho‘tidan 5530-“Boshqa maxsus scho‘t”ga ish haqining 50 % o‘tkazildi. 9 yanvarda maxsus scho‘tdagi pul mablag‘lari plastik kartichkalarga taqsimot qilindi.

4. MChJ xodimini xizmat safariga yuborish uchun korxona rahbarining bo‘yrug‘iga asosan 1 500 000 so‘m miqdoridagi naqd pul mablag‘i 10 yanvarda hisob-kitob scho‘tidan olindi. 11 yanvar kuni hisobdor shaxsga xizmat safari uchun avans berildi.

5. 11 yanvar kuni “Malika” MChJdan hisob-kitob scho‘tiga sotilgan tayyor mahsulotlarning puli kelib tushdi. Shuningdek, “XALQ UChUN XIZMAT” XKga tuzilgan shartnoma qiymatining (shartnoma qiymati – 50 000 000 so‘m) 15 foizi miqdorida bo‘nak o‘tkazib berildi.

6. 15 yanvarda “XALQ UChUN XIZMAT” xususiy korxonasidan 50 000 000 so‘mlik xom-ashyo va materiallar olindi.

7. 17 yanvarda ish haqi tarqatish maqsadida hisob-kitob scho‘tidan naqd pul mablag‘lari olindi. 18 yanvarda kassadan ish haqi to‘liq tarqatildi.

8. 18 yanvarda xizmat safariga yuborilgan xodim avans hisoboti topshirdi. Avans hisobotiga ko‘ra xodim tomonidan sarflangan pul mablag‘lari 1 600 000 so‘mni tashkil etib, qilingan xarajatlar korxonada urnatilgan me’yorlarga mos kelishi bois, berilgan avans to‘liq hisobga olinib, ortiqcha xarajatlar tan olindi. Xizmat safari xarajatlari sotish xarajatlari sifatida hisobga olinadi.

9. Asosiy ishlab chiqarishga mahsulot ishlab chiqarish uchun 118 690 000 so‘mlik materiallar sarflandi.

10. MChJ xodimlariga ish haqi hisoblandi:

- Asosiy ishlab chiqarish xodimlariga – 49 700 000 so‘m;
- Ma’muriy xodimlarga – 12 400 000 so‘m;
- Ish haqiga nisbatan 12 % yagona ijtimoiy to‘lov hisoblang
- Hisoblangan ish haqidan daromad solig‘i (12 foizli yagona stavka bo‘yicha) va ish haqiga nisbatan 0,1 % shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisob raqamiga (ShJBPH) ajratma hisoblang.

11. MChJning asosiy vositalariga quyidagicha eskirish hisoblangan:

- Bino – 2 125 000 so‘m;
- Tikuv dastgohlari – 1 500 625 so‘m;
- Mebel va ofis jihozlari – 298 750 so‘m.

12. Tuman elektr ta’minoti korxonasidan scho‘t-faktura taqdim etildi. Unga ko‘ra is’temol qilingan energiya miqdori 300 000 so‘mni tashkil etadi. Elektr energiya xarajatlari 80 % i ishlab chiqarish va 20 foizi ma’muriy xarajatlar sifatida tan olindi.

13. MChJ hisobot davrida ishlab chiqarish faoliyatidan olingan tayyor mahsulotlarni haqiqiy tannarxida omborga qabul qildi.

14. MChJda jami ishlab chiqarilgan mahsulotlar haqiqiy tannarxida sotishga chiqarildi va “PARVINA SAVDO” MChJga shartnoma asosida jami ishlab chiqarilgan mahsulotlar 320 000 000 so‘mga sotildi. Shartnoma bo‘yicha “PARVINA SAVDO” MChJ shartnoma qiymatini to‘liq to‘lab berdi.

15. MChJ yagona soliq to‘lovchisi hisoblanadi. Belgilangan soliq stavkasi – 5%.

**Topshiriqlar:**

1. Xo‘jalik mablag‘lari va mablag‘lar manbalarini turkumlang va hisobot davri boshiga buxgalteriya balansini tuzing:

**"YULDUZ" MChJning buxgalteriya balansi**
**(20... yil 1 yanvar holatiga)**

| Aktiv | Hisobot davri boshiga | Hisobot davri oxiriga | Passiv | Hisobot davri boshiga | Hisobot davri oxiriga |
|---|---|---|---|---|---|
| **I. Uzoq mud. aktivlar** | | | **I. O'z manbalari** | | |
| | | | | | |
| | | | | | |
| | | | | | |
| | | | | | |
| **I bo'lim jami** | | | **I bo'lim jami** | | |
| **II Joriy aktivlar** | | | **II Majburiyatlar** | | |
| | | | | | |
| | | | | | |
| | | | | | |
| | | | | | |
| | | | | | |
| | | | | | |
| | | | | | |
| | | | | | |
| | | | | | |
| | | | | | |
| | | | | | |
| **II bo'lim jami** | | | **II bo'lim jami** | | |
| **B a l a n s** | | | **B a l a n s** | | |

2. Quyidagi memorial-order shaklida yuqoridagi xo'jalik operatsiyalarini hisobga oling va guruhlashtiring:

**Memorial-order №1**
**"YULDUZ" MChJning xo'jalik operatsiyalarini ro'yxatga olish daftari**
**(yanvar oyi uchun)**

| № | Sana | Asos bo'luvchi hujjat | Xo'jalik operatsiyasining mazmuni | Summa | Scho'tlar aloqasi | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | Debet | Kredit |
| | | | | | | |
| | | | | | | |
| | | | | | | |
| | | | | | | |
| | | | | | | |
| | | | | | | |
| | | | | | | |
| | | | | | | |
| | | | | | | |
| | | | | | | |
| | | | | | | |
| | | | | | | |
| | | | | | | |
| | | | | | | |

**Tegishli sintetik scho'tlarda xo'jalik muomilalarini guruhlash**

| № | Scho't № | Scho'tlar nomi | Summa | |
|---|---|---|---|---|
| | | | Debet | Kredit |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |

3. Hisobot davri uchun oborot vedomostini tuzing:

**OBOROT VEDOMOSTI**

| № | Scho‘t | Scho‘tlar nomi | Oy boshiga qoldiq (01.01.20...) | | Oborot | | Oy oxiriga qoldiq (31.01.20...) | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | JAMI: | | | | | | |

4. Bosh daftarda tegishli sintetik scho‘tlarni oching va boshlang‘ich qoldiqlarni o‘tkazing hamda oborot vedomostidan yanvar oyidagi scho‘tlar bo‘yicha oborotlarni va oxirgi qoldiqlarni aniqlang.

## BOSH DAFTAR

| | № | | № | | № | | № | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Qoldiq | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| Yanvar | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| Qoldiq | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |

| | № | | № | | № | | № | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Qoldiq | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| Yanvar | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| Qoldiq | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |

| | № | | № | | № | | № | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Qoldiq | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| Yanvar | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| Qoldiq | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |

| | № | | № | | № | | № | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Qoldiq | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| Yanvar | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| Qoldiq | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |

| | № | | № | | № | | № | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Qoldiq | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| Yanvar | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| Qoldiq | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |

| | № | | № | | № | | № | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Qoldiq | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| Yanvar | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| Qoldiq | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |

| | № | | № | | № | | № | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Qoldiq | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| Yanvar | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| Qoldiq | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |

| | № | | № | | № | | № | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Qoldiq | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| Yanvar | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| Qoldiq | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |

| | № | | № | | № | | № | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Qoldiq | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| Yanvar | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| Qoldiq | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |

| | № | | № | | № | | № | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Qoldiq | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| Yanvar | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| Qoldiq | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |

| | № | | № | | № | | № | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Qoldiq | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| Yanvar | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| Qoldiq | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |

| | № | | № | | № | | № | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Qoldiq | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| Yanvar | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| Qoldiq | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |

5. Hisobot davri oxiriga buxgalteriya balansini tuzing (Buxgalteriya balansi 1-sonli shakl yuqorida 1-topshiriqda keltirilgan).

2. “FAYZ” xususiy korxonasi (XK) mahsulot ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxona hisoblanadi. XKda hisobot davri boshiga quyidagi xo‘jalik mablag‘lari va mablag‘lar manbalari mavjud:

Asosiy vositalar – 80 200 000 so‘m, Ustav kapitali – 64 700 000 so‘m, Taqsimlanmagan foyda – 7 200 000 so‘m, Xaridor va buyurtmachilarning qarzi – 38 000 000 so‘m, Asosiy vositalarga hisoblangan eskirish – 24 200 000 so‘m, Materiallar – 17 200 000 so‘m, Budjetga soliqlar bo‘yicha qarzlar – 1 580 000 so‘m, Davlatning maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarz – 1 200 000 so‘m, Qisqa muddatli bank krediti – 50 000 000 so‘m, Mehnat haqi bo‘yicha qarz – 32 548 000 so‘m, Hisob-kitob scho‘ti – 73 828 000 so‘m, Hisoblangan foizlar – 1 000 000 so‘m, Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilardan qarzdorlik – 26 800 000 so‘m.

“FAYZ” XK ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo‘lib, hisobot oyida quyidagi xo‘jalik muomalalari sodir bo‘lgan (shartli ravishda):

1. 2019 yil 3 yanvarda Xaridolardan sotilgan tayyor mahsulotlarning puli kelib tushdi 38 000 000 so‘m.

2. XKni budjetga soliqlar bo‘yicha qarzlari 1 580 000 so‘m 2019 yil 5 yanvarda tuman soliq inspektsiyasiga o‘tkazib berildi. Shuningdek, davlatning maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarz 1 200 000 so‘m ham shu sanada o‘tkazib berildi.

3. 2019 yil 6 yanvarda mol yetkazib beruvchilardan 45800 000 so‘mlik materiallar olindi. 2019 yil 7 yanvarda ishlab chiqarishga 47 000 000 so‘mlik materiallar berildi.

4. 2019 yil 6 yanvarda Mol yetkazib beruvchilardan bo‘lgan qarzdorlik hisob-kitob scho‘tidan o‘tkazib berildi – 23 500 000 so‘m. Shuningdek, shu sanada boshqa mol yetkazib beruvchilarga 5 520 000 so‘m bo‘nak ham o‘tkazib berildi.

5. Hisob-kitob scho‘tidan 2019 yil 17 yanvarda ish haqi uchun 32 548 000 so‘m naqd pul olindi. Kassadan to‘lov vedomostiga asosan 2019 yil 18 yanvarda ish haqi tarqatildi.

6. XKning qisqa muddatli bank kreditining bir qismi 10 000 000 so‘m va kredit foizi 1 000 000 so‘m 2019 yil 8 yanvarda hisob-kitob scho‘tidan to‘landi.

7. Xaridor va buyurtmachilarga 2019 yil 17 yanvarda 27 000 000 so‘m miqdorida bo‘nak olindi.

8. Ish haqi hisoblandi (26.01.2019 yil):

- asosiy ishlab chiqarish xodimlariga - 35 000 000 so‘m;
- ma’muriy boshqaruv xodimlariga – 6 200 000 so‘m;
- hisoblangan ish haqiga nisbatan yagona ijtimoiy to‘lov (YaIT-12%) hisoblandi (o‘zingiz hisoblang va hisobga oling);
- ishlarga hisoblangan ish haqidan daromad solig‘i hisoblandi (o‘zingiz hisoblang va hisobga oling);
- hisoblangan ish haqiga nisbatan 1 % kasaba uyushmasiga ajratma hisoblandi (o‘zingiz hisoblang va hisobga oling);
- hisoblangan ish haqiga nisbatan 0,1 % shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisob raqamiga ajratma hisoblang.

9. Asosiy vositalarga eskirish hisoblandi (2019 yil 29 yanvar):

- asosiy ishlab chiqarishda foydalanilayotgan asosiy vositalarga – 5 614 000 so‘m;
- ma’muriy maqsadlarda foydalanayotgan asosiy vositalarga – 2 406 000 so‘m.

10. Qisqa muddatli bank krediti bo‘yicha foiz hisoblandi: 40000,0*24%:12 oy = 800 000 so‘m.

11. XK hisobot davrida ishlab chiqarish faoliyatidan olingan tayyor mahsulotlarni haqiqiy tannarxida omborga qabul qildi (2019 yil 30 yanvar).

12. XK hisobot davrida ishlab chiqarilgan mahsulotlari haqiqiy tannarxida sotishga chiqarildi va xaridorlarga shartnoma asosida mahsulotlar 180 000 000 so‘mga sotildi.

13. Tayyor mahsulotlarni realizatsiya qilish jarayonida “Asilbek-serves” xususiy korxonasi xizmatlaridan foydalanildi hamda xizmat haqi 2 800 000 so‘m sifatida hisobga olindi va to‘lab berildi (2019 yil 30 yanvar).

14. XK yagona soliq to‘lovchisi hisoblanadi. Belgilangan soliq stavkasi – 4 %.

**Talab qilinadi:**

1. Xo‘jalik mablag‘lari va mablag‘lar manbalarini turkumlang va hisobot davri boshiga buxgalteriya balansini tuzing.
2. Yuqoridagi xo‘jalik operatsiyalarini buxgalteriya hisobining memorial-order shaklida hisobga oling va guruhlashtiring.
3. Hisobot davri uchun oborot vedomostini tuzing.
4. Bosh daftarda tegishli sintetik scho‘tlarni oching. Tegishli scho‘tlar bo‘yicha boshlang‘ich qoldiqlarni o‘tkazing. Oborot vedomostidan yanvar oyidagi scho‘tlar bo‘yicha oborotlarni va oxirgi qoldiqlarni aniqlang. Hisobot davri uchun moliyaviy natijalarni aniqlang.
5. Hisobot davri oxiriga buxgalteriya balansini tuzing.

### 3. Buxgalteriya hisobining jurnal-order shakli

1. Kassa operatsiyalari bilan bog‘liq xo‘jalik operatsiyalarini buxgalteriya hisobining jurnal-order shaklida hisobga olish:

1. 29.03.20__ ga kassadagi qoldiq – 2000 so’m. Korxonada mart oyida kassa operatsiyalari bilan bog‘liq quyidagi xo‘jalik operatsiyalari sodir bo‘lgan:

- korxona mahsulotlarini sotishdan kassaga naqd pul kirim qilindi – 5 000 000 so’m;
- kirim qilingan naqd pul mablag’lari kassadan hisob-kitob scho‘tiga topshirildi – 5 000 000 so’m;
- korxona ishchi, xizmatchilariga mart oyi uchun ish haqi tarqatish maqsadida hisob-kitob scho‘tidan naqd pul olindi – 27 000 000 so’m;
- №2-vedomost bilan ish haqi tarqatildi – 27 000 000 so’m.

**Talab qilinadi:**

1. Yuqoridagi kassa operatsiyalari bilan bog‘liq xo‘jalik operatsiyalari bo’yicha kassa kirim va chiqim orderlarini to’lg’azing.
2. Tuzilgan kassa kirim va chiqim orderlariga asoslanib kassir hisobotini tuzing.
3. Kassa operatsiyalari bilan bog‘liq xo‘jalik operatsiyalarini 1-jurnal-order va 1-vedomost shakllarida hisobga oling.

**1-jurnal-order**
**20... yil Mart oyi uchun**
**5010 – “Milliy valyutadagi pul mablag‘lari” scho‘tining krediti va quyidagi scho‘tlar debeti bo‘yicha**

so‘m

| Sana | 5010 scho‘t kreditlanganda quyidagi scho‘tlar debetlanadi | | | | | | Jami |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| Jami | | | | | | | |

**1-vedomost**

**5010 – "Milliy valyutadagi pul mablag'lari" scho'tining debeti quyidagi scho'tlarning krediti bo'yicha**

**29.03.20__ ga kassadagi qoldiq – 2000 so'm**

so'm

| Sana | 5010 scho't kreditlanganda quyidagi scho'tlar debetlanadi | | | | | | Jami |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| Jami | | | | | | | |

2. 08.06.20___ ga kassadagi qoldiq – 1000 so'm. Korxonada mart oyida kassa operatsiyalari bilan bog'liq quyidagi xo'jalik operatsiyalari sodir bo'lgan:

- hisob-kitob varag'idan xizmat safari uchun naqd pul olindi – 700000 so'm;
- korxona xodimi R.Asadovga xizmat safari uchun hisobi beriladigan pul berildi – 700000 so'm;
- korxona ishchi, xizmatchilariga avgust oyi uchun ish haqi tarqatish maqsadida hisob-kitob varag'idan naqd pul olindi – 10 000 000 so'm;
- №5-vedomost bilan ish haqi tarqatildi – 10 000 000 so'm;
- moddiy javobgar shaxs tomonidan kamomad summasi kassaga to'landi – 100000 so'm;
- kassaga to'langan kamomad summasi hisob-kitob varag'iga kiritildi – 100000 so'm.

**Talab qilinadi:**

1.Yuqoridagi kassa operatsiyalari bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalari bo'yicha kassa kirim va chiqim orderlarini to'lg'azing.

2.Tuzilgan kassa kirim va chiqim orderlariga asoslanib kassir hisobotini tuzing.

3. Kassa operatsiyalari bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalarini 1-jurnal-order va 1-vedomost shakllarida hisobga oling.

3. Quyida "UMID-NIHOLLARI" xususiy korxonasining 01.01.20... yil holatiga xo'jalik mablag'lari va mablag'lar manbalari keltirilgan:

| № | Scho'tlarning nomi | Summa, ming so'm | Xo'jalik mablag'lari | Mablag'lar manbalari |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Asosiy vositalar | 99 000 000 | | |
| 2 | Asosiy vositalarning eskirishi | 25 000 000 | | |
| 3 | Mol yetkazib beruvchilarga qarzdorlik | 9 500 000 | | |
| 4 | Materiallar | 6 800 000 | | |
| 5 | Tayyor mahsulot (mebellar to'plami) | 22 500 000 | | |
| 6 | Kassa | 1000 | | |
| 7 | Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik | 1 200 000 | | |
| 8 | Hisob-kitob scho'ti | 36 000 000 | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 9 | Ustav kapitali | 54 601 000 | | |
| 10 | Qisqa muddatli bank kreditlari | 50 000 000 | | |
| 11 | Xizmat safari uchun berilgan bo'naklar | 5 000 000 | | |
| 12 | Mehnatga haqi bo'yicha qarzdorlik | 8 000 000 | | |
| 13 | Xaridorlardan olinadigan scho'tlar | 4 800 000 | | |
| 14 | Taqsimlanmagan foyda | 25 800 000 | | |
| | Jami | X | | |

**Talab qilinadi:**

1. Yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlarni xo'jalik mablag'lari va mablag'lar manbalariga ajrating.
2. Xo'jalik mablag'larini uzoq muddatli va joriy mablag'larga, mablag'lar manbalarini esa xususiy kapital va majburiyatlarga ajratgan holda hisobot davri boshiga boshlang'ich balans tuzing.

"UMID-NIHOLLARI" xususiy korxonasida kassa muomalalarini hisobga olishga doir quyidagi xo'jalik operatsiyalari sodir bo'lgan:

1. Korxona ishchi xodimlariga hisobot oyi boshiga ish haqi ko'rinishida 8 000 000 so'mlik qarzdorlik mavjud bo'lib, ushbu qarzdorlikni to'lash uchun 20... yil 12 yanvar kuni pul chekiga asosan hisob-kitob scho'tidan 8 000 000 so'm naqd pul mablag'lari olindi. 20... yil 13 yanvar kuni olingan naqd pul mablag'larining 7 500 000 so'mi to'lov vedomostiga asosan tarqatildi. 20... yil 15 yanvar kuni kassir kassa hisobotini qilib, kassa limitidan ortiqcha naqd pul mablag'larini hisob-kitob scho'tiga vaqtida olinmagan ish haqi sifatida topshirdi.

2. 20... yil 01 yanvar holatiga korxona omborida o'tkazilgan inventarizatsiya natijalariga ko'ra omborda 2 dona har birining qiymati 25 000 so'm bo'lgan idishlar kamomadi aniqlandi. Invetarizatsiya komissiyasining qaroriga ko'ra mazkur kamomad uchun ombor mudiri aybdor deb topildi. Ombor mudiri kamomad summasini 20... yil19 yanvar kuni naqd pulda to'ladi.

3. Korxona mebel mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo'lib, 20... yil 20 yanvarda o'z xodimiga ishlab chiqarish tannarxi 4 500 000 so'm bo'lgan mebellar to'plamini 5 000 000 so'mga naqd pul mablag'larini to'lash orqali sotdi. Kassadagi naqd pul mablag'lari kassa limitidan ortiqchasi hisob-kitob scho'tiga topshirildi.

4. Korxona ehtiyojlari uchun 20... yil 21 yanvar kuni pul chekiga asosan hisob-kitob scho'tida 500 000 so'm miqdorida naqd pul mablag'lari olindi. Shu kunning o'zida korxona xodimiga asosiy ishlab chiqarishda foydalanilayotgan uskunaga zarur bo'lgan ehtiyot qismni olib kelish uchun berildi. Korxona xodimi 20... yil 22 yanvar kuni uskunaga zarur bo'lgan ehtiyot qismni olib kelib berdi.

5. Korxona xodimlariga 14 yanvar "Vatan himoyachilari" kuni munosabati bilan 2 000 000 so'm miqdorida mukofot hisoblandi. Mukofot summasini berish uchun pul chekiga asosan naqd pul mablag'lari olindi. 20... yil 12 yanvar kuni mukofot summasi to'lov qaydnomasiga asosan tarqatildi.

6. Korxona xodimi chet elga xizmat safariga (malaka oshirish uchun) yuborilgan bo'lib, u 20... yil 27 yanvar kuni xizmat safaridan qaytib keldi. Xodim 20... yil 27 yanvar kuni avans hisoboti topshirdi. Xodimga 5 000 000 so'm miqdorida hisobi beriladigan pul mablag'lari berilgan bo'lib, topshirgan avans hisobotiga ko'ra xodim tomonidan foydalanilgan mablag'lar qiymati 4 900 000 so'mni tashkil qilgan. Xodim ishlatilmay qolgan naqd pul mablag'larini kassaga topshirdi. Kassa limitidan ortiqcha naqd pul mablag'lari hisob-kitob scho'tiga topshirildi.

Kassa limiti to'g'risidagi shartnomaga muvofiq kassa limiti 1000 so'm deb belgilangan.

**Talab qilinadi:**

1. Yuqoridagi kassa operatsiyalari bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalari bo'yicha kassa kirim va chiqim orderlarini to'lg'azing.
2. Tuzilgan kassa kirim va chiqim orderlariga asoslanib kassir hisobotini tuzing.
3. Kassa operatsiyalari bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalarini 1-jurnal-order va 1-vedomost shakllarida hisobga oling.
4. Hisobot davri oxiriga buxgalteriya balansini tuzing.

2. Hisob-kitob scho‘ti bo‘yicha xo‘jalik operatsiyalarini buxgalteriya hisobining jurnal-order shaklida hisobga olish:

1. “Ziyo” xususiy korxonasida 01.01.20... yil holatiga quyidagi scho‘tlarda qoldiqlar mavjud bo’lgan:

| № | Scho‘tlarning nomi | Saldo, ming so‘m | Balans | |
|---|---|---|---|---|
| | | | Aktiv | Passiv |
| 1 | Asosiy vositalar | 85000 | | |
| 2 | Asosiy vositalarning eskirishi | 49600 | | |
| 3 | Materiallar | 20665 | | |
| 4 | Budjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik | 500 | | |
| 5 | Xaridorlardan olinadigan scho‘tlar | 18 500 | | |
| 6 | Mehnatga haqi bo‘yicha qarzdorlik | 5 000 | | |
| 7 | Kassa | 100 | | |
| 8 | Taqsimlanmagan foyda | 18746 | | |
| 9 | Hisob-kitob scho‘ti | 34729 | | |
| 10 | Mol etkazib beruvchilarga qarzdorlik | 30 000 | | |
| 11 | To’lanadigan uzoq muddatli qarzlar-joriy qismi | 2 000 | | |
| 12 | Tayyor mahsulot | 6100 | | |
| 13 | Davlatning maqsadli fondlariga to‘lovlar | 2 000 | | |
| 14 | Ustav kapitali | 56198 | | |
| 15 | Qisqa muddatli bank kreditlari | 1050 | | |
| | **Balans** | | | |

“Ziyo” xususiy korxonasining hisob-kitob scho‘ti bo’yicha 1.01.20... yildan 31.01.20... yilgacha quyidagi xo’jalik muomalalari amalga oshirilgan:

| № | Xo’jalik operatsiyalari mazmuni | Summa, so’m | Scho‘tlar bog’lanishi | |
|---|---|---|---|---|
| | | | Debet | Kredit |
| 1 | Xaridorlar va buyurtmachilardan mahsulotlarning puli hisob-kitob scho‘tiga kelib tushdi | 12 000 000 | | |
| 2 | Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga hisob-kitob scho‘tidan pul o’tkazildi. | 17 000 000 | | |
| 3 | Xaridorlardan shartnoma qiymatining 15 foizi miqdorida bo’nak olindi | 3 000 000 | | |
| 4 | Kreditor qarz (uzoq muddatli ijaraning joriy qismi) hisob-kitob scho‘tidan to’landi. | 2 000 000 | | |
| 5 | Ish haqi uchun hisob-kitob scho‘tidan kassaga naqd pul olindi | 5 000 000 | | |
| 6 | Qisqa muddatli bank krediti hisob-kitob scho‘tidan qaytarildi. | 1 000 000 | | |
| 7 | Hisob-kitob scho‘tidan budjetga soliqlar bo’yicha qarz to’landi. | 500 000 | | |
| 8 | Yagona ijtimoiy to’lov summasi hisob-kitob scho‘tidan o’tkazib berildi. | 1 600 000 | | |
| 9 | Kasaba uyushmasi federatsiyasiga hisoblangan summa hisob-kitob scho‘tidan o’tkazildi. | 50 000 | | |

**Talab qilinadi:**

1. “Ziyo” xususiy korxonasining 01.01. 20... yil holatiga buxgalteriya balansini tuzing.
2. Yuqoridagi xo’jalik operatsiyalariga scho‘tlar bog’lanishini ko’rsating (buxgalteriya provodkasini tuzing).

3. Hisob-kitob scho'ti bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalarini 2-jurnal-order va 2-vedomost shakllarida hisobga oling.
4. "Ziyo" xususiy korxonasining 01.02. 20... yil holatiga buxgalteriya balansini tuzing.

2. "Xuvoydo" xususiy korxonasining quyida 01.01.20… yil holatiga xo'jalik mablag'lari va mablag'lar manbalari keltirilgan:

| № | Scho'tlarning nomi | Summa, ming so'm | Balans | |
|---|---|---|---|---|
| | | | Aktiv | Passiv |
| 1 | Asosiy vositalar | 136 000 000 | | |
| 2 | Asosiy vositalarning eskirishi | 75 000 000 | | |
| 3 | Mol yetkazib beruvchilarga qarzdorlik | 6 000 000 | | |
| 4 | Materiallar | 800 000 | | |
| 5 | Xaridorlardan olinadigan scho'tlar | 2 500 000 | | |
| 6 | Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik | 7 200 000 | | |
| 7 | Hisob-kitob scho'ti | 59 400 000 | | |
| 8 | Xizmat safari uchun berilgan bo'naklar | 6 000 000 | | |
| 9 | Ustav kapitali | 60 900 000 | | |
| 10 | Qisqa muddatli bank kreditlari | 50 000 000 | | |
| 11 | Tayyor mahsulot | 10 000 000 | | |
| 12 | Mehnatga haqi bo'yicha qarzdorlik | 8 000 000 | | |
| 13 | Taqsimlanmagan foyda | 6 800 000 | | |
| 14 | Davlatning maqsadli fondlariga to'lovlar | 800 000 | | |
| | **Balans** | X | | |

"Xuvoydo" xususiy korxonasida quyidagi xo'jalik operatsiyalari sodir bo'lgan:

1. 20... yil 2 yanvarda shartnomaga asosan "Jasmin-savdo" MChJdan 20 foiz miqdorida avans kelib tushdi.

2. Korxona xodimini xizmat safariga yuborish uchun korxona rahbarining bo'yrug'iga asosan 500 000 so'm miqdoridagi naqd pul mablag'i 20... yil 10 yanvarda hisob-kitob scho'tidan olindi.

3. Xodimlar ish haqisining 50 foizi plastik kartichkalarga o'tkazib to'lanishi sababli, 20... yil 12 yanvarda hisob-kitob scho'tidan 5530-"Boshqa maxsus scho't"ga ish haqining 50 % o'tkazildi.

4. 20... yil 20 yanvarda "Jasmin-savdo" MChJdan sotilgan tayyor mahsulotlarning puli 4 000 000 kelib tushdi.

5. 20... yil 22 yanvarda xaridorlardan hisob-kitob scho'tiga 6 500 000 so'm pul mablag'lari kelib tushdi. Shuningdek, "Alanga" MChJdan 2 000 000 so'm bo'nak to'lovlari kelib tushgan.

6. Korxona mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo'lib, 20... yil 22 yanvarda o'z xodimiga ishlab chiqarish tannarxi 2 000 000 so'm bo'lgan tayyor mahsulotini 3 000 000 so'mga naqd pul mablag'larini to'lash orqali sotdi. 20... yil 23 yanvarda kassadagi naqd pul mablag'lari kassa limitidan ortiqchasi hisob-kitob scho'tiga topshirildi.

7. 20... yil 27 yanvarda "Namuna" MChJdan bo'lgan 5 000 000 so'mlik qarzdorlik hamda "Uzoqbobo" xususiy korxonasidan bo'lgan 3 000 000 so'mlik qarzdorlik summalari maxsus scho'tlardan to'lab berildi.

**Talab qilinadi:**

1. Hisobot davri boshiga boshlang'ich balans tuzing. Korxonada sodir bo'lgan valyuta operatsiyalari bilan bog'liq muomalalarni hisob registrlarida aks ettiring.
3. Hisob-kitob scho'ti bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalarini 2-jurnal-order va 2-vedomost shakllarida hisobga oling.
4. "Xuvoydo" xususiy korxonasining 01.02. 20... yil holatiga buxgalteriya balansini tuzing.

## 13-MAVZU. MOLIYAVIY HISOBOT
(6 soat)

### 13.1. Moliyaviy hisobot, tuzish va taqdim etish
(4 soat)

### Moliyaviy hisobotning mohiyati, tarkibi va normativ-huquqiy asoslari
(2 soat)

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Buxgalteriya hisobotini ta'riflang.
2. Buxgalteriya hisobotlarining turlari, mohiyati va ahamiyati nimadan iborat?
3. Yillik buxgalteriya hisobotining tarkibi qanday?
4. Buxgalteriya hisobotlari qanday normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi?
5. Buxgalteriya hisobotiga qanday talablar qo'yiladi?
6. Buxgalteriya hisobotlari qanday mezonlar bo'yicha turkumlanadi?
7. Moliyaviy hisobotni e'lon qilish mezonlari qanday?
8. Moliyaviy hisobotga tushuntirish xati nima?

### TEST TOPSHIRIQLARI

**1. Qaysi javobda buxgalterlik (moliyaviy) hisobot ta'rifi to'g'ri berilgan?**

A) Xo'jalik mablag'lari (aktivlar), ularning manbalari (passivlar) va mablag'larning kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonidagi doiraviy aylanishi hamda faoliyat natijalari

B) Bu hisobot davri uchun korxona faoliyatining natijalari, tegishli tarzda tasdiqlangan shakllarda taqdim etiladigan, o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar to'plami

C) Xo'jalik mablag'larining tarkibi, joylanishi, harakati va ularning vujudga kelish manbalaridagi hamda maqsadli tayinlanishidagi o'zgarishlarni bir-biriga solishtirib, ma'lum bir sanaga qiymat ifodasida umumlashtirilgan holda aks ettirish usuli

D) Xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan ma'lum vaqt oralig'ida amalga oshirilgan xo'jalik muomalalari to'g'risidagi axborotlarni tegishli hisob registrlarida umumlashtirish

**2. Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonunga muvofiq moliyaviy hisobot tarkibi va mazmunini kim belgilaydi?**

A) Moliya Vazirligi
B) Davlat Soliq Qo'mitasi
C) Vazirlar Mahkamasi
D) Adliya Vazirligi

**3. Buxgalteriya hisoboti qanday maqsadlar uchun tuziladi?**

A) Moliyaviy natijalarni aniqlash uchun tuziladi
B) Xo'jalikning ichki imkoniyatlarini aniqlash va iqtisodiy tahlil qilish, moliyaviy ahvolini aniqlash maqsadlari uchun tuziladi
C) Xo'jalik faoliyatini iqtisodiy axborotlarni aniqlash maqsadida
D) Xo'jalik mablag'lari va manbalarining holatini aniqlash maqsadida

**4. Xo'jalik yurituvchi sub'ektning hisobotlari qanday mezonlar bo'yicha turkumlanadi?**

A) Ma'lumot hajmiga ko'ra, tashqi va ichki hisobotlar
B) Ma'lumot hajmiga ko'ra, tuzilish maqsadiga ko'ra va davriyligi bo'yicha
C) Ma'lumot hajmiga ko'ra, tuzilish maqsadiga ko'ra va taqqoslanuvchanligi bo'yicha
D) Tuzilish maqsadiga ko'ra, davriyligi va taqqoslanuvchanligi bo'yicha

**5. Buxgalteriya hisobotlari ma'lumotlar hajmiga ko'ra qanday turkumlanadi?**

A) Qisman va umumiy hisobotlar
B) Tashqi va ichki hisobotlar
C) Davriy va yillik hisobotlar

D) Xususiy va yillik hisobotlar

**6. Buxgalteriya hisobotlari qamrab oladigan davrlar bo'yicha qanday turkumlanadi?**

A) Xususiy va yillik hisobotlar

B) Xususiy va umumiy hisobotlar

C) Tashqi va ichki hisobotlar

D) Davriy va yillik hisobotlar

**7. Buxgalteriya hisobotlari tuzilish maqsadlariga ko'ra qanday turkumlanadi?**

A) Davriy va yillik hisobotlar

B) Xususiy va umumiy hisobotlar

C) Tashqi va ichki hisobotlar

D) Xususiy va yillik hisobotlar

**8. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuniga muvofiq moliyaviy hisobotning hisobot davri ............. ga qadar bo'lgan kalendar yil deb belgilangan. Nuqtalar o'rniga to'g'ri keluvchi javobni tanlang?**

A) 1-yanvardan 31 dekabrgacha

B) 1-sentyabrdan 31 maygacha

C) 1-yanvardan 31-martgacha

D) 1-apreldan 31-dekabrgacha

**9. Qaysi javobda O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuniga muvofiq xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan yillik moliyaviy hisobotlar taqdim etiladigan organlar to'liq berilgan?**

A) Soliq organlariga; Davlat statistika organlariga; Ta'sis hujjatlariga muvofiq mulkdorlarga; qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa organlarga

B) Soliq organlariga; Davlat statistika organlariga

C) Soliq organlariga; ta'sis hujjatlariga muvofiq mulkdorlarga; Moliya vazirligiga; Iqtisoiyot vazirligiga

D) Soliq organlariga; Davlat statistika organlariga; Davlat Bojxona qo'mitasiga

**10. Yillik buxgalteriya (moliyaviy) hisoboti qachon e'lon qilinadi?**

A) Hisobot yilidan keyingi yilning 1-mayidan kechiktirmasdan

B) Hisobot yilidan keyingi yilning 15-fevralidan kechiktirmasdan

C) Hisobot yilidan keyingi yilning birinchi oyining 15 sanasidan kechiktirmasdan

D) Hisobot yili yakunlangandan so'ng keyingi yilning 1-yanvaridan kechiktirmasdan

## AMALIY MASHQLAR

**1. Moliyaviy hisobotning mohiyati va ahamiyati**



**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga moliyaviy hisobotning mohiyati va ahamiyatini yozing va ularni tavsiflab bering.

## 2. Buxgalteriya hisobotlarining turkumlanishi




**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga buxgalteriya hisobotlarini turkumlash mezonlarini va turlarini yozing hamda izohlab bering.

## 3. Moliyaviy hisobot shakllarini tuzish

1. “FARAVON-TURMUSh” xususiy korxonasi (XK) mahsulot ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxona bo‘lib, u o‘z faoliyatini 2017 yil dekabr oyida boshlagan. XKda 2019 yil 01 yanvar holatiga quyidagi mablag‘lari va mablag‘lar manbalari mavjud bo‘lgan:

Asosiy vositalar – 215500,0 ming so‘m; Ustav kapitali – 175 000,0 ming so‘m, Taqsimlanmagan foyda – 42 000,0 ming so‘m, Materiallar – 12 000,0 ming so‘m, Budjetga soliqlar bo‘yicha qarzlar – 3 800,0 ming so‘m, Davlatning maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarz – 2 500,0 ming so‘m, Asosiy vositalar eskirishi – 64650,0 ming so‘m; Qisqa muddatli bank krediti – 60 000,0 ming so‘m, Xaridor va buyurtmachilarning qarzi – 27500,0 ming so‘m, Mehnat haqi bo‘yicha qarz – 29230,0 ming so‘m, Hisob-kitob scho‘ti – 123380,0 ming so‘m, To‘lanadigan foizlar – 1 200,0 ming so‘m.

“FARAVON-TURMUSh” XKning 2019 yil yanvar oyidagi moliyaviy-xo‘jalik faoliyatida quyidagi xo‘jalik operatsiyalari sodir bo‘lgan:

1. 2019 yil 3 yanvarda Xaridolardan sotilgan tayyor mahsulotlarning puli kelib tushdi 27 500 000 so‘m.
2. XKni budjetga soliqlar bo‘yicha qarzlari 3 800 000 so‘m 2019 yil 5 yanvarda tuman soliq inspektsiyasiga o‘tkazib berildi. Shuningdek, davlatning maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarz 2 500 000 so‘m ham shu sanada o‘tkazib berildi.
3. XKning qisqa muddatli bank kreditining bir qismi 5 000 000 so‘m va kredit foizi 1 200 000 so‘m 2019 yil 7 yanvarda hisob-kitob scho‘tidan to‘landi. 2019 yil 10 yanvarda Yanvar oyi uchun qisqa muddatli bank krediti bo‘yicha 1 100 000 so‘m foiz hisoblandi.
4. 2019 yil 10 yanvarda hisob-kitob scho‘tidan bankdagi maxsus scho‘tga ish haqi ko‘rinishidagi majburiyatning 50 % miqdoridagi pul mablag‘lari plastik kartochkalarga taqsimot qilish maqsadida o‘tkazildi. 2019 yil 11 yanvarda maxsus scho‘tdagi pul mablag‘lari plastik kartochkalarga taqsimot qilindi.
5. 2019 yil 6 yanvarda mol yetkazib beruvchilarga shartnoma qiymatining 15 % miqdorida avans 9 000 000 so‘m berildi. 2019 yil 7 yanvarda mol yetkazib beruvchilardan 60 000 000 so‘mlik

materiallar olindi. Shundan so'ng, mol yetkazib beruvchilarga berilgan avans summasi hisobga olindi. 2019 yil 10 yanvarda ombordan ishlab chiqarishga 67 500 000 so'mlik materiallar berildi.

6. Hisob-kitob scho'tidan 2019 yil 17 yanvarda ish haqi uchun naqd pul olindi. Kassadan to'lov vedomostiga asosan 2019 yil 18 yanvarda ish haqi tarqatildi.

7. Ish haqi hisoblandi (26.01.2019 yil):

- asosiy ishlab chiqarish xodimlariga - 62 000 000 so'm;
- ma'muriy boshqaruv xodimlariga – 15 000 000 so'm.
- hisoblangan ish haqiga nisbatan yagona ijtimoiy to'lov (YaIT-12%) hisoblandi (o'zingiz hisoblang va hisobga oling);
- ishlarga hisoblangan ish haqidan daromad solig'i hisoblandi (o'zingiz hisoblang va hisobga oling);
- hisoblangan ish haqiga nisbatan 1 % kasaba uyushmasiga ajratma hisoblandi (o'zingiz hisoblang va hisobga oling).
- hisoblangan ish haqiga nisbatan 0,1 % shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob raqamiga ajratma hisoblandi (o'zingiz hisoblang va hisobga oling).

8. XKning asosiy vositalariga Yanvar oyi uchun eskirish hisoblandi (2019 yil 29 yanvar):

- asosiy ishlab chiqarish faoliyatida foydalanayotgan asosiy vositalarga – 8 250 000 so'm;
- ma'muriy maqsadlarda foydalanayotgan asosiy vositalarga – 1 200 000 so'm.

9. XK hisobot davrida ishlab chiqarish faoliyatidan olingan tayyor mahsulotlarni haqiqiy tannarxida omborga qabul qildi (2019 yil 30 yanvar).

10. Xaridor va buyurtmachilardan 2019 yil 26 yanvarda 15 000 000 so'm miqdorida bo'nak olindi. 2019 yil 28 yanvarda XK hisobot davrida ishlab chiqarilgan mahsulotlari haqiqiy tannarxida sotishga chiqarildi va 3800 dona mahsulotlar xaridorlarga shartnoma asosida bir birligining qiymati 45000 so'mdan yetkazib berildi. Tayyor mahsulotlarni yetkazib berishda "Asilbek-serves" xususiy korxonasi xizmatlaridan foydalanildi hamda xizmat haqi 5 000 000 so'm sifatida hisobga olindi va to'lab berildi (2019 yil 30 yanvar). Shundan so'ng xaridorlardan olingan avans summasi hisobga olindi (2019 yil 30 yanvar).

11. Tijorat banki bilan tuzilgan shartnomaga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar qiymati to'lov summasining 1 % miqdorida belgilangan. Hisobot oyining oxirida ko'rsatilgan xizmat haqi bank tomonidan undirib olingan.

12. 2019 yil 30 yanvarda XKning taqsimlanmagan foydasi ta'sischilar o'rtasida taqsimlandi (Ta'sischilarga dividend hisoblandi) – 12 000 000 so'm. To'lov manbaining o'zida dividend ko'rinishidagi daromadlaridan 5 % miqdorida foyda solig'i hisoblandi.

13. XK yagona soliq to'lovchisi hisoblanadi. Soliq summasi mahsulot sotishdan olingan yalpi tushumdan hisoblanadi. Belgilangan soliq stavkasi – 4 %.

**Talab qilinadi:**

1. "FARAVON-TURMUSh" XKning xo'jalik mablag'lari va mablag'lar manbalarini turkumlang va hisobot davri boshiga buxgalteriya balansini tuzing.
2. Sodir bo'lgan xo'jalik operatsiyalarini hisob registrlarida hisobga oling va guruhlashtiring.
3. Hisobot davri uchun oborot vedomostini tuzing.
4. Bosh daftarda tegishli sintetik scho'tlarni oching. Tegishli scho'tlar bo'yicha boshlang'ich qoldiqlarni o'tkazing. Oborot vedomostidan yanvar oyidagi scho'tlar bo'yicha oborotlarni va oxirgi qoldiqlarni aniqlang.
5. Hisobot davri oxiriga buxgalteriya balansini va "Moliyaviy natijalar to'g'risida"gi hisobotni tuzing.

2. "UMID-GULShANI" xususiy korxonasi (XK) keyim-kechak mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Xususiy korxonaning 2019 yil 01 yanvar holatiga quyidagi mablag'lari va mablag'lar manbalari mavjud bo'lgan:

Asosiy vositalar – 195 240 000 so'm, Ustav kapitali – 86 800 000 so'm, Taqsimlanmagan foyda – 10 350 000 so'm, Materiallar – 34 200 000 so'm, Budjetga soliqlar bo'yicha qarzlar – 1 900 000 so'm, Davlatning maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz – 1 800 000 so'm,

Yoqilg'i – 1 700 000 so'm, Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilardan qarzdorlik – 5 500 000 so'm, Mehnat haqi bo'yicha berilgan bo'naklar – 12 000 000 so'm, Rezerv kapitali – 6 500 000 so'm, Asosiy vositalarga hisoblangan eskirish – 95 500 000 so'm, Qisqa muddatli bank krediti – 120 000 000 so'm, Kassadagi pul mablag'lari – 5 000 so'm, To'lanadigan dividendlar – 8 500 000 so'm, Qisqa muddatli qarzlar – 12 000 000 so'm, Mehnat haqi bo'yicha qarz – 18 000 000 so'm, Hisob-kitob scho'ti – 123 705 000 so'm.

"UMID-GULShANI" xususiy korxonasining 2019 yil yanvar oyidagi moliyaviy-xo'jalik faoliyatida quyidagi xo'jalik operatsiyalari sodir bo'lgan:

1. 2019 yil 2 yanvarda mol yetkazib beruvchilardan 50 000 000 so'mlik materiallar olindi. 2019 yil 20 yanvarda mazkur materiallar qiymati to'lab berildi.
2. Xususiy korxonani budjetga soliqlar bo'yicha qarzlari 1 900 000 so'm 2019 yil 5 yanvarda tuman soliq inspektsiyasiga o'tkazib berildi. Shuningdek, davlatning maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz 1 800 000 so'm ham shu sanada o'tkazib berildi.
3. 2019 yil 6 yanvar kuni mol yetkazib beruvchilar va pudratchilardan bo'lgan 5 500 000 so'mlik qarzdorlik hisob-kitob scho'tidan to'lab berildi.
4. Xususiy korxonaning qisqa muddatli bank kreditlarining bir qismi 12 000 000 so'm 2019 yil 10 yanvarda hisob-kitob scho'tidan to'landi.
5. Qisqa muddatli bank krediti bo'yicha 3 000 000 so'm foiz hisoblandi va hisob-kitob scho'tidan o'tkazib berildi.
6. 2019 yil 12 yanvarda ishlab chiqarishga 69 000 000 so'mlik materiallar berildi.
7. Hisob-kitob scho'tidan 2019 yil 18 yanvarda ish haqi va xizmat safari uchun avans olindi - 19 000 000 so'm.
8. Kassadan to'lov vedomostiga asosan 2019 yil 19 yanvarda 18 000 000 so'm ish haqi tarqatildi. Hamda 1 000 000 so'm xizmat safari uchun avans berildi.
9. Ish haqi hisoblandi (26.01.2019 yil):
   - asosiy ishlab chiqarish xodimlariga - 30 000 000 so'm;
   - ma'muriy boshqaruv xodimlariga – 8 000 000 so'm.
   - hisoblangan ish haqiga nisbatan yagona ijtimoiy to'lov (YaIT-12%) hisoblandi (o'zingiz hisoblang va hisobga oling);
   - ishlarga hisoblangan ish haqidan daromad solig'i hisoblandi (o'zingiz hisoblang va hisobga oling);
   - hisoblangan ish haqiga nisbatan 1 % kasaba uyushmasiga ajratma hisoblandi (o'zingiz hisoblang va hisobga oling).
   - hisoblangan ish haqiga nisbatan 0,1 % shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob raqamiga ajratma hisoblang.
10. 2019 yil 28 yanvar kuni hisob-kitob scho'tidan to'lanadigan dividendlar uchun 8 500 000 so'm naqd pul olindi. Shu kunning o'zida kassadan dividendlar tarqatildi.
11. Asosiy vositalarga eskirish hisoblandi (2019 yil 29 yanvar):
   - asosiy ishlab chiqarishda foydalanilayotgan asosiy vositalarga – 7 400 000 so'm
   - ma'muriy maqsadlarda foydalanayotgan asosiy vositalarga – 1 700 000 so'm.
12. Hisob-kitob scho'tidan 2019 yil 30 yanvar kuni qisqa muddatli qarzlar to'lab berildi.
13. Xususiy korxona hisobot davrida ishlab chiqarish faoliyatidan olingan tayyor mahsulotlarni haqiqiy tannarxida omborga qabul qildi (2019 yil 30 yanvar).
14. Xususiy korxonada o'tkazilgan inventarizatsiya ma'lumotlariga ko'ra kassada 5000 so'm naqd pul kamomadi aniqlandi. Aniqlangan kamomad summasi moddiy javobgar shaxs, kassir A.Safarovdan naqd pulda undirishga qaror qilindi (2019 yil 31 yanvar).
15. Xususiy korxona hisobot davrida ishlab chiqarilgan mahsulotlari haqiqiy tannarxida sotishga chiqarildi va xaridorlarga shartnoma asosida mahsulotlarni jami 120 000 000 so'mga realizatsiya qildi.
16. Xaridorlardan 2019 yil 31 yanvar kuni sotilgan tayyor mahsulotlarning bir qismi 60 000 000 so'm hisob-kitob scho'tiga kelib tushdi.

17. Xususiy korxona yagona soliq to‘lovchisi hisoblanadi. Belgilangan soliq stavkasi – 4 %.

**Talab qilinadi:**

1. “UMID-GULShANI” xususiy korxonasining xo‘jalik mablag‘lari va mablag‘lar manbalarini turkumlang va hisobot davri boshiga buxgalteriya balansini tuzing.
2 Yuqoridagi xo‘jalik operatsiyalariga buxgalteriya provodkalari tuzing va guruhlashtiring.
3. Hisobot davri uchun oborot vedomostini tuzing.
4. Bosh daftarda tegishli sintetik scho‘tlarni oching. Tegishli scho‘tlar bo‘yicha boshlang‘ich qoldiqlarni o‘tkazing. Oborot vedomostidan yanvar oyidagi scho‘tlar bo‘yicha oborotlarni va oxirgi qoldiqlarni aniqlang.
5. Hisobot davri oxiriga buxgalteriya balansini va “Moliyaviy natijalar to‘g‘risida”gi hisobotni tuzing.

## Moliyaviy hisobot shakllarini tuzish, taqdim etish va ularning o‘zaro bog‘liqligi (2 soat)

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Moliyaviy hisobotning qanday shakllari bor?
2. Buxgalteriya balansi va uni tuzish tartibini tushuntiring?
3. Buxgalteriya balansi ayrim moddalarining baholanishini shakllantirish tamoyillari qanday?
4. Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot va ularni shakllantirish tartibini aytib o‘ting?
5. Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot va uning ko‘rsatkichlarini tavsiflab bering?
6. Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot va uni tuzish tartibini tushuntiring?
7. Izohlar, hisob-kitoblar va moliyaviy hisobotga tushuntirishlar deganda nimani tushunasiz?
8. Moliyaviy hisobot shakllari qaysi vaqtlarda taqdim etiladi?
9. Moliyaviy hisobot shakllari kimga taqdim etiladi?
10. Moliyaviy hisobot shakllarini o‘zaro bog‘liqligini tushuntirib bering?

### TEST TOPSHIRIQLARI

**1. Yillik moliyaviy hisobot tarkibi to‘g‘ri berilgan javobni aniqlang?**

A) Buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot, pul oqimlari to‘g‘risida hisobot
B) Buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot, asosiy vositalar harakati to‘g‘risidagi hisobot, pul oqimlari to‘g‘risida hisobot, xususiy kapital to‘g‘risida hisobot
C) Buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot, pul oqimlari to‘g‘risida hisobot, xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot, izohlar, hisob-kitob va tushuntirishlar
D) Balans, asosiy vositalar harakati to‘g‘risidagi hisobot, pul oqimlari to‘g‘risida hisobot, izohlar, hisob-kitob va tushuntirishlar

**2. Yil yakuni bo‘yicha qanday balans tuziladi?**

A) Xotima
B) Yig‘ma
C) Joriy
D) Bo‘luvchi

**3. Buxgalteriya balanslari tuzilish shakliga ko‘ra:**

A) Ustav, noustav
B) Bir tomonlama, ikki tomonlama
C) Bir martalik, yig‘ma
D) Brutto-balans, netto-balans

**4. Buxgalteriya balansi aktiv qismida nimalar aks ettiriladi?**

A) Asosiy vositalar va joriy majburiyatlar
B) Uzoq muddatli aktivlar va xususiy kapital
C) Uzoq muddatli aktivlar va joriy aktivlar
D) O‘z mablag‘lari manbalari va majburiyatlar

**5. Buxgalteriya balansi passiv qismida nimalar aks ettiriladi?**

A) Asosiy vositalar va joriy majburiyatlar
B) Uzoq muddatli aktivlar va xususiy kapital
C) Uzoq muddatli aktivlar va joriy aktivlar
D) O'z mablag'lari manbalari va majburiyatlar

**6. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda qanday moliyaviy natija ko'rsatkichlari shakllantiriladi?**

A) Yalpi foyda, asosiy faoliyat foydasi, umumxo'jalik faoliyati foydasi, soliq to'langunga qadar foyda va sof foyda
B) Yalpi foyda, yalpi tushum, sotishdan olingan sof tushum, umumxo'jalik faoliyati foydasi, soliq to'langunga qadar foyda va sof foyda
C) Yalpi tushum, mahsulot sotishdan olingan sof tushum, yalpi foyda, asosiy faoliyat foydasi va sof foyda
D) Yalpi tushum, sotishdan olingan sof tushum, yalpi foyda, asosiy faoliyat foydasi, umumxo'jalik faoliyati foydasi va soliq to'langunga qadar foyda

**7. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotga ko'ra yalpi foyda qanday aniqlanadi?**

A) Mahsulot (ish, xizmat) sotishdan olingan sof tushumdan davr xarajatlarini chegirish lozim
B) Mahsulot (ish, xizmat) sotishdan olingan sof tushumdan sotilgan mahsulot (ish, xizmat) tannarxi va davr xarajatlarini chegirish lozim
C) Mahsulot (ish, xizmat) sotishdan olingan sof tushumdan sotilgan mahsulot (ish, xizmat) tannarxini chegirish lozim
D) Mahsulot (ish, xizmat) sotishdan olingan sof tushumdan hisoblangan soliq summasini chegirish lozim

**8. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotga ko'ra sof foyda qanday aniqlanadi?**

A) Asosiy faoliyat foydasidan davr xarajatlarini chegirib, asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini qo'shish lozim
B) Soliq to'langunga qadar foydadan hisoblangan foyda solig'i va boshqa soliqlarni chegirish kerak
C) Mahsulot (ish, xizmat) sotishdan olingan sof tushumdan sotilgan mahsulot (ish, xizmat) tannarxini chegirish lozim
D) Mahsulot (ish, xizmat) sotishdan olingan sof tushumdan hisoblangan soliq summasini chegirish lozim

**9. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotga ko'ra sof foyda qanday aniqlanadi?**

A) Asosiy faoliyat foydasidan davr xarajatlarini chegirib, asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini qo'shish lozim
B) Soliq to'langunga qadar foydadan hisoblangan foyda solig'i va boshqa soliqlarni chegirish kerak
C) Mahsulot (ish, xizmat) sotishdan olingan sof tushumdan sotilgan mahsulot (ish, xizmat) tannarxini chegirish lozim
D) Mahsulot (ish, xizmat) sotishdan olingan sof tushumdan hisoblangan soliq summasini chegirish lozim

**10. Korxona yillik moliyaviy hisobotni vakolatli organlarga qaysi muddatdan kechiktirmasdan taqdim etishi lozim?**

A) Hisobot yilidan keyingi yilning 15 yanvaridan kechiktirmasdan taqdim etishi kerak
B) Hisobot yilidan keyingi yilning 15 fevraligacha bo'lgan muddatda taqdim etilishi shart
C) Hisobot yilidan keyingi yilning 25 fevraligacha bo'lgan muddatda taqdim etilishi shart
D) Hisobot yilidan keyingi yilning 25 yanvaridan kechiktirmasdan taqdim etishi lozim

## AMALIY MASHQLAR

**1. Moliyaviy hisobot shakllari**

| Moliyaviy hisobot shakli | Moliyaviy hisobot shakliga izoh |
|---|---|
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |

**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga moliyaviy hisobot shakllarini yozing va ularni izohlab bering.

**2. Moliyaviy hisobotni taqdim etish va uni e'lon qilish**




**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga moliyaviy hisobot taqdim qilinadigan organlarni yozing va uni taqdim etish hamda e'lon qilish tartibini tushuntiring.

**3. Moliyaviy hisobotlarni tuzish va ularni taqdim qilish**

1. "ASILBEK-SERVIS" xususiy korxonasi (XK) mahsulot ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona bo'lib, u o'z faoliyatini 2017 yil dekabr oyida boshlagan. XKda 2019 yil 01 yanvar holatiga quyidagi mablag'lari va mablag'lar manbalari mavjud bo'lgan:

Ustav kapitali – 191 200 000 so'm, Asosiy vositalari – 188 600 000 so'm, Asosiy vositalar eskirishi – 62 400 000 so'm, Materiallar – 60 000 000 so'm, Mol yetkazib beruvchilar qarzi – 80 000 000 so'm; Taqsimlanmagan foyda – 34 500 000 so'm, Tayyor mahsulot – 16 000 000 so'm, Hisob-kitob scho'tidagi qoldiq – 132 000 000 so'm, Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarz – 27 000 000 so'm, Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz – 1 500 000 so'm.

"ASILBEK-SERVIS" xususiy korxonasi (XK)ning 2019 yil yanvar oyidagi moliyaviy-xo'jalik faoliyatida quyidagi xo'jalik operatsiyalari sodir bo'lgan:

“ASILBEK-SERVIS” XUSUSIY KORXONASINING 20__ YIL YANVAR OYI XO’JALIK MUOMALALARNI RO’YXATGA OLISH DAFTARI

| № | Muomala mazmuni | Summa, so‘m | Scho‘tlar aloqasi | |
|---|---|---|---|---|
| | | | Debet | Kredit |
| 1 | Mol yetkazib beruvchilarga o’tkazildi | 10 000 000 | | |
| 2 | Budjetga to’lovlar bo’yicha qarz o’tkazildi | 1 500 000 | | |
| 3 | Dekabr oyi uchun ish haqi olindi | 27 000 000 | | |
| 4 | Dekabr oyi uchun ish haqi tarqatildi | 26 000 000 | | |
| 5 | Vaqtida olinmagan ish haqi deponentga o’tkazildi | 1 000 000 | | |
| 6 | Deponentga o’tkazilga ish haqi hisob-kitob scho‘tiga topshirildi | 1 000 000 | | |
| 7 | Tayyor mahsulot tannarxi bo’yicha sotishga chiqarildi | 8 000 000 | | |
| 8 | Hisob-kitob scho‘tidan korxona ehtiyojlari uchun olindi | 1 000 000 | | |
| 9 | Ekspeditor S.Amanovga korxona ehtiyojlari uchun avans berildi. | 1 000 000 | | |
| 10 | Ta’minot tashkilotidan materiallar olindi | 28 000 000 | | |
| 11 | Ta’minot tashkilotiga sotib olingan materiallar haqi to’landi | 28 000 000 | | |
| 12 | Asosiy ishlab chiqarishga materiallar sarflandi | 65 500 000 | | |
| 13 | Sotilgan mahsulotlar xaridorlar tomonidan bozor bahosida qabul qilindi | 10 800 000 | | |
| 14 | Ekspeditor S.Amanov sotish xarajatlari uchun sarfladi | 1 000 000 | | |
| 15 | Xaridorlardan sotilgan mahsulotlarning puli kelib tushdi | 10 800 000 | | |
| 16 | Tayyor mahsulot tannarxi bo’yicha sotishga chiqarildi | 8 000 000 | | |
| 17 | Tayyor mahsulotlarni sotishdan naqd pul kirim qilindi | 12 200 000 | | |
| 18 | Mahsulotni naqd pulga sotishdan tushgan tushum hisob-kitob scho‘tiga topshirildi | 12 200 000 | | |
| 19 | Ish haqi hisoblandi:<br>a) asosiy ishlab chiqarishdagi ishchilarga<br>b) ma’muriy – boshqaruv xodimlariga<br>Jami: | <br>48 000 000<br>12 000 000<br>60 000 000 | | |
| 20 | Ish haqiga nisbatan Yagona ijtimoiy to’lov (12 %) hisoblandi:<br>a) asosiy ishlab chiqarishdagi ishchilarning ish haqiga nisbatan<br>b) ma’muriy – boshqaruv xodimlarining ish haqiga nisbatan<br>Jami: | | | |
| 21 | Ish haqidan daromad solig’i ushlandi:<br>a) Ishchilar<br>b) rahbarlar va xizmatchilarga<br>Jami: | | | |
| 22 | Ish haqidan kasaba uyushmasiga ajratma ushlandi (1%): | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | a) Ishchilar<br>b) rahbarlar va xizmatchilarga<br>Jami: | | | |
| 23 | Shaxsiy jamg'arib boriladigan pens hisob raqamiga ajratma (0,1%) hisoblandi:<br>a) Ishchilar<br>b) rahbarlar va xizmatchilarga<br>Jami: | | | |
| 24 | Ta'minot tashkilotidan olindi:<br>a) qurilish materiallari<br>b) ehtiyot qism<br>Jami: | 40 000 000<br>8 000 000<br>48 000 000 | | |
| 25 | Ta'minot tashkilotiga olingan material va ehtiyot qismlar haqi to'landi | 48 000 000 | | |
| 26 | Qisqa muddatli bank kreditlari olindi | 100 000 000 | | |
| 27 | Neftibazadan neft mahsulotlari olindi | 1 700 000 | | |
| 28 | Neftbazaga olingan neft mahsulotlari uchun to'landi | 1 700 000 | | |
| 29 | Omborxona qurilishi uchun materiallar sarflandi:<br>a) qurilish materiallari<br>b) ehtiyot qismlar<br>Jami: | 40 000 000<br>8 000 000<br>48 000 000 | | |
| 30 | Omborxona qurilishida xizmat ko'rsatgan chet tashkilotlarning to'lov talabnomasi aksiplandi | 7 000 000 | | |
| 31 | Omborxona qurilishida ishlayotgan ishchilarga ish haqi hisoblandi | 36 000 000 | | |
| 32 | Ish haqidan daromad solig'i (12%) ushlandi | | | |
| 33 | Omborxona qurilishida ishlayotgan ishchilarning ish haqiga nisbatan Yagona ijtimoiy to'lov (12%) hisoblandi | | | |
| 34 | Ish haqidan kasaba uyushmasiga ajratma ushlandi (1%) | | | |
| 35 | Shaxsiy jamg'arib boriladigan pens hisob raqamiga ajratma (0,1%) hisoblandi | | | |
| 36 | Mol yetkazib beruvchilardan materiallar olindi | 25 500 000 | | |
| 37 | Mol yetkazib beruvchilarga to'landi | 25 500 000 | | |
| 38 | Hisoblangan daromad solig'i budjetga o'tkazildi | | | |
| 39 | Ish haqiga nisbatan hisoblangan Yagona ijtimoiy to'lov to'landi | | | |
| 40 | Kasaba uyushmasiga hisoblangan ajratma o'tkazildi (1%) | | | |
| 41 | Shaxsiy jamg'arib boriladigan pens hisob raqamiga ajratma (0,1%) hisoblandi | | | |
| 42 | Hisob-kitob scho'tidan ish haqi ko'rinishida avans olindi | 10 000 000 | | |
| 43 | Ish haqi ko'rinishidagi avans tarqatildi | 10 000 000 | | |
| 44 | Qurib bitkazilgan omborxona balansga qabul qilindi | | | |
| 45 | Asosiy vositalarga eskirish hisoblandi:<br>a) asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalarga<br>b) ma'muriy maqsadlar uchun foydalanilayotgan | 10 200 000 | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | asosiy vositalarga<br>Jami: | 3 800 000<br>14 000 000 | | |
| 46 | Korxonaga tegishli yaroqsizligi sababli buzilgan bino hisobdan chiqarildi | 42 000 000 | | |
| 47 | Buzilgan binoning eskirishi ham hisobdan chiqarildi | 41 000 000 | | |
| 48 | Binoni buzishdan yaroqli qurilish materiallari olindi | 8 500 000 | | |
| 49 | Binoni buzishda ishlagan ishchilarga ish haqi hisoblandi | 12 000 000 | | |
| 50 | Ish haqiga nisbatan Yagona ijtimoiy to'lov (12 %) hisoblandi | | | |
| 51 | Ish haqidan daromad solig'i ushlandi (12%) | | | |
| 52 | Ish haqidan kasaba uyushmasiga ajratma ushlandi (1%) | | | |
| 53 | Shaxsiy jamg'arib boriladigan pens hisob raqamiga ajratma (0,1%) hisoblandi | | | |
| 54 | Binoni buzishda chet tashkilot xizmatidan foydalanildi | 700 000 | | |
| 55 | Chet tashkilot xizmat haqi o'tkazib berildi | 700 000 | | |
| 56 | *Binoni buzishdan foyda (zarar) ko'rildi* | | | |
| 57 | Asosiy ishlab chiqarishdan tayyor mahsulot qabul qilindi | | | |
| 58 | Tayyor mahsulot sotishga junatildi (haqiqiy tannarxda) | | | |
| 59 | Tayyor mahsulot bozor bahosida xaridorlar tomonidan qabul qilindi | 173 310 000 | | |
| 60 | Xaridorlardan sotilgan mahsulotlar puli kelib tushdi | 173 310 000 | | |
| 61 | Olingan qisqa muddatli kredit uchun foiz hisoblandi | 2 500 000 | | |
| 62 | Yanvar oyi uchun hisoblangan foiz summasi o'tkazildi | 2 500 000 | | |
| 63 | Oy oxirida mahsulot tannarxini hisobga oluvchi scho't yopildi<br>9110 - | | | |
| 64 | Oy oxirida mahsulotlarni sotishdan olingan daromad scho'ti yopildi<br>9010 - | | | |
| 65 | Oy oxirida davr xarajatlarini hisobga oluvchi scho'tlar yopildi<br>9410 –<br>9420 –<br>9430 – | | | |
| 66 | Oy oxirida moliyaviy faoliyat xarajatlarini hisobga oluvchi scho't yopildi<br>9610 – | | | |
| 67 | Yil oxirida yakuniy moliyaviy natija scho'ti yopildi<br>9910 – | | | |

**Topshiriqlar:**

1. “ASILBEK-SERVIS” xususiy korxonasining xo‘jalik mablag‘lari va mablag‘lar manbalarini turkumlang va hisobot davri boshiga buxgalteriya balansini tuzing.
2 Yuqoridagi xo‘jalik operatsiyalariga buxgalteriya provodkalari tuzing va guruhlashtiring.
3. Hisobot davri uchun oborot vedomostini tuzing.
4. Bosh daftarda tegishli sintetik scho‘tlarni oching. Tegishli scho‘tlar bo‘yicha boshlang‘ich qoldiqlarni o‘tkazing. Oborot vedomostidan yanvar oyidagi scho‘tlar bo‘yicha oborotlarni va oxirgi qoldiqlarni aniqlang.
5. Hisobot davri oxiriga buxgalteriya balansini va “Moliyaviy natijalar to‘g‘risida”gi hisobotni tuzing.
6. Xususiy korxona tomonidan moliyaviy hisobot shakllarini taqdim qilish tartibini tushuntiring.

2. “BARAKA” fermer xo‘jaligi 2000 yil tashkil etilgan bo‘lib, o‘simlikchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaligi hisoblanadi. Fermer xo‘jaligida 2019 yil 01 yanvar holatiga quyidagi xo‘jalik mablag‘lari va mablag‘lar manbalari mavjud:

Asosiy vositalar – 172 740 000 so‘m, Ustav kapitali – 36 900 000 so‘m, Taqsimlanmagan foyda – 3 500 000 so‘m, Materiallar (500 kg bug‘doy urug‘ligi) – 414 000 so‘m, Budjetga soliqlar bo‘yicha qarzlar – 460 000 so‘m, Davlatning maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarz – 100 000 so‘m, Yoqilg‘i – 1 000 000 so‘m, Xo‘jalik jihozlari va inventarlar – 150 000 so‘m, Asosiy vositalarga hisoblangan eskirish – 72 500 000 so‘m, Qisqa muddatli bank krediti – 144 544 000 so‘m, Mehnat haqi bo‘yicha qarz – 1 500 000 so‘m, Hisob-kitob scho‘ti – 85 200 000 so‘m.

“BARAKA” fermer xo‘jaligida hisobot davrida quyidagi xo‘jalik operatsiyalari sodir bo‘lgan:

1. “Agro tex xizmat” MChJdan 85 600 000 so‘mga traktor xarid qilgan. Traktorni olib kelishdagi transport xarajatlari uchun “Davr” MChJga 2 500 000 so‘m to‘langan, traktorni xarid qilish bilan bog‘liq hujjatlarni rasmiylashtirish uchun 180 000 so‘m xarajat qilingan.

2. “Shams” fermer xo‘jaligidan 3 000 kg yuqori sifatli bug‘doy urug‘ligi xarid qilgan. Xarid qilingan bug‘doy urug‘ining 1 kg 1000 so‘m. Urug‘likni xo‘jalikka olib kelishda “Davr” MChJga 500 000 so‘m tashib kelganligi uchun to‘langan.

3. Fermer xo‘jaligining o‘zida yetishtirilgan 500 kg urug‘lik bug‘doy hamda yuqori sifatli 3 000 kg urug‘lik bug‘doy ekin maydoniga ekilgan. Fermer xo‘jaligida bug‘doy yetishtirishda band bo‘lgan ishchilarga 18 000 000 so‘m ish haqi va ish haqiga nisbatan 12% yagona ijtimoiy to‘lov hisoblangan. Bundan tashqari bug‘doyni yetishtirishda foydalanilgan asosiy vositalarga 5 200 000 so‘m eskirish hisoblangan. Shuningdek, ishlab chiqarishga 1 000 000 so‘mlik yoqilg‘i ham sarflangan.

4. Fermer xo‘jaligi hisobot yilida 60 tonna bug‘doy hosilini xo‘jalik omboriga tayyor mahsulot sifatida qabul qilgan.

5. Xo‘jalikda o‘tkazilgan inventarizatsiya ma’lumotlariga ko‘ra xo‘jalik omborida qiymati 10 000 so‘m bo‘lgan 2 dona xo‘jalik inventari kamomadi aniqlangan. Aniqlangan kamomad summasi moddiy javobgar shaxs, fermer xo‘jaligi xodimi O.Samadov zimmasiga yuklatilgan. O.Samadov tomonidan kamomad summasi naqd pulda to‘landi.

6. Xo‘jalikda yetishtirilgan 60 tonna bug‘doy “G‘alla-Altek” mas’uliyati cheklangan jamiyat (MChJ) ga 1650 so‘m/kgdan shartnoma asosida sotildi. “G‘alla-Altek” MChJ shartnoma bo‘yicha shartnoma qiymatining 85 % ini oldindan to‘lab bergan, qolgan 15 % ini kelgusi hisobot yilining yanvar oyida to‘lab berishi kerak.

**Talab qilinadi:**

1. “BARAKA” fermer xo‘jaligining xo‘jalik mablag‘lari va mablag‘lar manbalarini turkumlang va hisobot davri boshiga buxgalteriya balansini tuzing.
2 Yuqoridagi xo‘jalik operatsiyalariga buxgalteriya provodkalari tuzing va guruhlashtiring.
3. Hisobot davri uchun oborot vedomostini tuzing.
4. Hisobot davri oxiriga buxgalteriya balansini va “Moliyaviy natijalar to‘g‘risida”gi hisobotni tuzing.

5. Xususiy korxona tomonidan moliyaviy hisobot shakllarini taqdim qilish tartibini tushuntiring.

3. "Musaffo-hayot" xususiy korxonasi mebel mahsulotlari ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanadi. Xususiy korxonaning 2019 yil 01 dekabr holatiga bosh daftar ma'lumotlari quyidagicha:

| Scho't № | Scho't nomi | Qoldiq, ming so'm | Debet | Kredit |
|---|---|---|---|---|
| | Asosiy vositalar | 190 000 | | |
| | Asosiy vositalar eskiripsh | 52 000 | | |
| | Materiallar | 17 700 | | |
| | Tugallanmagan ishlab chiqarish | 4 000 | | |
| | Tayyor mahsulot | 90 000 | | |
| | Hisob-kitob scho'ti | 21000 | | |
| | Ustav kapitali | 159550 | | |
| | Zahira kapitali | 4 850 | | |
| | Taqsimlanmagan foyda | 47 370 | | |
| | Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga tulanadigan scho'tlar | 35 000 | | |
| | Mehnatga haq to'lash bo'yicha majburiyatlar | 7 630 | | |
| | Budjetga to'lovlar bo'yicha majburiyatlar | 2 330 | | |
| | Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha majburiyatlar | 5770 | | |
| | Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob raqamiga ajratma | 950 | | |
| | Tayyor mahsulotlarni sotishdan olingan daromad | 565 000 | | |
| | Sotilgan tayyor mahulotlar tannarxi | 449 000 | | |
| | Sotish xarajatlari | 30 750 | | |
| | Ma'muriy xarajatlar | 14 700 | | |
| | Boshqa oleratsion xarajatlar | 6 800 | | |
| | Yagona soliq to'lovi xarajati | 56 500 | | |

**Qo'shimcha ma'lumotlar:**

"Musaffo-hayot" ishlab chiqarish korxonasi kichik korxona sifatida tashkil etilgan bo'lib, bir turdagi stullarni ishlab chiqaradi.

Korxonaga tegishli bino 2013 yil 25 dekabrda sotib olingan. Binoning boshlang'ich qiymati 110 000,0 ming so'm. 2019 yil 1 yanvarga qadar jamg'arilgan eskirish 20 000 ming so'm. Foydali xizmat muddati 20 yil. Binoga eskirish bir tekis (to'g'ri chiziqli) eskirish hisoblash usulida hisoblanadi. Binoning tugatish qiymati 10 000,0 ming so'm. Binoning umumiy maydoni 1000 $m^2$ bo'lib, 200 $m^2$ joy ma'muriy maqsadlarda foydalaniladi, qolgan qismi ishlab chiqarish maqsadlarida foydalaniladi.

Korxonada ishlab chiqarish uskunalari mavjud bo'lib, 2013 yil 28 yanvarda sotib olingan. Uning boshlang'ich qiymati 80 000,0 ming so'm. 2019 yil 1 yanvargacha jamg'arilgan eskirish 32 000,0 ming so'm. Foydali xizmat muddati 10 yil. Tugatish qiymati belgilanmagan. Bir tekis eskirish hisoblash usulida eskirish hisoblanadi.

Materiallar 17 000,0 ming so'mlik xom-ashyo va 700,0 ming so'mlik ehtiyot qismlardan iborat.

Tayyor mahsulotlar korxonada o'rtacha tortilgan qiymat bo'yicha hisobga olinadi. Ombordagi tayyor mahsulotlar 2 000 dona, har birining o'rtacha tortilgan tannarxi 45,0 ming so'mga teng stullardan iborat.

Mol yetkazib beruvchilarga qarzlar: "Imkon" xususiy korxonasidan - 22 000,0 ming so'm, "Sado" oilaviy korxonasidan - 13 000,0 ming so'mlik o'tgan oyda olingan xom-ashyo bo'yicha qarzlardan iborat.

Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzlari: yagona soliq to'lovi bo'yicha 2 070,0 ming so'm, jismoniy shaxslarning daromad solig'i bo'yicha 260,0 ming so'm majburiyatlardan tashkil topgan.

Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzlari: yagona ijtimoiy to'lov (YaIT-12%) bo'yicha - 4 370,0 ming so'm, Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob raqamiga ajratma - 950,0 ming so'm.

Korxonada xodimlar soni 14 kishi bo'lib, rahbar, bosh hisobchi, 12 nafar ishchilardan iborat.

Xususiy korxonaning buxgalteri nafaqaga chiqganligi sababli, uning o'rniga korxona rahbariyati Oliy ta'lim muassasasini tamomlagan yosh mutaxasisni 2019 yil sentyabr oyida buxgalter lavozimiga ishga olgan. Yangi buxgalter xo'jalik operatsiyalarini hisobga olish jarayonini yaxshi tushunmaganligi sababli Sizga yordam so'rab murojat qildi va quyidagi ma'lumotlarni taqdim etdi:

1. 3 dekabrda byudjetga hamda maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzlar to'lab berildi hamda ish haqi bo'yicha xodimlarga qarzdorlik summasi miqdorida ish haqi tarqatish uchun nakd pul olib kelindi.
2. 3-5 dekabrda ish haqi tarqatildi.
3. 6 dekabrda "Imkon" xususiy korxonasidan 40 000 000 so'mlik materiallar olindi.
4. Oy davomida ishlab chiqarishga quyidagi xarajatlar qilindi:
   - xom-ashyo va materiallar - 53 000,0 ming so'm,
   - xususiy korxona xodimlariga ish haqi hisoblandi:
     - ishchilarga - 2000,0 ming so'mdan;
     - rahbar va bosh buxgalterga - 3000,0 ming so'mdan;
     - hisoblangan ish haqiga nisbatan yagona ijtimoiy to'lov (YaIT-12%) hisoblandi (o'zingiz hisoblang va hisobga oling);
     - ishlarga hisoblangan ish haqidan daromad solig'i hisoblandi (o'zingiz hisoblang va hisobga oling);
     - hisoblangan ish haqiga nisbatan 0,1 % shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob raqamiga ajratma hisoblang.
5. 2019 yil uchun korxonaning asosiy vositalariga quyidagicha eskirish hisoblandi:
   - bino uchun 5 000 000 so'm;
   - ishlab chiqarish uskunasi uchun 8 000 000 so'm.
6. Tuman elektr ta'minoti tashkiloti tomonidan 500 000 so'mlik scho't-faktura taqdim qilindi. Foydalanilgan elektr energiyasi 80 %i ishlab chiqarish va 20 %i ma'muriy maqsadlarda taqsimlanadi.
7. Ishlab chiqarishdan reja tannarxi 165,0 ming so'mdan 600 dona stul kirim qilindi.
8. Oy davomida 1000 dona stul 215,0 ming so'mdan sotildi. Shundan 800 donsi nakd pulga sotildi. Qolgan stullar pul o'tkazish yo'li bilan sotilgan bo'lib, dekabr oyida ularning puli kelib tushmadi.
9. Yagona soliq to'lovi (sotishdan tushgan tushumdan 5%) hisoblandi (o'zingiz hisoblang va hisobga oling).

**Talab qilinadi:**

1. "Musaffo-hayot" xususiy korxonasining xo'jalik mablag'lari va mablag'lar manbalarini turkumlang va hisobot davri boshiga buxgalteriya balansini tuzing.
2 Yuqoridagi xo'jalik operatsiyalariga buxgalteriya provodkalari tuzing va guruhlashtiring.
3. Hisobot davri uchun oborot vedomostini tuzing.
4. Hisobot davri oxiriga buxgalteriya balansini va "Moliyaviy natijalar to'g'risida"gi hisobotni tuzing.
5. Xususiy korxona tomonidan moliyaviy hisobot shakllarini taqdim qilish tartibini tushuntiring.

## 13.2. Konsalidatsiyalangan moliyaviy hisobot
## (2 soat)

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Konsolidatsiya deganda nimani tushunasiz?
2. Umumlashtirilgan (konsolidatsiyalangan) hisobotning mazmuni nimadan iborat?
3. Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot qaysi sub'ektlar tomonidan tuziladi?
4. Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot qanday normativ hujjatlarga muvofiq tuziladi?
5. Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot qanday xususiyatlarga ega?
6. Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotdan kimlar foydalanadi?

### TEST TOPSHIRIQLARI

**1. Konsolidatsiya so'zining lug'aviy ma'nosi qaysi javobda keltirib o'tilgan?**

A) Konsolidatsiya inglizcha *"consolidate"* so'zidan olingan bo'lib, *"birlashtirmoq, mustahkamlamoq"* degan ma'noni anglatadi

B) Konsolidatsiya inglizcha *"consolidate"* so'zidan olingan bo'lib, *"ajratmoq, bo'lmoq"* degan ma'noni anglatadi

C) Konsolidatsiya inglizcha *"consolidate"* so'zidan olingan bo'lib, *"o'rtachasi, to'rtdan ikki qismi"* degan ma'noni anglatadi

D) Konsolidatsiya inglizcha *"consolidate"* so'zidan olingan bo'lib, *"tuzmoq, qo'rmoq, shakllantirmoq"* degan ma'noni anglatadi

**2. Moliyaviy hisobot konsolidatsiyasi bu ....**

A) Yuridik jihatdan mustaqil bo'lmagan o'zaro bog'liq ikki yoki undan ortiq kompaniyalar hisobotlarini ajratishdir

B) Yuridik jihatdan mustaqil, ammo iqtisodiy va moliyaviy tomondan o'zaro bog'liq ikki yoki undan ortiq kompaniyalar hisobotlarini ajratishdir

C) Yuridik jihatdan mustaqil, ammo iqtisodiy va moliyaviy tomondan o'zaro bog'liq ikki yoki undan ortiq kompaniyalar hisobotlarini birlashtirishdir

D) Iqtisodiy va moliyaviy tomondan o'zaro bog'liq ikki yoki undan ortiq kompaniyalar hisobotlarini bo'lish hisoblanadi

**3. Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot qaysi normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi?**

A) O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunining 23-moddasi va buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga muvofiq tuziladi

B) O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunining 17-moddasi va buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga muvofiq tuziladi

C) O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunining 23-moddasi, buxgalteriya hisobining xalqaro va milliy standartlariga muvofiq tuziladi

D) O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunining 17-moddasi, buxgalteriya hisobining xalqaro va milliy standartlariga muvofiq tuziladi

**4. Qaysi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzadi?**

A) Aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan tuziladi

B) Asosiy xo'jalik jamiyati bo'lgan va sho''ba xo'jalik jamiyatlariga, o'z nazorati ostidagi tashkilotlarga ega buxgalteriya hisobi sub'ekti

C) Aksiyadorlik jamiyatlari, agarda ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ko'pni tashkil etsa

D) Barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan, faqat davlat tashkilotlari, korxonalari va idoralaridan tashqari

**5. Kimlar konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar hisoblanadi?**

A) Boshqaruvchilar, xodimlar, aksiyadorlar, investorlar, kreditorlar, xaridorlar, davlat, jamoatchilik

B) Korxona rahbari, o'rinbosarlari, buxgalterlar va soliq organi xodimlari

C) Boshqaruvchilar, davlat, soliq, statistika va moliya organlari

D) Boshqaruvchilar, xodimlar, aksiyadorlar, soliq, statistika va moliya organlari

## AMALIY MASHQLAR

**1. Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar**




**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarni guruhlarga ajratgan holda yozing va tavsiflab bering.

**2. Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarning axborotlarga ehtiyoji**

| **Konsolidatsiyalangan buxgalterlik (moliyaviy) hisobotlardan foydalanuvchilarning tarkibi va ularning axborotlarga ehtiyoji** | |
|---|---|
| **Foydalanuvchilar** | **Axborotlarga ehtiyoj** |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |

**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarning tarkibi va ularning axborotlarga ehtiyoji yozing va ularni tavsiflab bering.

**3. Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotning o'ziga xos xususiyatlari**




**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotning o'ziga xos xususiyatlarini yozing va va ularni tavsiflab bering.

## 14-MAVZU. BUXGALTERIYA HISOBINI NORMATIV-HUQUQIY TARTIBGA SOLISH TIZIMI
(4 soat)

### 14.1. O'zbekistonda buxgalteriya hisobini normativ-huquqiy tartibga solish tizimi va uning elementlari: O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"
(2 soat)

### NAZORAT SAVOLLARI

1. O'zbekistonda buxgalteriya hisobini normativ-huquqiy tartibga solish tizimi qanday?
2. O'zbekistonda buxgalteriya hisobini normativ-huquqiy tartibga solish tizimining elementlari deganda nimani tushunasiz?
3. O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunining mazmuni va ahamiyati nimadan iborat?
4. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonun qachon qabul qilingan?
5. O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunga muvofiq buxgalteriya hisobining maqsadi va vazifalarini ayting?
6. Korxona hisob siyosatining mazmuni nimadan iborat?

### TEST TOPSHIRIQLARI

**1. O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobini me'yoriy tartibga solish tizimi necha pog'onaga bo'lish mumkin?**

A) 4
B) 5
C) 3
D) 8

**2. O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobini me'yoriy tartibga solish tizimining birinchi pag'onasini o'z ichiga nimalarni oladi?**

A) Korxonaning hisob siyosatini
B) Buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHMS)
C) O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuni
D) Buxgalteriya hisobini uning alohida bo'limlari bo'yicha yuritishni tartibga soluvchi yo'riqnomalar, nizomlar va ko'rsatmalarni

**3. Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun (yangi tahrirdagi) qachon qabul qilingan?**

A) 8 fevral 1996 yil
B) 10 yanvar 1992 yil
C) 30 avgust 1996 yil
D) 13 aprel 2016 yil

**4. Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun necha moddadan iborat?**

A) 32
B) 29
C) 24
D) 36

**5. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunga muvofiq buxgalteriya hisobining maqsadi:**

A) Axborotdan foydalanuvchilarni ma'lumotlar bilan ta'minlashga
B) Axborotdan foydalanuvchilarni iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'ladigan axborotlar bilan to'liq, aniq va o'z vaqtida ta'minlash
C) Bosh buxgalterga moliyaviy hisobotlarni tuzish uchun ma'lumotlarni yetkazib berish
D) Korxona rahbariyatiga boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur ma'lumotlarni yetkazib berish

**6. Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonunga muvofiq xususiy kapital:**

A) Ustav kapitali, qo'shilgan kapital, zahira kapitali va taqsimlanmagan foydadan iborat

B) Fondlar, rezervlar va majburiyatlardan iborat
C) Ustav fondi va maxsus fondlardan iborat
D) Maxsus fondlar va rezervlardan tarkib topgan

**7. Qaysi javobda yillik moliyaviy hisobotning hisobot yili to‘g‘ri keltirilgan?**
A) 21 oktyabran - 30 sentyabrgacha
B) 1 sentyabrdan-31 avgustgacha
C) 1yanvardan-31 dekabrgacha
D) 1 martdan - 28 fevralgacha

**8. Korxona rahbarining huquqlari va ma’suliyatlari qaysi hujjatda belgilangan?**
A) Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun
B) Bosh buxgalterlarning asosiy vazifasi hisob-kitob scho‘tlari ochish va hisob-kitob muomalalarini hisobga olish
C) O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi va hisoboti to‘g‘risidagi Nizom
D) Bosh buxgalterlarning asosiy vazifalari xodimlarning xizmat vazifalarini va majburiyatlarini taqsimlash, ularning bajarilishini nazorat qilish

## AMALIY MASHQLAR

**1. O‘zbekistonda buxgalteriya hisobini normativ-huquqiy tartibga solish tizimi va uning asosiy elementlari**



**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga O‘zbekistonda buxgalteriya hisobini normativ-huquqiy tartibga solish tizimi va uning asosiy elementlarini yozing va ularni izohlab bering.

**2. O'zbekistonda Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuni**

| O'zbekistonda Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuni | |
|---|---|
| Moddalar | Qonun moddalarining nomi |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |

**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga O'zbekistonda Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunining moddalari va nomini yozing hamda ularni qisqacha tavsiflab bering.

**3. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonun – buxgalteriya hisobining huquqiy negizi**

1. "SAMO" xususiy korxonasi hisobot davrida tashkil etilgan bo'lib, korxona rahbari hisobot davri oxirida soliq organiga moliyaviy va soliq hisobotlarini taqdim qildi. Hisobotlarni korxonada buxgalter ko'zda tutilmaganligi sababli, korxona rahbarining o'zi imzo quyib tasdiqlagan. Soliq organining xodimi hisobotlar bilan tanishar ekan, korxona rahbariga har bir xo'jalik yurituvchi sub'ektda albatta buxgalter bo'lishi kerakligini ta'kidlagan holda o'z navbatida korxona tomonidan buxgalter lavozimi joriy qilinmaganligi sababli O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeksiga ko'ra ma'muriy javobgarlikka tortilishi to'g'risida ogohlantirgan holda tushuntirish xati yozishni talab qildi.

Korxona rahbari esa, soliq organi xodimiga korxonada buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritishda to'g'ri yo'l tutganligini, hech qanday o'zboshimchalik bilan ish yuritilmaganligi va aytayotgan ma'muriy javobgarlikning qo'llanilishi mumkin emasligini ta'kidlab o'tdi. Ya'ni,

O‘zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonunining 11-moddasiga muvofiq buxgalteriya hisobini mustaqil yuritish huquqiga ega ekanligini keltirib o‘tdi.

**Talab qilinadi:**

1. Mazkur holatda soliq organi xodimi haqlimi? Agarda haqli bo‘lsa, xususiy korxona rahbariga nisbatan qanday chora ko‘rilishi kerak.

2. Xususiy korxona rahbari nega soliq organi xodimining fikridan norozi. U buxgalteriya hisobi va hisobotini to‘g‘ri tashkil etgan deb o‘ylaysizmi?

3. Ushbu muammoli vaziyat bo‘yicha amaldagi normativ-huquqiy hujjatlardan kelib chiqqan holda o‘z fikringizni keltirib o‘ting va asoslab bering.

2. “BOOK CHALLANGE” mas’uliyati cheklangan jamiyat (MChJ) buxgalteri kutilmaganda betob bo‘lib qoldi va u Toshkent shahrida joylashgan shifoxonalarda davolanish uchun jo‘nab ketgan. Jamiyat rahbariyati soliq va boshqa majburiy to‘lovlarning muddati kelganligi bois, to‘lov topshiriqnomalarini rasmiylashtirgan holda tasdiqlab tijorat bankiga taqdim etdi.

Tijorat bankining xodimi jamiyat rahbariga rasmiylashtirilgan to‘lov topshiriqnomalarida xato mavjudligi, ya’ni bosh buxgalterning imzosi yo‘qligi sababli topshiriqni amalga oshira olmasligini tushuntirdi. Jamiyat rahbari esa, bank xodimiga buxgalteri kutilmaganda betob bo‘lib qolganligi sababli unga imzo quydirish imkoni bo‘lmaganligi va sog‘ligini tiklab kelgandan so‘ng albatta imzo quydirib tasdiqlatishini aytib o‘tdi. Shu bilan birga, agarda budjetga va davlatning maqsadli fondlariga to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirmasa, qo‘shimcha penya va moliyaviy sanktsiyalar qo‘llanilishini va bu jamiyatning moliyaviy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini tushuntirib, to‘lovlarni amalga oshirishni talab qildi. Biroq, shuncha tushuntirishlarga qaramasdan tijorat banki xodimi uning talabi noto‘g‘ri ekanligini ta’kidlagan holda topshiriqlarni qabul qilolmasligini aytib o‘tdi. Agarda mazkur talabdan norozi bo‘lsa, sudga murojaat qilishini tushuntirdi.

**Talab qilinadi:**

1. Mazkur holatda tijorat banki xodimining tutgan yo‘li qonuniymi? Fikringizni asoslab bering.

2. “BOOK CHALLANGE” MChJ rahbarining talabini to‘g‘ri deb o‘ylaysizmi? U sudga murojaat qilishga haqlimi.

3. Ushbu muammoli vaziyat bo‘yicha amaldagi normativ-huquqiy hujjatlardan kelib chiqqan holda o‘z fikringizni keltirib o‘ting va asoslab bering.

3. “MALIKA” aksiyadorlik jamiyati (AJ) keyim-kechak mahsulotlarini ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanadi. AJ rahbariyati hisobot davrida oliy ta’lim muassasasi (OTM)ni tamomlagan xodimni 20... yil 15 avgustdan bosh buxgalter lavozimiga ishga qabul qildi.

Hisobot davrida AJning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlangan reja-grafik asosida nazorat tekshiruvidan o‘tkazildi. Tekshiruv natijalariga ko‘ra, vakolatli davlat organi tomonidan AJ tomonidan bosh buxgalter lavozimiga tayinlangan xodim belgilangan talablarga javob bermasligini keltirib o‘tdi. Chunki, AJ majburiy auditorlik tekshiruvidan o‘tishi lozim bo‘lgan sub’ekt hisoblanishini ta’kidlagan holda bu qaror noto‘g‘ri ekanligini tushuntirdi. Shu sababli, AJ rahbariyati bosh buxgalter lavozimiga belgilangan talablarga javob beradigan boshqa xodimni tayinlashi lozimligini aytib o‘tdi.

**Talab qilinadi:**

1. Mazkur holatda vakolatli davlat organining talabi to‘g‘rimi? Fikringizni asoslab bering.

2. “MALIKA” AJda bosh buxgalter lavozimiga tayinlanishi kerak bo‘lgan xodim qanday talablarga javob berishi kerak. Fikringizni amaldagi normativ-huquqiy hujjatlardan kelib chiqqan holda keltirib o‘ting va asoslab bering.

## 14.2. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standartlari (2 soat)

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Buxgalteriya hisobining milliy standartlari nima?
2. Buxgalteriya hisobining milliy standartlarining ahamiyati qanday?
3. Nechta buxgalteriya hisobi milliy standartlari mavjud va ularni qisqacha ta'riflang?
4. Buxgalteriya hisobi milliy standartlari buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzishdagi ahamiyatini tushuntiring?
5. Buxgalteriya hisobining milliy standartlari buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish va moliyaviy hisobotni tuzishga doir qanday maxsus talablarni belgilaydi?

### TEST TOPSHIRIQLARI

**1. O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobini me'yoriy tartibga solish tizimining ikkinchi pog'onasini o'z ichiga nimalarni oladi?**

A) Buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHMS)
B) O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi
C) Korxonaning hisob siyosatini
D) Buxgalteriya hisobini uning alohida bo'limlari bo'yicha yuritishni tartibga soluvchi yo'riqnomalar, nizomlar va ko'rsatmalarni

**2. Nechta buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHMC) mavjud?**

A) 25
B) 24
C) 23
D) 22

**3. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda materiallar hisobini tashkil etish va yurtish tartibi qaysi buxgalteriya hisobining milliy standarti bilan tartibga solinadi?**

A) 1-BHMS "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot"
B) 2-BHMS "Asosiy faoliyat daromadlari"
C) 4-BHMS "Tovar-moddiy zaxiralar"
D) 5-BHMS "Asosiy vositalar"

**4. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimini tashkil etishga kim javobgar?**

A) Xo'jalik yurituvchi subyekt rahbari
B) Bosh buxgalter
C) Iqtisodiy masalalar bo'yicha rahbar o'rinbosari
D) Bosh iqtisodchi

**5. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda asosiy vositalar hisobini tashkil etish va yuritish tartibi qaysi buxgalteriya hisobining milliy standartida belgilangan?**

A) 4-BHMS "Tovar-moddiy zaxiralar"
B) 5-BHMS "Asosiy vositalar"
C) 2-BHMS "Asosiy faoliyat daromadlari"
D) 1-BHMS "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot"

**6. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunga muvofiq uzoq muddatli aktivlar qaysi baholarda hisobga olinishi kerak?**

A) To'liq dastlabki qiymatida
B) Tiklash qiymatida
C) Xarid baholarida
D) Bozor baholarida

**7. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda nomoddiy aktivlar hisobini tashkil etish va yurtish tartibi qaysi buxgalteriya hisobining milliy standartida belgilangan?**

A) 4-BHMS “Tovar-moddiy zaxiralar”
B) 5-BHMS “Asosiy vositalar”
C) 7-BHMS “Nomoddiy aktivlar”
D) 1-BHMS “Hisob siyosati va moliyaviy hisobot”

## AMALIY MASHQLAR

### 1. O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standartlari

| № | Standartning nomeri va nomi | Tasdiqlangan sanasi | Adliya vazirligida ro‘yxatga olinganligi | Kuchga kirgan sanasi |
|---|---|---|---|---|
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |

**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga Buxgalteriya hisobining milliy standartlarini belgilangan talablar asosida yozing va ularni qisqacha izohlab bering.

**2. Buxgalteriya hisobining milliy standartlaridagi talablarning qo'llanilishi**

1. "FAYZ" xususiy korxonasi ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanadi. Xususiy korxonada hisobot davrida moliyaviy-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq quyidagi xo'jalik operatsiyalari sodir bo'lgan:

1). Xususiy korxona mol yetkazib beruvchilardan 60 000,0 ming so'mlik materialarni xarid qildi. Shartnomaga ko'ra xususiy korxona mol yetkazib beruvchilarga 15 foiz oldindan to'lovni amalga oshirgan. Xarid qilingan 50 000,0 ming so'mlik materiallar ishlab chiqarishga berildi.

2). Xususiy korxona xodimlariga hisobot davri uchun ish haqi hisoblandi:
- ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlarga – 58 000,0 ming so'm;
- ma'muriy xodimlarga – 12 000,0 ming so'm.

3). Xususiy korxonaning asosiy vositalariga eskirish hisoblandi:
- ishlab chiqarish faoliyatidagi – 12800,0 ming so'm;
- ma'muriy maqsadlardagi – 2 200,0 ming so'm.

4). Boshqa xarajatlar:
- elektr energiya xarajatlari – 500,0 ming so'm;
- chet tashkilot xizmatlari – 5200,0 ming so'm;
- sug'urta xarajatlari – 1800,0 ming so'm.

5). Xususiy korxona ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarni xaridorlarga shartnoma asosida 120000,0 ming so'mga sotgan. Xaridorlar tomonidan xarid qilingan tayyor mahsulotning 100000,0 ming so'mi hisobot davrida to'lab berilgan.

6) Xususiy korxonada mavjud bo'lgan uskuna xaridor korxonaga 60000,0 ming so'mga sotilgan. Uskunaning boshlang'ich qiymati 68500,0 ming so'm, eskirish qiymati 18500,0 ming so'm.

7) Xususiy korxona yagona soliq to'lovi to'lovchisi hisoblanadi. Hisobot davri uchun hisoblangan soliq summasi 5000,0 (100000,0 x 5%) so'mga teng bo'lgan.

**Talab qilinadi:**

1. Xususiy korxonada hisobot davrining daromadlari va xarajatlari sifatida tan olinadigan daromalar va xarajatlar summasini aniqlang.
2. Xarajat va daromadlarni guruhlarga ajrating.
3. Xususiy korxona moliyaviy-xo'jalik faoliyatining moliyaviy natijalarini aniqlang.
4. Bajarilgan hisob-kitoblarni tushuntirib bering.

2. Korxona hisobot davrida xaridorlarga 180000, ming so'mlik ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarni sotgan. Xaridor korxona xarid qilingan tayyor mahsulotlarning 120000,0 ming so'mini hisobot davrida to'lab bergan. Qolgan qismini shartnomaga ko'ra keyingi hisobot davrining birinchi oyida to'lab beradi. Shuningdek, korxonada boshlang'ich qiymati 82500, ming so'm va eskirish qiymati 58200,0 ming so'm bo'lgan transport vositasi xaridor korxonaga 30000,0 ming so'mga sotilgan.

Korxona yagona soliq to'lovchisi (4 %) hisoblanadi. Hisobot davri uchun yagona soliq to'lovi summasini 4800,0 (120000,0 x 4%) ming so'm sifatida hisob-kitob qilgan holda soliq organiga soliq hisobotini taqdim etdi. Soliq organi xodimi korxona tomonidan yagona soliq to'lovi noto'g'ri hisob-kitob qilinganligini sababli qabul qilolmasligini va uni to'g'ri hisobga olish tartibini, ya'ni bu holatda soliq solinadigan baza 100000,0 ming so'm emas, balki quyidagi daromadlar hisoblanishini va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda qayta hisoblanishi kerakligini tushuntirdi:

- mahsulot sotishdan olingan daromad – 180000,0 ming so'm;
- asosiy vositalarni sotishdan olingan daromad – 5700,0 ming so'm.

**Talab qilinadi:**

1. Ushbu holatda korxona yagona soliq to'lovini noto'g'ri hisob-kitob qilgan deb o'ylaysizmi? Fikringizni asoslab bering.

2. Soliq organi xodimi mazkur holatni to‘g‘ri baholagan holda haqli e’tiroz bildirgan deb hisoblaysizmi?
3. Sizning fikringizcha amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq qanday tartibda hisob-kitob qilinishi lozim. Fikringizni asoslab bering.

3. Qurilish mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxona o‘z mahsulotlarini sotish maqsadida xo‘jalik usulida savdo dukonini qurib, foydalanishga topshirgan. Ammo, u bilan bog‘liq xo‘jalik operatsiyalari hisobda aks ettirilmagan. Savdo dukoni qurilishi bilan bog‘liq quyidagi xo‘jalik operatsiyalari sodir bo‘lgan:

- sarflangan qurilish materiallari – 180 000 ming so‘m;
- hisoblangan ish haqi – 80 000 ming so‘m;
- YAIT (12 %) – 9600 ming so‘m;
- chet tashkilotlar xizmatidan foydalanilgan – 5 000 ming so‘m;
- jihozlash maqsadida ombordan inventarlar olingan – 17800 ming so‘m.

**Talab qilinadi:**

1. Savdo dukonini qurish bilan bog‘liq xarajatlarni hisobga oling.
2. Savdo dukonini dastlabki qiymatini aniqlang.
3. Bajarilgan hisob-kitoblarni tushuntirib bering.

4. Korxonada mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan materiallar qiymati 170 000 000 so‘mga teng bo‘lgan. Korxonada asosiy ishlab chiqarishda ishlayotgan ishchilarga 54 000 000 so‘mlik ish haqi va ish haqiga nisbatan 12 % yagona ijtimoiy to‘lov hisoblangan. Shu bilan birga, ishlarga hisoblangan ish haqidan daromad solig‘i 6 480 000 so‘m hisoblandi. Bundan tashqari asosiy ishlab chiqarishda foydalanilgan asosiy vositalarga 12 200 000 so‘m eskirish hisoblangan. Tuman elektr tarmog‘iga foydalanilgan elektr energiya uchun 600 000 so‘m hisoblandi va to‘landi. Hisobot davri yakunida asosiy ishlab chiqarishdan tayyor mahsulot olindi.

**Talab qilinadi:**

1. Asosiy ishlab chiqarishdan olingan tayyor mahsulotlarni haqiqiy tannarxini aniqlang.
2. Tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bog‘liq xarajatlarni hisobda aks ettiring.

5. “YULDUZ+” mas’uliyati cheklangan jamiyat (MChJ) ning faoliyati ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo‘lib, hisobot davrida tayyor mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq quyidagi xo‘jalik operatsiyalari sodir bo‘lgan:

1. Asosiy ishlab chiqarishga mahsulot ishlab chiqarish uchun 180 000 000 so‘mlik materiallar sarflandi.
2. MChJ xodimlariga ish haqi hisoblandi:
- asosiy ishlab chiqarish xodimlariga – 79 000 000 so‘m;
- ish haqiga nisbatan 12 % yagona ijtimoiy to‘lov hisoblang;
- hisoblangan ish haqidan daromad solig‘i (12 foizli yagona stavka bo‘yicha) va ish haqiga nisbatan 0,1 % shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisob raqamiga (ShJBPH) ajratma hisoblang.

3. MChJning asosiy vositalariga quyidagicha eskirish hisoblangan:
- Bino – 12 500 000 so‘m;
- Tikuv dastgohlari – 2 500 000 so‘m;
- Mebel va ofis jihozlari – 980 000 so‘m.

4. Tuman elektr ta’minoti korxonasidan scho‘t-faktura taqdim etildi. Unga ko‘ra is’temol qilingan energiya miqdori 900 000 so‘mni tashkil etadi. Elektr energiya xarajatlari 80 % ishlab chiqarish va 20 % ma’muriy xarajatlar sifatida tan olindi.

**Talab qilinadi:**

1. “YULDUZ+” MChJda ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar haqiqiy tannarxini aniqlang.
2. Tayyor mahsulotni ishlab chiqarish va omborga qabul qilish bilan bog‘liq xo‘jalik operatsiyalarini hisobda aks ettiring va bajarilgan hisob-kitoblarni tushuntirib bering.

## 15-MAVZU. KORXONANING HISOB SIYOSATI
(4 soat)

### 15.1. Hisob siyosatini shakllantirishning normativ asoslari, bosqichlari va prinsiplari
(2 soat)

#### NAZORAT SAVOLLARI

1. Hisob siyosatining mohiyatini tushuntiring?
2. “Korxonaning hisob siyosati” tushunchasining mazmunini ochib bering.
3. Korxona hisob siyosati qaysi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan qoidalar asosida shakllantiriladi?
4. Hisob siyosati qanday vazifalarni hal etadi?
5. Hisob siyosatini shakllantirish bosqichlarini tushuntirib bering?
6. Hisob siyosatini shakllantirishning prinsiplarini aytib bering.

#### TEST TOPSHIRIQLARI

**1. “Korxonaning hisob siyosati” tushunchasini siz qanday tasavvur etasiz?**

A) Subyekt tomonidan moliyaviy hisobotni tayyorlash va tuzishda qo‘llaniladigan o‘ziga xos prinsiplar, konventsiyalar, qoida va amaliy yondashuvlarni ifodalaydi

B) Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt buxgalteriya hisobini tashkil etishni tartibga soladigan hisobot yilida o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmaydigan, qat’iy belgilangan qoidalar

C) Menejerlar uchun tavsiya tavsifiga ega bo‘lgan, alohida ob’ektlarni hisobga olish qoidalarining to‘plami

D) Hisob siyosati to‘g‘risidagi buyruqni tuzish sanasidagi korxonaning moliyaviy barqarorligidan kelib chiqqan holda belgilangan ma’lum qoidalar ro‘yxati

**2. Korxona hisob siyosatini shakllantirishda me’yoriy hujjatlarda ruxsat etilgan bitta yoki bir necha usullarni tanlashni qanday aniqlaydi?**

A) Bir nechta usullardan bittasini

B) Bir nechta usullarni

C) Bitta yoki bir nechta

D) №1 “Hisob siyosati va moliyaviy hisobot” nomli BHMSda ushbu yondashuv aks etmagan

**3. Yangi tashkil qilingan korxona tomonidan ishlab chiqilgan hisob siyosati qachondan amal qiladi?**

A) Birinchi buxgalteriya hisoboti taqdim qilinganidan

B) Yuridik shaxs huquqiga ega bo‘lgan (davlat ro‘yxatidan o‘tgan) sanadan

C) Soliq inspektsiyasida ro‘yxatga qo‘yilgan sanadan boshlab

D) Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan yildan keyingi yilning 1 yanvaridan

**5. Buxgalteriya hisobini yuritishning qaysi usullari muhim deb e’tirof etiladi?**

A) Boshqaruv xarajatlarini kalkulyatsya ob’ektlari o‘rtasida taqsimlash usuli

B) Korxona barqarorligini belgilaydigan, o‘rnatilgan foiz doirasida

C) Ularni bilmasdan turib, korxonaning moliyaviy hisoboti, pul oqimlari yoki moliyaviy natijalaridan manfaatdor foydalanuvchilarga korxona moliyaviy barqarorligini ishonchli baholashga imkon bermaydigan har qanday usullar

D) Korxonaning hisob siyosatida muhimlilik prinsipi keltirilmaydi

**6. Hisob siyosatini shakllantirishning asosiy bosqichlarini ko‘rsating?**

A) Hisob siyosati ishlab chiqish uchun zarur buxgalteriya hisobi ob’ektlarini aniqlash; Hisob ob’ektlaridan kelib chiqib hisob siyosatini shakllantirishga ta’sir ko‘rsatadigan shart-sharoitlar; Birlamchi qoidalarni tanlash va asoslash, hisob siyosatini tuzish; Har bir ob’ekt bo‘yicha buxgalteriya hisobining zarur usullari va amallarini tanlash; Konkret korxona uchun hisob yuritish usullarini tanlash; Korxona hisob siyosatini rasmiylashtirish (buyruq, farmoyish).

B) Hisob siyosati ishlab chiqish uchun zarur buxgalteriya hisobi ob’ektlarini aniqlash; Hisob ob’ektlaridan kelib chiqib hisob siyosatini shakllantirishga ta’sir ko‘rsatadigan shart-sharoitlar;

Birlamchi qoidalarni tanlash va asoslash, hisob siyosatini tuzish; Har bir ob'ekt bo'yicha buxgalteriya hisobining zarur usullari va amallarini tanlash; Korxona hisob siyosatini rasmiylashtirish (buyruq, farmoyish).

C) Hisob siyosati ishlab chiqish uchun zarur buxgalteriya hisobi ob'ektlarini aniqlash; Hisob ob'ektlaridan kelib chiqib hisob siyosatini shakllantirishga ta'sir ko'rsatadigan shart-sharoitlar; Har bir ob'ekt bo'yicha buxgalteriya hisobining zarur usullari va amallarini tanlash; Konkret korxona uchun hisob yuritish usullarini tanlash; Korxona hisob siyosatini rasmiylashtirish (buyruq, farmoyish).

D) Hisob ob'ektlaridan kelib chiqib hisob siyosatini shakllantirishga ta'sir ko'rsatadigan shart-sharoitlar; Birlamchi qoidalarni tanlash va asoslash, hisob siyosatini tuzish; Har bir ob'ekt bo'yicha buxgalteriya hisobining zarur usullari va amallarini tanlash; Konkret korxona uchun hisob yuritish usullarini tanlash; Korxona hisob siyosatini rasmiylashtirish (buyruq, farmoyish).

**7. Hisob siyosatining qanday prinsiplari bor?**

A) To'liqlik; Ehtiyotkorlik; Muvofiqlik; O'z vaqtidalik; Mazmunning shakldan ustuvorligi; Oqilonalik

B) To'liqlik; Ehtiyotkorlik; Muvofiqlik; O'z vaqtidalik; Mazmunning shakldan ustuvorligi; Qiyoslanuvchanlik; Taqqoslash

C) To'g'rilik; Ehtiyotkorlik; Muvofiqlik; O'z vaqtidalik; Mazmunning shakldan ustuvorligi; Oqilonalik

D) To'liqlik; To'g'rilik; O'z vaqtidalik; Mazmunning shakldan ustuvorligi; Oqilonalik

## AMALIY MASHQLAR

**1. Hisob siyosatining mohiyati va vazifalari**

| | |
|---|---|
| **Hisob siyosati** | |
| **Hisob siyosatining asosiy vazifalari** | |

**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga hisob siyosatining mohiyati va vazifalarini yozing hamda ularni tavsiflab bering.

**2. Hisob siyosatini shakllantirish bosqichlari**




**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga hisob siyosatini shakllantirish bosqichlarini yozing va ularni izohlab bering.

**3. Hisob siyosatini shakllantirish prinsiplari**




**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga hisob siyosatini shakllantirish prinsiplarini yozing va ularni tavsiflab bering.

**4. Hisob siyosatini shakllantirishning normativ-huquqiy asoslari va bosqichlari**

1. Hisobot davrida Oliy ta'lim muassasini tamomlagan talaba yangi tashkil etilgan korxonaga buxgalter lavozimiga ishga qabul qilindi. Korxona rahbariyati buxgalterga korxona hisob siyosatini ishlab chiqish kerakligini tushuntirgan holda uni shakllantirish topshirig'ini berdi. Buxgalter korxona hisob siyosatini shakllantirish tartibini tushunmasligi sababli Sizga quyidagi savollar bilan korxona hisob siyosatini ishlab chiqishda ko'maklashish bo'yicha murojaat qildi:

1). Hisob siyosati nima?
2). Hisob siyosatini ishlab chiqish o‘zi nima uchun kerak?
3). Hisob siyosatini shakllantirishning normativ-huquqiy asoslari bormi?
4). Hisob siyosatini shakllantirish jarayoni qanday bosqichlardan iborat bo‘ladi?
5). Hisob siyosatining tarkibi qanday bo‘ladi?
6). Hisob siyosatini tuzish tartibini tushuntiring?
7). Korxonaning hisob siyosati qanday tartibda rasmiylashtiriladi?

**Talab qilinadi:**

1. Buxgalterga hisob siyosatining mohiyati, uni tuzishning zarurligi va normativ-huquqiy asoslarini tushuntiring.
2. Hisob siyosatini shakllantirish bosqichlarini tushuntiring.
3. Korxona hisob siyosatining tarkibi, tuzish va rasmiylashtirish tartibini tushuntirib bering.

2. “Bekzod. Ya.Z” xususiy korxonasi 20... yil 12 aprelda davlat ro‘yxatidan o‘tgan holda yuridik shaxs maqomiga ega korxona sifatida faoliyatini boshlagan. Xususiy korxonaning faoliyati dastlabki 3 oyda yaxshi bo‘lmaganligi bois korxona rahbarining o‘zi mustaqil buxgalteriyasini yuritib kelgan. Hisobot davrining III choragida korxonaning faoliyati yaxshilanib, ishlab chiqarayotgan mahsulotlari xaridorlar tomonidan xarid qilish hajmi oshib borgan. Shu bois, korxona rahbari buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish uchun buxgalter lavozimini joriy qilgan holda korxonaga A.Sobirovni buxgalter sifatida ishga qabul qildi va unga korxonaning hisob siyosatini ishlab chiqish topshirig‘ini berdi.

A.Sobirov tomonidan korxonaning hisob siyosati oktyabr oyida ishlab chiqildi va tegishli tartibda rasmiylashtirildi.

20... yil noyabr oyida korxonaga bir yangi mulkdor qo‘shildi. U A.Sobirovdan korxonaning hisob siyosati bilan tanishib chiqish maqsadida taqdim qilishni so‘radi. Yangi mulkdor korxonaning hisob siyosatini tanishib bo‘lgandan so‘ng, A.Sobirovga nega korxonaning hisob siyosati davlat ro‘yxatidan o‘tgandan keyin 90 kun ichida ishlab chiqilib rasmiylashtirilmaganligini sababini so‘rab murojaat qildi. Axir amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda shunday tartib belgilanganligini tushuntirdi. Bunga javoban A.Sobirov amaldagi qonunchilikda yangi tashkil etilgan korxonaning hisob siyosati uning moliyaviy hisobotini birinchi marta e’lon qilgunga qadar rasmiylashtirishi kerakligi belgilanganligini aytib o‘tdi.

**Talab qilinadi:**

1. Mazkur holatda A.Sobirov to‘g‘ri yo‘l tutganmi? Fikringizni asoslab bering.
2. Yangi mulkdorning e’tirozi o‘rinli deb o‘ylaysizmi?
3. Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq yangi tashkil etilgan korxonalarda hisob siyosati qaysi vaqtda ishlab chiqilib rasmiylashtirilishi lozim.
4. O‘zi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar tomonidan hisob siyosati ishlab chiqilishi kerakmi? Fikringizni asoslab bering.

## 15.2. Hisob siyosatining tarkibi, tuzish va rasmiylashtirish (2 soat)

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Hisob siyosatining tarkibini ayting?
2. Hisob siyosatining umumiy qoidalarini ayting?
3. Buxgalteriya hisobini uslubiy ta’minlashning mohiyati nimadan iborat?
4. Buxgalteriya hisobini tashkiliy ta’minlashning mazmunini ta’riflang.
5. Buxgalteriya hisobini texnik ta’minoti deganda nimani tushunasiz?
6. *Hisob siyosati qanday hollarda o‘zgartiriladi?*

## TEST TOPSHIRIQLARI

**1. Hisob siyosatini tarkibi qanday?**

A) Buxgalteriya hisobining tashkiliy ta'minoti
B) Buxgalteriya hisobining uslubiy ta'minoti
C) Buxgalteriya hisobining texnik ta'minoti
D) Buxgalteriya hisobining uslubiy, texnik va tashkiliy ta'minoti

**2. Korxonaning hisob siyosati kim tomonidan tuziladi va tasdiqlanadi?**

A) Korxonaning bosh buxgalteri tomonidan biznes-reja asosida tuziladi va rahbar tomonidan tasdiqlanadi
B) №1 "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot" nomli BHMS talablari va tavsiyalari asosida korxona bosh buxgalteri tomonidan tuzilib, rahbar tomonidan tasdiqlanadi
C) Korxona bosh iqtisodchisi tomonidan tuziladi va rahbar tomonidan tasdiqlanadi
D) Korxona menejerlari tomonidan tuziladi va rahbari tomonidan tasdilanadi

**3. Hisob siyosati shakllantirishning uslubiy jihati ...**

A) Hisob usullarining hisob registrlarida qanday amalga oshirilishini ko'rsatadi
B) Korxonada mulklar va majburiyatlarni baholash, amortizatsiya hisoblash va h.k. usullaridan qaysilari foydalanishini ko'rsatadi
C) Buxgalteriya xizmati tuzilishi nuqtai nazaridan hisob usullarining qanday amalga oshirilishini ko'rsatadi
D) Dastlabki hujjatlarni qanday tuzishni aks ettiradi

**4. Hisob siyosati to'g'risidagi buyruq qancha muddatga ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi?**

A) Bir yilga
B) Bir chorakka
C) Korxonaning butun faoliyat davriga
D) Besh yilga

**5. Korxona faoliyatini aks ettiradigan sintetik va analitik scho'tlardan iborat hisob siyosati tarkibiga kiritiladigan "Ishchi scho'tlar rejasi" buxgalteriya hisobining qaysi talablarini hisobga olgan holda tuziladi?**

A) Mulkiy alohidalik
B) Faoliyat uzluksizligi
C) Hisob va hisobotning o'z vaqtidaligi, to'liqligi
D) Bir-biriga zid kelmaslik

**6. Korxona tomonidan xo'jalik faoliyatida avval amal qilingan yoki birinchi marta vujudga kelgan xo'jalik muomalalarini hisobga olish usulining hisob siyosati bilan tasdiqlanishi hisob siyosatining o'zgartirilishi deb tan olinadimi?**

A) Yo'q
B) Ha
C) Ha, agar ushbu usullar korxona faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatmasa
D) Ushbu holati №1 "Hisob siyosati va mliyaviy hisobot" nomli BHMSda aks ettirilmagan

**7. Korxonaning hisob siyosatiga kiritilgan o'zgartirishlar qaysi davrdan boshlab amal qiladi?**

A) Tegishli tashkiliy-farmoyish hujjat bilan tasdiqlangan yildan keyingi yilning 1 yanvaridan (moliyaviy yil boshidan)
B) Korxonaning hisob siyosatiga tegishli o'zgartirish kiritishni talab qiladigan yangi me'yoriy hujjat amal qilish sanasidan boshlab
C) Korxona tomonidan ishlab chiqilgan buxgalteriya hisobini yuritishning yangi usullari rahbar tomonidan tasdiqlangan sanadan
D) Korxonani qayta tashkil etish jarayonlari amalga oshirilgan sanadan

## AMALIY MASHQLAR

**1. Hisob siyosatining tarkibi**




**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga hisob siyosatining tarkibini yozing va ularni tavsiflab bering.

**2. Hisob siyosatining uslubiy jihatlari**




**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga hisob siyosatining uslubiy jihatlarini yozing va ularni izohlab bering.

**3. Hisob siyosatining texnik ta'minoti**




**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga hisob siyosatining texnik ta'minotini yozing va tavsiflab bering.

**4. Hisob siyosatini o'zgartirish**




**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga hisob siyosatiga o'zgartirish kiritish tartibini yozing va ularni izohlab bering.

**5. Hisob siyosatining uslubiy jihatlari va unga o‘zgartirish kiritishga doir muammoli vaziyatlar**

1. Korxonaning hisob siyosatida asosiy vositalarga, jumladan transport vositalariga to‘g‘ri chiziq usulida eskirish hisoblanishi belgilangan.

Korxona hisobot davrida yangi transport vositasini 178 000,0 ming so‘mga xarid qildi. Transport vositasining tugatish qiymati belgilanmagan. Xizmat muddati texnik tavsifiga muvofiq 8 yil.

Korxona buxgalteri yangi transport vositasiga hisob siyosatida belgilangan to‘g‘ri chiziq usulida emas, balki qoldiqli kamayish usulida eskirish hisobladi.

**Talab qilinadi.** Korxona buxgalteri transport vositasiga qoldiqli kamayish usulida eskirish hisoblashi to‘g‘rimi? Fikringizni asoslab bering.

2. Korxona tomat pastasi ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanadi. Tayyor mahsulotlarni tayyorlash maqsadida korxona idish (bonka) sotib olib, ishlab chiqarish maqsadlarida foydalanadi. Hisobot davrida quyidagi idish (bonka)lar sotib olingan va ishlab chiqarishga berilgan:

| Sotib olish sanasi | Sotib olingan idishlar miqdori | Bir birlik idishning bahosi |
|---|---|---|
| | *Kirim* | |
| 8 yanvar | 3000 | 800 |
| 15 iyun | 4500 | 900 |
| | *Chiqim: ishlab chiqarishga berildi* | |
| 12 sentyabr | 5500 | |
| | *Kirim* | |
| 2 oktyabr | 7500 | 950 |
| | *Chiqim: ishlab chiqarishga berildi* | |
| 25 dekabr | 6500 | |

Hisobot davri oxirida korxona omborida qolgan idish (bonka)lar soni 3000 donani tashkil etadi.

Korxonaning hisob siyosatida materiallarni ishlab chiqarishga sarflashda baholashning AVECO usuli belgilangan. Lekin korxona buxgalteri ishlab chiqarishga berilgan idishlar qiymatini baholashda FIFO usulidan foydalangan.

Bu holatni aniqlagan korxona bosh buxgalteri ishlab chiqarishga sarflangan idishlarni hisob siyosatida belgilangan baholash usulidan foydalanish lozimligini ta’kidlagan holda buxgalterning yondashuvi noto‘g‘ri ekanligini tushuntirdi.

**Talab qilinadi:**

1. Korxona buxgalteriya ishlab chiqarishga berilgan idishlar tannarini aniqlashda FIFO usulidan foydalanishi to‘g‘rimi?
2. Bosh buxgalterning sarflangan idishlar tannarxini aniqlash bo‘yicha e’tirozi o‘rinlimi? Fikringizni asoslab bering.

3. Korxona qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash faoliyati bilan shug‘ullanadi. Hisobot davri uchun korxona buxgalteri tomonidan hisob siyosati ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Hisobot davrining III choragida korxona mulkdorlari o‘zgardi. Korxonaning yangi mulkdorlari tasdiqlangan hisob siyosatini ko‘rib chiqdi va uning uslubiy jihatlarini o‘zgartirish kiritish kerakligini buxgalterga tushuntirdi. Korxona buxgalteri esa yangi mulkdorlarga hisob siyosatini moliyaviy hisobot davri yakunlangandan so‘ng o‘zgartirish kiritish mumkinligini ta’kidlab o‘tdi. Bu javobdan qoniqmagan korxonaning yangi mulkdorlari buxgalterga hisob siyosatiga o‘zgartirish kiritishni talab qildi.

**Talab qilinadi:**

1. Mazkur vaziyatda korxonaning yangi mulkdorlarining talabi o‘rinlimi?
2. Amaldagi qonunchilikka muvofiq hisob siyosatiga qanday hollarda o‘zgartirish kiritiladi.
3. Ushbu holatda korxona buxgalteri qanday yo‘l tutishi kerak. Fikringizni amaldagi qonunchilikda belgilangan qoidalarga muvofiq asoslab bering.

## 16-MAVZU. BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOTINI TASHKIL ETISH
**(4 soat)**

### 16.1. Buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish prinsiplari, tizimi va uning asosiy elementlari
**(2 soat)**

### NAZORAT SAVOLLARI
1. Buxgalteriya hisobini tashkil etish tushunchasini tariflang.
2. Korxonada buxgalteriya hisobini tashkil etish bo'yicha asosiy hujjatlarni aytib bering.
3. Buxgalteriya xizmati qanday vazifalarni bajaradi?
4. Buxgalteriya hisobini tashkil etishga qanday talablar qo'yiladi?
5. Korxona rahbari buxgalteriya hisobini tashkil etish sohasida qanday huquqlarga ega?
6. Korxonalarda buxgalteriya hisobini tashkil etishning qanday shakllarini bilasiz?
7. Buxgalteriya hisobining qanday tashkiliy tuzilmalari mavjud?
8. Bosh buxgalterning huquqi, majburiyatlari va javobgarligi nimalardan iborat?
9. Bosh buxgalter ishlarini qabul qilish-topshirish tartibi qanday?

### TEST TOPSHIRIQLARI
**1. Korxonada buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish uchun kim mas'ul?**
A) Korxona rahbari
B) Korxona rahbari va bosh buxgalter
C) Bosh buxgalter
D) Bosh buxgalter va kassir

**2. Buxgalteriya hisobining qanday tashkiliy shakllari bor?**
A) Mayda va yirik
B) Operativ texnik, statistik va buxgalterlik hisobi
C) Oddiy va murakkab
D) Markazlashtirilgan, markazlashtirilmagan va aralash

**3. Tovar-moddiy qiymatliklar va pul mablag'larini qabul qilish va berishga asos bo'luvchi hujjatlar hamda hisob-kitob, kredit, moliyaviy majburiyatlar va xo'jalik shartnomalarini kim imzolaydi?**
A) Korxona rahbari
B) Korxona rahbari va bosh buxgalter
C) Bosh buxgalter
D) Ombor mudiri va moddiy javobgar shaxs

**4. Korxona rahbari buxgalteriya hisobini qonunchilik bilan o'rnatilgan tartibda yuritishdan bosh tortganida:**
A) Jinoiy javobgarlikka tortiladi
B) Ma'muriy javobgarlikka tortiladi
C) Ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortiladi
D) Javobgarlikka tortilmaydi

**5. Buxgalteriya xodimlarining xizmat vazifalari qanday taqsimlanadi?**
A) Buxgalteriya xodimlarining xizmat vazifalari, buxgalteriya apparatining tuzilishi va xo'jalikning xususiyati, ixtisoslashganligi xususiyatlariga qarab taqsimlanadi
B) Buxgalteriya xodimlarining xizmat vazifalari bosh buxgalter roziligi asosida taqsimlanadi
C) Buxgalteriya xodimlarining xizmat vazifalari xo'jalik rahbari tomonidan taqsimlanadi
D) Buxgalteriya xodimlarining xizmat vazifalari va majburiyatlari tashkilotlar xo'jaliklarning farmoyishlari, buyruqlari asosida taqsimlanadi

**6. Ishonch qog'ozlari kimlarga beriladi?**
A) Moddiy javobgar va hisobdor shaxslarga
B) Hisobdor shaxslarga 10 ish kuni muddatiga bosh buxgalter tomonidan beriladi

C) Buxgalterlarga, kassirga, xo'jalik rahbarlariga

D) Xo'jalik majburiyati, buyrugi yoki farmoyishiga binoan moddiy javobgar va hisobdor shaxslarga 40 kun davomida beriladi

**7. Sintetik hisob qanday tashkil etiladi?**

A) Sintetik hisob bosh daftar va hisob registrlarida tashkil etilib, scho'tlar bo'yicha umumiy ma'lumotlar beriladi

B) Sintetik hisob ishlab chiqarish hisobotlarda tashkil etiladi

C) Sintetik hisob jurnal-order va vedomostlarda tashkil etiladi

D) Sintetik hisob shaxsiy scho't varaqalarida tashkil etiladi

## AMALIY MASHQLAR

**1. Buxgalteriya hisobining maqsadi va vazifalari**

**Buxgalteriya hisobining maqsadi**

**Buxgalteriya hisobining vazifalari:**

**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga buxgalteriya hisobining maqsadi va vazifalarini yozing hamda ularni tavsiflab bering.

**2. Buxgalteriya hisobini tashkil etish tizimi**




**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga buxgalteriya hisobini tashkil etish tizimining asosiy elementlarini yozing va ularni izohlab bering.

**3. Buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etishga qo‘yiladigan talablar**




**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etishga qo‘yiladigan asosiy talablarni yozing va ularni tavsiflab bering.

**4. Korxona rahbarining buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etishga doir huquq va majburiyatlari**

| Korxona rahbarining huquq va majburiyatlari | |
|---|---|
| **Korxona rahbarining huquqlari** | **Korxona rahbarining majburiyatlari** |
| | |

**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga korxona rahbarining buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etishga doir huquq va majburiyatlari yozing hamda ularni izohlab bering.

**5. Buxgalteriyaning tashkiliy tuzilmasi**

**Korxona buxgalteriyasi tashkiliy tuzilishining variantlari**

**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga korxona buxgalteriyasi tashkiliy tuzilishining variantlarini yozing va ularni qisqacha tavsiflab bering.

**6. Buxgalteriya hisobi xizmatining rahbari bilan yuzaga keladigan muammoli vaziyatlar**

1. “YULDUZ” mas’uliyati cheklangan jamiyati (MCHJ) bolalar keyim-kechak mahsulotlarini ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanadi. MCHJning buxgalteri nafaqaga chiqqanligi bois, uning o‘rniga yangi buxgalterni ishga oldi.

**Talab qilinadi:**

1. Mazkur holatda yangi ishga olingan buxgalterga bosh buxgalter ishini qabul qilish va topshirish tartibini tushuntiring.
2. Bosh buxgalterning lavozim yo‘riqnomasi bilan tanishtiring.
3. Bosh buxgalter qanday huquqlarga ega ekanligi va qanday majburiyatlari borligini tushuntirib o‘ting.

2. Aksiyadorlik jamiyati (AJ)ga bosh buxgalterlik lavozimiga yangi xodim tayinlandi. Jamiyat rahbari unga bosh buxgalterning lavozim yo'riqnomasini ko'rsatib, tanishtirib o'tdi. Shundan so'ng, yangi ishga qabul qilingan bosh buxgalter jamiyatda ish faoliyatini amalga oshira boshladi.

Kunlarning birida jamiyat rahbarining o'rinbosari bosh buxgalterni chaqirib, unga buxgalteriya hisobi va hisoboti bilan bog'liq barcha ma'lumotlar bilan birinchi navbatda unga ma'lumot taqdim etilishini aytib o'tdi. Undan keyin jamiyat rahbariga taqdim etishi kerakligini tushuntirdi. Bundan maqsad jamiyat rahbari o'rinbosari barcha buxgalteriya hisobi va hisoboti bilan bog'liq ma'lumotlardan xabardor bo'lishi lozim ekanligini ta'kidlab o'tdi.

Bunga javoban bosh buxgalter jamiyat rahbari o'rinbosariga u bevosita jamiyat rahbariga bo'ysunishini ta'kidlab, buxgalteriya hisobi va hisoboti bilan bog'liq masalalarni to'g'ri jamiyat rahbari bilan hal etishini va unga dastlab ma'lumotlar taqdim etishini tushuntirdi. Shundan so'ng, agarda hohlasa unga ham ma'lumot berishini aytib, bunga majburmasligini ta'kidladi.

Bunday javobdan keyin jamiyat rahbari o'rinbosari va bosh buxgalter o'rtasida ziddiyat kelib chiqdi.

**Talab qilinadi:**

1. Mazkur holatda jamiyat rahbari o'rinbosarining bosh buxgalterga quygan talabi to'g'rimi? Fikringizni asoslab bering.
2. Bosh buxgalter jamiyat rahbari o'rinbosari talabiga to'g'ri javob berdimi? Aslida bosh buxgalter jamiyatda bevosita kimga bo'ysunadi.
3. Ushbu ziddiyatli holatni qanday bartaraf etish lozim. Fikringizni asoslab bering.

3. Xususiy korxonada buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish uchun bir nafar buxgalter lavozimi joriy qilingan. Xususiy korxonada buxgalter lavozimida ishlab kelayotgan A.Botirov kasal bo'lib qolganligi sababli shifoxonaga davolanish maqsadida yotdi. Shifokorlar unga kamida 40 kun davomida ishga chiqmasligini tushuntirdi. Xususiy korxona rahbari mazkur holatda A.Botirovning oldiga kelib, ishdan bo'shashi kerakligini aytdi. Chunki, 40 kun uzoq muddat ekanligini aytgan holda uning o'rniga yangi buxgalter topib ishga olishi lozimligini tushuntirdi.

**Talab qilinadi:**

1. Ushbu vaziyatda xususiy korxona rahbari to'g'ri yo'l tutayapdimi? Fikringizni asoslab bering.
2. O'zi buxgalter ma'lum bir sabablarga (mehnat ta'tili, kasallik va boshqa) ko'ra ishga chiqmasa, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq uning huquq va majburiyatlari kimga yuklanadi.
3. Yuqoridagi vaziyatda xususiy korxona buxgalteri A.Botirov bo'shash uchun ariza yozishi kerak deb o'ylaysizmi?

## 16.2. Buxgalteriya hisobini o'zaro bog'liq bo'lgan ikkita: Moliyaviy va boshqaruv hisobi quyi tizimlariga ajratish (2 soat)

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Boshqaruv hisobiga ta'rif bering?
2. Moliyaviy hisobga ta'rif bering?
3. Boshqaruv hisobining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
4. Moliyaviy hisobning maqsadi va vazifalarini ayting?
5. Axborotdan foydalanuvchilar nuqtai-nazaridan boshqaruv va moliyaviy hisob o'rtasida qanday farqlar mavjud?
6. Axborot manbalariga ko'ra boshqaruv hisobi moliyaviy hisobdan qanday farqlanadi?
7. Axborotni taqdim etish shakllariga muvofiq hisob turlarining farqini ko'rsatib bering?
8. Moliyaviy va boshqaruv hisobida axborotlar qanday o'lchanadi?

## TEST TOPSHIRIQLARI

**1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarda buxgalteriya hisobi qanday qismlarga bo'linadi?**

A) Moliyaviy hisob va statistik hisob
B) Boshqaruv hisobi va dinamik hisob
C) Moliyaviy hisob va boshqaruv hisobi
D) Moliyaviy hisob va soliq hisobi

**2. Boshqaruv hisobi bu -...**

A) Korxona va uning iqtisodiy bo'linmalari faoliyatlari yuzasidan taktik va strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun xarajatlar va daromadlar to'g'risidagi axborotni taqdim etuvchi ichki xo'jalik hisobining sintetik tizimidir
B) Korxona va uning iqtisodiy bo'linmalari faoliyatlari yuzasidan taktik va strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilishdir
C) Korxona va uning turli bo'g'inlaridagi tarkibiy tuzilmalarning faoliyatlari yuzasidan taktik va strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun mo'ljallangan xarajatlar va daromadlar to'g'risidagi axborot tizimidir
D) Korxonaning faoliyati yuzasidan taktik va strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun xarajatlar va daromadlar to'g'risidagi axborotni taqdim etuvchi ichki xo'jalik hisobining tizimidir

**3. Moliyaviy hisobining maqsadi .... .**

A) Korxonaning mulkiy va moliyaviy holatini baholash, aktivlar va passivlarning holati to'g'risidagi. axborotlarni umumlashtirish, davriy va yillik buxgalteriya hisobotini tuzishdan iborat
B) Korxona rahbariyatini oqilona boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun xarajatlar va moliyaviy natijalar to'g'risidagi ishonchli axborotlar bilan ta'minlashdir
C) Boshqaruv hisobining maqsadi bilan bir xil
D) Moliyaviy hisobning maqsadi bo'lmaydi. Chunki, moliyaviy hisob tashqi foydalanuvchilarga axborot yetkazib beradi va u axborotlar hisobotlar shaklida taqdim etiladi

**4. Moliyaviy hisobining axborotlari qanday o'lchanadi?**

A) Moddiy, mehnat va qiymat
B) Moddiy
C) Qiymat
D) Mehnat va qiymat

**5. Boshqaruv hisobining maqsadi ifodalangan qatorni aniqlang?**

A) Tashqi foydalanuvchilar uchun axborotlarni yetkazib berish
B) Ichki foydalanuvchilar uchun axborotlarni shakllantirish
C) Tashqi va ichki foydalanuvchilar uchun axborotlarni yig'ish
E) Moliyaviy hisobning maqsadi bilan bir xil

**6. Boshqaruv hisobining axborotlari qanday o'lchanadi?**

A) Moddiy, mehnat va qiymat
B) Moddiy
C) Qiymat
D) Mehnat va qiymat

## AMALIY MASHQLAR

**1. Buxgalteriya hisobini o'zaro bog'liq bo'lgan ikkita: Moliyaviy va boshqaruv hisobi quyi tizimlariga ajratish**

| Buxgalteriya hisobini o'zaro bog'liq bo'lgan ikki quyi tizimi | |
|---|---|
| **Moliyaviy hisob** | **Boshqaruv hisobi** |
| | |

**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga buxgalteriya hisobini o'zaro bog'liq bo'lgan ikkita: Moliyaviy va boshqaruv hisobi quyi tizimlariga ajratgan holda ta'riflang va ularni tavsiflab bering.

**2. Moliyaviy hisobning maqsadi va vazifalari**

| | | |
|---|---|---|
| **Moliyaviy hisob** | **Maqsadi** | |
| | **Vazifalari** | |

**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga moliyaviy hisob maqsadi va vazifalarini yozing hamda ularni izohlab bering.

**3. Boshqaruv hisobining maqsadi va vazifalari**

| | | |
|---|---|---|
| Boshqaruv hisob | Maqsadi | |
| | Vazifalari | |

**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga boshqaruv hisobining maqsadi va vazifalarini yozing hamda ularni tavsiflang.

**4. Moliyaviy va boshqaruv hisobining farqli jihatlari**

| Farqlash mezonlari | Moliyaviy hisob | Boshqaruv hisobi |
|---|---|---|
| *Hisobining maqsadi* | | |
| *Hisob siyosatini ishlab chiqish* | | |
| *Axborotlarni buxgalteriya hisobi scho'tlari tizimida aks ettirish* | | |
| *Axborotdan foydalanuvchilar* | | |
| *Axborotni taqdim elish shakllari* | | |
| *Hisobni yuritish majburiyati* | | |

| | | |
|---|---|---|
| *Hisobni tashkil etish qoidalari* | | |
| *Hisob prinsiplari* | | |
| *Hisobning asosiy ob'ektlari* | | |
| *Hisobning asosiy tuzilmasi* | | |
| *Axborotlarning oshkoralik darajasi* | | |
| *Axborot aks ettirish usullari va yo'llari* | | |
| *Axborotlarni o'lchash* | | |
| *Hisobot tuzishning davriyligi* | | |
| *Axborotning sodir bo'lish vaqti* | | |
| *Axborotning aniqlik va ishonchlilik darajasi* | | |
| *Xarajatlar va daromadlarni guruhlash yo'llari* | | |

**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga moliyaviy va boshqaruv hisobining farqli jihatlarini yozing hamda ularni tavsiflab bering.

## 17-MAVZU. BUXGALTERIYA HISOBI RIVOJLANISHINING TARIXIY JIHATLARI (4 soat)

### 17.1. Buxgalteriya hisobining vujudga keltirgan tarixiy shart-sharoitlar (2 soat)

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Buxgalteriya hisobini qanday tarixiy zarurat vujudga keltirgan?
2. Buxgalteriya hisobi qachon paydo bo'lgan?
3. Buxgalteriya hisobining rivojlanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatgan?
4. Temuriylar davlatida hisob ishlari qanday bo'lgan?
5. Buxgalteriya hisobining qanday asosiy maktablari bo'lgan va ularning xususiyatlari qanday?
6. Buxgalteriya hisobining istiqbolini qanday tasavvur qilasiz?

### TEST TOPSHIRIQLARI

**1. Buxgalteriya hisobini isloh qilishning zaruratini qanday sabablar vujudga keltirgan?**

A) Buxgalteriya hisobi biznes tili hisoblanadi va iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida tashqi axborotdan foydalanuvchilar uchun ishonchli moliyaviy hisobot tayorlash zarur

B) Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari qo'llashda buxgalteriya hisobining milliy standartlariga nisbatan ancha sodda

C) Buxgalteriya hisobining milliy standartlari xo'jalik yuritishning xarajat usuliga yo'naltirilgan

D) Avval mamlakatimiz iqtisodiyotida mavjud bo'lmagan, rivojlangan bozor segmentlarining (fond birjasi, mehnat bozri va b.) shakllanishi

**2. Raymond de Ruver o'z asarida ikkiyoqlama buxgalteriya hisobining paydo bo'lishi haqida shunday deb yozadi: "..."**

A) Bir narsa aniq: ikkiyoqlama buxgalteriya hisobi italiyalik matematik professor Luka Pacholi «Scho'tlar va yozuvlar haqidagi traktat» nomli kitobida dastlabki kurtaklari bayon etilgan

B) Bir narsa aniq: ikkiyoqlama buxgalteriya hisobi 1450 va 1494-yillar ichida Italiyada paydo bo'lgan. Buning birinchi shubhasiz dalilini 1350-yili Genuaz boshqaruvchisining hujjatlaridan topamiz, ammo uning yanada qadimiy ekanligi haqida ham ma'lumotlar bor

C) Bir narsa aniq: ikkiyoqlama buxgalteriya hisobi 1250 va 1350-yillar ichida Italiyada paydo bo'lgan. Buning birinchi shubhasiz dalilini 1340-yili Genuaz boshqaruvchisining hujjatlaridan topamiz, ammo uning yanada qadimiy ekanligi haqida ham ma'lumotlar bor

B) Bir narsa aniq: ikkiyoqlama buxgalteriya hisobi 1450 va 1494-yillar ichida Frantsiyada paydo bo'lgan. Buning birinchi shubhasiz dalilini 1494-yili Luka Pacholi «Scho'tlar va yozuvlar haqidagi traktat» nomli kitobida dastlabki kurtaklari bayon etilgan

**3. Buxgalteriya hisobi qachondan mustaqil fan sifatida paydo bo'lgan?**

A) 100 yil muqaddam

B) 200 yil muqaddam

C) 500 yil muqaddam

D) 6000 yil muqaddam

**4. "Temur tuzuklari"da "Saltanatning har bir idorasida bo'ladigan kirim-chiqimlarni, kundalik xarajatlarni yozib borish uchun bir ... tayinlansin" deyilgan. Nuqtalar o'rniga quyiladigan mos so'zni toping?**

A) Qozi

B) Hisobchi

C) Vazir

D) Kotib

**5. Buxgalteriya hisobining qanday ilmiy asoslangan maktablari mavjud?**

A) Fransuz, Golland, Norvegiya

B) Italiya, Fransiya, Germaniya, Anglo-amerika, Rossiya

C) Germaniya, Avstriya, Shvetsiya

D) Italiya, Belgiya, Gollandiya

## AMALIY MASHQLAR

**1. Buxgalteriya hisobining vujudga keltirgan tarixiy shart-sharoitlar**

| **Buxgalteriya hisobini vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatgan tashqi va ichki sabablar** | |
|---|---|
| **Tashqi sabablar** | **Ichki sabablar** |
| | |

**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga buxgalteriya hisobini vujudga kelishiga sabab bo'lgan ichki va tashqi sabablarni yozing hamda ularni tavsiflab bering.

**2. Buxgalteriya hisobining rivojlanish maktablari**




**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga buxgalteriya hisobining rivojlanish maktablarini yozing va ular to'g'risida qisqacha ma'lumot bering.

**3. Buxgalteriya hisobining tarixiy taraqqiyoti to'g'risida umumiy ma'lumotlar**

1. Siz "Buxgalteriya hisobi va audit" yo'nalishida ta'lim olasiz. Sizga "Buxgalteriya hisobi nazariyasi" fani o'qitildi va unda buxgalteriya hisobining tarixiy taraqqiyoti to'g'risida umumiy ma'lumotlar berib o'tildi.

Bugungi kungi dars mashg'ulotlari yakunlandi va Siz uyga bordiz. Sizdan ota-onangiz bugun "Buxgalteriya hisobi nazariyasi" fanidan qanday mavzu o'tilganligini so'radi. Siz bugun mazkur fandan "Buxgalteriya hisob rivojlanishining tarixiy jihatlari" mavzusini o'tkaningizni ma'lum qildingiz. Shunda, Sizning ota-onangiz quyidagi savollar bilan murojaat qildi:

1). Buxgalteriya so'zining lug'aviy ma'nosi nima?

2). Buxgalteriya hisobi qanchon paydo bo'lgan?

3). Buxgalteriya hisobi fan sifatida qachon o'rganila boshlagan?

4). Buxgalteriya hisobi fanining asoschilari kimlar?

5). O'tmishda ajdodlarimiz ham hisob-kitob ilmiga ahamiyat berishganmi?

6). Buxgalteriya hisobining rivojlanish maktablari to'g'risida ma'lumot bering?

7). O'zbekistonda mustaqillik yillarida mazkur fanning rivojlanishiga kimlar hissa qo'shgan?

8). "Buxgalteriya hisobi nazariyasi" fanidan kimning darsliklaridan foydalanamiz?

9). "Buxgalteriya hisobi nazariyasi" fanining predmeti nima?

10). Buxgalteriya hisobining istiqbolini qanday tasavvur qilasiz?

**Talab qilinadi.** Ota-onangiz tomonidan berilgan savollarga dars mashg'ulotlarida o'rgangan ma'lumotlaringizdan kelib chiqib, asoslangan holda javob bering.

2. Sizning do'stingiz quyidagi savollarni bergan holda ma'lumot berishingizni so'rab murojaat qildi:

1. Buxgalteriya hisobini qanday zarurat vujudga keltirgan?
2. Buxgalteriya hisobining maqsadi nima?
3. O'zbekistonda buxgalteriya hisobi qachon paydo bo'lgan?
4. Temuriylar davlatida hisob ishlari qanday bo'lgan?
5. Buxgalteriya hisobi qanday normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi?
6. "Buxgalteriya hisobi va audit" yo'nalishini tamomlasangiz qaerlarda va qanday lavozimda faoliyat yuritasiz?
7. Buxgalteriya hisobiga doir iqtisodchi olimlarning qanday o'quv adabiyotlari mavjud?

**Talab qilinadi.** Do'stingiz tomonidan berilgan savollarga o'tilgan dars mashg'ulotlaridan kelib chiqqan holda javob bering.

### 17.2. Buxgalteriya hisobining rivojlangan maktablari (2 soat)

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Buxgalteriya hisobining qanday maktablari bo'lgan va ularning qanday xususiyatlari bor?
2. Italiya maktabining asoschilari va ularning uslubiy ishlanmalari to'g'risida ma'lumot bering?
3. Fransiya maktabining vakillari va ularning uslubiy ishlanmalari to'g'risida ma'lumot bering?
4. Germaniya maktabining xususiyatlari, ularning asosiy vakillari va uslubiy ishlanmalari to'g'risida nimalarni bilasiz?
5. Anglo-amerika maktabi to'g'risida qanday ma'lumotlarga egasiz?
6. Rossiya maktabining shakllanishi, uning o'ziga xos xususiyatlari, asosiy vakillari va uslubiy ishlanmalari to'g'risida ma'lumot bering?.

### TEST TOPSHIRIQLARI

**1. Italiya maktabining o'ziga xos xususiyati:**

A) «Hisob– bu aniq siyosiy iqtisodiyot»

B) «Hisob – bu huquq algebrasi»

C) Hisob amaliyot sifatida– «Hisobchilik», fan sifatida– «Hisobshunoslik »

D) «Balansshunoslik», «Iqtisodiy tahlil», «Kalkulyatsiya»

**2. Fransiya maktabining o'ziga xos xususiyati?**

A) «Hisob– bu aniq siyosiy iqtisodiyot»

B) «Hisob – bu huquq algebrasi»
C) hisob amaliyot sifatida– «Hisobchilik», fan sifatida–«Hisobshunoslik»
D) «Balansshunoslik», «Iqtisodiy tahlil», «Kalkulyatsiya»

**3. Digrafik hisobning asoschisi kim?**
A) Jak Savari
B) Djuzeppe Cherboni
C) Luka Pacholi
D) Iogann Fridrix Sher

**4. Germaniya maktabi namoyondalaridan biri I.F.Sher tomonidan yaratilgan hisob nazariyasi nima deb atalgan?**
A) Soliq nazariyasi
B) Buxgalteriya nazariyasi
C) Kapital nazariyasi
D) Balans nazariyasi

**5. Ango-amerika maktabining namoyondalari berilgan javobni ko'rsating?**
A) I.F.Sher, G. Niklish, E. Shmalenbax, F.Gyugli
B) I.Garrison, I.Fisher, Dr. Skott, R.X.Montgomeri, I.Ye.Shprut, V.E.Paton, D.O.Mey
C) M.Van Damm, M.Toma, J.P.Savari, A.Mendels, E.Degranj
D) L.Pacholi, L.Feori, P.Skali, A.Petro, J.Rossi, Djino Dzappa

## AMALIY MASHQLAR

**1. Italiya maktabining asoschilari**

| | |
|---|---|
| **Italiya maktabining asosiy vakillari** | |
| **Uslubiy ishlanmalari** | |
| **Italiya maktabining xususiyatlari** | |

**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga Italiya maktabining xususiyatlarini, asosiy vakillari va ularning uslubiy ishlanmalarini yozing hamda tavsiflab bering.

**2. Frantsiya maktabining vakillari**

| | |
|---|---|
| **Frantsiya maktabining asosiy vakillari** | |
| **Uslubiy ishlanmalari** | |

| | |
|---|---|
| **Frantsiya maktabining xususiyatlari** | |

**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga Frantsiya maktabining xususiyatlarini, asosiy vakillari va ularning uslubiy ishlanmalarini yozing hamda tavsiflab bering.

**3. Germaniya maktabi**

| | |
|---|---|
| **Germaniya maktabining asosiy vakillari** | |
| **Uslubiy ishlanmalari** | |
| **Germaniya maktabining xususiyatlari** | |

**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga Germaniya maktabining xususiyatlarini, asosiy vakillari va ularning uslubiy ishlanmalarini yozing hamda izohlab bering.

**4. Anglo-amerika maktabi**

| | |
|---|---|
| **Anglo-amerika maktabining asosiy vakillari** | |
| **Uslubiy ishlanmalari** | |
| **Anglo-amerika maktabining xususiyatlari** | |

**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga Anglo-amerika maktabining xususiyatlarini, asosiy vakillari va ularning uslubiy ishlanmalarini yozing hamda izohlab bering.

## 18-MAVZU. BUXGALTERIYA HISOBINING ZAMONAVIY NAZARIYALARI VA MODELLARI
**(4 soat)**

### 18.1. Statik, dinamik va organik balans nazariyalari
**(2 soat)**

#### NAZORAT SAVOLLARI

1. Statik buxgalteriya hisobi deganda nimani tushunasiz?
2. Dinamik buxgalteriya hisobi deganda nimani tushunasiz?
3. Statik hisobining asosiy vazifalarini ayting?
4. Dinamik hisobning asosiy vazifalarini aytib o‘ting?
5. Statik va dinamik hisobning farqli jihatlarini ayting?
6. Statik buxgalteriya balansi nazariyasini tushuntiring.
7. Dinamik balans nazariyasini tushuntiring.
8. Organik balans nazariyasini tushuntiring.

#### TEST TOPSHIRIQLARI

**1. Statik buxgalteriya balansining tenglamasi berilgan qatorni ko‘rsating?**
A) A = K + M
B) A + SZ = K + M + SF
C) A + X = K + M + D
D) A + X = K + M + D

**2. Dinamik balans tenglamasi berilgan javobni ko‘rsating?**
A) A = K + M
B) A + SZ = K + M + SF
C) A + X = K + M + D
D) A + X= K + M + D

**3. Statik-dinamik balans tenglamasi berilgan javobni aniqlang?**
A) A = K + M
B) A + SZ = K + M + SF
C) A + X = K + M + D
D) A + X= K + M + D

**4. Statik hisobda moliyaviy natija qanday aniqlanadi?**
A) Yil oxiridagi xususiy kapital va yil boshidagi xususiy kapital farqi sifatida aniqlanadi
B) Hisobot davrida olingan daromadlar va qilingan xarajatlar o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi
C) Hisobot davri oxiridagi aktivlar summasidan qarz majburiyatlarni chegirish orqali aniqlanadi
D) Mahsulot sotishdan olingan sof tushumdan sotilgan mahsulotlar tannarxini chegirish orqali aniqlanadi

**5. Dinamik hisobda moliyaviy natija qanday aniqlanadi?**
A) Yil oxiridagi xususiy kapital va yil boshidagi xususiy kapital farqi sifatida aniqlanadi
B) Hisobot davrida olingan daromadlar va qilingan xarajatlar o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi
C) Hisobot davri oxiridagi aktivlar summasidan qarz majburiyatlarni chegirish orqali aniqlanadi
D) Mahsulot sotishdan olingan sof tushumdan sotilgan mahsulotlar tannarxini chegirish orqali aniqlanadi

#### AMALIY MASHQLAR

**1. Statik buxgalteriya hisobi**

1. Siz oliy ta’lim muassassasining “Buxgalteriya hisobi va audit” yo‘nalishida ta’lim olayotganingiz uchun do‘stingiz quyidagi savollar bilan murojaat qilgan holda tushuntirish berishingizni so‘radi:
- statik buxgalteriya hisobi to‘g‘risida tushuncha bering;

- statik hisobning asosiy vazifalarini ayting;
- statik hisobda moliyaviy natija qanday aniqlanadi;
- statik buxgalteriya balansi nazariyasini tushuntiring.

**Talab qilinadi.** Oliy ta'lim muassasasida olgan bilimlaringizga tayangan holda do'stingizning yuqoridagi savollariga atroflicha javob bering.

2. "ARZANDA" xususiy korxonasida hisobot davri boshiga quyidagi xo'jalik mablag'lari va mablag'lar manbalari mavjud:

Asosiy vositalar – 60 400 000 so'm, Olingan bo'naklar – 5 000 000 so'm, Ustav kapitali – 34 775 000 so'm, Taqsimlanmagan foyda – 4 800 000 so'm, Materiallar – 8 200 000 so'm, Budjetga soliqlar bo'yicha qarzlar – 880 000 so'm, Davlatning maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz – 800 000 so'm, Xaridor va buyurtmachilarning qarzi – 8 000 000 so'm, Asosiy vositalarga hisoblangan eskirish – 34 200 000 so'm, Qisqa muddatli bank krediti – 50 000 000 so'm, Mehnat haqi bo'yicha qarz – 7 000 000 so'm, Hisob-kitob scho'ti – 67 355 000 so'm, Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilardan qarzdorlik – 6 500 000 so'm.

**Talab qilinadi.** Statik buxgalteriya balansi tenglamasini tuzing va tavsiflab bering.

3. "FAYZ" xususiy korxonasida hisobot davri boshiga quyidagi xo'jalik mablag'lari va mablag'lar manbalari mavjud:

Asosiy vositalar – 80 200 000 so'm, Ustav kapitali – 64 700 000 so'm, Taqsimlanmagan foyda – 8 200 000 so'm, Xaridor va buyurtmachilarning qarzi – 10 000 000 so'm, Asosiy vositalarga hisoblangan eskirish – 24 200 000 so'm, Olingan bo'naklar – 1 000 000 so'm, Materiallar – 7 200 000 so'm, Budjetga soliqlar bo'yicha qarzlar – 580 000 so'm, Davlatning maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz – 200 000 so'm, Qisqa muddatli bank krediti – 50 000 000 so'm, Mehnat haqi bo'yicha qarz – 10 000 000 so'm, Hisob-kitob scho'ti – 67 000 000 so'm, Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilardan qarzdorlik – 5 520 000 so'm.

**Talab qilinadi.** Statik buxgalteriya balansi tenglamasini tuzing va tavsiflab bering.

**2. Dinamik buxgalteriya hisobi**

1. Ustozingiz Sizga quyidagi savollar bilan murojaat qilgan holda ularga atroflicha javob berishingizni talab qildi:
- dinamik buxgalteriya hisobi to'g'risida tushuncha bering;
- dinamik hisobning asosiy vazifalarini ayting;
- dinamik hisobda moliyaviy natija qanday aniqlanadi;
- dinamik buxgalteriya balansi nazariyasini tushuntiring.

**Talab qilinadi.** Oliy ta'lim muassasasida olgan bilimlaringizga tayangan holda ustozingizning yuqorida bergan savollariga batafsil javob bering.

2. "ISTIQLOL NE'MATI" mas'uliyati cheklangan jamiyatning xo'jalik mablag'lari va mablag'lar manbalari to'g'risida ma'lumot:

Asosiy vositalar – 88 154 000 so'm, Ustav kapitali – 35 850 000 so'm, Xaridorlardan olinadigan scho'tlar -13 857 000 so'm, Materiallar – 20 665 000 so'm, Budjetga soliqlar bo'yicha qarzlar – 11 552 000 so'm, Boshqa debitorlik qarzlari – 2 356 000 so'm, Davlatning maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz – 3 767 000 so'm, Xo'jalik jihozlari va inventarlari – 1 000 000 so'm, Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilardan qarzdorlik – 1 500 000 so'm, Asosiy vositalarga hisoblangan eskirish – 39 669 000 so'm, Uzoq muddatli bank krediti – 100 000 000 so'm, Kassadagi pul mablag'lari – 1 000 so'm, Mehnat haqi bo'yicha qarz – 4 283 000 so'm, Hisob-kitob scho'ti – 79 334 000 so'm.

"ISTIQLOL NE'MATI" mas'uliyati cheklangan jamiyatining sof foydasi 8 746 000 so'mni tashkil etadi.

**Talab qilinadi.** Dinamik buxgalteriya balansi tenglamasini tuzing va tavsiflab bering.

3. “TANHO+” mas’uliyati cheklangan jamiyatning xo‘jalik mablag‘lari va mablag‘lar manbalari to‘g‘risida ma’lumot:

Asosiy vositalar – 88 154 000 so‘m, Ustav kapitali – 45 850 000 so‘m, Xaridorlardan olinadigan scho‘tlar -3 857 000 so‘m, Materiallar – 9 665 000 so‘m, Budjetga soliqlar bo‘yicha qarzlar – 8 552 000 so‘m, Boshqa kreditorlik qarzlari – 2 356 000 so‘m, Davlatning maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarz – 3 767 000 so‘m, Idishlar – 1 000 000 so‘m, Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilardan qarzdorlik – 3 500 000 so‘m, Asosiy vositalarga hisoblangan eskirish – 29 669 000 so‘m, Qisqa muddatli bank krediti – 60 000 000 so‘m, Kassadagi pul mablag‘lari – 1 000 so‘m, Mehnat haqi bo‘yicha qarz – 4 800 000 so‘m, Hisob-kitob scho‘ti – 74 563 000 so‘m.

“TANHO+” mas’uliyati cheklangan jamiyatining sof zarari 18 746 000 so‘mni tashkil etadi.

**Talab qilinadi.** Dinamik buxgalteriya balansi tenglamasini tuzing va tavsiflab bering.

## 18.2. Buxgalteriya hisobida modellashtirish (2 soat)

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Modellashtirish haqida umumiy tushuncha bering?
2. Hisob ishlarini modellashtirish deganda nimani tushunasiz?
3. Buxgalteriya hisobida modellashtirish bosqichlarini ayting?
4. Xalqaro hisob tizimining qanday modellari mavjud?
5. Xalqaro hisob tizimi modellaridan qaysi biri O‘zbekiston uchun qulay?

### TEST TOPSHIRIQLARI

**1. Xalqaro hisob tizimining qanday modellari mavjud?**
A) Anglo-Amerika, kontinental va Janubiy Amerika
B) Anglo-Amerika
C) Kontinental va Amerika
D) Anglo-Amerika va Rossiya

**2. Xalqaro hisob tizimi modellaridan qaysi biri O‘zbekiston uchun qulay?**
A) Anglo-Amerika
B) Kontinental
C) Janubiy Amerika
D) Kontinental va Janubiy Amerika

**3. Ijobiy moliyaviy natija berilgan moliyaviy natija modeli berilgan javobni ko‘rsating?**
A) A = K + M + (D-X)
B) A + (X-D) = K + M
C) A + X = K + M + D
D) A + X= K + M + D

**4. Salbiy moliyaviy natija berilgan moliyaviy natija modeli berilgan javobni ko‘rsating?**
A) A = K + M + (D-X)
B) A + (X-D) = K + M
C) A + X = K + M + D
D) A + X= K + M + D

## AMALIY MASHQLAR

**1. Xalqaro hisob tizimi modellari**



**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga xalqaro hisob tizimi modellarini yozing va ularni tavsiflab bering.

**2. Buxgalteriya hisobida modellashtirish bosqichlari**



**Talab qilinadi.** Yuqoridagi shaklga buxgalteriya hisobida modellashtirishning rivojlanish bosqichlarini yozing va tavsiflang.

**3. Moliyaviy natijaga asoslangan modellar**

1. “MASH’AL” xususiy korxonasining mablag‘lar manbalari bo‘yicha ma’lumotlar:

